



ISLOM KARIMOV

**BIZNING YO'LIMIZ —
DEMOKRATIK ISLOHOTLARNI
CHUQURLASHTIRISH
VA MODERNIZATSIYA
JARAYONLARINI
IZCHIL DAVOM ETTIRISH
YO'LIDIR**

20

Toshkent
«O'zbekiston»
2012

«SHARQ TARONALARI» SAKKIZINCHI XALQARO MUSIQA FESTIVALINING OCHILISHIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI TABRIK SO'ZI

Qadrli mehmonlar!

Muhtaram festival ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Avvalo, mana shu muhtasham maydonda o'tirgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalining qatnashchilarini, chet ellik hurmatli mehmonlarimizni va Samarqand jamoatchiligining vakillarini ko'rib turganimdan xursand ekanimni bildirib, barchangizga o'zimning yuksak hurmat va ehtiromimni izhor etaman.

Bugun qadimiy Samarqand shahrining yuragi bo'lmish muazzam va betakror Registon maydonida "Sharq taronalari" festivalining ochilish marosimida qatnashar ekanmiz, bu san'at anjumanining yildan-yilga obro'-e'tibori ortib, dunyodagi eng nufuzli musiqa festivallari qatoridan mustahkam va munosib o'rin topib borayotgani barchamizga katta mammuniyat va g'urur bag'ishlaydi.

Buning tasdig'ini 1997 yilda o'tkazilgan birinchi festivalda 31 ta mamlakat vakillari qatnashgan bo'lsa, bu yilgi anjumanga jahonning turli o'lkalaridan, ya'ni Osiyo, Afrika, Yevropa va Amerika qit'alarida, Sharq va o'arb mintaqalarida joylashgan 56 ta davlatdan iste'dodli san'at namoyandalari tashrif buyurgani misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu anjumanning dong'i va dovrug'i dunyo miqyosida tobora keng yoyilib, yangi-yangi mohir xonanda va sozandalarni o'z safiga tortayotganiga barchamiz guvoh bo'lmoqdamiz.

Ayni paytda festivalimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim va fan, madaniyat va san'at sohalari bo'yicha yetakchi tashkiloti bo'lmish YUNESKOning homiyligi va rahnamoligida o'tkazilayotgani bu anjumanga yanada yuksak maqom va nufuz bag'ishlamoqda.

Qadrli do'stlar, aziz birodarlar!

Bu festivalning jahondagi eng ko'hna shaharlardan biri bo'lmish, Sharq olamining o'lmas ruhini, uning qadimiy va hamisha navqiron qiyofasini o'zida mujassam etgan, har qadamda sharqona fayzu tarovat sezilib turadigan go'zal va afsonaviy Samarqand shahrida o'tkazilishi — bu fikrga hammangiz qo'shilasiz, deb o'ylayman — unga chuqur ma'no-

mazmun va shukuh baxsh etmoqda.

Bugungi san'at bayramiga dunyoning uzoq va yaqin davlatlaridan kelgan siz azizlarni qutlar ekanmiz, sizlarning timsolingizda biz, avvalambor, turli xalqlar mumtoz musiqa sinining yorqin vakillarini, san'at ustalari va ustozlarini ko'ramiz.

Sizlar o'zingizning noyob san'atingiz, inson qalbiga yetib boradigan kuy-ko'shiqlaringiz va ijro mahoratingiz bilan million-million musiqa muxlislariga zavq bag'ishlab, festival xazinasini yanada boyitishga munosib hissa qo'shasiz, deb ishonaman.

Shu o'rinda muhim bir fikrga alohida to'xtalib o'tishni zarur deb bilaman. Bugun biz yashayotgan notinch va o'ta murakkab davrda barchamiz bu festivalning ijobiy ta'siri, ahamiyati va mohiyatini uning elu elatlari o'rtasida hamkorlik rishtalarini mustahkamlash, hayotbaxsh musiqa san'ati orqali odamlar qalbida ezgu insoniy tuyg'ularni uyg'otish, mushtarak tomirlarni bir-biriga yaqinlashtirishdek oljanob maqsadlarga xizmat qilishida ko'ramiz.

Shu borada yana bir fikrni ta'kidlab o'tishni istardim. Yer yuzidagi xalqlarni, tili, millati, dini va urf-odatidan qat'i nazar, ularning barchasini birlashtiradigan, avvalambor, yosh avlodimizning ongi va qalbida chuqur aks sado beradigan g'oyat ta'sirchan bir vosita, qudratli bir kuch borki, u ham bo'lsa, musiqa, uning ohang va taronalari, mumtoz kuy va qo'shiqlar, desak, har tomonlama to'g'ri bo'ladi.

Shu ma'noda, bugun ochilayotgan "Sharq taronaları" festivalining ana shunday yuksak g'oyalarga xizmat qilishi barchamizga baland ruh bag'ishlab, kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shishi tabiiydir.

Aynan ana shunday oljanob maqsadlarni ro'yobga chiqarish va o'zining noyob mahoratini namoyon etish uchun dunyoning turli-turli mintaqalaridan azim Samarqandga kelgan siz aziz mehmonlarimizga, avvalo, barcha musiqa ixlosmandlari nomidan, qolaversa, butun xalqimiz nomidan samimiy minnatdorlik bildirishga ruxsat bergaysiz.

Muhtaram mehmonlar!

Men yaxshi tushunaman — shu kunlarda sizlarning bor e'tiboringiz, vaqtningiz, harakat va intilishlaringiz festivaldagagi jo'shqin ijodiy musobaqalarda yuqori o'rnlarga erishish, sovrin va mukofotlarni qo'lga kiritishga qaratilgan. Ana shunday yuksak g'alaba va yutuqlarni qo'lga kiritishda barchangizga zafar va omadlar yor bo'lishini tilayman.

Albatta, ushbu anjuman kunlarida yaratilgan imkoniyatlardan

foydalaniб, sizlar Samarqand shahrining bag‘rikeng, mehmondo‘st xalqi bilan yaqindan tanishasiz, uning noyob me’moriy yodgorliklari va tarixiy obidalari, afsonaviy Sharq timsoli bo‘lmish Samarqand bozorlarini ko‘rasiz va ishonamanki, o‘xshashi yo‘q bu go‘zal shaharga, O‘zbekiston zaminiga maftun bo‘lib qolasiz.

Hurmatli yurtdoshlar! Muhtaram mehmonlar!

Bu yilgi “Sharq taronalari” festivali bugungi kunda har tomonlama go‘zal va obod bo‘lib, “Yer yuzining sayqali” degan ta’rifga munosib bo‘lib borayotgan Samarqand zaminida Vatanimiz mustaqilligining ayni 20 yillik tarixiy sanasi nishonlanadigan, mamlakatimiz, xalqimiz uchun buyuk muborak ayyom, qutlug‘ kunlarda bo‘lib o‘tayotgani chuqur ramziy ma’noga ega. Chunki “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivaliga aynan mustaqillik yillarda asos solindi va bu festival istiqlolimiz bilan birga kamol topib bormoqda.

Men har safar ushbu festival munosabati bilan Samarqandga kelib, siz azizlar bilan yana bir bor ko‘rishiб, dildan suhbatlashish imkoniga ega bo‘lganimdan o‘zimni baxtiyor deb his qilaman.

Shu fursatdan foydalaniб, men uchun qadrdon bo‘lgan Samarqand ahliga doimo qalbimning to‘rida saqlanib kelayotgan samimiy mehrim va hurmatimni yana bir bor izhor etishdan xursandman.

Shu unutilmas daqiqalarda sizlar bilan birga dunyodagi mashhur iste’dod egalarining betakror san’atidan bahramand bo‘lib, bayram quvonchini baham ko‘rish nasib etganidan g‘oyat mammunman.

Bugungi tantanamizda ishtirok etayotgan YUNESKO tashkiloti, Xalqaro xalq ijodiyoti kengashi kabi nufuzli xalqaro tuzilmalarning vakillariga, xorijiy davlatlarning elchilar, anjumanimizning faxriy mehmoni bo‘lgan italiyalik mashhur xonanda Al Bano Karrizi janoblariga sizlarning nomingizdan katta hurmat va minnatdorlik bildirishga ruxsat etgaysiz.

Xush kelibsiz Samarqand zaminiga!

Xush kelibsiz O‘zbekistonimizga, aziz birodarlar!

Barchangizni bugungi bayram bilan yana bir bor tabriklab, siz azizlarimga sihat-salomatlik, yangi-yangi muvaffaqiyat va omadlar tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING 20 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI TABRIK SO'ZI

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

Hurmatli mehmonlar!

Bugun – barcha shahar va qishloqlarimizda, butun mamlakatimizda muborak ayyom, unutilmas tarixiy sana – O'zbekistonimiz mustaqillikka erishganining yigirma yillik buyuk bayrami.

Bundan yigirma yil muqaddam biz yurtimizda mustamlaka zulmi va qaramlik davriga barham berib, asrlar davomida xalqimiz intilib kelgan erkin va ozod hayot qurish yo'lida tarixiy taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yidik.

Biz uchun eng buyuk va eng aziz bo'lgan ana shu qutlug' bayram bilan siz azizlarni, sizlar orqali butun xalqimizni chin qalbimdan tabriklab, yuksak hurmat va ehtiromimni bildirishdan cheksiz baxtiyorman.

O'zining necha ming yillik ko'hna tarixida ne-ne voqealarni boshidan kechirgan xalqimiz uchun O'zbekiston mustaqilligi, hayotimizni, ongu shuurimizni tubdan o'zgartirgan bu ulug' sana ko'p yillar, zamonlar o'tsada, o'z ahamiyati, qadr-qimmati va mohiyatini yo'qotmaydigan, tom ma'noda olamshumul voqeа bo'lib abadiy saqlanib qolajak.

Muhtaram do'stlar!

Biz o'tgan davr mobaynida mustaqillikka erishish, erkin nafas olib, o'z taqdiri va kelajagini o'z qo'li bilan qurish jahondagi bironqa xalq, bironqa mamlakat uchun hech qachon, hech qayerda oson bo'limgan, degan achchiq haqiqatni o'z hayotimizdan o'tkazdik, o'z misolimizda chuqur angladik.

Darhaqiqat, bugun vaqt o'tishi bilan yurtimizda o'zini oqlamagan, eski mustabid tuzum asoratlari va zanjirlaridan ozod bo'lish naqadar og'ir kechganini, istiqlol arafasida respublikamizdagи vaziyat tobora keskinlashib, tahlikali va o'ta xavfli tus olganini yana va yana bir bor o'zimizga tasavvur qilishimiz o'rinni bo'ladi.

Biryoqlama rivojlangan, faqat xomashyo yetkazib berishga, mutlaq paxta yakkahokimligiga asoslangan iqtisodiyotimiz g'oyat nochor ahvolga tushib qolgani, qashshoqlik va bedodlikka duchor bo'lgan aholimizning sabr-kosasi to'lib, o'lkamiz jar yoqasiga, portlab ketish holatiga yetib

borganini, odamlarimizning ta'minoti, jamiyatda sog'lom muhitni qaror toptirish muammolari naqadar o'tkir bo'lib turganini eslaydigan bo'lsak, ayni shu yillardagi mavjud vaziyat butun murakkabligi bilan ayon bo'ladi.

Bugun bir haqiqatni sira ikkilanmasdan, baland ovoz bilan aytish uchun barcha asoslarimiz bor: istiqlol yo'lida qanday suronli kunlarni, qiyinchilik va to'siqlarni yengishga to'g'ri kelmasin, yurtimizga nisbatan qanday xuruj, zug'um va po'pisalar bo'lmasin, biz eng og'ir va mashaqqatli damlarda ham mustaqillik g'oyasiga sodiq qolib, O'zbekiston manfaatini hamma narsadan ustun qo'yib, o'z tanlagan yo'limizdan qaytmadik va bu yo'lidan hech qachon qaytmaymiz.

Biz yurtimizda yangi hayot barpo etishning birinchi kunlaridan boshlab haqiqiy erkinlik va istiqlolga erishish – bu faqat mustaqillikni qo'lga kiritish emas, balki uni ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan qurish va mustahkamlash, xalqaro hamjamiyatda o'zimizga munosib o'rin egallash va hurmat qozonishdan iborat ekanini teran anglab oldik.

Ana shunday ezgu maqsadlarga erishish yo'li esa barchamizga yaxshi ma'lum: bu – o'zimizning yer osti va yer usti boyliklarimizdan, ishlab chiqarish va intellektual salohiyatimiz, kuch-qudratimizdan foydalanib, ko'pni ko'rgan, mehnatkash xalqimizning aql-zakovati, g'ayrat-shioatiga va xalqaro hamjamiyat hamkorligiga tayanib, dunyodagi zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish yo'lidir.

Aholimizning hayot sifati va darajasini yangi, yuksak bosqichga ko'tarish, shu maqsadda mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarini demokratik yangilash, liberallashtirish va modernizatsiya qilish, ushbu jarayonlarning sur'atini imkon darajasida tezlashtirish – biz uchun eng maqbul yo'ldir.

Ayni shu yo'l yigirma yillik yangi tariximiz davomida har tomonlama o'zini oqlab, isbotlab bergen, jahonda "O'zbek modeli" deb nom olgan eng to'g'ri yo'l, desam, mana shu muhtasham maydonda o'tirgan siz azizlarning, keng jamoatchiligidiz, butun xalqimizning fikrini ifoda etgan bo'laman.

O'tgan davr mobaynida biz erishgan yuksak marralar haqida uzoq gapirish, ko'plab raqamlarni olib kelish mumkin. Shular qatorida O'zbekiston iqtisodiyoti yigirma yil mobaynida qariyb 3,4 barobar, o'rtacha ish haqi 14 barobar o'sgani, aholining yalpi daromadi taxminan 9 marta oshgani bizning mustaqillik yillarida qanday ulkan marralarni qo'lga kiritganimizni namoyon etmoqda.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hali-beri davom etayotganiga qaramasdan, O‘zbekistonimizning yalpi ichki mahsulotining o‘sish sur’atlari oxirgi besh yil davomida dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida o‘rtacha 8,5 foizni tashkil etgani va bu yil ham undan kam bo‘lmasligi kutilayotgani iqtisodiyotimizning izchil va barqaror rivojlanib, taraqqiy topayotganining yaqqol dalilidir.

Istiqlol yillarda ijtimoiy soha uchun davlat xarajatlari 5 barobardan ziyod ko‘paygani, uning 60 foizdan ko‘prog‘i sog‘liqni saqlash, ta’lim, kommunal xo‘jalik, aholini ijtimoiy muhofaza qilish va boshqa sohalarga yo‘naltirilgani ham dunyo miqyosida kamdan-kam uchraydigan ko‘rsatkich bo‘lib, bizning bosh maqsadimiz avvalambor inson hayotini, uning manfaatlarini ta’minlash va himoya qilishga qaratilganini har tomonlama isbotlab beradi.

Aynan shu asosda yigirma yil davomida yurtimizda bir yoshgacha bo‘lgan go‘daklar va onalar o‘limi 3 barobardan ko‘proq kamaygani, odamlarimizning o‘rtacha umr ko‘rish darajasi 7 yilga uzayib, erkaklar o‘rtasida 73 yoshga, ayollar o‘rtasida esa 75 yoshga yetgani, bugungi kunda aholimiz soni 28,5 million kishini tashkil qilayotgani, hech shubhasiz, buni yana bir bor tasdiqlab beradi.

Aziz do‘sstarim, birodarlarim!

Biz qo‘lga kiritgan bu yuksak marralarning ildizi, zamini nimada, degan savolga har birimiz hech ikkilansmasdan, bularni barchasining zamirida avvalo mustaqillik deb atalgan bebafo ne‘mat, xalqimizning fidokorona mehnati, uning tobora yuksalib borayotgan ongu tafakkuri, ertangi kunga bo‘lgan ishonchi, ezgu orzu-intilishlari mujassam, deb katta g‘urur va iftixon bilan aytishimiz tabiiydir.

Bugun mana shu saxovatli zaminda “O‘zbekiston – yagona uyimiz” deb yashayotgan, qaysi kasb egasi, qaysi millat va elat vakili bo‘lmasin, barcha yurtdoshlarimiz Vatanimiz qo‘lga kiritgan yutuqlar, erishgan marralarda mening ham munosib mehnatim, munosib hissam bor, deb boshini baland ko‘tarib, mag‘rurlanib gapirishga to‘la haqlidir, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Mana shu yuksak minbardan turib, bizga doimo xayrixoh bo‘lib, qo‘llab-quvvatlab, yordam va ko‘mak berib kelayotgan do‘sru birodarlarimizga, yurtimiz bilan samarali hamkorlik qilayotgan mamlakatlar va xalqlarga minnatdorlik bildirib, qizg‘in salomlarimizni yo‘llashga, ularga baxt va ravnaq tilashga ruxsat bergaysiz.

Fursatdan foydalanib, shu muazzam maydonda jam bo‘lgan xorijiy davlatlarning elchilari va xalqaro tashkilotlarning vakillariga, barcha aziz mehmonlarimizga, bizning bugungi bayramimiz – sizlarning ham bayramingizdir, deb, ularni chin yurakdan qutlab, samimiyl hurmat va ehtiromimizni izhor etsak, ayni muddao bo‘ladi.

Qadrli yurtdoshlar!

Istiqlol bizga bergen bebahoh boylik va imkoniyatlar, erishgan natijalarimiz haqida ko‘p so‘z yuritish mumkin. Ayni vaqtida mustaqillik tarixiga aslo o‘chmaydigan, yorqin sahifa bo‘lib yoziladigan ulkan marralarimiz qatorida shunday buyuk bir yutug‘imiz borki, uning ahamiyatini hech narsa bilan o‘lchab, baholab bo‘lmaydi.

Men buni zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan, hayotimizda tobora hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan sog‘lom va barkamol avlodimiz timsolida ko‘raman.

Bugun mana shu keng maydonni to‘ldirib, o‘zining navqiron azmu shijoatini namoyon etib o‘tirgan, mening farzandlarim bo‘lgan siz o‘g‘il-qizlarimga, sizlar orqali butun yurtimiz yoshlariiga qarata aytmoqchiman:

Aziz bolalarim, Ollohning nazari tushgan, O‘zbekiston deb atalmish go‘zal va betakror o‘lkada tug‘ilish, uning bag‘rida kamol topish har kimga ham nasib etmaydi. Ana shu haqiqat har biringizning qalbingizdan, yuragingizdan chuqur joy olishini istardim. Vatan sevgisi, Vatanga sadoqat tuyg‘usi sizlarga umrbod yor bo‘lsin.

Ne-ne og‘ir sinovlar, to‘fon va suronlarni boshdan kechirib, qancha-qancha qurbanlar berib, ona yurtimizni omon saqlagan, bizga bezavol yetkazgan ajdodlarimiz, ota-bobolarimizning bu yo‘lda qanday katta mehnatlari singganini hech qachon unutmaslik, ularning xotirasi va hurmatini joyiga qo‘yish biz uchun ham qarz, ham farzdir.

Mana shunday hissiyotlarni qalbdan o‘tkazib, barchamiz uchun yakkayu yagona bo‘lgan Vatanimizni yanada gullatib-yashnatish, uning yorug‘ va farovon kelajagi uchun butun borlig‘imizni bag‘ishlab, kerak bo‘lsa, jonimizni fido etishga ham tayyor bo‘lish – har birimizning muqaddas burchimizdir, desam, o‘ylaymanki, siz aziz farzandlarimning dildida bo‘lgan oljanob tuyg‘ularni ifoda etgan bo‘laman.

Aziz do‘sstarim, qadrli vatandoshlarim!

Bugungi ulug‘ ayyomning muborak Ramazon hayiti bilan aynan bir paytga to‘g‘ri kelgani ham Yaratganimizning el-yurtimizga ko‘rsatgan yana bir inoyati va marhamati, desam, o‘ylaymanki, sizlar ham bu fikrga

qo‘shilasiz.

Barchangizni bag‘rimga bosib, Mustaqillik bayrami bilan, Ramazon hayiti bilan chin qalbimdan muborakbod etib, hammangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonadonlariningizga fayzu baraka tilayman.

Buyuk va muqaddas Vatanimiz mangu bor bo‘lsin!

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, xalqimiz omon bo‘lsin!

Mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin!

O'ZBEKISTON O'QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA

Muhtaram muallim va murabbiylar!

Qadrli ustozlar!

Avvalambor, siz, azizlarni O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin qalbimdan samimiy tabriklab, barchangizga o'zimning ezgu tilaklarimni bildirishdan baxtiyorman.

Biz uchun g'oyat qadrli bo'lgan ushbu ayyomning Vatanimiz mustaqilligining yigirma yillik bayrami shukuhi davom etayotgan shu qutlug' kunlarda nishonlanayotgani unga alohida ko'tarinki ruh va tarovat bag'ishlamoqda, desam, o'ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo'shilasiz.

Mana, 15 yildirki, mamlakatimizda 1 oktabr sanasi – O'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanmoqda.

Yurtimizda dunyoda kamdan-kam uchraydigan ana shunday bayramning ta'sis etilishi, hech shubhasiz, birinchi navbatda ma'naviy yuksalishning asosiy garovi va mezoni bo'lgan ziyolilarimizga, ularning eng katta va faol qismini tashkil etadigan ming-minglab jonkuyar o'qituvchi va muallimlar, ustozi va domlalarning O'zbekistonimizning bugungi taraqqiyotiga qo'shayotgan ulkan hissasini e'tirof etib, ularga nisbatan chuqrur hurmat va ehtiromimizning amaliy ifodasi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Men joylarda jamoatchilik vakillari, faollarimiz bilan suhbat va muloqtlarda bo'lganimda, "Dunyo imoratlarining eng ulug'i məktəb bo'lsa, kasblarning eng ulug'i o'qituvchilikdir" degan teran ma'noli ibora xalqimiz o'rtaida keng tarqalib borayotganiga guvoh bo'laman. Eng muhimmi, hayotimiz haqiqatiga aylangan bu so'zlar yurtimizda ma'rifat ahlining sharaflı mehnati tobora qadr va e'tibor topayotganini aks ettirishi bilan ko'pchilik qatori menga ham mammuniyat bag'ishlaydi.

Shu ma'noda, mamlakatimizning salohiyati va qudratini oshirish yo'lidagi samarali faoliyati uchun Vatanimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlangan barcha soha va tarmoqlar vakillari orasida bugungi kunimiz va kelajagimizni hal qiladigan ta'lim-tarbiya sohasini zamon talablari darajasiga ko'taradigan, o'z mustaqil fikri, o'z dunyoqarashiga ega, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazadigan fidoyi zotlar – o'qituvchi va murabbiylar aksariyat ko'pchilikni tashkil etishini shaxsan men tabiiy bir hol, deb bilaman.

Ma'lumki, O'zbekistonimizda amalga oshirilayotgan, dunyo tajribasida o'xhashi kam bo'lgan milliy ta'lim modeli hozirgi kunda qanday yuksak natijalar berayotganini, ijobiy ma'nodagi "portlash effekti"ga olib kelayotganini nafaqat yurtimiz ahli, balki jahon jamoatchiligi ham haqli ravishda e'tirof etmoqda.

Mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga binoan 12 yillik uzuksiz ta'limga asos solingani, uning poydevori bo'lmish umumta'lim maktablari, o'g'il-qizlarimizga zamonaviy bilim va kasb-hunar o'rgatib, hayotga yo'llanma beradigan kollejlar, akademik litseylarni o'zida mujassam etgan yangi tizimni to'liq joriy etganimiz o'zining amaliy samarasini bilan yurtimiz ravnaqiga beqiyos hissa qo'shamoqda. Bu, o'z navbatida, biz tanlagan ta'lim va tarbiya modelining naqadar to'g'ri va hayotiy ekanini yaqqol tasdiqlab bermoqda.

Shu borada Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliyl dasturi doirasida 8832 ta mакtabda qurilish-ta'mirlash, rekonstruksiya va jihozlash ishlari amalga oshirilgani, 1537 ta akademik litsey va kasb-hunar kolleji barpo etilgani, istiqlol yillarda ilm-fan sirlari va zamonaviy texnologiyalarni puxta o'zlashtirgan, yuksak malakali kadrlarni tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari soni salkam ikki barobar ko'payib, 65 taga yetgani bizning bu sohada o'zgalar havas qiladigan ulkan marralarga erishganimizdan dalolat beradi.

Ta'lim sohasidagi islohotlarimizning ajralmas qismi bo'lib hayotimizdan chuqur joy olgan dastur va rejalarimiz qatorida yurtimizda musiqa va san'at mакtablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, bolalar sportini rivojlantirishga qaratilgan ishlarimiz bugungi kunda o'zining dastlabki hosili va samarasini berayotgani barchamizni albatta xursand qiladi.

Buning tasdig'ini keyingi o'n yil mobaynida o'quvchilarimiz mustaqil O'zbekiston vakillari sifatida xalqaro fan olimpiadalarida munosib ishtirok etib, 150 dan ziyod oltin, kumush va bronza medallarni qo'lga kiritgani, nufuzli san'at festivallari va tanlovlardida 670 dan ortiq sovrinli o'rnlarni egallagani, xalqaro sport musobaqalarida esa 1280 ta oltin, 1170 ta kumush va 1590 ta bronza medal sohibi bo'lgani misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Barchamizga yaxshi ayonki, hozirgi kunda ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet tizimisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu maqsadda Multimediali umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi tashkil etilib, multimedia vositalari,

o‘quv adabiyotlari va qo‘llanmalarining elektron variantlarini yaratish ishlari yo‘lga qo‘yilgani, barcha maktablarimiz “ZiyoNET” tarmog‘iga ulangani o‘quv-tarbiya jarayonlarini bugungi taraqqiyot, milliy va umumbashariy tafakkur yutuqlari bilan uzviy bog‘liq holda tashkil etish, ularning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mana shunday yangi, zamonaviy ta’lim tizimini yaratish uchun davlatimiz tomonidan juda katta mablag‘ va kuch-imkoniyatlar sarflanayotgani, ularning hajmi va miqdori yildan-yilga oshib borayotgani barchamizga baland ruh bag‘ishlab, ertangi kunga bo‘lgan ishonchimizni yanada mustahkamlaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari, umumta’lim, musiqa va san’at maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlash va jihozlash hamda bolalar sporti inshootlarini yangi jihoz va anjomlar bilan ta’minlash dasturining 2012 yilga mo‘ljallangan asosiy ko‘rsatkichlarini tasdiqlash to‘g‘risida yaqinda qabul qilingan qarorga binoan kelgusi yilda ayni shu maqsadlar uchun 527 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ sarflash ko‘zdautilayotgani amalga oshiradigan ishlarimizning ko‘lami va miqyosini aniq ko‘rsatib turibdi.

Shu bilan birga, mamlakatimizdagi oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy asosda jihozlash, kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish, o‘qituvchi va domlalar mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha qabul qilingan dasturga muvofiq yaqin kelgusida bu borada 300 milliard so‘m miqdoridagi mablag‘ni yo‘naltirish rejalshtirilgan. Hech shubhasiz, bularning barchasi O‘zbekiston ta’lim tizimini yangi, yuksak bosqichga ko‘tarish yo‘lidagi yana bir ulkan qadam bo‘lishi muqarrar, albatta.

Aziz yurtdoshlar!

Mamlakatimiz oldida turgan, butun xalqimiz qalbi, ongu shuuri bilan anglab yetayotgan maqsad-vazifalar – dunyodagi taraqqiy topgan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun erkin va farovon hayot qurish yo‘lida hammamiz bir haqiqatni chuqr tushunib olishimizni istardim: zamonaviy qiyofaga ega bo‘lgan obod qishloq va shaharlarni barpo etish mumkin, iqtisodiyot lokomotivlari bo‘lgan yirik korxonalarini qurish, xorijdan yuksak va noyob texnologiyalarni olib kelish mumkin. Lekin avvalo bularning barchasini bunyod etadigan, ularga bamisol jon kiritadigan hayotbaxsh kuch – bu o‘z bilimi va iste’dodiga, kuch-qudratiga suyangan, hech kimdan kam bo‘limgan, bugun hayotga dadil kirib

borayotgan yangi, navqiron avlodimiz, bizning farzandlarimiz, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Ana shunday avlodni tarbiyalashdek hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan buyuk vazifani o‘z zimmasiga olgan, bu yo‘lda o‘zini ayamasdan mehnat qilayotgan siz, fidoyi o‘qituvchi va murabbiylarga har qancha tasanno aytsak, ta’zim qilsak, arziydi, albatta.

Hech kimga sir emaski, insonning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy dunyosini izdan chiqarishga qaratilgan turli xavf-xatarlar tobora kuchayib borayotgan bugungi o‘ta notinch zamonda o‘zining kimligini, qanday buyuk zotlarning avlodi, qanday beba ho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, iymon-e’tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta’sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo‘ladi.

Siz, hurmatli o‘qituvchi va murabbiylarimiz farzandlarimizga zamonaviy ilm-fan va kasb-hunar asoslari bilan birga, aynan ana shunday yuksak tuyg‘u va fazilatlarni singdirish, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimizni asrab-avaylashda bundan buyon ham bor kuchg‘ayratingiz, bilim va mahoratingizni ayamaysiz, deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, takror bo‘lsa-da, bir fikrni alohida ta’kidlab aytishni o‘rinli deb hisoblayman: yosh qalblarni ma’rifat va ezbilik yog‘dusi bilan munavvar etadigan, ularni hayotga yo‘llaydigan siz, muhtaram o‘qituvchi va murabbiylar oldida barchamiz bir umr qarzdorlik tuyg‘usi bilan yashaymiz. Men davlat rahbari sifatida, bugungi kunda erishayotgan barcha-barcha yutuq va marralarimizda sizlarning munosib hissangiz borligini, mustaqilligimizni mustahkamlash, Vatanimiz shuhratini dunyoga tarannum etishda fidokorona mehnatingiz poydevor bo‘lib xizmat qilayotganini chuqur his etadigan inson sifatida sizlarni o‘zimning eng yaqin ko‘makchim, maslakdoshim deb bilaman va yuksak qadrlayman.

Sizlarni qutlug‘ bayramingiz bilan yana bir bor tabriklar ekanman, barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonadonlaringizga fayzu baraka tilayman.

Hech qachon kam bo‘lmang, doimo omon bo‘ling, aziz ustozlar!

ONA VA BOLA SALOMATLIGI — OLIY SAODAT

“O’zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: “Sog‘lom ona – sog‘lom bola” mavzuidagi xalqaro simpozium ochilishidagi nutq

Muhtarama Bosh direktor xonim,

Hurmatli simpozium ishtirokchilari, xonimlar va janoblar!

Siz aziz mehmonlarimizni Jahan sog‘lijni saqlash tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkilotining YUNISEF, Taraqqiyot dasturi va Aholishunoslik jamg‘armasi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari, dunyoning ko‘plab mamlakatlari sog‘lijni saqlash sohasi rahbarlari, bugungi simpoziumning barcha ishtirokchilarini qutlash va o‘zimning chuqur ehtiromimni izhor etish menga katta mammuniyat bag‘ishlaydi.

Yaqinda barpo etilgan, milliy va zamonaviy arxitektura hamda shaharsozlikning eng yaxshi namunalarini o‘zida mujassam etgan, bugun xalqaro anjuman o‘tayotgan ushbu noyob kompleks ikki qismdan – Milliy kutubxona va Simpoziumlar saroyidan iborat. Mazkur muhtasham saroyda qabul qilgan ilk mehmonlarimiz siz, eng insonparvar va olajanob soha – onalik va bolalikni muhofaza qilishga bag‘ishlangan ushbu xalqaro forum ishtirokchilari ekaningizning o‘zi ko‘p jihatdan ramziy va tarixiy ahamiyatga egadir.

Fursatdan foydalanib, Sizga, hurmatli Margaret Chen xonim, barcha mehmonlarimizga ushbu Forumda ishtirok etish taklifimizni qabul qilganingiz uchun samimiy minnatdorlik bildiraman.

Sizlar, taniqli xorijlik olimlar va tibbiyot olamining obro‘li mutaxassislari ishtirokingizda O’zbekistonda aholi salomatligini himoya qilish, sog‘lom, barkamol yosh avlodni tarbiyalash bo‘yicha amalga oshirilayotgan umummilliyl dasturning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllangan onalik va bolalikni muhofaza qilish modelining muhokama etilishi biz uchun katta sharafdir.

Umume’tirof etilgan shior – «Sog‘lom ona – sog‘lom bola» tamoyili mohiyatiga ko‘ra, aholini jipslashtiruvchi va safarbar etuvchi murojaat bo‘lib, davlat hamda jamiyat darajasiga ko‘tarilgan ustuvor vazifaga aylandi.

Albatta, odamlar salomatligini muhofaza qilishning butun tizimini

chuqur isloh etish va modernizatsiya qilish asosidagina oldimizga qo‘ygan maqsadga erishish mumkinligini teran anglab yetganmiz.

Mustaqil rivojlanish yillarida mamlakatimiz sog‘liqni saqlash tizimini barpo etishni davom ettirish va yangilash imkonini berayotgan mustahkam poydevor yaratildi, deyish uchun bugun barcha asoslarimiz bor.

Birinchidan, eng yuqori talablar va xalqaro standartlarga javob beradigan ixtisoslashtirilgan viloyat shifoxonalari va ularning shahar hamda tumanlardagi bo‘limlari, tez tibbiy yordam xizmatlaridan iborat aholiga bepul, yuqori malakali shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha mutlaqo yangi va noyob yagona tizim shakllantirildi. Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi ularga rahbarlik va faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshirmoqda.

Ikkinchidan, mamlakatimizda tashkil etilgan 3200dan ziyod qishloq vrachlik punktlari odamlar salomatligini muhofaza qilish tizimini isloh etish va uning quyi bo‘g‘inini kuchaytirishda g‘oyat muhim rol o‘ynamoqda. Shunga e’tiboringizni qaratishni istardimki, bu yerda gap boshqa mamlakatlarda mavjud bo‘lgan feldsherlik-akusherlik punktlari haqida emas, balki zamonaviy tibbiyot texnikasi bilan jihozlangan va umumiy amaliyot shifokorlari birinchi tibbiy yordam ko‘rsatayotgan punktlar haqida bormoqda.

Uchinchidan, tuman va viloyat darajasidagi sog‘liqni saqlash muassasalari tarmog‘i optimallashtirildi, zamonaviy asbob-uskunalar bilan yaxshi jihozlangan va kadrlar bilan ta‘minlangan ixcham tuman tibbiyot birlashmalari, viloyat ko‘p tarmoqli shifoxonalari hamda poliklinikalari tashkil etildi.

To‘rtinchidan, bugungi kunda mamlakatimizda e’tirof etilgan ilmiy maktablar negizida 10 respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiy markazlar – kardiologiya va kardiojarrohlik, akusherlik va ginekologiya, urologiya, oftalmologiya, pulmanologiya va ftiziatriya, endokrinologiya kabi yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularda yuqori malakali, yuksak darajadagi kasb tayyorgarligiga ega kadrlar zamonaviy asbob-uskunalar yordamida yuqori texnologik tibbiy xizmatlar ko‘rsatmoqda.

O‘tgan yillar mobaynida bizning sa‘y-harakatlarimiz, avvalo, uzoq muddatli samara – millat genofondini saqlash va yaxshilash, aholining umr ko‘rish davomiyligini va turmush darajasini oshirish maqsadida sog‘lom avlodni dunyoga keltirish hamda tarbiyalash uchun shart-sharoit yaratishga qaratildi. Tabiiyki, buning uchun ulkan vazifalarni, jumladan, odamlar

psixologiyasi va ongini o‘zgartirishga doir ishlarni amalga oshirishga to‘g‘ri keldi.

Xususan, sog‘lom oilani shakllantirish va irsiy kasalliklarga chalinish mumkin bo‘lgan holatlarni kamaytirish maqsadida mamlakatimizda turmush qurayotgan shaxslarni nikohdan oldin majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tizimi joriy etildi.

Ushbu masalaga kengroq qaraydigan bo‘lsak, shuni alohida ta’kidlashni istardimki, jamiyatda, ayniqsa yoshlar o‘rtasida ma’naviy muhit va odob-axloq, oilani mustahkamlash, oila rishtalari barqarorligini ta’minalashga mamlakatimizda har doim katta e’tibor qaratilgan va bugungi kunda ham bu an’ana yuksak qadrlanadi. O‘ylaymanki, sog‘lom oila, oiladagi sog‘lom muhit sog‘lom bola tug‘ilishida ulkan ahamiyatga ega ekanini isbotlab o‘tirishga hojat yo‘q.

Bugun O‘zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida ona va bola perinatal hamda skrining markazlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Qishloq joylardagi barcha homilador ayollar davlat budgeti mablag‘lari hisobidan sog‘lom naslni shakllantirish uchun zarur polivitaminlar bilan ta’milanmoqda.

Maxsus davlat dasturi doirasida zamonaviy ona va bola skrining markazlari tarmog‘ining tashkil etilganiga alohida e’tibor qaratishingizni istardim. Ular ishga tushgan 2000 yildan buyon mamlakatimizda irsiy va tug‘ma nuqsonli bolalar tug‘ilishi 1,7 barobardan ziyod kamaydi.

Mamlakatimizda ikki yoshgacha bo‘lgan barcha bolalar bepul emlanmoqda, bu, o‘z navbatida difteriya, qoqshol, poliomiyelit kabi kasalliklarga butunlay barham berish imkoniyatini yaratdi. 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarning deyarli 100 foizi yiliga ikki marta, tug‘ish yoshidagi ayollar esa har yili chuqur tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilmoqda.

Mamlakatimizda kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida o‘tgan 20 yil davomida onalar va go‘daklar o‘limi uch barobardan ko‘proq kamaydi. O‘zbekiston joriy yilda “Bolalarni asraylik” xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan 161 mamlakatdan iborat jahon reytingida o‘sib kelayotgan yosh avlod salomatligi haqida eng ko‘p g‘amxo‘rlik ko‘rsatilayotgan davlatlar orasida 9 o‘rinni egalladi.

Yuqori malakali tibbiyot kadrlarini tayyorlash masalasi sog‘lijni saqlash sohasini isloh etishda muhim ahamiyatga ega.

Ayni paytda Toshkent tibbiyot akademiyasi qatorida Samarqand, Andijon, Buxoro, Urganch va Nukus kabi shaharlarda tibbiyot oliy o‘quv

yurtlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Oliy ma’lumotli tibbiyot hamshiralarini tayyorlashni tashkil etish mutlaqo yangi tizim hisoblanadi.

Mamlakatimiz tibbiyot institutlari “Sharite” (Germaniya), Garvard (AQSH), Manchester (Buyuk Britaniya), Vena (Avstriya) universitetlari klinikalari kabi yetakchi xorijiy tibbiyot muassasalari, Rossiya va Ukrainianing mashhur markazlari, Yaponiya, Janubiy Koreya hamda boshqa davlatlardagi yirik gospitallar bilan yaqin hamkorlikda ishlayotganini alohida ta’kidlamoqchiman.

Mana shu yuksak minbardan ushbu zalda yig‘ilgan Forum qatnashchilari nomidan ularga samimiy minnatdorlik izhor etish menga katta mammuniyat bag‘ishlaydi.

Mamlakatimizda odamlar salomatligini muhofaza qilishga qaratilayotgan ulkan e’tibor, avvalambor, bu sohani rivojlantirishga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar va mablag‘larda o‘zining aniq isbotini topmoqda.

Mamlakatimiz davlat budgetida sog‘liqni saqlash sohasiga sarflanayotgan xarajatlar ulishi 15,7 foizni, yalpi mahsulotga nisbatan esa 4,1 foizni tashkil etadi.

Sog‘liqni saqlash tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, uni zamonaviy asbob-uskunalar va tibbiy texnika bilan qayta jihozlashga o‘tgan davrda 700 million dollardan ziyod imtiyozli kreditlar, donorlarning grant mablag‘lari jalg‘ etildi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotganiga qaramay, keyingi uch yilda sog‘liqni saqlash sohasini moliyalash hajmi 2,5 barobar ko‘paydi.

Bepul va pulli tibbiyot masalalariga qisqacha to‘xtalib o‘tmoxchiman.

O‘zbekistonda aholi uchun barcha birinchi tibbiy yordam bepul hisoblanadi. Shoshilinch tibbiy va pediatriya yordami, tug‘ruq va homilador ayollarga tibbiy yordam, shuningdek, onkologik, yuqumli hamda boshqa qator ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklarni davolash xizmatlari ham shu asosda amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy va sifatli tibbiy yordam qimmatbaho, buning ustiga muntazam yangilashni talab qiladigan asbob-uskunalarga, shuningdek, qimmat dori vositalari hamda preparatlarga asoslanishini biz juda yaxshi tushunamiz. Bu bepul va pullik davolashni oqilonan uyg‘unlashtirgan holda olib borishni taqozo etadi.

Biz tanlagan sog‘liqni saqlash modeli qanchalik to‘g‘ri va samaradorligini hayotning o‘zi tasdiqlab turibdi, deb aytishga bugun barcha asoslarimiz bor. Birgina misol. 1991 yildan buyon o‘tgan davrda odamlarning o‘rtacha umr ko‘rishini 67 yoshdan 73 yoshga, ayollarning umr ko‘rishini esa 75 yoshga uzaytirishga erishdik.

Tajribamiz sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar doimiy va uzlusiz jarayon ekanidan dalolat beradi. Tibbiyot ham ilm-fan, ham amaliyat sifatida muntazam takomillashib bormoqda va bu bizning milliy sog‘liqni saqlash modelimizda o‘z ifodasini topgan.

Shu kunlarda islohotlarning yangi bosqichi vazifalarini amalga oshirishga kirishdik. Bu borada sog‘liqni saqlash muassasalari tarmog‘ini optimallashtirishni nihoyasiga yetkazish va ularni eng zamonaviy apparatura bilan bosqichma-bosqich qayta jihozlash zarur. Ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarining moddiy-texnik, ilmiy va amaliy bazasi yanada yaxshilanadi, ular aksiyadorlashtiriladi, markazlarning tibbiyot xodimlarini rag‘batlantirish, yakuniy natijalar uchun ularning mas’uliyatini oshirish mexanizmlari joriy etiladi.

Bu maqsadlar uchun turli manbalar hisobidan yaqin yillarda 1,5 milliard AQSH dollariga teng mablag‘lar yo‘naltiriladi va ushbu masalaga biz nafaqat aholi farovonligi va salomatligini mustahkamlashning muhim omili, balki iqtisodiyotimizni yuksaltirish va jamiyatimiz barqaror taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida qaramoqdamiz.

Hurmatl simpozium ishtirokchilari!

Bugungi xalqaro forum natijalari pirovardida Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qilishiga ishonaman. Zero, har bir odam uchun uzoq va sog‘lom umr ko‘rish baxt-saodatning asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi.

So‘zimning yakunida shuni ta’kidlamoqchimanki, sog‘liqni saqlash sohasida erishgan va biz haqli ravishda faxrlanadigan barcha yutuqlarimiz asosida, avvalo, ming-minglab tibbiyot xodimlari – shifokorlar, hamshiralar, olimlar va mutaxassislar, o‘zining tinimsiz va fidokorona mehnati bilan insonga shifo berish, uning dardiga malham bo‘lishni muqaddas burch deb biladigan barcha olijanob kasb egalarining bilimi, tajribasi va mahorati mujassamdir.

Olloh tomonidan ato etilgan ikkita kasb bor: bular o‘qituvchilik va shifokorlikdir. O‘zining olijanob kasbiga sodiq shifokor har kuni eng yaxshi insoniy fazilatlarini namoyon etib, barchamizga oliy insonparvarlik

maqsadlariga xolis xizmat qilishning namunasini ko‘rsatadi.

Ushbu yuksak minbardan siz va sizlarning timsolingizda mazkur olajanob kasb egalariga o‘zimning eng samimiyl minnatdorligimni bildiraman. Sizlarga sihat-salomatlik, ishlaringizga muvaffaqiyat tilayman. Yana bir bor mehmondo‘st o‘zbek zaminiga xush kelibsiz, deyman.

E’tiboringiz uchun tashakkur.

XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYATI KENGASHINING NAVBATDAN TASHQARI SESSIYASI

Shu yil 30 noyabr kuni Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Sessiyada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov nutq so‘zladи.

Biz odatda yurtimiz, O‘zbekistonimizni Ollohning nazari tushgan zamin, deb ataymiz. Buning yaqqol misoli sifatida Qashqadaryo vohasini ko‘rish o‘rinlidir, deb ta’kidladi Yurtboshimiz.

Darhaqiqat, Qashqadaryo deganda, barchamiz go‘zal va betakror bir o‘lkani, mana shu zaminga mehr va sadoqat bilan yashayotgan, mehnat qilayotgan bag‘rikeng, azmi qat’iy insonlarni o‘zimizga tasavvur etamiz. Bu zaminning yer osti va yer usti boyliklari, g‘alla va paxta yetishtirish bo‘yicha respublikamizda yetakchi o‘rinda turishi, bugungi kunda yurtimizda qazib olinadigan tabiiy gazning 88 foizi, neftning 93 foizi ayni shu viloyat hissasiga to‘g‘ri kelishi shunday deb aytishga to‘la asos beradi.

Bu vohada mujassam bo‘lgan ulkan moddiy va ma’naviy boyliklar, iqtisodiy va intellektual salohiyat ayniqsa mustaqillik yillarida yorqin namoyon bo‘lib, el-yurtimiz manfaati, Vatanimiz ravnraqi yo‘lida xizmat qilayotgani barchamizni quvontiradi. Ayni vaqtda bu qadimiylar va navqiron diyorning eng katta boyligi, hech shubhasiz, uning hayot sinovlarida toblangan, bag‘rikeng, mard va oriyatli xalqidir, dedi davlatimiz rahbari.

Sessiyada Qashqadaryodagi bugungi ahvol, mavjud vaziyatni inobatga olgan holda, deputatlarni, viloyat jamoatchiligini nimalar qoniqtiradi, nimalarga esa salbiy baho berishimiz kerak, degan savollar asosida tegishli xulosalar chiqarib, fikr almashib olish maqsadga muvofiq ekanı alohida qayd etildi. Birinchi navbatda, Qashqadaryo viloyatining ulkan salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ishni to‘g‘ri tashkil etish, avvalo, shu zaminda yashayotgan millionlab odamlarni bezovta qilayotgan, hali-beri yechilmasdan kelayotgan muammolarni yechish, bir so‘z bilan aytganda, viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar muhokama qilindi.

Esingizda bo‘lsa, sizlar bilan shu yilning iyun oyida, ya’ni paxtachilikda hosil taqdiri hal bo‘ladigan muhim pallada uchrashgan edik, deb o‘z fikrini davom ettirdi Yurtboshimiz. Aytish kerakki, yakunlanayotgan 2011 yilda ob-havoning g‘oyat noqulay kelgani, qattiq

qurg‘oqchilik va suv taqchilligi qishloq xo‘jaligi uchun jiddiy muammolar tug‘dirdi. Ammo, fidoiy dehqon va fermerlarimizning ko‘p yillik tajribasi, omilkorligi va mardona mehnati hisobidan viloyatda 400 ming tonnadan ortiq paxta, 821 ming tonnadan ziyod g‘alla xirmoni buniyod etilganini ta’kidlab o‘tmoqchiman, dedi Islom Karimov.

Majlisda butun mamlakatimizda bo‘lgani kabi, Qashqadaryo vohasida ham keyingi yillarda viloyat ahlining fidokorona mehnati bilan ko‘pgina ijobjiy o‘zgarishlar amalga oshirilayotgani haqida fikr yuritilib, quyidagi misollarga alohida e’tibor qaratildi.

Joriy yilda viloyatda yalpi hududiy mahsulot hajmining o‘sishi 8 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Sanoatni rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va mahsulot turlarini ko‘paytirish borasida ham sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda qabul qilingan, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va texnologik qayta jihozlash dasturi doirasida Qashqadaryoda keyingi to‘rt yil mobaynida yoqilg‘i-energetika, kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoati sohalarida o‘sish jarayonlari kuzatilmoqda. Shu davrda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,4 barobar ortib, o‘rtacha yillik o‘sish darajasi 6,7 foizni tashkil etdi.

Ayni vaqtida viloyat iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiyalar salmog‘i yildan-yilga ortib borayotgani ham e’tiborlidir. Bu haqda gapirganda, Muborakneftgaz, Muborak gazni qayta ishslash zavodi, Sho‘rtan gaz-kimyo, Ko‘kdumaloq-gaz, Dehqonobod kaliyli o‘g‘itlar zavodi, Tollimarjon issiqlik elektr stansiyasi kabi nafaqat yurtimizda, balki butun mintaqamizda ham eng yirik hisoblangan sanoat korxonalarida amalga oshirilgan katta-katta investitsiya loyihalarini eslab o‘tish zarur.

Viloyatda hozirgi kunda neft, gaz va kondensatdan keng foydalanish bilan birga kimyo mahsulotlari, kaliyli o‘g‘itlar ishlab chiqarish kabi yangi tarmoqlar ham jadal rivojlanmoqda. Masalan, Dehqonobod kaliyli o‘g‘itlar zavodining 275 million dollar qiymatga ega bo‘lgan birinchi navbatli ishga tushirilib, bu zamонавиy korxonada ilgari katta miqdorda valyuta sarflab chetdan olib kelingan, iqtisodiyotimiz uchun nihoyatda zarur bo‘lgan 200 ming tonnalik mahsulot ishlab chiqarilmoqda. Shuningdek, mazkur zavodning ikkinchi navbatli qurilmoqda va u foydalanishga topshirilganidan so‘ng mahsulot hajmi 3 barobar ortib, yiliga 600 ming tonna o‘g‘it ishlab chiqarishga erishamiz.

Hozirgi vaqtida viloyatda 493 ming hektar maydonda dehqonchilik

qilinib, mamlakat bo'yicha tayyorlanadigan jami paxtaning deyarli 13 foizi, g'allaning 14 foizi aynan Qashqadaryoda yetishtirilmoqda. Viloyat chorvachilik va bog'dorchilik, parrandachilik kabi sohalarda ham katta imkoniyatlarga ega.

Rizq-ro'zimiz manbai bo'lgan yerning unumdorligini oshirish, melioratsiya ob'ektlarini rekonstruksiya qilish, qurish, ta'mirlash va tiklash maqsadida viloyatda keyingi uch yilda 34,5 milliard so'm hajmidagi ishlar bajarilgani va buning natijasida 91,7 ming hektar sug'oriladigan maydonlarning meliorativ holati yaxshilanganini ta'kidlash lozim.

Ma'lumki, aholining turmush darajasini yuksaltirishdek ezgu maqsad doimiy ravishda davlat siyosatimizning diqqat markazida bo'lib kelmoqda, dedi davlatimiz rahbari. Qashqadaryoda bu yo'naliш bo'yicha ham ko'p ishlar qilinmoqda. Bu haqda gapirar ekanmiz, aholini tabiiy gaz va toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni yaxshilash, yangi-yangi maktablar, litsey va kollejlar, sog'liqni saqlash muassasalari, ilm-fan, ta'lim, madaniyat va sport maskanlari, zamonaviy turar-joy binolari, ko'plab savdo ob'ektlari, bozorlar, servis va xizmat ko'rsatish tarmoqlari bunyod etilganini aytib o'tish lozim.

Biz uchun eng katta boylik bo'lgan el-yurt salomatligini asrash, xususan, qariyalar, ayollar va bolalarning sog'lig'ini muhofaza qilish bo'yicha izchil olib borilayotgan ishlar natijasida keyingi vaqtida bu viloyatda 18 ta tibbiyot muassasasi ishga tushirildi, mavjud shifoxonalar esa zamonaviy asbob-uskunalar, malakali kadrlar bilan ta'minlanib, tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligi oshirildi.

Shular qatorida viloyatda sportni rivojlantirishga katta e'tibor berilayotgani, Qashqadaryo yoshlari sportning turli sohalarida erishayotgan yutuqlar haqida to'xtalib, Yurtboshimiz ayniqsa viloyatning "Nasaf" futbol jamoasi bu yilgi mavsumda Osiyo qit'asi kubogini qo'lga kiritganini butun O'zbekiston ahli mamlakatimizda futbol tobora rivoj topib borayotganining yaqqol nishoni deb qabul qilishi va xalqimiz bunday yutuq bilan so'zsiz g'ururlanishi tabiiy ekanini ta'kidladi.

Albatta, viloyat ijtimoiy hayotidagi bunday katta o'zgarishlar shahar va qishloqlarning qiyo fasini o'zgartiribgina qolmasdan, eng muhimi, odamlarning ongu tafakkurini yuksaltirmoqda, ularning ertangi kunga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlamoqda. Uzoqqa bormasdan, mana shu Qarshi shahrini oladigan bo'lsak, o'zingiz bir qarang, uning bugungi ko'rku chiroyini kechagi holati bilan mutlaqo solishtirib bo'lmaydi, dedi

Islom Karimov. Qashqadaryoda bo‘layotgan keng ko‘lamli yangilanish va o‘zgarishlarga boshqa viloyatlarda yashayotgan yurtdoshlarimiz ham havas bilan qaramoqda va bobomiz Amir Temur tug‘ilgan yurtni ziyorat qilib kelaylik, deb bu zaminga intilayotgan odamlar soni tobora ko‘payib bormoqda.

Sessiyada o‘z yechimini kutib turgan, viloyatda yashayotgan aholining bugungi va ertangi kuniga bevosita bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolarni hal qilish haqida ham atroflicha so‘z yuritildi.

Agarki o‘zimiz o‘z ishimizga tanqidiy baho bermasak, hech kim chetdan kelib bu ishni biz uchun qilib bermaydi. Bag‘rikeng, o‘z kuchiga ishongan odamlargina o‘zining ishiga to‘g‘ri baho berish, kamchiliklarni mardona tan olib, ularni tuzatishga qodir bo‘ladi, dedi Prezidentimiz.

Shu nuqtai nazardan qarab, viloyatda amalga oshirilgan ishlarga xolisona baho berar ekanmiz, eng muhimi, Qashqadaryo vohasining salohiyatini ro‘yobga chiqarish yo‘lida o‘z yechimini kutayotgan muammolarni o‘zimizga tasavvur qilar ekanmiz, oxirgi yillarda yo‘l qo‘yilayotgan nuqson va kamchiliklar, bir so‘z bilan aytganda, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish sur’atlari pasayib borayotganiga e’tibor berishimiz zarur. Xususan, qishloq xo‘jaligini oladigan bo‘lsak, islohotlarni amalga oshirish, sohani modernizatsiya qilish va unga zamonaviy texnologiyalarni jalg qilish masalalarida jiddiy kamchiliklar mavjudligi yaqqol kuzatilmoxda. Joriy yilda o‘tgan yilga nisbatan 32 ming tonna paxta, 164 ming tonna g‘alla kam yetishtirilgani bu boradagi ana shunday oqsoqlikka misol bo‘la oladi. Paxtachilikda 5 ta tuman va 950 dan ortiq fermer xo‘jaligi yoki jami fermer xo‘jaliklarining 19 foizi shartnomaga majburiyatlarini bajarmagani tufayli 18 ming tonnadan ko‘proq paxta xomashyosi yetkazib berilmadi. Paxta hosildorligi esa 8 ta tumanda o‘tgan yilga nisbatan o‘rtacha 2 sentnergacha kamayib ketdi. G‘alla bo‘yicha ham shunday ahvolni ko‘rish mumkin. Ya’ni, 270 ta fermer xo‘jaligi tomonidan shartnomada belgilanganidan 10 ming tonna don kam yetkazib berilgan.

Bugun bunday holatning sababini viloyatdagi qaysi rahbardan so‘rasangiz, albatta, tabiat injiqliklarini, suv tanqisligini bahona qilib nolishdan nariga o‘tmaydi. Lekin azaliy bir haqiqat borki, nolib, noshukur bo‘lib yashasang, ishing ham yurishmaydi. Axir, bunday tabiiy qiyinchiliklar faqat Qashqadaryoda yuz berayotgani yo‘q-ku, dedi Yurtboshimiz.

Avvalambor, viloyatda seleksiya va urug‘chilik ishlarining o‘z holiga

tashlab qo‘yilgani, navlarni to‘g‘ri tanlash va joylashtirishdagi kamchiliklar, mavjud texnika parkining eskirgani, agrotexnika tadbirlarini qo‘pol buzish holatlari shunday salbiy oqibatlarga olib kelayotganiga e’tibor qaratildi.

Viloyatda g‘o‘zaning yangi va istiqbolli navlarini yaratish ishlari ham qoniqarsiz bo‘lib, har yili g‘o‘za navining 15-18 xili sinab ko‘rilishiغا qaramasdan, hududga mos navlarni tanlash va joriy etish ishlari aniq tizim asosida yo‘lga qo‘yilmagan. Asosiy maydonlarga bundan 20 yil oldin boshqa hududlar uchun mo‘ljallab yaratilgan “Buxoro-6”, “Namangan-77” navlari ekilmoqda.

Ma’lumki, 2008 yilda viloyatda Qashqadaryoning tuproq-iqlim sharoitiga mos keladigan bug‘doyning yangi navlarini yaratish, ayniqsa, qattiq bug‘doy navlarini keng joriy qilish maqsadida Boshqqli don ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi ilmiy-tadqiqot instituti tashkil qilingan edi. Bugungi kunga qadar bu institutda 16 mingdan ortiq turli nav va liniyalar sinovdan o‘tkazilgan bo‘lsa-da, hali ishlab chiqarishda o‘z o‘rnini topgan navlar yo‘q, bir so‘z bilan aytganda, aniq natija ko‘rinmayapti. Bu yerdagi ishlar pala-partish tashkil etilib, institut faoliyatida mantiq va mazmunning yetarli emasligi tobora o‘z isbotini topmoqda. Bu institut misolida ilm-fanning so‘nggi yutuqlarini amaliyotda qo‘llash emas, balki bu ilmiy dargohni rahbarlarga va jamoatchilikka ko‘z-ko‘z qilib, soxta obro‘ ortirishga urinish maqsadi borligi majlisda afsus bilan qayd etildi.

Viloyatda sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishga yetarli e’tibor berilmayotgani, rejalashtirilgan loyiham o‘z vaqtida amalga oshirilmayotgani, mavjud salohiyat va quvvatlardan samarali foydalanimayotgani ham jiddiy muammoga aylanib bormoqda.

Birinchidan, viloyatda o‘tgan yili sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2009 yilga nisbatan pasayib, 96,8 foizga tushib qolgan. Ayniqsa, oziq-ovqat va yengil sanoat korxonalarida mavjud uskunalar eskirgani mahsulotlar sifati pastligiga va ularni ishlab chiqarishga energiyaning me’yоридан ortiqcha sarflanishiga olib kelmoqda. Natijada mahsulot tannarxi oshib, ko‘riladigan zarar miqdori ko‘payib bormoqda. Bugungi kunda viloyatda zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalar soni 9 taga yetib, umumiylar miqdori 1,2 milliard so‘mni tashkil etayotgan bo‘lsa-da, bunday murakkab ahvolni tuzatish uchun zarur amaliy choralar ko‘rilmayapti.

Ikkinchidan, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni diversifikatsiya

qilish, ya’ni, ularning turini kengaytirish va raqobatdosh mahsulotni ko‘paytirish bilan bog‘liq masalalarga alohida e’tiboringizni qaratishni istardim, dedi davlatimiz rahbari. Bu borada muhim o‘rin tutishi lozim bo‘lgan mahalliylashtirish dasturini amalga oshirish ishlari ham talab darajasida emas. Viloyatdagi mavjud 2 ming 821 ta korxonadan faqat 7 tasi ana shunday mahsulot ishlab chiqarish bilan shug‘ullanmoqda. Joriy yilda dasturga bor-yo‘g‘i ikkita yangi loyiha taklifi berilgan. Bunday holat yildan-yilga takrorlanib, surunkali tus olayotgani ayniqsa achinarlidir.

Har yili mamlakatimiz poytaxtida bo‘lib o‘tadigan Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi doirasida yaratilgan imkoniyatlardan viloyatda keng va samarali foydalanimayapti. Jumladan, joriy yilning oktyabr oyida o‘tkazilgan navbatdagi ana shunday yarmarkada viloyatdan faqat 11 ta korxona ishtirok etgan, xolos. Ular imzolagan shartnomalar qiymati 2012 yilda viloyatda ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotining atigi 0,5 foizini tashkil etadi. O‘z-o‘zidan savol tug‘iladi: viloyat rahbarlarining bundan xabari bormi yoki yo‘qmi?

Uchinchidan, sanoatning qayta ishlash tarmog‘i ham e’tibordan chetda qolib kelmoqda. Masalan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishslash atigi bir-ikki foiz darajasida ekani hech kimni qoniqtirmaydi, albatta. Viloyat aholisining bunday tayyor mahsulotlarga bo‘lgan talabi boshqa hududlar hamda import hisobidan qondirib kelinmoqda. Oxirgi ikki yilda Qamashi, G‘uzor va Yakkabog‘ tumanlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishslash bo‘yicha mo‘ljallangan loyihalar bajarilmasdan qolmoqda.

To‘rtinchidan, nooziq-ovqat iste’mol mollari ishlab chiqarish bo‘yicha hududiy dastur shakkantirilganiga qaramasdan, tumanlarda ana shu turdag‘i mahsulotlarni ishlab chiqarishda deyarli o‘zgarish sezilmayapti. Keyingi yillarda Qashqadaryo viloyati aholi jon boshiga iste’mol tovarlari ishlab chiqarish bo‘yicha mamlakatimizda o‘n ikkinchi o‘ringa tushib qolganini qanday izohlash mumkinq

Agarki bu masalani tumanlar misolida tahlil qiladigan bo‘lsak, ahvol yanada achinarli ekaniga guvoh bo‘lamiz. Misol uchun, Qarshi, Nishon, G‘uzor, Kasbi va Dehqonobod tumanlarida aholi jon boshiga iste’mol tovarlari ishlab chiqarish atigi 12-25 ming so‘mni tashkil etmoqda, xolos.

Yana bir jiddiy kamchilik shundan iboratki, mahalliy hokimliklar tomonidan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarini tashkil etishga va hududning eksport salohiyatini oshirishga yetarli e’tibor berilmayapti.

Ayniqsa, Nishon tumanida birorta ham qo'shma korxona tashkil etilmaganiga nima desa bo'ladi?

Viloyatda xizmat ko'rsatish sohasida birmuncha ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanayotgan bo'lsa-da, mavjud holatni chucherroq tahlil qiladigan bo'lsak, bugungi kunda viloyat yalpi hududiy mahsulotida xizmatlarning ulushi bor-yo'g'i 21,6 foizni tashkil etayotganini ko'ramiz. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida bu ko'rsatkich 48,6 foizni, rivojlangan davlatlarda esa kamida 60 foizni tashkil etishini inobatga oladigan bo'lsak, Qashqadaryo viloyatida bu sohada ham qoloqlik kuzatilayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, soha rivoji uchun yanada qulay ishbilarmonlik muhiti yaratish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar natijasida kichik biznesning viloyat iqtisodiyotidagi ulushi 5 yil mobaynida 39,5 foizdan 55 foizga o'sgani ijobiy baholashga arziydi. Ayni vaqtida ko'rilgan choralaraga qaramasdan, ayrim tarmoqlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji past darajada qolayotganini aytishga to'g'ri keladi. Masalan, sanoatda bu sohaning ulushi 25 foizni tashkil etmoqda. Tumanlar miqyosida olib qaraydigan bo'lsak, Mirishkor va Nishon tumanlarida bu raqam 5-7 foizni, G'uzor tumanida esa 0,3 foizni tashkil etayotgani bu boradagi haqiqiy ahvolni ko'rsatib turibdi.

Bundan tashqari, tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida berilgan kreditlar miqdori o'tgan yilga nisbatan sezilarli ravishda ko'paygan bir paytda bu ko'rsatkich Chiroqchi tumanida 15, Dehqonobod tumanida esa 27 foizga kamayganini qanday tushunish mumkin.

Bugungi kunda biz uchun eng dolzarb muammolardan biri bo'lgan aholini ish bilan ta'minlash, oilalar uchun barqaror daromad manbaini yaratib berish borasida Qashqadaryo viloyatida bir qator ishlar amalga oshirildi. Buni viloyatda band bo'lgan aholi soni joriy yilning hisobot davrida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,2 foizga oshgani ham ko'rsatib turibdi. Viloyatda oxirgi uch yilda qariyb 224 ming yangi ish o'mni yaratilgan bo'lsa-da, bu masalaga qishloq joylarda alohida e'tibor qaratilmayotganini qayd etish kerak. O'tgan o'quv yilida viloyatdagi kollejlarni bitirgan yoshlarning 96 foizi ishga joylashtirilgani e'tiborga loyiq, albatta. Ammo 1 ming 516 nafar yosh bitiruvchi ish bilan ta'minlanmasdan qolgani joylarda hali-beri biz uchun o'ta muhim bo'lgan

bu masalaga yetarlicha ahamiyat qaratilmayotganidan dalolat bermoqda.

Yoshlar – bizning kelajagimiz, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi, deb ko‘p gapiramiz. Bugun kuch-quvvatga to‘lib, hayotga katta orzu-umidlar bilan kirib kelayotgan o‘g‘il-qizlarimizni munosib ish bilan ta’minlash, ularning yo‘lini ochib berish – ota-onas, ustoz va rahbar sifatida bizning nafaqat vazifamiz, balki asosiy burchimiz bo‘lishi zarur, mana shu haqiqatni hech qachon unutmasligimizni istardim, deb ta’kidladi davlatimiz rahbari.

Qishloqlarimizni obod etish, ularning qiyofasini tubdan o‘zgartirish, qishloqda yashayotgan odamlarning turmush sharoitini zamon talablariga moslashtirish, kerak bo‘lsa, shahar sharoitiga yaqinlashtirish yo‘lida keyingi yillarda boshlagan ezgu ishlarimiz butun xalqimiz tomonidan qanday katta qiziqish va e’tibor bilan kutib olinganidan barchamiz yaxshi xabardormiz. Bu borada ayniqsa namunaviy loyihalar asosida uy-joylar barpo etish bo‘yicha olib borayotgan ishlarimiz alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Albatta, Qashqadaryo viloyatida ham ana shunday loyihalar asosida har tomonlama qulay va obod, zamonaviy turar-joy massivlari qad rostlayotgani ko‘pchilik uchun ayni muddao bo‘lmoqda. Shu boradagi ishlarning uzviy davomi sifatida joriy yilda 805 ta namunaviy uy-joy barpo etish bo‘yicha qurilish ishlari amalga oshirilmoqda. Lekin ana shu o‘ta muhim masalada mas’uliyatsizlik va pala-partish yondashuvlar ko‘zga tashlanayotgani joylardagi ko‘pchilik rahbarlar bu masalaning mohiyati va ahamiyatini hanuzgacha chuqur anglab yetmaganini ko‘rsatadi. Masalan, Chiroqchi tumanidagi “Jar”, Nishon tumanidagi “Yangi hayot”, Kasbi tumanidagi “Denov” va “Qamashi”, G‘uzor tumanidagi “Arab” massivlari aholining talab va ehtiyoji to‘liq hisobga olinmay tanlangani majlisda afsus bilan qayd etildi.

Buning ustiga, qurilishni amalga oshirish uchun pudratchi tashkilotlarni tanlashda ham jiddiy kamchiliklarga yo‘l qo‘ylimoqda. Misol uchun, Shahrisabz tumanidagi “Xo‘jaxuroson” massivida “So‘g‘diyona” va “Doston qurilish invest” korxonalari qurilish ishlarini o‘z vaqtida tashkil eta olmagani sababli boshqa pudrat tashkilotlarini jalb etishga to‘g‘ri kelgan.

Yuqorida ko‘rsatilgan qo‘pol xato va kamchiliklarni, birinchi navbatda, shu sohalarga mas’ul bo‘lgan rahbar va xodimlarning ishga sovuqqonlik bilan qarashi, eng muhimi, butun O‘zbekiston bo‘yicha keng

rivoj topayotgan bunday loyihalarning ahamiyatini, naqadar dolzarbligini tushunishga aqli yetmaganining natijasi, deb qabul qilish kerak. Avvalambor, katta kelajagi bor bunday ishlarni obro'sizlantirish harakatlariga yo'l qo'yishni chidab bo'lmaydigan holat, deb baholayman. Bu masala bo'yicha Bosh prokuratura tomonidan maxsus komissiya tuzib, viloyatdagi ahvolni chuqur o'rganish, mas'uliyatsizlikka yo'l qo'ygan rahbarlarni qonuniy javobgarlikka tortish zarur, deb ta'kidladi Prezidentimiz.

Bugungi kunda "Obodlik ko'ngildan boshlanadi" degan oljanob da'vat mamlakatimizda umummilliy harakatga aylanib, yurtimizning barcha uzoq-yaqin shahar va qishloqlarida ulkan qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilayotganiga guvoh bo'lmoidamiz. Buning tasdig'ini Andijon, Samarqand yoki Namangan viloyatlarida, Qo'qon shahrida – barcha hudud va mintaqalarimizdagi odamni hayratga soladigan beqiyos o'zgarishlar misolida ko'rish mumkin.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Qashqadaryo viloyatida ham ko'pgina ijobiy ishlar amalga oshirilayotganini tan olmaslik adolatdan bo'lmaydi, deb qayd etdi Yurtboshimiz. Xususan, Shahrisabz va Qarshi shaharlarining 2700 yillik yubileyлari munosabati bilan viloyatda katta hajmdagi buniyodkorlik ishlari bajarilganini ta'kidlash o'rinnlidir. Lekin, afsuski, bu boradagi amaliy harakatlar keyingi vaqtida yangi bosqichga ko'tarilish o'mniga, susayib borayotganidan ham ko'z yumib bo'lmaydi.

Davlatimiz rahbari Qarshi shahri bo'yicha alohida to'xtalib, bu yerga oxirgi marta kelganimda shaharning yubileyidan so'ng biron-bir ko'zga ko'rindigan ish qilinmagani to'g'risida viloyat rahbarlariga tanqidiy fikrlar bildirgan edim, deb qayd etdi. Biroq hozirga qadar bu borada qandaydir amaliy harakatlar sezilmayapti. Xususan, oxirgi yillarda shahar markazini shakllantirish bilan bog'liq ishlar umuman to'xtagan va o'z holiga tashlab qo'yilgan. Shaharning O'zbekiston, Nasaf va Qorlibog'ot kabi prospektlari torligi tufayli jamoat va shaxsiy transport qatnovi, aholi uchun qanday noqulaylik tug'dirmoqda. Bundan tashqari, shaharning markaziy ko'chalarini obodonlashtirish va irrigatsiya tizimini yangilash, aholi uchun zamonaviy turar-joylar qurishdek muhim masalalar ham o'z yechimini topmasdan qolmoqda.

Majlisda bunday vaziyatni tubdan o'zgartirish maqsadida hozirgi vaqtida Qarshi shahrini rekonstruksiya qilish bo'yicha kompleks choratadbirlar dasturi ishlab chiqilayotgani aytib o'tildi. Jumladan, tegishli

vazirlik va mutasaddi idoralar tomonidan shaharning 2030 yilgacha mo‘ljallangan bosh rejasini tayyorlash bo‘yicha ish olib borilayotgani haqida qisqacha ma’lumot berildi. Shaharning Jayhun ko‘chasini G‘uzor va Nishon tumanlaridan keladigan yo‘llar bilan, Nasaf ko‘chasini esa Yangi hayot ko‘chasi bilan tutashtirish nazarda tutilayotgani ta’kidlandi. Ayni vaqtida bu yerdagи kanalizatsiya tizimini rekonstruksiya qilish va kengaytirish, Qarshi magistral kanali, Ayrum va Chap qirg‘oq kanallarining suvi hisobidan shahar hududining sug‘orish tizimini yaratish, O‘zbekiston, Nasaf va Qorlibog‘ot ko‘chalarida yomg‘ir suvlarini chiqib ketadigan tarmoq barpo etish belgilanayotgani qayd etildi. O‘zbekiston, Nasaf va Amir Temur ko‘chalari bo‘ylab birinchi qavatida savdo va xizmat ko‘rsatish ob‘ektlari joylashtiriladigan ikki, uch va to‘rt qavatli binolar qurish, shu bilan birga, ekologik jihatdan zararli va aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan bir qator korxonalarini bosqichma-bosqich shahar hududidan chetga chiqarish, shaharning muhandislik va transport kommunikatsiyalarini takomillashtirish yuzasidan ham zarur choratadbirlar ishlab chiqilayotganiga e’tibor qaratildi.

O‘yaymanki, bu rejalarimizni amalga oshirish natijasida Qarshi shahri mamlakatimizning eng go‘zal va obod maskanlaridan biriga aylanadi, inshoollo, dedi Yurtboshimiz.

Sessiyada bunday ishlar faqat viloyat markazi bilan chegaralanib qolishi kerak emasligi, ular barcha tumanlarda, olis va chekka qishloqlarda ham muntazam ravishda olib borilishi va bu masala mahalliy hokimliklarning diqqat markazida turishi shartligi uqtirib o‘tildi.

Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yo‘l qo‘yilayotgan kamchilik va nuqsonlar haqida yana ko‘p gapirish mumkin, o‘yaymanki, bu zalda o‘tirgan faollarimiz ham mavjud oqsoqliklar va ularning sabablari haqida yana qo‘shimcha misollar keltirishi qiyin emas, dedi Prezidentimiz. Lekin, mening nazarimda, yuqorida ko‘rsatilgan kamchiliklarning asosiy sababi viloyat rahbarlari, avvalo, viloyatning birinchi rahbari N.Zayniyevning mas’uliyati va ish uslubi bilan bog‘liqdir.

Albatta, u viloyat rahbari sifatida ish boshlagan dastlabki davrda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni rivojlantirish, olib borilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha ancha harakat qildi va bu yo‘lda erishilgan natijalarda uning ham hissasi bo‘lganini bugun xolisona tan olishimiz kerak.

Shu bilan birga, viloyatda yo‘l qo‘yilgan kamchilik va nuqsonlarda bir

vaqt boshlagan ishlarni izchil sur'atlar bilan davom ettirish uchun aholini, mutaxassis va faollarni keng jalb etish, eng muhimi, tumanlar rahbarlarining boshini qovushtirishda ishlarning samarasi susayib ketishi viloyat hokimiga bog'liq ekanini qayd etish lozim.

Uning ish faoliyatida talabchanlik va mas'uliyatning bo'shashib, tashabbus va izlanishning yetishmasligi kabi holatlar kuchayib borayotganini kuzatish qiyin emas. Bunday holat, ko'p marta ogohlantirishga qaramasdan, afsuski, ko'pdan buyon davom etib kelmoqda.

Barchamiz yaxshi bilamiz, Qashqadaryo xalqi azaldan mehnatkash, ishning negizini biladigan xalq sifatida nom qozongan. Bugungi kunda biz o'z oldimizga og'ir va murakkab vazifalar, marralarni qo'yar ekanmiz, ko'p narsa ishni oqilona boshqarishga, uzoqni ko'zlab, avvalambor, shu maqsadga intilgan faollarni o'z ortidan ergashtira oladigan yetakchiga bog'liq ekani majlisda alohida ta'kidlandi.

Bu haqda, rahbarning mahorati va ustaligi haqida so'z yuritar ekanmiz, bir fikrga alohida urg'u berib aytmoqchiman, dedi Islom Karimov. Har qaysi boshlangan ishning samarasi va pirovard natijasi avvalambor shu ishga bel bog'lagan faollar va rahbarlarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun, ta'bir joiz bo'lsa, yagona bir musht bo'lib maydonga chiqishiga, eng asosiysi, yetakchining har qaysi xodimning bilimi va tajribasini, o'ziga xos alomatlarini bila turib, ularni umumiy maqsadga intilgan kuchga aylantira olishiga, ularning g'ayrati va imkoniyatlari suyanish, vaqt kelganda talabchan bo'lish, kerak bo'lsa, qattiqqo'l bo'lish, shu bilan birga, o'z qo'l ostida ishlayotgan odamlarni qo'llab-quvvatlashga, himoyalashga qodir bo'lishiga bog'liq.

Yana bir muhim masala borki, u haqda ham eslatib o'tishni joiz deb bilaman. Tuman, shahar yoki viloyat miqyosida erishilgan barcha yutuqlarni har qaysi rahbar o'zining nomi bilan bog'laydigan bo'lsa, o'rinnli-o'rinsiz maqtanib gapiradigan bo'lsa, birinchidan, bunday holat juda xunuk ko'rindi, ikkinchidan, bu rahbarga hech qachon obro' keltirmaydi. Bu haqiqatni, o'ylaymanki, barchamiz juda chuqur anglab olishimiz darkor.

Bu gaplardan bitta xulosa chiqarish mumkin. Bugun juda tez o'zgarib borayotgan zamonning o'zi hammamizning oldimizga ulkan va o'ta mas'uliyatli vazifalarni qo'ymoqda. Nafaqat bugungi hayot bilan hamqadam bo'lib yashash, balki ertaga yo'limizda paydo bo'lishi mumkin

bo‘lgan muammo va tahdidlarni, boshimizga tushishi mumkin bo‘lgan savdolarning yechimini hozirdan o‘ylab yashashimizni talab qilmoqda. Binobarin, rahbarlik vazifasida o‘tirgan har qaysi odam o‘z mas’uliyatini yuz karra ko‘proq sezishi darkor, deb qayd etdi davlatimiz rahbari.

Sessiyada tashkiliy masala ko‘rildi. N.Zayniyev Qashqadaryo viloyati hokimi lavozimidan ozod qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tavsiyasiga ko‘ra, Surxondaryo viloyati hokimi vazifasida ishlab kelgan Turobjon Jo‘rayev Qashqadaryo viloyati hokimi etib tasdiqlandi.

Hozirgina sizlar bilan saylab, tasdiqlab olgan yangi rahbar bugun aytilgan tanqidiy gaplardan xulosa chiqarib, Qashqadaryoning ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish sur’atlarini oshirish, mavjud muammolarni hal etish uchun viloyat ahlini jipslashtirib, bor kuch-g‘ayrati, bilim va tajribasini ishga solishiga ishonaman, dedi pirovardida Yurtboshimiz.

Sessiyada so‘zga chiqqan Qarshi davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi Abdurahim Erkayev, Dehqonobod kaliyli o‘g‘itlar zavodi muhandis texnologи Mansur Aralov, Qarshi davlat universiteti talabasi, taekvondo VTF bo‘yicha Osiyo championi Feruzabonu Abdurahmonova, “Mahalla” jamg‘armasi viloyat bo‘limi raisi Dolli Allayev, Qamashi tumanidagi “Abdi Bozor” fermer xo‘jaligi rahbari Abdumurod Bozorov va boshqalar Prezidentimiz nutqida bayon etilgan tanqidiy fikrlardan zarur xulosalar chiqarib, ko‘rsatib o‘tilgan kamchilik-nuqsonlarni bartaraf etish, viloyat oldida turgan muhim va dolzarb vazifalarni muvaffaqiyatli ado etish, islohotlarimiz samarasini oshirish uchun butun Qashqadaryo ahli astoydil mehnat qiladi va ko‘zlangan marralarga albatta erishadi, deb ta’kidladilar.

Shuni aytish kerakki, sessiyada nafaqat viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar, ayni vaqtda ma’naviy hayotni yuksaltirish, milliy g‘oyamiz tamoyillarini yanada mustahkamlash, yoshlarimizning ongu tafakkurini turli soxta qarash va ta’sirlardan himoya qilish haqida ham atroficha so‘z bordi.

Bugun sobiq Ittifoqning ayrim hududlarida SSSR degan imperiyani qandaydir yangi shaklda tiklashni xayol qilib yurgan, yaqin tariximizda sodir bo‘lgan ijtimoiy jarayonlarni butunlay o‘zgartirib, kerak bo‘lsa, soxtalashtirib, odamlarni, ayniqsa, u zamonlarni ko‘rmagan-bilmagan yoshlarni aldab, to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itishga urinayotgan kuchlar, afsuski, hali ham yo‘q emas.

Prezidentimiz bunday xatti-harakatlar haqida to‘xtalib, ozodlik havosidan to‘yib nafas olgan, o‘z taqdiri va kelajagini o‘z qo‘li bilan qurayotgan xalqimizni endi eski mafkuraga, eski zamonga hech qachon qaytarib bo‘lmaydi, butun xalqimiz, jumladan, Qashqadaryo eli, bu vohadagi navqiron yoshlarning bugungi azmu shijoati, orzu-intilishlari, keljakka bo‘lgan mustahkam ishonchi shunday deb aytishga to‘la asos beradi, degan so‘zlarni alohida ta‘kidlab aytar ekan, barcha majlis qatnashchilari oyoqqa qalqib, bu fikrlarni qizg‘in qo‘llab-quvvatladi.

Bu bejiz emas, albatta.

Ma’lumki, o‘tgan asrning 80-yillari oxirlarida sobiq Markaz va uning ko‘rsatmasi bilan yurtimizga yuborilgan, xalqimiz o‘rtasida “desantchilar” deb nom olgan guruuhlar tomonidan el-yurtimiz boshiga tuhmat va bo‘htonlar yog‘dirilgan, odamlarimizning insoniy haq-huquqi, sha’ni va g‘ururi ayovsiz oyoqosti qilingan edi. Ayniqsa, Qashqadaryo vohasi bundayadolatsizlik, bunday zulmdan eng ko‘p aziyat chekdi.

Ana shunday dahshatli qatag‘onning qanday keng tus olganini, o‘ylaymizki, quyidagi raqamlar yaqqol ko‘rsatadi. Birgina “paxta ishi” bo‘yicha viloyatda 3 mingdan ziyod odam hibsga olingan, faqat 1985 yilning uch oyida viloyat rahbarining 3 ta muovini, 8 ta bo‘lim mudiri, shahar va tuman partiya qo‘mitalarining 26 nafar kotibi, viloyat ijroiya qo‘mitasi raisi, uning 4 nafar o‘rinbosari, mas’ul kotibi, shahar va tuman ijroqo‘mlarining 12 nafar raisi, viloyat miqyosidagi yirik tashkilotlarning 27 ta rahbari, kolxoz va sovxozlarning 99 nafar rais va direktorlari, yana qancha-qancha oddiy mehnatkashlar, begunoh insonlar jinoiy javobgarlikka tortilgan edi. Viloyatning sobiq rahbarlaridan biri o‘z joniga qasd qilgan, ikkinchisi esa qamoqqa olingan edi. Hibsga olingan har bir odamning ortida esa 20-30 tadan oila a’zolari, qarindosh-urug‘lari, birga ishlagan kishilar tunu kun so‘roq berib, ma’muriy idoralarning eshidiga sarson bo‘lib yurganini Qashqadaryo ahli hech qachon unutmaydi.

Yaqin o‘tmishda boshimizdan kechirgan ana shunday mash’um kunlarni eslar ekanmiz, bugungi erkin va ozod hayotimizni asrash, uning qadriga yetish, hozirgi o‘ta notinch va tahlikali zamonda doimo hushyor, ogoh va sergak bo‘lib yashash zarurligini yanada chuqr anglaymiz.

BIZNING YO'LIMIZ – DEMOKRATIK ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH VA MODERNIZATSIYA JARAYONLARINI IZCHIL DAVOM ETТИRISH YO'LIDIR

*Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i
ma'ruzasi*

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

Qadrli do'stlar!

Shu kunlarda biz mamlakatimizning yangi tarixidagi qutlug‘ sana – mustaqil, suveren va demokratik O'zbekiston Respublikasini barpo etish yo'lida mustahkam poydevor bo'lib kelayotgan Asosiy Qonunimiz – Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 19 yilligini keng nishonlamoqdamiz.

Avvalambor, mana shu muhtasham zalda to'plangan siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda butun xalqimizni ushbu ulug‘ ayyom bilan chin qalbimdan muborakbod etish va shu imkoniyatdan foydalanib, barchangizga samimiy hurmat va ehtiromimni izhor etish mena ulkan mammuniyat bag'ishlaydi.

Tom ma'nodagi tarixiy bu sanani har safar bayram qilar ekanmiz, Konstitutsiyamiz – Asosiy Qonunimiz qabul qilinishi bilan biz O'zbekiston kelajagini, yangitdan barpo etilayotgan davlatimizning chuqur mazmuni, ma'no va mohiyatini, siyosiy, iqtisodiy, gumanitar va ma'naviy taraqqiyotning, yurtimiz qiyofasini, uning xalqaro hamjamiyatdag'i o'rni va nufuzini tubdan o'zgartirib yuborgan mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilishning pirovard maqsadlarini aniq-ravshan belgilab olganimizni haqli ravishda yuksak baholaymiz.

Agarki muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, Konstitutsiyamizning hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydigan beqiyos ahamiyati va tarixiy rolini birinchi navbatda biz uchun mutlaqo yangi bo'lgan milliy davlatchilik va uning ijtimoiy-siyosiy tizimini yaratish, demokratik tamoyillar asosiga qurilgan siyosiy va iqtisodiy tizimni shakllantirish uchun zarur bo'lgan huquqiy poydevorni aynan Asosiy Qonunimiz belgilab bergenida ko'ramiz.

Ikkinchidan. Inson huuqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro hujjalarning prinsipial qoidalarini o'zida mujassam etgan

holda, Konstitutsiyamiz inson huquq va manfaatlari, uning erkinliklari davlat manfaatlaridan ustunligini mustahkamladi, odamlarimiz uchun munosib hayot sharoiti yaratishni o‘zining tub maqsadi etib belgiladi, ijtimoiy adolat tamoyillarini e’lon qildi.

Uchinchidan. Konstitutsiyamiz qonun ustuvorligi, uning barcha fuqarolar uchun tengligini va shuningdek, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishining huquqiy prinsipini belgilab berdi, ularning mustaqilligi, mustaqil hokimiyat tarmog‘i sifatida rivojlanishini kuchaytirishga, demokratik davlatning asosiy hal qiluvchi sharti bo‘lgan hokimiyatlar o‘rtasida o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali mexanizmini shakllantirishga qaratilgan qonuniy negizni yaratdi.

To‘rtinchidan. Konstitutsiyamiz xilma-xil fuqarolik jamiyatni institutlarining shakllanishi va rivojlanishi, siyosiy partiyalarning erkin faoliyati, ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va rivojlanishi uchun huquqiy baza yaratdi, saylov tizimining asosiy tamoyil va mexanizmlarini tasdiqladi, saylov erkinligi, odamlarimizning o‘z xohish-irodasini bildirish erkinligi kafolatlarini, har qaysi insonning hokimiyatning vakillik organlariga saylash va saylanish, fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqini mustahkamladi.

Beshinchidan. Milliy istiqlol g‘oyasini va umumbashariy qadriyatlarning eng yaxshi jihatlarini o‘zida mujassam etgan holda, Konstitutsiyamiz milliy an'analarimiz, ona tilimiz, xalqimizning bebaho qadriyatları va madaniy merosini tiklashni ta’minladi, insonning ma’naviy kamol topishi va har tomonlama uyg‘un rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Oltinchidan. Konstitutsiyamiz milliy, ko‘pukladli iqtisodiyotimiz asoslarini mustahkamladi, o‘zini oqlamagan, butunlay kasodga uchragan markazlashgan ma’muriy-taqsimot tizimidan erkin bozor iqtisodiyotiga qat’iyat bilan o‘tish uchun sharoit yaratib, xususiy mulkning ustuvorligini o‘rnatdi.

Yettinchidan. Asosiy Qonunimiz milliy xavfsizlik va mudofaa organlari tizimining shakllanishi va samarali faoliyat ko‘rsatishi, o‘zining ham ichki, ham tashqi siyosatini davlatimiz, xalqimizning oliy manfaatlari, el-yurtimizning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda mustaqil belgilaydigan mamlakatimizning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatidagi maqomining huquqiy asoslarini belgilab berdi.

Konstitutsiyamizda muhrlab qo‘yilgan tamoyil va qoidalalar asosida mamlakatimizda to‘laqonli, samarali amal qiladigan qonunchilik va huquqiy baza yaratildi. Bir so‘z bilan aytganda, Asosiy Qonunimiz huquqiy davlat qurish yo‘liga o‘tishimizning poydevorini qurib berdi.

Shu borada mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish jarayonlarining izchilligi va bosqichma-bosqichligi, biz tanlagan tadrijiy taraqqiyot yo‘li, biz uchun nomaqbul bo‘lgan, “shok terapiyasi” deb atalgan islohotlarni asossiz ravishda tezlashtirishning turli shakllaridan voz kechganimiz, chetdan qarz olish siyosatining puxta o‘ylangani va ehtiyyotlik bilan amalga oshirilgani, mamlakatimizning tarixiy, milliy va an‘anaviy o‘ziga xos xususiyatlarini har tomonlama hisobga olganimizni ta’kidlash muhim, albatta.

O‘ylaymanki, oradan yillar, necha o‘n yillar o‘tadi, lekin hayotimizda har tomonlama sinovdan o‘tgan, “Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmang”, “Islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun” degan qoida va tamoyillar o‘zining o‘tkir ahamiyati va dolzarbligini hech qachon yo‘qotmaydi, desam, ayni haqiqatni aytgan bo‘laman.

Biz tanlab olgan va mashhur besh tamoyilga asoslangan taraqqiyot modelining naqadar to‘g‘ri ekani siyosiy va iqtisodiy tizimni demokratlashtirish, umuman, mamlakatimiz hayotidagi tub o‘zgarishlar, O‘zbekistonning istiqlol yillardagi jadal rivojlanishi misolida o‘zining amaliy tasdig‘ini topmoqda.

O‘tgan davr mobaynida biz erishgan marralar haqida gapirar ekanmiz, hech shubhasiz, ko‘pchilikning hayrati va havasini uyg‘otadigan natijalar, ya’ni, yalpi ichki mahsulotimiz hajmining, aholi real ish haqi va daromadlarining yuksak o‘sish sur’atlarini; iqtisodiyotimizdagi tub tarkibiy o‘zgarishlar va mamlakatimizda ishlab chiqarish o‘zlashtirilgan mutlaqo yangi, raqobatdosh mahsulotlarning jahon bozoriga chiqarilayotganini; yurtimiz qiyofasini butunlay o‘zgartirayotgan inshootlar va ishlab chiqarish korxonalari, ijtimoiy obyektlar va turar-joy binolarini barpo etish bo‘yicha keng miqyosdagi buniyodkorlik ishlarini; ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash va aholini ijtimoiy himoya qilish sohalarida qo‘lga kiritayotgan ulkan yutuqlarimizni yorqin misollarda ko‘rish va anglash qiyin emas.

Ana shunday beqiyos o‘zgarishlarning amaliy, hayotiy natijasi sifatida yurtimizda bolalar va onalar o‘limi keskin qisqargani, aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi hozirgi kunda sobiq SSSR hududidagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biriga – 73 yoshga, ayollarimiz o‘rtasida esa 75 yoshga

yetganining o‘zi, o‘ylaymanki, hech kimni, avvalambor, shu yurda yashayotgan odamlarni befarg qoldirmaydi, albatta.

Hali-beri davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi tug‘dirayotgan muammolarga qaramasdan, Xalqaro valuta fondi tomonidan ta’kidlanganidek, O‘zbekiston dunyodagi sanoqli mamlakatlar qatorida so‘nggi 5 yil mobaynida yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha 8,5 foizga teng bo‘lgan yillik o‘sishini ta’minlab kelayotgani, joriy yilda ushbu ko‘rsatkich 8,3 foizdan kam bo‘lmasligi bizning alohida e’tiborga sazovor eng katta yutuqlarimizdan biridir.

O‘tgan yillar davomida O‘zbekistonimiz, yurtimizni yangilash va modernizatsiya qilish yo‘lida biz qo‘lga kiritgan va dunyo tan olayotgan mana shunday yutuq va marralar, hech shubhasiz, barchamizga, butun xalqimizga faxru g‘urur bag‘ishlashi tabiiydir.

Shu bilan birga, biz mamlakatimizda barqaror rivojlanadigan erkin iqtisodiyotga asoslangan ochiq huquqiy demokratik davlat qurish va inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari so‘zda emas, amalda eng oly qadriyat bo‘lgan, jahonda hurmat-e’tibor qozongan jamiyatni shakllantirishga qaratilgan uzoq va mashaqqatli yo‘lning faqat bir qismini bosib o‘tganimizni o‘zimizga yaxshi tasavvur etishimiz zarur.

Shuni unutmasligimiz lozimki, biz XXI asrda, intellektual qadriyatlar ustuvor bo‘lgan asrda, globallashuv jarayonlari shiddatli tus olayotgan va jahon bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan asrda yashamoqdamiz.

Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz darkor. Bunday zamonda, bunday sharoitda erishilgan yutuqlarga mahliyo bo‘lmasdan, havolanishga berilmasdan, tez o‘zgarib borayotgan dunyo bilan hamqadam bo‘lib yashash, vujudga kelgan vaziyatni hushyor aql-idrok bilan baholash, yuz berishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarning oldini olishga qodir bo‘lgan mamlakatgina muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

O‘ylaymanki, 2010 yil noyabr oyida Oliy Majlisimiz – Parlamentimiz tomonidan qabul qilingan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi mohiyat e’tibori bilan O‘zbekistonimiz yaqin va uzoq istiqbolda o‘z oldiga qo‘yayotgan yuksak maqsadlarga erishishning amaliy strategiyasi sifatida xizmat qilayotganini mammuniyat bilan ta’kidlash o‘rinlidir.

Bu haqda so‘z yuritganda, avvalo konstitutsiyaviy islohotlarni davom ettirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarning qonunchilik, huquqiy va normativ bazasini chuqurlashtirish va

kengaytirishning har tomonlama puxta o‘ylangan dasturini amalda joriy etishni nazarda tutamiz. Ushbu dastur, birinchi navbatda, davlat va jamiyat qurilishi sohasida; sud-huquq tizimida; fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minalash sohasida; saylov qonunchiligini yanada demokratlashtirish; fuqarolik jamiyatni institutlarini shakllantirish va rivojlantirish va niyoyat, mamlakatimizda olib borilayotgan bozor islohotlari va bozor infratuzilmasining samaradorligi va ta’sirchanligini oshirish sohasidagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi.

Mamlakatimizni demokratlashtirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha konsepsiyada o‘z ifodasini topgan islohotlar bir-ikki yilga emas, balki o‘nlab yillarga mo‘ljallangan hal qiluvchi muhim vazifa ekanini biz albatta yaxshi anglaymiz.

Bu dastur o‘z ma’no-mazmuni bilan bugungi kunda oldimizda turgan eng yuksak maqsad bo‘lmish – mamlakatimizni rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga ko‘tarish, xalqimiz uchun munosib turmush sharoiti yaratishga qaratilgan ezgu ishlarmizni o‘zida mujassam etib, jamiyatimiz uchun davr sinovidan o‘tgan yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘l, deb qabul qilishimiz zarur.

Aziz vatandoshlar!

Ayni shunday buyuk maqsadlarni o‘z oldimizga qo‘yar ekanmiz, bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifasi – Konsepsiyada va uni amalga oshirish strategiyasida o‘z ifodasini topgan olijanob maqsadlar barcha-barcha yurdoshlarimiz uchun hayot mazmuni va amaliy intilishlarga aylanib borishini istardim.

Soddaroq qilib aytganda, saxovatli O‘zbekiston zaminida yashayotgan har qaysi odam mamlakatimizda olib borilayotgan va ko‘zda tutilayotgan barcha islohotlar avvalambor uning manfaati, uning oilasi va farzandlari uchun, shu yurtning farovonligi va taraqqiyoti uchun amalga oshirilayotganini aniq-ravshan anglab yetishi niyoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun hammamiz o‘z ustimizda ishlashimiz, avvalo, huquqiy madaniyat, huquqiy ongimizni yuksaltirishimiz, siyosiy faolligimiz va fuqarolik mas’uliyatimizni oshirishni bugungi kunda oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biri sifatida qabul qilishimiz darkor. Chunki, ongi, tafakkuri, e’tiqodi mustahkam bo‘lgan, o‘z mustaqil fikri bilan yashayotgan odamni chalg‘itib ham, kimilardir xohlagan tomonga og‘dirib ham bo‘lmaydi.

Bu haqiqatni barchamiz, avvalo, bugun hayotga kirib kelayotgan

yoshlarimiz yaxshi anglab olganiga ishonaman. Qolaversa, bunday qarash, bunday yondashuv bilan yashash biz barpo etayotgan huquqiy davlatning eng muhim tarkibiy qismi, jamiyatimizni o'zgartirish va yangilashning asosiy shartidir, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Albatta, bugungi kunda ushbu yo'nalishda davlat va jamoat tashkilotlari, nohukumat tuzilmalar tomonidan, ma'rifat idoralari, maktablarimiz, mamlakatimizning barcha ta'lim muassasalari tarafidan ko'p ishlar qilinmoqda. Lekin shuni ham tan olish kerakki, bu ishlarning miqyosi, saviyasi, sifati va eng asosiysi, samaradorligi zamon talablariga to'liq javob bermaydi.

Bu masalaning yana bir muhim tomoni borki, unga alohida to'xtalib o'tish o'rini, deb bilaman.

Hech kimga sir emas, bugungi kunda mustaqillikka, mana shu yorug' kunlarga erishish yo'lida kechirgan sinov va mashaqqatlarni, istiqlolimizning ma'no-mazmunini soxtalashtirishga qaratilgan turli harakatlar tobora ortib borayotganini ko'rish, kuzatish qiyin emas.

Avvalo, sobiq sovet hududida eski mustabid tuzumni ko'rmagan, bu haqda yetarli ma'lumotga ega bo'lмаган yoshlarga nisbatan turli soxta talqin va uydirmalarni ishlatib, ularning ongida kechagi sovet davrini qo'msash tuyg'usi va kayfiyatini uyg'otishga qaratilgan urinishlar namoyon bo'lmoqda.

Bunday harakatlarda sovet imperiyasi bo'lmish sobiq Ittifoqning parokanda bo'lishini tabiiy-qonuniy va mantiqiy hol deb baholamaslik, buning sababini avvalambor bu tizimning siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy asoslarining noqobilligida ko'rmaslik holatlari yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Shu borada yana bir masalaga urg'u berishimiz zarur.

Bugungi zamonnинг talablari, taraqqiyot sur'atlarini yanada tezlashtirish vazifalari, birinchi navbatda, hali-beri davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini yengish zarurati integratsiyalashuv jarayonlarini yanada kengaytirish kabi o'tkir masalalarni kun tartibiga qo'yayotganini biz yaxshi anglaymiz. Ya'ni, davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsion aloqalar, tovar almashish yo'lidi chegara va bojxona to'siqlarini olib tashlash hozirgi kunda naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanini tasavvur qilish qiyin emas.

Shu munosabat bilan bir muhim narsadan doim sezgir bo'lishimiz darkor. Ya'ni, integratsiyalashuv jarayonlarini ko'zlab, shu maqsadda turli

davlatlararo birlashmalarni tashkil qilish bo‘yicha so‘z yuritganda, aytish kerakki, bunday birlashmalar vaqt kelganda tobora siyosiy tus olib borishi va bunday holat birlashma a’zolarining boshqa xorijiy mamlakatlar bilan aloqalari va hamkorligiga salbiy ta’sir o’tkazishi mumkin.

Bu haqda gapirganda, mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida yaqin va o‘rta istiqbolga mo‘ljallangan, iqtisodiyotimiz va uning yetakchi tarmoqlarini tubdan modernizatsiya va diversifikatsiya qilishga qaratilgan zamonaviy yuksak texnologiyalar va innovatsiyalarini jalg etish dasturini amalga oshirish eng muhim ustuvor yo‘nalishdir.

Biz uchun g‘oyat muhim bo‘lgan bu masalani hal etish yo‘lida hamkorlik qilishga tayyor bo‘lgan barcha sheriklarimiz bilan, ularning qayerda joylashganidan qat’i nazar, aloqalarimizni yanada rivojlantirish va mustahkamlash vazifasi aynan shu maqsadga bo‘ysundirilishi kerak.

Buning uchun biz bugun olib borayotgan, mamlakatimizda eng qulay investitsion iqlimi tashkil qilishga, manfaatdor tomonlarga uzoq muddatli va ishonchli imtiyoz hamda preferensiyalar berishga qaratilgan siyosatni davom ettirishga tayyormiz. Bunday siyosatni amalga oshirish uchun kimningdir ruxsatini olish emas, avvalo, O‘zbekistonimiz manfaatini ko‘zda tutishimiz talab qilinadi.

Aziz yurtdoshlarim, yuqorida zikr etilgan fikrlarni umumlashtirib, aytmoqchiman: tarixni aslo orqaga qaytarib bo‘lmaydi. Bizning xalqimiz, keyingi yigirma yil davomida voyaga yetgan navqiron avlodimiz hozirgi vaqtida ertangi kelajagimizga katta ishonch bilan qaramoqda va o‘z tanlab olgan yo‘lidan hech qachon – men takror aytaman – hech qachon ortga qaytmaydi.

Hurmatli do‘sstar!

Bundan roppa-rosa bir yil oldin Konstitutsiya kuniga bag‘ishlangan majlisda mamlakatimizda odatga aylangan an‘anani davom ettirib, 2011 yilga “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” deb nom berishga qaror qilgan edik.

Joriy yilga aynan shunday nom berishni ma’qul topganimizning asosiy sabab va omillari haqida jamoatchiligidimiz, xalqimiz yaxshi xabardor.

Lo‘nda qilib aytadigan bo‘lsak, avvalo, biz tanlagan va maqsad qilib qo‘ygan zamonaviy demokratik davlat qurish, xalqimizning hayot darajasini munosib bosqichga ko‘tarish, bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyotga o‘tish uchun xususiy mulk ustuvorligini tan olish hisobidan taraqqiy topayotgan mamlakatlar tajribasini inobatga olgan

holda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l oshib berish – yuqorida zikr etilgan maqsadlarga erishishning uzviy bir qismidir.

Shuni ta’kidlash lozimki, Konstitutsiyamizda muhrlab qo‘yilgan maqsad, prinsip va qoidalarni amalga oshirish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini izchil rivojlantirish masalasi biz mustaqillikka erishgan dastlabki davrdan boshlab davlatimizning ustuvor vazifasi darajasiga ko‘tarilgani barchamizga ma’lum.

Bunday siyosatni, chuqur o‘ylangan va uzoqni ko‘zlagan dasturlarni amalga oshirish natijasida bu soha yurtimizda nafaqat qaytadan shakllandi, balki uning mustahkam poydevori yaratildi. Eng muhimi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida hal qiluvchi tarmoqqa, ijtimoiy faol aholimizning katta qismini qamrab olgan sohaga aylandi. Hozirgi vaqtda – shunga urg‘u berib aytmoqchiman – ish bilan band aholimizning 74 foizdan ortig‘i aynan shu sohada mehnat qilayotgani buning yaqqol tasdig‘idir.

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti va xalqaro bozor talablari tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgani, uch yil oldin boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, ko‘zga ko‘ringan ko‘pgina ekspertlarning prognozлari bo‘yicha yana davom etishi, yangi to‘fon va zarbalar yuz berishi mumkinligini inobatga oladigan bo‘lsak, bunday sinovlarning oldini olish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojiga yanada katta e’tibor berayotganimizning sababi yaqqol ayon bo‘ladi.

Buning ustiga, bugun zamonning o‘zi, jahon bozorida raqobat g‘oyat keskinlashib, avjiga chiqayotgani va tobora shafqatsiz tus olayotgani kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning amaliy hayotimizda yanada keng o‘rin egallashi, bu soha uchun yangi imkoniyat, imtiyoz va preferensiyalar yaratib berish va uning rivojini yangi bosqichga ko‘tarish masalalari mutlaqo boshqacha ma’no-mazmun topishini hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, aholimizni ish bilan ta’minalash, uning daromadlarini yanada oshirish, qisqacha aytganda, barqaror hayotimizni yanada mustahkamlashdek o‘ta dolzarb masalalarni hal qilishda alohida o‘rin egallab borayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojiga yangi turki berish, bu soha oldida turgan to‘sqliarni bartaraf qilish bugungi va ertangi kunimiz uchun nechog‘li katta ahamiyatga ega ekani to‘g‘risida gapirish ortiqcha, deb o‘ylayman.

Ayni shunday murakkab muammolarning yechimini topish haqidagi

bosh qotirar ekanmiz, 2011 yilga “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” deb nom berganimiz naqadar dolzARB ekanini va bu yo‘nalish yaqin va uzoq kelajagimizda, hech shubhasiz, hal qiluvchi o‘rin egallashiga amin bo‘lishimiz tabiiydir.

Endi joriy yilda bu sohada amalga oshirgan ishlarimiz haqida qisqacha gaplashib olishni o‘rinli, deb bilaman.

Hammamiz tushunamizki, yil yakuni bilan bu yo‘nalishda qabul qilgan dasturimizning ijrosi haqida, bu masalaga daxldor bo‘lgan davlat idoralari, ijtimoiy va nodavlat tashkilotlar shu borada qanday hissa qo‘sghanlari va bu sohada biz nimalarga erishayotganimiz haqida atroflicha xulosa chiqarish vaqt keladi, albatta.

Men, bugungi fursatdan foydalaniB, sizlarning ruxsatingiz bilan bu masalaning faqat ikki yo‘nalishiga e’tibor qaratishni zarur deb hisoblayman. Ya’ni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi taraqqiyotining sur’at va samaradorligini yanada oshirish maqsadida qabul qilingan qonunlar, farmon va qarorlar asosida berilgan yangi imtiyoz va preferensiyalar, qulayliklar, bir so‘z bilan aytganda, bu yo‘nalishni yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha qilingan amaliy ishlar haqida va bu tadbirlar tufayli erishgan natijalarimiz to‘g‘risida qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Bu haqda gapirganda, avvalo, kichik biznes subyektlarini ular davlat ro‘yxatiga olingan paytdan boshlab dastlabki rejali soliq tekshiruvlaridan o‘tkazmaslik muddati 2 yildan 3 yilga uzaytirilgani, barqaror o‘sish sur’atlari va rentabellikni ta’milagan subyektlarni tekshirishdan o‘tkazish mutlaqo taqilanganini qayd etish lozim.

Shular qatorida davlat va nazorat organlarining tadbirkorlik subyektlari moliya-xo‘jalik faoliyatiga aralashuvini keskin qisqartirish masalasi yil davomida doimiy e’tiborimiz markazida bo‘lganini ko‘p misollarda ko‘rish mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yagona soliq to‘lovi stavkasi 7 foizdan 6 foizga tushirilgani, yangi tashkil etilayotgan kichik korxonalarini ro‘yxatdan o‘tkazish paytidagi va undan keyingi tartib-qoidalarni yanada soddallashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan choratadbirlar bu borada muhim ahamiyat kasb etganini ta‘kidlash o‘rinlidir.

Aytish kerakki, bugungi kunda o‘z xususiy ishini ochmoqchi bo‘lgan tadbirkorlar 2 kun davomida tegishli ruxsat olish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu muddat rivojlangan davlatlardagi mavjud mezonlarga har tomonlama mos keladi. Eng muhimi, tegishli tashkilotga borib, eshikma-eshik

yurishga butunlay barham berilib, “bitta darcha” tamoyili joriy etilgani ko‘pchilik tadbirkorlar uchun ayni muddao bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarini davlat xaridlariga keng jalb etish mexanizmi yo‘lga qo‘yilib, bu ishlar O‘zbekiston tovarxomashyo birjasida elektron savdolar orqali olib borilayotgani alohida e’tiborga sazovordir.

Kichik biznes subyektlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni sotish hajmi o‘tgan davr mobaynida qariyb 2 barobar ko‘payib, 600 milliard so‘mni tashkil etgani, zarur xomashyo resurslarini qo‘shib hisoblaganda, bu ko‘rsatkich 2 trillion 800 milliard so‘mdan oshgani ana shunday tadbirlar natijasidir. Yana shuni qayd etish lozimki, ayni shu mexanizmni tadbiq etganimiz tufayli 13 milliard so‘mdan ortiq budget mablag‘ini tejashga erishildi.

Bugungi kunda biz kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda faqat savdo-sotiqlar, mayda hunarmandchilik bilan cheklanib qolmasdan, bиринчи navbatda zamonaviy texnologiya va asbob-uskunalar asosida sanoat mahsulotlari ishlab chiqaradigan, ichki va tashqi bozordagi o‘zgarishlarga tez moslashadigan xususiy tadbirkorlik sohasini taraqqiy ettirishga alohida ahamiyat bermoqdamiz.

Joriy yilning 9 oyi davomida tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 3 trillion 200 milliard so‘m miqdorida kredit ajratilib, ularning uchdan bir qismidan ko‘prog‘i zamonaviy asbob-uskunalar xarid qilish uchun berilgani ayniqsa e’tiborlidir.

Ana shu davr, ya’ni joriy yilning 9 oyi davomida ushbu yo‘nalishda qariyb 100 million AQSH dollari miqdorida mablag‘ o‘zlashtirilganining o‘zi bugungi kunda kichik biznesning salohiyati va qiyofasi tobora o‘zgarib borayotganining dalilidir.

Shu borada amalga oshirilgan chora-tadbirlar tufayli kichik korxonalarining eksport hajmi 2011 yilning o‘zida 2 milliard AQSH dollaridan oshishi, ularning yalpi eksportdag‘i ulushi esa 16,3 foizga yetishi kutilmoqda.

Bunday salmoqli ko‘rsatkichlarni avvalambor sohani zamonaviy uskuna va texnologiyalar bilan jihozlash, ushbu tarmoqda mehnat qilayotgan ishchi-muhandislarning malakasi, kichik biznes va xususiy korxona egalarining ishbilarmonlik mahorati tobora oshib borayotganining yorqin namoyoni sifatida qabul qilish o‘rinli bo‘ladi.

Mazkur sohaning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim masalalardan yana biri – bu joriy yilda yurtimizda yaratilgan qariyb 1 millionga yaqin ish o‘rnining 610 mingdan ziyodi yoki 64 foizi aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hisobidan tashkil etilgani, hech shubhasiz, bu tarmoq, takror aytaman, O‘zbekiston uchun eng dolzarb masalalardan biri bo‘lmish aholini ish bilan band qilishda yetakchi o‘rin egallab borayotganining yaqqol tasdig‘idir.

O‘tib borayotgan yilda amalga oshirilgan bunday keng ko‘lamli ishlar haqidagi fikrlarni yana davom ettirish mumkin. Bularning amaliy natijasi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi hozirgi vaqtda – shunga alohida e’tibor berishingizni so‘rayman – 54 foizni tashkil etishining o‘zi, o‘ylaymanki, ko‘p narsani anglatadi.

Aziz yurtdoshlar!

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz taraqqiyotida, avvalambor, xalqimiz uchun munosib hayot barpo etish, oldimizda turgan murakkab va mas’uliyatli vazifalarni amalga oshirish borasida qanday hal qiluvchi o‘rin va ta’sirga ega bo‘lib borayotganiga bugun amaliy hayotimizda har qadamda guvoh bo‘lmoqdamiz. Va bu soha ertangi kunimiz, istiqbolimizning haqiqatan ham mustahkam poydevoriga aylanib, yanada rivojlanib borishi aniq va muqarrardir.

Tabiiyki, O‘zbekistonimizda mazkur sohaning rivojlanishi uchun astoydil harakat qilayotgan barcha biznes egalari, shu tarmoqda o‘rnini topib, o‘z oilasi uchun munosib yashash sharoitini yaratayotgan, farovon hayot sari qadam qo‘yayotgan insonlar ayni shu yo‘ldan hech qachon qaytmaydi, desam, o‘ylaymanki, barchangiz bu fikrga qo‘shilasiz.

Shu borada yana bir muhim xulosa.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojidan manfaatdor bo‘lgan mulk egalari, jamiyatimizning suyanchi va tayanchiga aylanib borayotgan, o‘rtalik deb nom olgan bu ijtimoiy qatlam o‘z uyi, o‘z mulkini himoya qilish, buning uchun yurtimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning qanchalik muhim ekanini har tomonlama anglab, hal qiluvchi kuch sifatida maydonga chiqishi ertangi kunimizning yanada yorug‘ bo‘lishiga ishonch bag‘ishlaydi.

Fursatdan foydalanib, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan, o‘zini shu zamin, shu diyorning chinakam yurtparvari deb biladigan, hayotimizda tinchlik va osoyishtalik, ahillik va hamjihatlikni saqlashga ulkan hissa

qo'shib kelayotgan barcha insonlarga chin qalbimdan samimiy hurmatimni bildirish va ularga yangi-yangi omadlar tilashni o'zim uchun ham qarz, ham farz deb bilaman.

Muhtaram vatandoshlar!

Endi sizlar bilan kirib kelayotgan yangi – 2012 yilga nom berish haqida fikr almashib, bir qarorga kelishimiz lozim.

Avvalo, har qaysi yilga nom berishdan asosiy maqsad – butun xalqimiz, jamiyatimizning orzu-niyat va intilishlarini ifoda etadigan, ertangi kunimizning ravnaqiga xizmat qiladigan eng ustuvor yo'nalishni aniq belgilab olish va uni amalga oshirish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishdan iborat ekanini yana bir bor anglab olishimizni istardim.

Albatta, ijtimoiy hayotimizda bir-biridan muhim, bir-biridan zarur vazifalar ko'pligini hammamiz yaxshi tushunamiz. Shular qatorida bugungi kunda eng dolzarb, el-yurtimiz, avvalo, inson manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadigan har tomonlama muhim yo'nalishni aniqlab olish bu borada alohida ahamiyatga ega.

Hech kimga sir emas, bu dunyoda har qaysi inson voyaga yetib, kasbhunarga ega bo'lib, hayotda o'z o'rni va kelajagini aniqlab, oila qurishni istaydi.

Ongli yashaydigan har bir odam yaxshi anglaydiki, bu yorug' olamda hayot bor ekan, oila bor. Oilab ekan, hayot abadiyligi, bebahon ne'mat bo'lmish farzand bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha kelajagini o'ylab, ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi.

Bugungi kunda biz hech kimdan kam bo'lmaydigan demokratik davlat, xalqimiz uchun ozod va farovon hayot qurish maqsadlari bilan yashar ekanmiz, oila institutini yanada mustahkamlash, bu borada olib borayotgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bularning barchasini inobatga olgan holda, sizlarning ruxsatingiz bilan, kirib kelayotgan yangi – 2012 yilga yurtimizda "Mustahkam oila yili" deb nom berishni taklif etaman.

Yangi yilga mana shunday nom berishimiz, azal-azaldan xalqimiz uchun muqaddas bo'lmish oilani hayotimiz tayanchi va suyanchi, jamiyatimizning hal qiluvchi asosiy bo'g'ini deb qabul qilishimiz zamirida, hech shubhasiz, juda katta ma'no-mohiyat mujassam. Chunki, oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqaror. Buni isbotlab, tasdiqlab berishning hech qanday hojati yo'q.

2012 yilga “Mustahkam oila yili” deb nom berishimiz munosabati bilan davlat idoralari, nodavlat va ijtimoiy tashkilotlar, xayriya jamg‘armalari bilan birgalikda ishlab chiqilib qabul qilinadigan dasturda ayni shunday ezgu tushuncha, orzu-intilishlarimiz o‘z ifodasini topishi lozim.

Bu haqda gapirganda, avvalo, mamlakatimizda oila institutini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha yangitdan qabul qilinadigan qonun, qoida va normalarda bugungi va ertangi kunimizning talablari aks etishi, amaldagi qonun hujjatlariga zarur o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, bu masalaga jamiyatimizning e’tiborini yanada kuchaytirish ko‘zda tutilayotganini ta’kidlash kerak.

Ikkinchidan, barchamiz yaxshi tushunamiz, mustahkam oila va baxtli turmush avvalambor oila quradigan yoshlarning o‘ziga, ularning aql-zakovati, ma’naviy fazilatlariga, oila, jamiyat oldidagi o‘z burchi va mas’uliyatini chuqur anglab yetishiga bog‘liq.

Bu haqiqatni hech kim inkor etolmaydi. Lekin, endi paydo bo‘lgan, katta umid bilan hayotga qadam qo‘yayotgan yosh oilani moddiy va ma’naviy jihatdan keng qo‘llab-quvvatlash, ularga ko‘mak, imtiyoz va imkoniyatlar yaratib berish, avvalo, uy-joy bilan ta’minalash – bularning barchasi uchun nafaqat ota-onalar, birinchi navbatda davlat va jamiyatimiz mas’uldir, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Albatta, bugungi kunda yurtimizda yosh oilalarga ko‘rsatilayotgan e’tibor va g‘amxo‘rlik haqida ko‘p gapirish mumkin. Shu bilan birga, xolisona tan olishimiz darkor – ana shunday sa’y-harakatlarimizni izchil davom ettirish, qayerda bo‘lmasin, markazda, shahar yoki qishloq joylarda bo‘ladimi, ezgu maqsadlarimizning har tomonlama tasdig‘ini ko‘rish uchun hali juda ko‘p ishlarni amalga oshirishimiz kerak.

Shu haqda gapirar ekanmiz, bu mas’uliyatli vazifalarni muvaffaqiyatli ado etish birinchi navbatda davlat idoralarining rahbarlari, keng jamoatchiligidimiz, turli ijtimoiy tuzilmalarning tashabbusi va amaliy harakatlariga bog‘liq ekani barchamizga ayon bo‘lishi darkor.

Uchinchidan, “mustahkam oila” degan g‘oyaning hayotimizdagи amaliy ifodasini ko‘rishda, hech shubhasiz, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idorasi sifatida nom qozongan mahalla tizimining o‘rnini va ta’siri beqiyosdir. Buning isbotini bugun har qadamda ko‘rayotganimizni ta’kidlab o‘tishni istardim.

Haqiqatan ham, bunday noyob ijtimoiy tuzilma hozirgi kunda

“Mahalla – xalq vijdoni” degan yuksak ta’rifga har taraflama munosib bo‘lib bormoqda.

Ayniqsa, yosh oilani hayotning turli to‘fonlaridan asrash, uning mustahkam oyoqqa turib olishi uchun yelkadosh bo‘lish, bu borada zarur ko‘mak, maslahat ko‘rsatishda mahallaning roli va ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydi.

O‘yaymanki, qabul qilinadigan dasturda mahalla idorasining jamiyatimizdagi, kundalik hayotimizdagi mohiyatini kengaytirish va nufuzini yanada oshirish masalalariga alohida ahamiyat berish o‘rinlidir.

To‘rtinchidan, oilani yanada mustahkamlash haqida so‘z yuritar ekanmiz, men bu masalaning yana bir muhim jihatiga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Oila oldida turgan vazifalarni har tomonlama amalga oshirish – avvalambor, moddiy, ma’naviy, bugun o‘ta dolzarb bo‘lib borayotgan tarbiyaviy muammolarni yechish, oilaning barcha-barcha tashvishlarini osonlashtirish kabi muhim masalalarni hal etish bilan bog‘liq ekanini, o‘yaymanki, hammamiz yaxshi tushunamiz.

Aynan ana shunday masalalarni hal etish har qaysi oilaning yukini hech nolimasdan, hayotga shukrona qilib, o‘z yelkasida ko‘tarib kelayotgan, oila qo‘rg‘onining ham chiroyi, ham charog‘boni bo‘lgan ayol zotining, opa-singillarimizning og‘irini yengil qilish bilan barobar ekanini esimizdan chiqarmasligimizni istardim. Ana shunday muhim vazifalarni amalga oshirish uchun dasturda aniq chora-tadbirlar ko‘zda tutilishi zarur.

Beshinchidan, biz ma’naviy hayotimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni keng qaror toptirishda, tobora kuchayib borayotgan, bizning milliy tabiatimiz, urf-odatlarimizga mutlaqo zid bo‘lgan har qanday zararli ta’sirlar, buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi turishda, azaliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashda oilani mustahkam tayanch deb bilamiz.

Shu borada ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan yetuk, o‘z mustaqil fikriga ega, oqni qoradan ajratishga, taraqqiy topgan davlatlardagi tengdoshlari bilan bellashishga qodir bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash, ularning sog‘lig‘ini asrash, hayotga yo‘llashda oilaning o‘rnini hech narsa bilan baholab bo‘lmasligini biz yuksak qadrlaymiz.

Shu ma’noda, oila institutining ta’lim-tarbiya sohasi bilan – bu bolalar bog‘chasi yoki maktab bo‘ladimi, litsey-kollejlar yoki oliy o‘quv yurtlari bo‘ladimi – ana shunday muassasalar bilan amaliy hamkorligini yanada kuchaytirish vazifalari dasturda muhim joy egallashi zarur.

Aziz vatandoshlarim, qadrdonlarim!

Biz yangi yilda o‘z oldimizga mana shunday olijanob maqsad va vazifalarni qo‘yar ekanmiz, bunday intilishlarimizni amalga oshirish uchun davlat va hokimiyat idoralari, mahalla, xotin-qizlar va yoshlar tashkilotlari, keng jamoatchilik, butun xalqimiz bir yoqadan bosh chiqarib, faol ishtirok etadi, deb ishonaman.

Biz bugun qanday og‘ir va murakkab, tahlikali bir zamonda yashayotganimiz, o‘ylaymanki, hech kimga sir emas. Lekin, biz tanlagan yo‘l qanday qiyin va mashaqqatli bo‘lmasin, men ishonch bilan takror aytaman – biz bu yo‘ldan hech qachon qaytmaymiz va o‘z maqsad-murodimizga albatta yetamiz.

Ayni shu yo‘lda Yaratganimizning o‘zi el-yurtimizni yomon ko‘zlardan asrasin, ezgu orzu-niyatlarimizni ro‘yobga chiqarishda o‘zi madadkor bo‘lsin.

O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI

Aziz vatandoshlar!

Muhtaram do'stlar!

Mana shu fayzli oqshomda bayram dasturxoni atrofida jamuljam bo'lib, yangi yilni kutib olayotgan siz azizlarni, butun xalqimizni ushbu qutlug' ayyom bilan chin qalbimdan tabriklab, barchangizga o'zimning samimiy hurmat va ehtiromimni bildirishdan baxtiyorman.

Mana shu shukuhli damlarda yakuniga yetayotgan 2011 yilni kuzatar ekanmiz, mamlakatimiz taraqqiyotida ro'y bergan ulkan o'zgarish va yangilanishlar, qo'lga kiritilgan yutuq va marralar qatorida o'z oilamiz va yaqinlarimiz boshidan kechirgan tashvish va muammolar, yangilik va xursandchilik yetkazgan kunlar barchamizning ko'z o'ngimizda beixtiyor namoyon bo'lishi tabiiydir.

O'ylaymanki, hammamiz bir fikrga qo'shilamiz – 2011 yil eng avvalo el-yurtimizni yangi, obod va ozod, erkin va farovon hayot qurishga boshlagan buyuk tarixiy va qutlug' sana – Vatanimiz mustaqilligining 20 yilligini keng nishonlash yili bo'lgani bilan xotiramizda saqlanib qoladi.

Shu ma'noda, 2011 yilni biz bosib o'tgan 20 yil mobaynida xalqaro maydonda tan olingen, o'zgalarning havasini tortayotgan, yurtimizning, o'lkamizning qiyofasini tobora o'zgartirib borayotgan mamlakatimiz taraqqiyot yo'lining uzviy bir qismi, mantiqiy davomi, deb qabul qilsak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Hech kimga sir emas, har qaysi yilning kelishi o'ziga xos xususiyatlari, tabiat va harorat injiqqliklari va o'zgarishlari, suv tanqisligi va turli alomatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Lekin, poyoniga yetayotgan yil qanday qiyinchilik va murakkablik keltirmasın, 2011 yil mamlakatimiz va xalqimiz uchun samarali va xosiyatli bo'ldi, deb aytishga to'liq asoslarimiz bor.

Dunyodagi eng nufuzli moliyaviy tashkilotlardan biri bo'lmish Xalqaro valuta fondi tomonidan ta'kidlanganidek, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining davom etishi va salbiy ta'sir o'tkazishiga qaramasdan, O'zbekiston sanoqli davlatlar qatorida 2011 yilda ham yalpi ichki mahsulotning 8,3 foizga o'sishini ta'minlab, shu asosda oxirgi 5-6 yil davomida iqtisodiy optimizning barqaror yuqori sur'atlar bilan rivojlanishi bejiz emasligini isbotlab berdi.

Joriy yil davomida mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, hayotimizning barcha jabhalarini erkinlashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish yo‘lida katta ishlar amalga oshirilganini ko‘p-ko‘p misollarda yaqqol ko‘rish mumkin.

O‘tgan davr mobaynida ilgari faqat orzu qilish mumkin bo‘lgan marralarga erishganimiz avvalambor biz tanlagan yo‘lning har tomonlama to‘g‘ri ekanini tasdiqlab bermoqda. Xususan, iqtisodiyotimizning lokomotivi bo‘lmish yangi ishlab chiqarish tarmoqlariga asos solganimiz, o‘nlab zamonaviy korxonalar ishga tushirilgani, yoqilg‘i-energetika, tog‘-kon sanoati, kimyo, avtomobilsozlik, kapital qurilish, transport va kommunikatsiya, yengil sanoat kabi yetakchi tarmoqlarning jadal rivojlanib borayotgani ana shunday yutuqlarga mustahkam poydevor bo‘lmoqda, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Ayniqsa, fidoyi dehqon va fermerlarimizning bu yilgi mavsumda og‘ir tabiiy qiyinchiliklarni mardonavor yengib, 6 million 800 ming tonna g‘alla, 3 million 500 ming tonnaga yaqin paxta xirmoni bunyod etgani, 8 million 200 ming tonnadan ziyod sabzavot va poliz, qariyb 3 million tonna bog‘dorchilik mahsulotlari yetishtirib, yangi yilni yorug‘ yuz bilan kutib olayotgani har qancha tahsinga sazovordir.

Iqtisodiyot sohasida biz erishgan ana shunday salmoqli natijalar o‘z navbatida 2011 yilda ish haqi, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori 20,2 foizga, pensiyalar 26,2 foizga ko‘payishi, aholining real daromadlari esa 23,1 foizga oshishi uchun imkoniyatlar tug‘dirib bergenini alohida qayd etish zarur.

Shu borada 2011 yilda iqtisodiyotimizni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik sohasi uchun keng imkoniyat va imtiyozlar yaratib berish hisobidan mamlakatimizda 1 millionga yaqin ish o‘rnini tashkil etilgani bandlik masalasini hal qilishda muhim qadam bo‘ldi.

Yakuniga yetayotgan yil inson manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yadigan ulkan ustuvor loyihalarni amalga oshirganimiz bilan ham tariximizda munosib o‘rin egallaydi. Mustaqillik yillarda aholi salomatligini mustahkamlash yo‘lidagi amaliy ishlarimiz natijasida odamlarimizning o‘rtacha umr ko‘rish darajasi sezilarli ravishda oshgani, onalar va bolalar o‘limi keskin kamaygani, biz qo‘lga kiritgan bunday yutuqlar Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, YUNISEF va boshqa nufuzli xalqaro

tashkilotlar tomonidan yuksak e'tirof etilayotgani albatta barchamizga katta g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Biz uchun o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya sohasida 2011 yilda bajargan ulug' vor ishlarimiz, ularning samarasi haqida ortiqcha gapirishning hojati yo'q, deb o'ylayman. Eng muhimi, ana shunday beqiyos imkoniyatlardan bahramand bo'lib, tobora Vatanimiz istiqbolini belgilab beradigan hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan navqiron o'g'il-qizlarimiz o'zining dastlabki, umidbaxsh yutuqlari bilan barchamizni quvontirmoqda.

Shu haqda gapirar ekanmiz, bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimizni istardim. Ko'pni ko'rghan, zahmatkash xalqimizning mashaqqatli mehnati evaziga erishgan, tasavvur etishning o'zi qiyin bo'lgan bunday yuksak marralarimizning poydevori, eng katta boyligimiz bo'lmish – yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlik, mehr-oqibat va bag'rikenglikni, millatlararo totuvlikni ko'z qorachig'idek asrash, bugun biz boshimizdan kechirayotgan notinch va tahlikali zamonda doimo hushyor, ogoh va sezgir bo'lib yashash, yoshlarimizni milliy g'oya ruhida tarbiyalash, ularning ongi va qalbini turli zararli ta'sirlardan himoyalash hozirgi kunda naqadar dolzarb va muhim vazifaga aylanayotganini unutmasligimiz darkor.

Aziz do'stlarim, qadrdonlarim!

Biz kirib kelayotgan yangi – 2012 yilga mamlakatimizda “Mustahkam oila yili” deb nom berganimiz bejiz emas, albatta. Buning negizida yurtimizda oila institutini, avvalo, yosh oilalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, oila tayanchi bo'lgan ayollarimizning og'irini yengil qilish, mahalla tizimining bu boradagi rolini kuchaytirish, muxtsasar aytganda, oila farovonligini va shu asosda butun xalqimiz farovonligini yanada oshirish kabi maqsadlar mujassam ekanini, o'ylaymanki, hammamiz yaxshi tushunamiz.

Yangi – 2012 yilga mo'ljallangan rejalarimizda Davlat budgetining 60 foizi ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, uning aksariyat qismi yuqorida zikr etilgan sohalarni ta'minlashga, avvalo sog'liqni saqlash, ta'lim-tarbiya, ilm-fan, madaniyat tarmoqlarini yuksaltirishga qaratilgan. Ish haqi, pensiya, ijtimoiy nafaqa va stipendiyalar miqdori 20 foizga, aholining real daromadlari esa 22-24 foizga ko'payishi belgilanmoqda.

Yangi yilda ikki yil oldin boshlangan va xalqimizni, avvalambor

qishloq joylarda yashayotgan aholining kelajagini o‘ylab amalga oshirilayotgan, butun jamiyatimizning e’tibor markazida turgan, ya’ni qishloq infratuzilmasini rivojlantirish, namunaviy loyihamar asosidagi uy-joylarni qurish, kommunal-maishiy sharoitlarni yaratishga qaratilgan dasturni davom ettirish ko‘zda tutilmoxda. 2011 yilda 7 ming 400 ta oila umumiy maydoni 1 million 100 ming kvadrat metr bo‘lgan, har tomonlama qulay uy-joylarga, zamonaviy sharoitlarga ega bo‘lgan bo‘lsa, 2012 yilda 8 ming 510 ta oila shahar sharoitidan hech kam bo‘lmagan ana shunday yangi uy-joylarga ko‘chib kirishi mo‘ljallanmoqda.

Yangi yilga mana shunday oljanob maqsadlar bilan qadam qo‘yar ekanmiz, kirib kelayotgan yilda barcha xolis niyatlarimiz ijobat bo‘lg‘ay, inshoolloh.

Aziz va muhtaram vatandoshlarim!

Barchangizni bag‘rimga bosib, kirib kelayotgan Yangi – 2012 yil bilan yana bir bor samimi tabriklayman.

Mana shu hayajonli daqiqalarda qalbimdan, yuragimdan chiqayotgan eng ezgu tilaklarni izhor etaman:

keksalarimizning umri uzoq bo‘lsin, opa-singillarimizning chehrasidan tabassum arimasin, yoshlarimizning baxtu iqbolini bersin.

Yangi yilda ham Yaratganimiz hammamizni o‘z panovida saqlasim, o‘zi asrasin.

Yurtimiz tinch, xalqimiz omon bo‘lsin!

Yangi yil barchamizga muborak bo‘lsin!

O'ZBEKISTON QUROLLI KUCHLARINING 20 YILLIGI MUNOSABATI BILAN VATAN HIMOYACHILARIKA BAYRAM TABRIGI

Hurmatli askar va serjantlar, ofitser va generallar, Qurolli Kuchlarimiz faxriylari!

Sizlarni, o'z hayotini ona Vatanni himoya qilishdek muqaddas va olajanob vazifaga bag'ishlagan barcha yurtdoshlarimizni mamlakatimiz hayotidagi qutlug' sana – Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 20 yilligi va Vatan himoyachilar kuni bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etish menga katta mamnuniyat yetkazadi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarda mamlakatimiz xavfsizligi va barqrarligi, uning sarhadlari daxlsizligini ta'minlash bo'yicha taktik va strategik vazifalarni samarali hal etishga qodir bo'lgan, zamonaviy, harakatchan, har tomonlama yaxshi qurollangan armiyani tashkil etish bo'yicha o'zining ko'lami va miqyosiga ko'ra ulkan ishlar tizimli va bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy talablarni, yuz berishi mumkin bo'lgan harbiy harakatlar teatrining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, Qurolli Kuchlarning tashkiliy-shtat tuzilishi prinsipial jihatdan o'zgartirildi, tezkor-strategik boshqaruv, operativ tayyorgarlik va qo'shinchalarini jangovar qo'llashning haqiqiy markaziga aylangan Birlashgan shtab boshchiligidida qo'shin turlarini samarali boshqarish tizimi yaratildi.

Harbiy okruglar tuzildi, Davlat chegaralarini himoya qilish va qo'riqlashning zamonaviy talablarga javob beradigan tizimi shakllantirildi, harbiy operatsiyalar amalga oshiriladigan eng muhim yo'naliishlarda harakatchan, yaxshi ta'minlangan bo'linmalar, birinchi navbatda, sarhadlarimiz daxlsizligi va odamlarimizning tinch-osoyishta hayotini buzishga qaratilgan har qanday yovuz kuchlarning tajovuzkor xatti-harakatlariga qat'iy zarba berishga qodir bo'lgan Maxsus operatsiyalarini amalga oshiradigan kuchlar, Terrorchilikka qarshi kurashish korpusi batalyonlari tuzildi.

Umumqo'shin brigadalari bo'linmalarini tarkibiga vertolyot texnikasining berilishi ularning jangovar imkoniyati va qudrati, harakatchanligi, shiddatli ravishda kechadigan tezkor operatsiyalarini

bajarish qobiliyatini sezilarli ravishda oshirdi.

Ayni paytda milliy armiyamizni zamonaviy quroq-yarog‘ va texnika bilan ta’minalash sohasida keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi. Armiyamizning serjantlar tarkibini, shuningdek, strategik fikrlaydigan, intellektual saviyasi yetuk ofitser kadrlar va qo‘mondonlik tarkibini tayyorlash jarayoni prinsipial jihatdan yangicha o‘quv-texnik va ma’naviy-axloqiy asosda tashkil etilganini alohida ta’kidlash lozim.

Muddatli harbiy xizmat bir yil etib belgilandi. Chaqiruvning o‘zi esa bir yilda bir marta amalga oshirilmoqda. Safarbarlik-chaqiruv rezerv xizmati joriy etildi. Bugungi kunda Qurolli Kuchlarimizdagи harbiy xizmatchilarning yarmidan ko‘pini shartnoma asosida xizmatga chaqirilgan askar va serjantlar tashkil etmoqda. Bularning barchasi armiyamizning qiyofasi va jangovar imkoniyatlarini, harbiy jamoalardagi ma’naviy-axloqiy muhitni tubdan o‘zgartirish imkonini berdi.

Biz harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni mustahkamlash, ular uchun zarur uy-joy va maishiy sharoitlarni yaratishga muhim ahamiyat berib kelmoqdamiz. Faqat keyingi besh yilda barcha toifadagi harbiy xizmatchilarning oylik maoshi o‘rtacha uch karra oshgani, muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarning oylik maoshlari va harbiy xizmatdan bo‘saganda to‘lanadigan yordam puli miqdori esa sakkiz barobar o‘sgani ham shundan dalolat beradi.

Amalga oshirilgan ana shunday keng ko‘lamli ishlarimiz yakunlarini baholar ekanmiz, armiyamiz hozirgi kunda nafaqat Vatanimiz chegaralarini, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini himoya qilmoqda, ayni vaqtda mustahkam iroda va xarakter, mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadigan, jismoniy chiniqish va yuksak insoniy fazilatlar kamol topadigan haqiqiy professional malaka oshirish maktabiga aylanmoqda, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Bir so‘z bilan aytganda, armiya xizmati tom ma’noda mardlik va matonat fazilatlarini tarbiyalash, Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish maktabiga aylanmoqda.

Qadrli do‘stlar!

Hozirgi bosqichda Qurolli Kuchlarimizni isloh etish va uning jangovar tayyorgarligini oshirishning ahamiyati eng avvalo dunyo shiddat bilan o‘zgarayotgan, Yaqin Sharq va Fors ko‘rfazi atrofidagi vaziyat tobora keskinlashayotgan bir sharoitda qarama-qarshilik, xavfsizlikka turli tahdid

va xatarlar kuchayib borayotganini hisobga olganda, mintaqada yuzaga kelayotgan murakkab vaziyat bilan belgilanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasi o‘zining geosiyosiy va geostrategik ahamiyati, ulkan mineral-xomashyo resurslariga ega ekan tufayli keyingi yillarda yirik davlatlarning doimiy diqqat markazidagi obyektga, ularning strategik manfaatlari to‘qnashadigan hududga aylanmoqda, shu bilan birga, o‘ttiz yildan ziyod vaqt mobaynida urush davom etayotgan Afg‘onistondagi keskinlik va qarama-qarshilikning hali-beri saqlanib kelayotgan ta’siri ostida qolmoqda.

Amerika kontingenti va xavfsizlikka ko‘maklashadigan xalqaro kuchlarning 2014 yilda Afg‘onistondan olib chiqib ketilishining e’lon qilinishi va kelgusida bu qarorning amalga oshirilishi terrorchilik va ekstremistik faoliyatning kengayish xavfining kuchayishiga, mazkur ulkan mintaqada keskinlik va qarama-qarshilikning ortishiga, bu yerda doimiy beqarorlik manbai yaratilishiga olib kelishi mumkin.

Mintaqada joylashgan ayrim mamlakatlardagi ijtimoiy norozilikning kuchayishi, ekstremistik kuchlarning safiga yangi-yangi a’zolarni jalb etish uchun qulay zamin tug‘dirayotgan, yomonlashib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikka qarshi jiddiy tahdid bo‘lib qolmoqda.

Shu borada ixcham, harakatchan qism va bo‘linmalardan foydalangan holda, qo‘qqisdan, shiddatli va tez amalga oshirilishi bilan ajralib turadigan zamnaviy jangovar operatsiyalarni o‘tkazish shart-sharoiti va xarakteri tubdan o‘zgarganini doimo nazarda tutish lozim.

Bugungi kundagi harbiy mojaro va mahalliy urushlardagi jangovar operatsiyalarning tahlili shundan dalolat bermoqdaki, maxsus vazifalarni bajaradigan prinsipial jihatdan yangi jangovar tizimlarni, bir-biri bilan bevosita jangga kirmasdan harbiy harakatlar olib borish shakllarini va eng yangi axborot texnologiyalarini, zamnaviy, yuqori darajadagi aniqlik bilan zarba beradigan qurol-yarog‘ turlarini qo‘llagan holda urush olib borish usullaridan tobora keng foydalanilmoqda.

Lo‘nda qilib aytganda, Markaziy Osiyo va dunyoda vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, harbiy-siyosiy vaziyatni baholash mintaqadagi tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotga nisbatan tahdidlarning kuchayish tendensiyasi tobora ortib borayotganini ko‘rsatmoqda.

Bularning barchasi mamlakatimizning butun mudofaa va xavfsizlikni

ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish va uning samaradorligini yuksaltirish bo'yicha oldindan ishlab chiqilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishni, Qurolli Kuchlarimizning salohiyati va harbiy tayyorgarligini har tomonlama mustahkamlash borasidagi ishlarni izchil davom ettirishni taqozo etmoqda.

Bugungi vujudga kelgan sharoitda Mudofaa vazirligi, Qurolli Kuchlarning Birlashgan shtabi, harbiy okrug va qo'shin turlari qo'mondonlari, brigada komandirlari, butun ofitserlar korpusi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo'mondonining O'zbekiston Qurolli Kuchlarining 20 yilligi munosabati bilan qabul qilingan Direktivasida bayon etilgan ustuvor maqsad va yo'nalishlarni amalga oshirishni o'zining eng muhim vazifasi deb hisoblasin.

Bu borada mintaqamizda yuz berishi mumkin bo'lgan jangovar harakatlar teatri sharoitida tajriba to'plashni yanada oshirish, zamonaviy harbiy operatsiyalar o'tkazishning asosiy tamoyil va usullariga oid bilimlarni takomillashtirish va chuqurlashtirish, qo'shnlarda favqulodda murakkab va keskin sharoitlarda vaziyatni tez va to'g'ri baholay olish va qaror qabul qilish qobiliyatini tarbiyalash, zamonaviy jangovar operatsiyalarda zamonaviy va yuqori darajadagi aniqlik bilan zarba beradigan qurol-yarog'larni qo'llash asoslarini puxta egallashga alohida e'tibor qaratish zarur.

Qurolli Kuchlar va harbiy okruglar qo'mondonligi tomonidan zamonaviy harbiy harakatlar teatri sharoitida jangovar operatsiyalarni o'tkazishning turli modellarini o'zlashtirishning mакtabiga aylanishi lozim bo'lgan qo'mondonlik-shtab va taktik o'quv mashqlarini rejorashtirish, tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirishga o'ta jiddiy e'tibor qaratish talab etiladi.

Qism va bo'linmalarni zamonaviy qurol-yarog' hamda texnika va ularning faoliyatini ta'minlaydigan vositalar bilan qayta jihozlash, mavjud qurol-aslaha va harbiy texnikani jangga shay holatda tutish va modernizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan qudratli ta'mirlash bazasini yaratish masalalari bundan buyon ham e'tiborimiz markazida turishi darkor.

Qo'mondonlik va serjantlar tarkibi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi tubdan yaxshilashni talab etmoqda. Harbiy ta'lim va jangovar tayyorgarlikni yangi sifat bosqichiga ko'tarish Qurolli Kuchlarning jangovar tayyorgarligini oshirishning eng

muhim shartidir.

Serjantlar o'rtasida komandirlilik va yetakchilik fazilatlarini yanada rivojlantirish, ular tomonidan jangovar tayyorgarlikni tashkil etishning eng yangi shakllari, usul va uslublarining o'zlashtirilishi, shaxsiy tarkibning ularga ishonib topshirilgan zamonaviy qurollar va harbiy texnikani mohirlik bilan ishlatsihi, shuningdek, boshlang'ich bo'linmalarda ma'naviy-axloqiy muhit va tartib-intizomni yaxshilashda serjantlarning rolini kuchaytirish borasidagi ishlarni davom ettirish zarur. Buning uchun o'zaro musobaqa muhiti, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish sharoitini yaratish kerak.

Qurolli Kuchlarning harakatchanligi va jangovar qobiliyatini oshirish maqsadida jangovar vzvodlarning yuksak tayyorgarlik darajasini ta'minlash muhim vazifa bo'lib qolishi zarur. Bu vazifani amalga oshirish harbiy harakatlar teatrining o'ziga xos xususiyatlari, harbiy operatsiyalarini o'tkazish taktikasi o'zgargan sharoitda vzvodlarning tobora ortib borayotgan roli va ahamiyatini belgilab berishga qaratilgan dastur, nizom va rejalar, bir so'z bilan aytganda, barcha asosiy hujjat va qoidalarni qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Vzvod oldiga qo'yilayotgan vazifalarning murakkablashuvi va kengayishi, uning roli keskin kuchayishi bilan vzvod komandirlariga va ularning professional tayyorgarligiga nisbatan talablar ham oshib bormoqda. Bugungi kunda vzvod komandiri har tomonlama keng bilim va yuksak professional mahoratga ega ofitser bo'lishi, favqulodda va keskin sharoitlarda o'zi mustaqil ravishda nostandart qarorlar qabul qila olishi, o'ziga bo'ysunadigan bo'linmalarni jangda ham, kundalik faoliyatda ham mohirlik bilan boshqara olishi darkor.

Harbiy xizmatchilarni uy-joy bilan ta'minlash, oddiy askar, serjant va ofitserlar tarkibining ijtimoiy-maishiy, yashash va xizmat sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan davlat dasturlarimizning o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishi bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'lib qolishi kerak.

Harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish masalasiga alohida ahamiyatga molik vazifa sifatida qarash zarur. Nega deganda, bugungi zamonda faqat ijtimoiy jihatdan yaxshi ta'minlangan harbiy xizmatchilar, shu bilan birga, puxta tayyorgarlikka ega bo'lган, kuchli, har tomonlama ta'minlangan Qurolli Kuchlargina davlatimiz xavfsizligini ta'minlashga qodir bo'ladi.

Hurmatli vatandoshlar!

Mana shu qutlug‘ ayyomda sizlarni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 20 yilligi bilan tabriklar ekanman, Qurolli Kuchlarimiz saflarida bugun jasorat va matonat namunasini ko‘rsatib xizmat qilayotgan, mashaqqatli mehnati, kerak bo‘lgan paytda esa o‘zining hayotini ham bag‘ishlab Vatan himoyasi yo‘lidagi sharaflı burchini ado etayotgan barcha harbiy xizmatchilarga chin qalbimdan minnatdorlik bildiraman.

Sizlarning oila a’zolaringiz va yaqinlaringizga o‘zimning samimiyl hurmat va ehtiromimni izhor etaman. Mehrbon ota-onalariningiz, umr yo‘ldoshlaringiz, o‘g‘il-qizlaringiz ona yurtimiz ravnaqi uchun munosib, jangovar xizmat qilayotgan o‘z farzandlari, turmush o‘rtoqlari va otalari bilan har qancha faxrlansa arziydi, albatta.

Yangi 2012 yilda barchangizga mustahkam sog‘lik, baxt va omad yor bo‘lsin!

2012-YIL VATANIMIZ TARAQQIYOTINI YANGI BOSQICHGA KO‘TARADIGAN YIL BO‘LADI

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yilning
asosiy yakunlari va 2012-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy
rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar
Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi*

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Vazirlar Mahkamasining bugungi kengaytirilgan majlisining kun tartibi o‘tgan 2011-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini baholash va 2012-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlarini belgilab olish masalalariga bag‘ishlangan.

2011-yilda iqtisodiyotimizni rivojlantirishning amaliy yakunlari tahliliga o‘tishdan oldin keyingi yillarda jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan o‘zgarishlar va avvalambor turli salbiy tendensiyalar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tishni o‘rinli deb bilaman.

Shular haqida gapirganda, dunyodagi taniqli iqtisodchilar, nufuzli ekspert va mutaxassislarning baholari va chiqarayotgan xulosalari prinsipial jihatdan yagona bir fikrga kelmoqda.

Jahon iqtisodiyotiga, birinchi navbatda, rivojlangan yirik mamlakatlar iqtisodiyotiga 2008-yilda boshlangan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz hali-beri salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘tgan davr mobaynida ahvolni yaxshilash maqsadida ko‘rilayotgan barcha chora-tadbirlarga qaramasdan, aksariyat davlatlarda o‘sish sur’atlari va ishlab chiqarishning amalda pasayishi kuzatilmoqda va bunday jarayon davom etadigan bo‘lsa, u global miqyosda retsessiya holatiga, ya’ni iqtisodiyotning o‘sish o‘rniga davomli ravishda pasayib borishiga olib kelishi mumkinligi bashorat qilinmoqda.

Ko‘pgina taraqqiy topgan mamlakatlarda vaziyat qanday tus olishini oldindan aytib bo‘lmaydigan va turli xavf-xatarlar saqlanib qolayotgan bir sharoitda davlat qarzları va davlat byudjeti taqchilligi tobora ortib bormoqda.

Shu bilan birga, jahon zaxira valyutalarining beqarorligi, moliya-bank tizimi kredit qobiliyatining keskin pasayishi va investitsiyaviy faollikning susayishi bilan bog‘liq murakkab muammolar ko‘plab davlatlar

iqtisodiyotining tiklanish va o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

"Sakkizlik" va "yigirmalik" deb atalgan mamlakatlar guruhlari doirasida qabul qilinayotgan qarorlarga qaramasdan, eng avvalo, jahon moliya-valyuta tizimida inqiroz keltirib chiqarayotgan muammolarni hal etish va kerakli nazorat o'rnatish bo'yicha yagona iqtisodiy model hanuzgacha ishlab chiqilmagan. Bu esa jahon iqtisodiyotida hal qiluvchi o'rin tutadigan yirik davlatlarni o'z manfaatlarini o'ylab, o'z bilganicha harakat qilishga majbur etmoqda.

Shuni tan olish kerakki, so'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan muammolar asosan qo'shimcha pul bosib chiqarish va moliya bozorini shunday pullar bilan to'ldirish hisobidan hal etilishi ko'zga tashlanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, kelgusida jilovlab bo'lmaydigan inflyatsiyaga, ya'ni qimmatchilikka, zaxira va milliy valyutalarning qadrsizlanishiga va shu bilan bog'liq og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin.

O'z-o'zidan ayonki, jahon bozorida kechayotgan inqiroz jarayonlari o'tgan davr mobaynida mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanish ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadni va O'zbekiston iqtisodiyotining 2012-yilga mo'ljallangan o'sish sur'atlari va samaradorligini ta'minlashda katta qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Birinchi navbatda, dunyo bozorida xomashyo va tayyor mahsulotga ehtiyojning tobora pasayib borishini hisobga oladigan bo'lsak, bunday holat mamlakatimizning eksport salohiyati va valyuta tushumiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi, albatta.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Shunday muammolarga, shuningdek, o'zimizdagagi mavjud ayrim murakkablik va qiyinchiliklarga qaramasdan, xalqimizning fidokorona mehnati evaziga erishilgan 2011-yilning yakunlari bilan haqli ravishda faxrlanishimiz uchun bugun barcha asoslarimiz bor.

Oxirgi yillarda va o'tgan yili mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish borasida qo'lga kiritilgan natijalar Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan yuksak baholanmoqda.

Xalqaro valyuta jamg'armasining keyingi baholash missiyasi bayonotida jumladan bunday deyiladi:

"O'zbekiston jadal o'sishga erishdi va global moliyaviy inqirozga qarshi samarali choralar ko'rди. Keyingi besh yilda O'zbekistonda o'sish sur'atlari o'rtacha 8,5 foizni tashkil etdi va bu Markaziy Osiyodagi

o‘rtacha o‘sish ko‘rsatkichidan yuqoridir.

Qator yillar davomida kuzatilgan byudjet profitsiti, rasmiy zaxiralar darajasining yuqoriligi, davlat qarzining kamligi, barqaror bank tizimi va xalqaro moliya bozorlaridan qarz olishga ehtiyyotkorlik bilan yondashish mamlakatni global inqirozning bevosita oqibatlaridan himoya qildi... Missiya 2011-yilda yalpi ichki mahsulot 8,3 foiz ko‘payishini kutmoqda va o‘rtta muddatli istiqbolda iqtisodiyotning yuqori o‘sish sur’atlari saqlanib qolishini bashorat qilmoqda”.

Ta’kidlash joizki, o‘tgan yili mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’ati, kutilganidek, amalda 8,3 foizni tashkil etdi, 2000-2011-yillar mobaynida yalpi ichki mahsulot hajmi 2,1 barobar oshdi. Mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha O‘zbekiston dunyoning iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan mamlakatlari qatoridan joy oldi.

O‘tgan yili sanoat ishlab chiqarishi 6,3 foiz, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish 6,6 foiz, chakana savdo aylanmasi 16,4 foiz va aholiga pullik xizmatlar ko‘rsatish 16,1 foizga barqaror yuqori sur’atlar bilan o‘sdi.

Iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat o‘zgarishlarini birgina misolda, ya’ni 2000-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda sanoat ishlab chiqarishining ulushi bor-yo‘g‘i 14,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2011-yilda bu ko‘rsatkich 24,1 foizga yetganida yaqqol ko‘rish mumkin.

Sanoat mahsuloti umumiy o‘sishining qariyb 70 foizini yuqori qo‘sishma qiymatga ega bo‘lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan sohalar tashkil etdi. Bugungi kunda iqtisodiyotimizning lokomotiviga aylangan mashinasozlik va avtomobilsozlik (12,2 foiz), kimyo va neft-kimyo sanoati (9,4 foiz), oziq-ovqat sanoati (13,1 foiz), qurilish materiallari sanoati (11,9 foiz), farmatsevtika va mebelsozlik (18 foiz) 2011-yilda jadal sur’atlar bilan rivojlandi.

Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2011-yilda 11,2 foizga o‘sdi, 2000-yilga nisbatan esa bu ko‘rsatkich 4 barobardan ziyod oshdi.

Ta’kidlash kerakki, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va bu sohalarni diversifikatsiya qilishga qaratilayotgan ulkan e’tibor eksport hajmi, uning tarkibi va sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

2011-yilda eksport mahsulotlari hajmi 2010-yilga nisbatan qariyb 15,4 foizga ko‘paydi va 15 milliard dollardan ko‘proqni tashkil etdi. Bu 2000-

yilga nisbatan 4,6 barobar ziyoddir. Tashqi savdo aylanmasining ijobjiy saldosi 4 milliard 500 million dollardan oshdi. Eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi 60 foizni tashkil etdi, holbuki, 2000-yilda bu ko'rsatkich qariyb 46 foizni tashkil etgan edi.

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va mutanosib rivojlanib borayotganini 2005-yildan boshlab Davlat byudjeti profitsit bilan bajarilayotgani ham yaqqol tasdiqlab turibdi.

2011-yilda Davlat byudjetining xarajatlar qismi 2010-yilga nisbatan 25,4 foizga, 2000-yilga nisbatan esa qariyb 17,8 barobar o'sdi. Qayd etish joizki, davlat byudjeti xarajatlarining 58,7 foizi ijtimoiy sohani moliyalash va aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi.

Mana bu raqamlarga alohida e'tiboringizni jalb etmoqchiman. 2012-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatimizning umumiy tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning 17,5 foizidan, eksport hajmiga nisbatan esa 53,7 foizdan oshmaydi. Bu xalqaro mezonlar bo'yicha "Har jihatdan maqbul holat" deb hisoblanadi.

Bularning barchasi mustaqilligimizning ilk yillardan boshlab ham davlat, ham tijorat banklari, kompaniya va korxonalar miqyosida har tomonlama puxta o'yangan chetdan qarz olish siyosatini amalga oshirib kelayotganimiz bilan bog'liq ekanini, o'ylaymanki, tushunish, anglash qiyin emas.

Shu o'rinda mamlakatimiz moliya-bank tizimida sodir bo'layotgan ijobjiy o'zgarishlarni mammuniyat bilan qayd etmoqchiman.

2011-yilda banklarning kapitallashuvi, ularning barqarorligi va likvidligini yanada mustahkamlashga qaratilgan izchil va aniq maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Oxirgi besh yil davomida mamlakatimiz bank sektori kapitalining yetarlilik darajasi bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan 8 foiz etib belgilangan xalqaro me'yordan uch barobar ko'p bo'lган darajani tashkil etmoqda.

Shuni mammuniyat bilan ta'kidlash kerakki, "Standart end Purs", "Mudis" va "Fitch Reytings" kabi nufuzli xalqaro reyting agentliklari ikki yildan buyon O'zbekiston bank tizimiga muttasil ravishda "barqaror" reyting darajasini bermoqda, ayni paytda mamlakatimizning shunday bahoga sazovor bo'lган banklari soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Agar 2010-yilda mamlakatimizning 15 ta tijorat banki "barqaror"

reytingini olgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 23 taga yetdi, bu banklarning aktivlari yurtimiz bank tizimi umumiy aktivlarining 98 foizini tashkil etmoqda.

Ma'lumki, aholining bank tizimiga ishonchi ortib borayotgani banklar faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Shu ma'noda, 2011-yilda depozitlarga 18 trillion so'mdan ortiq, o'tgan yilga nisbatan 36,3 foiz ko'p mablag' jalb qilingani, jumladan, aholi depozitlari 38,8 foizga oshgani ayniqsa e'tiborlidir.

Banklarning kredit portfeli tarkibi sifat jihatidan tubdan o'zgarmoqda. Agar 2000-yilda kredit portfelining 54 foizi tashqi qarzlar hisobidan shakllantirilgan bo'lsa, 2011-yilda uning 85,3 foizi ichki manbalar – yuridik va jismoniy shaxslar depozitlari hisobidan shakllantirildi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotimiz tarmoqlariga investitsiya kiritish va shuning hisobidan taraqqiyotimizni ta'minlashda ichki imkoniyatlarimiz tobora ortib borayotganining dalilidir.

Tijorat banklarining investitsiyaviy faolligi ortmoqda. Tijorat banklari qo'yilmalarining 75 foizdan ortig'ini uch yildan ziyod bo'lgan uzoq muddatli investitsiya kreditlari tashkil etmoqda. Umuman, so'nggi o'n yilda banklarimiz tomonidan iqtisodiyotning real sektorini kreditlash 7 barobar oshganini alohida qayd etish lozim, deb o'layman.

Bizning iqtisodiy nochor korxonalarni banklar balansiga o'tkazib, ularni sog'lomlashtirish borasida qo'llagan noan'anaviy yondashuvimiz o'zini oqladi va samaradorligini ko'rsatdi, deb bugun to'la asos bilan aytishimiz mumkin.

Hozirgi paytda banklarga berilgan 164 ta bankrot korxonadan 156 tasida ishlab chiqarish faoliyati to'liq tiklandi, 110 ta korxona yangi investorlarga sotildi. Bunday korxonalarni texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilish ishlariga tijorat banklari tomonidan 275 milliard so'm miqdorida investitsiya kiritildi, natijada 22 mingdan ziyod ish o'rni yaratildi.

Fursatdan foydalanib, bu vazifalarni bajarishga o'z hissasini qo'shgan barcha bank rahbarlari, mutaxassis va xizmatchilarga o'z minnatdorligimni bildirmoqchiman.

Endi, ruxsatingiz bilan, qishloq xo'jaligidagi amalga oshirilayotgan ishlarimizning natijalari haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

Bu haqda gapirganda, avvalo, murakkab ob-havo va iqlim sharoiti tufayli vujudga kelgan muammo va qiyinchiliklarga qaramasdan, qishloq

mehnatkashlarining fidokorona mehnati hisobidan 2011-yili eng muhim qishloq xo‘jalik mahsulotlari davlat xaridi bo‘yicha shartnoma majburiyatlari nafaqat bajarilgani, balki ortig‘i bilan bajarilganini ta’kidlash o‘rnlidir.

Mamlakatimizda o‘tgan yili 6 million 800 ming tonna g‘alla, 3 million 500 ming tonnaga yaqin paxta, 8 million 200 ming tonnadan ortiq sabzavot va poliz, qariyb 3 million tonna bog‘dorchilik mahsulotlari yetishtirildi. Shu bilan birga, 6 million 600 ming tonna sut, 1 million 500 ming tonnadan ortiq go‘sht, 3 milliard 500 million donadan ziyod tuxum tayyorlandi.

Bugun mana shu yuksak minbardan turib, kunni – kun, tunni – tun demasdan, qilgan fidokorona mehnatlari uchun fermer va dehqonlarimizga yana bir bor minnatdorlik bildirib, o‘zimning chuqur hurmat va ehtiromimni izhor etishni ham qarz, ham farz, deb bilaman.

Ayni paytda biz qishloq xo‘jaligi sohasida birinchi navbatda tuproq unumdorligini oshirish choralarini ko‘rish, barcha agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida bajarish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy qilish, seleksiya va urug‘chilikni yanada rivojlantirish, mehnatni tashkil etish va rag‘batlantirish bilan bog‘liq, hali-beri ishga solinmagan katta imkoniyatlar mavjudligini ham e’tirof etishimiz zarur.

Shuni ochiq tan olish kerakki, fermer xo‘jaliklarini tashkil etish va ularning mas’uliyatini yanada oshirish borasida hali ko‘p ish qilishimiz lozim.

O‘tgan yili 3 ming 800 dan ortiq fermer xo‘jaligi paxta yetishtirish bo‘yicha shartnoma majburiyatini bajara olmadı. Natijada 120 milliard so‘mlikdan ortiq yoki 160 ming tonnadan ziyod paxta xomashyosi kam yetkazib berildi. Agar bu ko‘rsatkichni eksport qilish mumkin bo‘lgan paxta tolasiga aylantiradigan bo‘lsak, boy berilgan foyda hajmi, paxtani qayta ishslashdan olinadigan moy, shrot, kunjara va boshqa mahsulotlarni hisobga olmaganda ham, yo‘qotish qariyb 100 million dollarni tashkil etadi.

O‘tgan yili 1 ming 500 ta fermer xo‘jaligi davlat zaxirasiga g‘alla sotish bo‘yicha 18 milliard so‘mlik yoki 62 ming tonna hajmidagi shartnoma majburiyatini bajarmadi.

Ana shu masalalar yuzasidan har bir viloyat va tuman bo‘yicha tegishli xulosalar chiqarilishi kerak. Bunda, eng avvalo, fermer xo‘jaliklariga yer maydonlarini uzoq muddatga ijaraga berish bo‘yicha belgilangan tartibga

rioya qilinishini, shu borada qonun buzilishlariga yo‘l qo‘ymaslikni ta’minlash zarur.

Mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish va servis sohasi 2011-yilda jadal sur’atlar bilan rivojlanib, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000-yildagi 37 foiz o‘rniga 50,5 foizni tashkil etdi.

Yil davomida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining 41,6 foizga o‘sganini bugungi kun talablariga javob beradigan ijobiy tendensiya sifatida baholash lozim.

Bu ko‘rsatkich, avvalo, mobil aloqa va Internet tarmog‘i xizmatlaridan foydalanadigan abonentlar sonining o‘sishi hisobidan ta’mindandi. Bunda hisobot yilda aholi uchun Internet xizmatlaridan foydalanish tariflarini 22 foizga kamaytirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etdi. Hozirgi kunda mamlakatimiz aholisining 8 millionga yaqini Internet tarmog‘idan faol foydalanmoqda.

Izchillik bilan amalga oshirilayotgan, birinchi navbatda soliq yukini kamaytirishga qaratilgan oqilona soliq siyosati iqtisodiyotdagি tarkibiy o‘zgarishlarga, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ishbilarmonlik faolligi va moliyaviy barqarorligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Xususan, 2011-yilda soliq yuki, 1991-yil bilan solishtirganda, yalpi ichki mahsulotga nisbatan qariyb 2 barobar kamayib, 41,2 foizdan 22 foizga tushganini qayd etish zarur.

2011-yilda mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi stavkasining 7 foizdan 6 foizga kamaytirilishi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar investitsiya faoliyatining kengayishiga xizmat qildi. Buning natijasida bo‘shab qolgan qariyb 80 milliard 300 million so‘m mablag‘ni birinchi navbatda ishlab chiqarishni texnologik yangilash va zamonaviy texnikani joriy etishga yo‘naltirish imkonini paydo bo‘ldi.

O‘tgan yili faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni tashkil etishni tezlashtirish borasida faol investitsiya siyosati yuritishga alohida e’tibor qaratildi.

2011-yilda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan qiymati 10 milliard 800 million dollardan ortiq kapital qo‘yilmalar o‘zlashtirildi, bu 2010-yilga nisbatan 11,2 foiz ko‘p demakdir. Investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 23,9 foizni tashkil etgani mamlakatimizda investitsiya jarayonlarining jadal faollashib borayotganidan dalolat beradi.

Iqtisodiyotimizning real sektoriga qariyb 2 milliard 900 million dollar hajmida xorijiy investitsiyalar jalb qilindi, ularning 78,8 foizi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardir.

Kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish manbalari va ulardan foydalanish borasida ijobjiy sifat o‘zgarishlari ro‘y bermoqda.

Jami investitsiyalarning 73 foizdan ortig‘i mamlakatimizning ichki manbalari hisobidan – korxonalar va aholi mablag‘lari, investitsiya jarayonlarida tobora faol ishtirok etayotgan tijorat banklari kreditlari, shuningdek, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘lari hisobidan shakllantirilmoqda.

Jami investitsiyalarning 73,5 foizidan ortig‘i ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo‘naltirilmoqda. Investitsiyalarning qariyb 45,3 foizi zamonaviy, yuksak samarali asbob-uskunalar xarid qilishga yo‘naltirilgani ayniqsa muhimdir.

Mamlakatimizda faol investitsiya siyosati olib borilishi natijasida hisobot davrida o‘nlab zamonaviy korxonalar ishga tushirildi. Jumladan, “Jeneral Motors Pavertreyn O‘zbekiston” qo‘shma korxonasida yuqori texnologiyalar asosida avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, avtomobil generatori va kompressorlari ishlab chiqarish bo‘yicha quvvatlar barpo etildi, energiyani tejaydigan lampalar ishlab chiqarish bo‘yicha uchta loyiha amalga oshirildi.

Shular qatorida “Zenit elektroniks” qo‘shma korxonasida “Samsung” kir yuvish mashinalari ishlab chiqarish o‘zlashtirildi. Ayni paytda maishiy gaz plitalari, konditsionerlar, elektr pilesoslar va bir qancha boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

“Muborak gazni qayta ishlash zavodi” unitar sho‘ba korxonasida suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish maqsadida propan-butyan aralashmasi qurilmasining birinchi navbatini, Samarqand viloyatida “MAN” yuk tashish mashinalari ishlab chiqarish bo‘yicha yangi majmuuaning dilerlik markazini bunyod etish ishlari yakuniga yetkazildi.

Navoiy issiqlik elektr stansiyasida bug‘-gaz qurilmasini barpo etish, O‘zbekiston-Xitoy gaz quvurining uchinchi yo‘nalishi kabi yirik loyihalarni amalga oshirishda qurilish-montaj ishlari qizg‘in pallaga kirdi.

Navoiy shahridagi erkin industrial-iqtisodiy zona muvaffaqiyatli faoliyat yurita boshladi, uning hududida yangi tashkil etilgan korxonalarda spidometrlar, avtomobillar uchun o‘tkazgichlar, kompressorlar, raqamli televizion tyunerlar, energiyani tejaydigan lampalar, yoritish uskunalari,

diodli lampalar, modemlar, polietilen va polipropilen quvurlar, kosmetika vositalari hamda tibbiyot mahsulotlari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston milliy avtomobil magistralini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha loyihamalar doirasida 302,5 kilometr uzunlikdagi yo‘lga zamonaviy qoplama yotqizilib, rekonstruksiya qilindi. Toshkent va Buxoro shaharlari aeroportlarining mahalliy yo‘nalishlarda xizmat ko‘rsatadigan yo‘lovchi terminallari foydalanishga topshirildi.

Toshkent – Samarqand yo‘nalishida mazkur ikki shahar o‘rtasidagi 344 kilometr masofani atigi 2 soatda bosib o‘tadigan, yuqori tezlikda harakat qiladigan “Talgo-250” yo‘lovchi elektr poyezdlari qatnovi yo‘lga qo‘yildi.

Bu poyezdlardan foydalanish maqsadida temir yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish va takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamdagagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 600 kilometr uzunlikdagi yo‘llar qaytadan tiklandi, 68 kilometrdan iborat yangi temir yo‘llar yotqizildi, Toshkent va Samarqand shaharlari temiryo‘l vokzallari rekonstruksiya qilindi va qaytadan jihozlandi.

O‘tgan yil mobaynida telekommunikatsiya tizimini rivojlantirishga qaratilgan bir qator loyihalarni amalga oshirish ishlari davom ettirildi. Xususan, Jizzax – Bulung‘ur yo‘nalishi bo‘ylab 73 kilometr uzunlikdagi optik tolali aloqa liniyasi o‘tkazildi, mobil aloqa va Internet tarmog‘i ko‘لامи tobora faol kengayib bormoqda. Yurtimizda aholiga raqamli televideniye xizmati ko‘rsatish hajmi 38 foizga yetgani ham shu boradagi ulkan ishlarimizning amaliy natijasidir.

2011-yilda logistika markazlari faoliyati jadallahshdi. Xususan, “Navoiy xalqaro intermodal logistika markazi” orqali 50 ming tonna yuk tashildi. “Angren logistika markazi” yopiq aksiyadorlik jamiyatni tomonidan Qamchiq dovoni orqali 4 million 200 ming tonna, ya’ni 2010-yilga nisbatan 1,3 barobar ko‘p yuk tashildi.

O‘tgan yili ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, mamlakatimiz aholisining daromadlari va turmush darajasini muttasil oshirib borish masalalari doimiy e’tiborimiz markazida bo‘ldi.

2011-yilda respublikamizda ish haqi 20,2 foizga, byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdori esa 26,5 foizga o‘sdi. Aholining real daromadlari yil mobaynida 23,1 foizga ortdi. Ayni paytda – shunga e’tibor berishingizni so‘rayman – aholi jami daromadlarining 47 foizi tadbirdorlik faoliyatidan olinmoqda.

Sir emaski, biz mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki yillardan boshlab ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash, aholining daromadlari va turmush sharoitida keskin tafovut bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslikka katta e‘tibor qaratmoqdamiz.

Keyingi o‘n yilda yurtimizda aholi daromadlari hajmi 8,1 barobar ortgan bir paytda, ish haqi, ijtimoiy ko‘makka muhtoj toifalarning daromadlari miqdorini jadal oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlash va soliq imtiyozlari berish hisobidan aholining eng past va eng yuqori daromadga ega bo‘lgan guruhlari o‘rtasidagi tafovut, boshqacha aytganda, daromadlardagi farq koeffitsiyenti 21,1 barobardan 8,3 barobarga qisqardi. Aytish kerakki, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi mamlakatlari va bir qator iqtisodiy rivojlangan davlatlar o‘rtasida bu koeffitsiyent eng past ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Yurtimizda o‘tgan yillar davomida ish haqi va pensiyalarining xarid qobiliyati izchil va barqaror o‘sgani aholining hayot darajasi va sifati ortib borayotganining yaqqol tasdig‘idir.

Buning isboti tariqasida quyidagi misol va raqamlarni keltirmoqchiman.

Agar 1991-yilda eng kam ish haqiga Xalqaro mehnat tashkiloti va Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining tavsiyalariga qat’iy muvofiq tarzda hisoblab chiqilgan iste’mol korzinkasi qiymatining faqat 8 foizini tashkil etadigan tovar va xizmatlarni xarid qilish mumkin bo‘lgan bo‘lsa, 2011-yilda bu ko‘rsatkich iste’mol korzinkasining 120 foizini tashkil etdi yoki 15 barobar o‘sdi, eng kam pensiyaning xarid qobiliyati esa 9 karra oshdi.

Ayni shu ko‘rsatkichlar 2000-yilda mos ravishda 11,0 va 3,6 barobarni tashkil etdi.

Hisobot yilda ta’lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirgan ishlarimiz haqida gapirar ekanmiz, umumiy o‘rta ta’limdan boshlab o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliv ta’limgacha bo‘lgan bo‘g‘inlarda chuqur bilim va puxta kasb-hunar tayyorgarligiga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash jarayonini o‘z ichiga olgan yaxlit uzlusiz ta’lim tizimini shakllantirish ishlari izchil davom ettirilganini ta’kidlamoqchiman.

Olis va chekka hududlarda kasb-hunar kollejlarining 24 ta filialini tashkil etish, faoliyat yuritayotgan kollejlar qoshida 18 ta talabalar turarjoyolarini qurish orqali umumita’lim maktablari 9-sinf bitiruvchilarini kasb-hunar ta’limi bilan to‘liq qamrab olish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlarning qabul qilingani mazkur yo‘nalishdagi muhim qadam bo‘ldi.

Umumta’lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida katta ishlar amalga oshirildi. Eng zamonaviy o‘quv va laboratoriya jihozlari bilan ta’minlangan, 46 ming 300 dan ortiq o‘quvchiga mo‘ljallangan 166 ta yangi maktab qurildi va rekonstruksiya qilindi, 151 ta maktab kapital ta’mirlandi. Mamlakatimizdagи 852 ta maktabda zamonaviy o‘quv kompyuter sinflari tashkil etildi.

Hozirgi vaqtدا 9 ming 400 dan ziyod umumta’lim maktabi yoki jami maktablarning 96 foizi ZiyoNet elektron axborot tarmog‘iga ulanganini qayd etish lozim.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta’minalashga alohida e’tibor qaratildi. Kollejlar va korxonalar o‘rtasida bitiruvchilarning ishlab chiqarish amaliyotini o‘tashi va kelajakda mazkur korxonalarda ishga joylashishi bo‘yicha shartnomaga tuzish yo‘lga qo‘yildi. Mazkur kelishuvlar asosida 390 mingdan ortiq bitiruvchi ish bilan ta’mirlandi.

Hukumat qaroriga muvofiq oliv ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish va mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash bo‘yicha 2011-2016-yillarga mo‘ljallangan dasturni amalga oshirish uchun 277 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirish ko‘zda tutilgan.

Mablag‘larni jamlash va dasturda belgilangan chora-tadbirlarning moliyalashtirilishini ta’minalash maqsadida o‘tgan yili maxsus jamg‘arma tashkil etildi va uning mablag‘lari hisobidan 2011-yilda bir yilga mo‘ljallangan 39 milliard so‘mdan ortiq tadbirlar moliyalashtirildi.

O‘tgan yili ilg‘or axborot-kompyuter texnologiyalari bilan jihozlangan, avvalo yoshlarimizga milliy va xorijiy axborot-kutubxona fondlaridan keng foydalanish imkonini beradigan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi – zamonaviy axborot-resurs markazi va Simpoziumlar saroyini o‘ziga qamrab olgan Ma’rifat markazining qurib bitkazilgani va ishga tushirilgani mamlakatimiz hayotida tom ma’noda ulkan voqeа bo‘ldi, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi.

2011-yilda sog‘liqni saqlash tizimini yanada isloh qilish va rivojlantirish borasidagi ishlar izchil va tizimli asosda davom ettirildi.

Davolash-profilaktika muassasalarini rekonstruksiya qilish, ularni zamonaviy laboratoriya, diagnostika va davolash jihozlari bilan ta’minalash uchun qiymati qariyb 137 milliard so‘mlik byudjet mablag‘lari hamda 136 million dollarlik xorijiy imtiyozli kredit va grantlar yo‘naltirildi.

Umuman olganda, keyingi o‘n yil mobaynida sog‘liqni saqlash

sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan byudjet mablag‘lari hamda imtiyozli kredit va grantlar 750 million AQSh dollaridan ziyodni tashkil etdi.

Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish va rivojlantirish borasida qabul qilinayotgan izchil chora-tadbirlar keyingi o‘n yilda aholining umumiy kasallanish ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada qisqartirish imkonini berdi. Har yuz ming kishiga hisoblaganda, ijtimoiy xavfi katta bo‘lgan kasalliklarga chalinish holatlari, jumladan, tug‘ma nuqsonlar bilan tug‘ilish – 32,4 foizga, yuqumli kasalliklar – 40 foizga, yuqori nafas organlarining o‘tkir infeksiyalari bilan og‘rish – 4,2 barobar kamaydi. Difteriya, paratif, poliomiyelit, bezgak kasalliklariga chalinish holatlariga butunlay barham berildi.

2011-yilda 5,9 million nafar xotin-qiz har yili o‘tkaziladigan tibbiy ko‘rikdan, qariyb 150 ming homilador ayol skrining tekshiruvidan o‘tkazildi. Qishloq joylarda istiqomat qilayotgan 243 mingdan ortiq homilador ayol polivitaminlar bilan bepul ta’minlandi. Bolalarni yuqumli kasalliklarga qarshi emlash darajasi qariyb 100 foizni tashkil etdi.

Yurtimiz ta’lim va tibbiyot muassasalarini zamonaviy talablar va xalqaro andozalar asosida rivojlantirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasidagi ishlarni tizimli amalga oshirish maqsadida 2011-yilda byudjetdan tashqari Ta’lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasi tashkil etildi va u 2012-yilning birinchi kunlaridan ish boshladи.

Aholi salomatligini muhofaza qilish sohasida biz erishgan bunday katta yutuqlar o‘tgan yili Toshkentda bo‘lib o‘tgan “O‘zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: “Sog‘lom ona – sog‘lom bola” mavzuidagi xalqaro simpoziumda Jahan sog‘liqni saqlash tashkiloti, YUNISEF va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan yuksak baholandi.

“Bolalarni asraylik” xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan jahon reytingida O‘zbekiston bolalar salomatligini mustahkamlash borasida katta g‘amxo‘rlik ko‘rsatayotgan eng ilg‘or yetakchi o‘nta mamlakat qatoriga kiritilgani, albatta barchamizga yuksak g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

Hisobot yilida yangi ish o‘rnulari tashkil etish orqali aholi bandligini ta’minalash masalasini hal qilish ham e’tiborimiz markazida bo‘ldi. Hududiy bandlik dasturlarining amalga oshirilishi natijasida yaratilgan 1 millionga yaqin ish o‘rnining 68 foizidan ko‘prog‘i qishloq joylarda tashkil etildi.

Ta'kidlash joizki, yangi ish o'rinalarining 64 foizidan ortig'i kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermerlik rivojini rag'batlantirishni yanada kuchaytirish, xususan, ularga yangi imtiyoz va preferensiyalar berish, 28 foizidan ziyodi esa yangi korxonalar tashkil etish, kasanachilikning turli shakllarini kengaytirish hisobidan yaratildi.

O'tgan yil yakunlari haqida xulosa chiqarar ekanmiz, 2011-yil Iqtisodiyotimizni isloh qilish dasturining mantiqiy davomi bo'ldi, O'zbekistonning 20-yillik mustaqil taraqqiyoti tarixida, jamiyatimizni izchil demokratik yangilash va liberallashtirish jarayonida alohida o'rinni egallagan yil bo'ldi, deb to'la ishonch bilan ta'kidlashimiz mumkin.

Hurmatli yig'ilish ishtirokchilari!

2012-yilning asosiy yo'nalishlari haqida gapirganda, joriy yilda O'zbekiston iqtisodiyoti va uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirishning ko'rsatkichlari avvalo yuqori va izchil o'sish sur'atlari saqlash, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlashga qaratilganini ta'kidlash lozim.

Yalpi ichki mahsulotning 8,2 foizga, sanoat ishlab chiqarishining 8,6 foizga, qishloq xo'jaligining 5,8 foizga o'sish sur'atlari belgilanmoqda. Shuningdek, iste'mol narxlarining o'sish darajasi 7-9 foiz doirasida bo'lishi mo'ljallanmoqda, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini 12 foiz darajasida saqlash nazarda tutilmoqda.

Mamlakatimizning 2012-yil uchun tasdiqlangan Davlat byudjeti jami xarajatlarining 60 foizdan ortig'ini sotsial soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish ko'zda tutilmoqda.

Soliq yukini, birinchi navbatda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlaridan olinadigan soliq yukini sezilarli darajada kamaytirish belgilanmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizga tushirilishi rejalashtirilmoqda.

Shu bilan birga, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inинг eng past stavkasi 10 foizdan 9 foizga pasaytirilganini qayd etish lozim. Bu, avvalo, kam ish haqi to'lanadigan ishlovchilar toifasi daromadlarining ko'payishiga sezilarli ravishda ijobjiy ta'sir ko'rsatishi tabiiydir.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga yo'naltirilayotgan kapital qo'yilmalar hajmi ancha oshib, o'tgan yilga nisbatan ularning o'sish sur'atlari 109,3 foizni, yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi esa 24,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalar va jalb qilinadigan kreditlar hajmi 16 foizga ko‘payib, 3 milliard 300 million dollardan oshadi. Mazkur mablag‘ning 2 milliard 300 million dollardan ortig‘i yoki qariyb 70 foizini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar tashkil etishi ayniqsa e‘tiborlidir.

Bu xorijiy investorlarning iqtisodiyotimizning mustahkamligi va barqarorligiga, eng muhimi, O‘zbekiston taraqqiyotining istiqboliga bo‘lgan qiziqishi va ishonchi tobora ortib borayotganidan yaqqol dalolat beradi.

Jahon iqtisodiyotida vujudga kelayotgan tendensiyalardan, shuningdek, mamlakatimizni keljakda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish strategiyasidan kelib chiqqan holda, 2012-yilda va undan keyingi yillarda quyidagi ustuvor vazifalarning amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi darajali e‘tibor mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish bo‘yicha dastur tayyorlash va uni amalga oshirishga qaratilishi zarur.

Bu maqsadning dolzarbliji va ahamiyati avvalo shu bilan belgilanadiki, biz o‘rta muddatli istiqbolda iqtisodiyotimizni rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga olib chiqishni hozirgi bosqichdagi bosh strategik vazifa sifatida o‘z oldimizga qo‘ygamiz.

O‘z-o‘zidan ayonki, raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirmasdan, pirovard natijada esa raqobatdosh mamlakatni barpo etmasdan turib, biz qabul qilgan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida ko‘zda tutilgan maqsadli vazifalarni amalga oshirmsandan turib, bu haqda jiddiy so‘z yuritish mumkin emas.

Bu vazifaning o‘rtaga qo‘yilishi, shuningdek, inqiroz jarayonlarining chuqurlashuvi, dunyo miqyosida xarid talabining pasayishi va shunga muvofiq tarzda jahon bozorida xomashyo, materiallar, ayniqsa, tayyor mahsulotlar bo‘yicha raqobatning yildan-yilga kuchayib borayotgani bilan ham bog‘liq, albatta.

Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o‘rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so‘zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va diversifikasiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal

rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va raqobatdosh mahsulotlarning yangi turlarini o'zlashtirish bo'yicha qabul qilingan birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturiga muvofiq, 2012-2016-yillarda hisob-kitoblar bo'yicha qiymati 6 milliard 200 million dollar bo'lgan 270 dan ziyod investitsiya loyihasini, shuningdek, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha tarmoq dasturlarini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Joriy 2012-yilda iqtisodiyotimizni diversifikatsiya qilishni davom ettirishda o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni amalga oshirish mo'ljallanmoqda. Jumladan, Surg'il koni bazasida Ustyurt gaz-kimyo kompleksi, Dehqonobod kalyili o'g'itlar va Qo'ng'irot soda zavodlarining ikkinchi navbatini, sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarish zavodini qurish ishlari boshlanadi.

Shuningdek, Tollimarjon issiqlik elektr stansiyasida ikkita bug'-gaz qurilmasi, Angren issiqlik elektr stansiyasida yangi energoblok qurish, avtomobil shinalari va transportyor tasmasi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, to'qimachilik korxonalari quvvatlarini yanada kengaytirish va butun texnologik jarayonni takomillashtirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash ishlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining roli tobora ortib borayotganini alohida ta'kidlashni istardim.

Aytish kerakki, hozirgi vaqtida ushbu Jamg'arma kapitali 9 milliard dollardan oshib ketdi. 2012-yilda Jamg'arma mablag'lari hisobidan sanoat va ishlab chiqarish infratuzilmasining yetakchi tarmoqlarida 758 million dollardan ziyod hajmdagi 29 ta strategik investitsiya loyihasini birgalikda moliyalash mo'ljallanmoqda, bu o'tgan yilga nisbatan 38,2 foizga ko'p demakdir.

Vazirlar Mahkamasi strategik ahamiyatga molik loyihalarning amalga oshirilishini alohida nazoratga olishi, loyiha-smeta hujjatlarining puxta ishlanishini, tanlov savdolarining o'z vaqtida o'tkazilishini, zarur asbob-uskunalarining yetkazib berilishi bo'yicha shartnomalar tuzilishi hamda qurilish-montaj ishlarining belgilangan muddatlarda bajarilishini

ta'minlashi zarur.

Hukumatning chorak yakunlariga bag'ishlangan yig'ilishlarida qabul qilingan Birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturini va modernizatsiyalash bo'yicha tarmoq dasturlari hamda loyihalarni amalga oshirish bo'yicha tasdiqlangan tarmoq jadvallari ijrosi ta'minlanishini ko'rib chiqish va ularning bajarilishi uchun o'z vaqtida tegishli choralar ko'rish tartibini joriy etish darkor.

O'tgan yili protokol bilan belgilangan topshiriqqa binoan mamlakatimizning barcha yirik korxonalari va ishlab chiqarish tarmoqlarida o'tkazilgan texnik audit natijasida 37 mingga yaqin asbob-uskuna va texnologiyalarning jahon miqyosida sinovdan o'tgan, zamonaviy turlariga almashtirilishi lozimligi aniqlandi.

Vazirlar Mahkamasi ushbu audit natijalari asosida bir oy muddatda moddiy va ma'naviy jihatdan eskirgan asbob-uskunalarni yangilash bo'yicha loyihalarning amalga oshirilishi yuzasidan, ularni molialashning aniq manbalariga alohida e'tibor qaratgan holda, tarmoq jadvallarini tasdiqlashi zarur.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizning samarasi haqida so'z yuritar ekanmiz, shuni tan olishimiz kerakki, bu yo'nalishda eskidan qolgan va hali-beri ro'y berib kelayotgan oqsoqlik holatlari borligi, birinchi navbatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning material va energiya sarfi yuqori darajada saqlanib qolayotgani ayon bo'ladi.

Avvalo, biz tabiat tomonidan berilgan noyob, qayta tiklanmaydigan zaxiralar bo'lmish neft, gaz kondensati, tabiiy gaz va boshqa yoqilg'i-energetika resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanishni hamon o'rganganimiz yo'q. Bu resurslarning katta qismidan ko'proq yoqilg'i sifatida foydalanyapmiz, xolos.

Muqobil energiya resurslarini izlash va joriy etish ishlari talab darajasida emas. Umuman, ushbu sohada zudlik bilan hal qilinishi lozim bo'lgan ko'plab muammolar to'planib qolganini afsus bilan qayd etish kerak.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini boshqarish tizimlarini joriy etish, mahsulotlarning xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash masalasi barcha korxonalarda ham hal etilgan, deb bo'lmaydi. Bu kamchilik, ayniqsa, biz uchun o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan yengil sanoat, farmatsevtika va qurilish materiallari sanoati kabi iste'mol tovarlari ishlab chiqariladigan tarmoqlarga tegishlidir.

Mamlakatimizda yaratilgan ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish borasida ham ishga solinmagan ulkan imkoniyatlar mavjud. Biz ishlab chiqarishni yangilash va modernizatsiya qilish uchun katta mablag' sarflaymiz, ko'p miqdordagi xorijiy investitsiyalarni jalg etamiz.

Lekin qator tarmoqlarda ishlab chiqarish quvvatlaridan, asosiy fondlardan to'liq foydalanishda, mehnat samaradorligini oshirishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar mahsulotlar tannarxining asossiz ravishda o'sib ketishiga olib kelmoqda.

Bunday vaziyatlarni tanqidiy baholab, Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda quyidagi masalalarni hal etishi zarur:

Birinchidan. Manfaatdor vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, kompaniya va korxonalar ishtirokida sanoatda mahsulot tannarxini 10-15 foizga pasaytirish yuzasidan har bir sanoat korxonasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ko'zda tutadigan dastur ishlab chiqish lozim.

Ikkinchidan. Mamlakatimiz korxonalarida qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash darajasini tanqidiy tahlil qilish va uni rivojlantirish bo'yicha mavjud resurs va imkoniyatlarni aniqlash hamda sanoatning qayta ishlash tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlari turlarini ko'paytirish va sifatini yaxshilash, buning uchun qo'shimcha imtiyozlarni ko'zda tutadigan maxsus qaror qabul qilish kerak.

Bu borada, birinchi navbatda, mahalliy xomashyo va materiallar asosida sanoat kooperatsiyasi va ishlab chiqarishni mahalliylashtirish tizimini yanada rivojlantirishga oid ishlarni davom ettirishga alohida e'tibor qaratish darkor.

Uchinchidan. Bugungi keskin raqobat sharoitida mahsulotlarimizning jahon va mintaqaviy bozorlarda xaridorgir bo'lishi va mustahkam o'rin egallashi uchun bu boradagi ishlarni yana bir bor tanqidiy ko'rib chiqish lozim. Bunda tashqi bozorda xaridorbop, yuqori likvidli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish uchun eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarni rag'batlantirishni yanada kuchaytirish, ularga yangi imtiyoz va preferensiyalar berish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar tayyorlash zarur.

To'rtinchidan. Mamlakatimizdagi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari va boshqa tarmoqlarning eksport yarmarkalari o'tkazishini kengaytirish, shuningdek, mahsulot sotishning zamonaviy usullaridan keng foydalanish, asosiy ishlab

chiqaruvchilarimizni o‘z mahsulotlari taqdimotini o‘tkazish va yangi eksport shartnomalari tuzishi uchun nufuzli xalqaro yarmarkalarga jalg etish bo‘yicha alohida Hukumat qarorini qabul qilish lozim.

Tarkibiy yangilanishdagi alohida e’tiborni talab etadigan navbatdagi muhim masala – bu xizmatlar sohasining jadal rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

Xizmatlar va servis sohasining joriy yilda keskin o‘sishi, avvalo qurilish, transport, moliya-bank va axborot-kommunikatsiya sohalarida, aholiga tibbiy va kommunal-maishiy xizmatlar ko‘rsatishda, ayniqsa, qishloq joylarda bu sohani yanada kengaytirish uchun hali-beri foydalanimayotgan katta imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Xizmatlar sohasining rivojlanishi, ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmi va sifati bo‘yicha biz iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan hamon jiddiy orqada qolmoqdamiz.

Eng muhimi, shuni unutmaslik kerakki, katta kapital qo‘yilmalar talab qilmaydigan bu soha iqtisodiyotning yuksalishiga, aholi bandligi va daromadlarining ortishiga sezilarli darajada ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish bo‘yicha 2012-2016-yillarga mo‘ljallangan dastur loyihasini tasdiqlash uchun kiritishi, bunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida bu sohaning ulushi 54-56 foizga yetkazilishini nazarda tutish darkor.

2012-yilda eng muhim ustuvor vazifalardan biri transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirishni ta’minlashdan iborat bo‘lib qoladi.

Transport-kommunikatsiya tarmoqlarining inson tanasini qon bilan ta’minlaydigan hayotbaxsh tomirlarga o‘xshatilishi bejiz emas, albatta.

Bugungi kunda yuksak taraqqiy topgan zamонави мamlakatni iqtisodiyot rivojini, shaharlar va aholi punktlarining hayotiy faoliyatini ta’minlaydigan magistral kommunikatsiyalarning keng tarmog‘isiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Barchamiz, avvalo, viloyat va hududiy tuzilmalar rahbarlari transport va kommunikatsiya, birinchi navbatda yo‘l qurilishi sohasi, shuningdek, ijtimoiy va obodonlashtirish ishlari ko‘p mehnat talab etadigan va ayni vaqtida yaxshi haq to‘lanadigan, aholini ish bilan ta’minlash imkonini beradigan tarmoqlar ekanini doimo yodimizda tutishimiz zarur. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mamlakatimizning barcha hududlarini ishonchli

ravishda bog‘laydigan, mintaqaviy va jahon bozorlariga chiqishni ta’minlaydigan O‘zbek milliy avtomagistrali tarkibiga kiramadigan yo‘llarni qurish va rekonstruksiya qilish loyihamalarini jadal amalga oshirish biz uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

Shu maqsadda 2012-yilda 517 kilometrlik avtomobil yo‘llari, ikkita yirik transport bog‘lamasi, 544 pogon-metr ko‘prik va yo‘l o‘tkazgichlarni qurish hamda rekonstruksiya qilish mo‘ljallanmoqda. Buning uchun Respublika yo‘l jamg‘armasidan 360 million AQSh dollaridan ortiq qiymatdagi, o‘tgan yilga nisbatan 12,5 foiz ko‘p mablag‘ yo‘naltirish rejalshtirilmoqda.

O‘zbek milliy avtomagistralini modernizatsiya qilish nafaqat mamlakatimiz, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ulkan strategik ahamiyatga ega ekanini inobatga olgan holda, ushbu loyihamani amalga oshirishda Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Arab Muvofiqlashtirish guruhi a’zolari singari xalqaro moliya tuzilmalari faol ishtiroy etmoqda.

Mazkur tashkilotlar tomonidan 742 kilometrlik avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish, yo‘l qurilishi bo‘yicha zamonaviy texnika sotib olish uchun 1 milliard 400 million dollarga yaqin imtiyozli kreditlar ajratildi.

Faqat 2012-yilning o‘zida ushbu maqsadlar uchun 109 million dollar miqdoridagi mablag‘ni o‘zlashtirish, 165 kilometr sement-beton qoplamali yo‘llarni foydalanishga topshirish, jumladan, Qamchiq dovoni orqali o‘tadigan yo‘lni rekonstruksiya qilish mo‘ljallanmoqda.

“O‘zavtoyo‘l” davlat aksiyadorlik kompaniyasi, Respublika yo‘l jamg‘armasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga ajratilayotgan mablag‘larni samarali o‘zlashtirish hamda avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash yuzasidan belgilangan ko‘rsatkichlarni so‘zsiz bajarish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rish vazifasi topshiriladi.

Temir yo‘llar kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish, Maroqand – Qarshi va Qarshi – Termiz temir yo‘l uchastkalarini elektrlashtirish bo‘yicha loyihamalar amalga oshirilishini jadallashtirish zarur. Shu bilan birga, Toshkent – Samarqand temir yo‘l liniyasi uchastkasida obodonlashtirish ishlarini davom ettirish hamda yuqori tezlikda harakatlanadigan yo‘lovchi poyezdlarning ishonchli va xavfsiz qatnovini ta’minlashga alohida e’tibor qaratish darkor. “O‘zbekiston temir yo‘llari”

kompaniyasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda mazkur ishlarni amalga oshirish bo‘yicha tarmoq jadvallarini ishlab chiqishi va tasdiqlatishi, ularning o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlashi lozim.

Vazirlar Mahkamasi “Navoiy xalqaro intermodal logistika markazi”ni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishini, xalqaro yuklar tranzit hajmini ko‘paytirish, parvozlar geografiyasini yanada kengaytirish, aeroport infratuzilmasini takomillashtirish, shuningdek, “Angren logistika markazi”ni modernizatsiya qilish, rivojlantirish va jihozlash ishlarni qat’iy nazoratga olishi zarur.

Telekommunikatsiya tarmog‘i ko‘lamini kengaytirish, uni rivojlantirish va modernizatsiya qilish uchun qo‘srimcha resurslarni jalb etish lozim. Joriy yilda uzunligi 172 kilometrdan ortiq bo‘lgan Urgut – Shahrисabz va Boysun – Denov optik tolali aloqa liniyasi qurilishini amalga oshirish mo‘ljallanmoqda. Ayni vaqtida 89 ta yangi baza stansiyalarini barpo etish hisobidan simsiz aloqa zonasini kengaytirish, Farg‘ona, Navoiy, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlarda teleuzatgichlar o‘rnatish orqali raqamli televideniyega bosqichma-bosqich o‘tish va boshqa ishlarni bajarish shu boradagi vazifalarimiz qatoriga kiradi.

Telekommunikatsiya tarmog‘ini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha mo‘ljallangan investitsiya loyihamonlari amalga oshirish ishlariiga 2012-yilda 176 million dollardan ortiq hajmdagi investitsiyalarni yo‘naltirish rejalashtirilmoqda.

Vazirlar Mahkamasi har oyda tegishli vazirliklar, idoralar, xo‘jalik birlashmalari va hududiy boshqaruv organlari rahbarlari ishtirokida 2011-2015-yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishi rivojlanishini jadallashtirish to‘g‘risidagi dasturga muvoofiқ ko‘zda tutilgan loyihamonlarning ijrosini ko‘rib chiqishi lozim. Bunda ushbu loyihamonlarning amalga oshirilishini jadallashtirishga to‘sinqinlik qilayotgan muammolarni hal etish bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini ta’minlash darkor.

2012-yilda va undan keyingi yillarda diqqatimiz markazida turishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar haqida so‘z borar ekan, Qishloq joylarda namunaviy loyihamonlari asosida xususiy uy-joylarni qurish bo‘yicha dasturni amalga oshirish masalalariga alohida to‘xtalmoqchiman.

Qishloq joylarda xususiy uy-joylarni qurish bo‘yicha keng ko‘lamli dastur amalga oshirila boshlaganidan buyon, ya’ni so‘nggi ikki yil davomida 15 mingdan ziyod oila har tomonlama qulay yangi uy-joylarga ega bo‘ldi.

Faqat o'tgan yilning o'zida namunaviy loyihalar asosida umumiy maydoni 1 million 100 ming kvadrat metrغا teng bo'lgan 7 ming 400 ta xususiy uy-joy qurib bitkazildi. Bu maqsad uchun 576 milliard so'mlikdan ortiq investitsiyalar yo'naltirildi, ularning 63 foizidan ziyodini markazlashtirilgan manbalar va "Qishloq qurilish bank" mablag'lari tashkil etadi.

Joriy yilda umumiy turar-joy maydoni 1 million 200 ming kvadrat metrдан ortiq bo'lgan 8 ming 510 ta yakka tartibdagi uy-joy qurilishi rejalashtirilgan, bu esa o'tgan yilga nisbatan 15 foiz ko'pdir.

Shu bilan birga, davlat mablag'lari, takror aytaman – byudjet mablag'lari hisobidan turar-joy posyolkalarini qurish bo'yicha oldindan tasdiqlangan kompleks rejalgarda muvofiq 425 kilometrdan ziyod vodoprovod tarmog'i, qariyb 260 kilometr elektr liniyalari, 375 kilometr gaz tarmoqlari va 306 kilometr ichki yo'llar qurilishi rejalashtirilgan.

Ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini barpo etish hisobidan kompleks qurilish joylarida 26 ta qishloq vrachlik punkti, 10 ta umumta'lim maktabi va 680 tadan ziyod xizmat ko'rsatish va servis ob'ekti foydalanishga topshiriladi.

Ushbu maqsadlarda yil davomida qariyb 810 milliard so'mlik kapital qo'yilmalarni o'zlashtirish rejalashtirilmoqda. Umuman aytganda, Qishloq joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirishning 2015-yilgacha mo'ljallangan tasdiqlangan dasturini amalga oshirish ishlariga 2 milliard 200 million AQSh dollari qiymatidagi mablag' yo'naltirish ko'zda tutilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, bu Dasturning amalga oshirilishida Osiyo taraqqiyot banki faol ishtiroy etmoqda. Mazkur bank qishloqda yakka tartibdagi uy-joylar qurilishiga 500 million dollar miqdorida, jumladan, 2012-yilda 160 million dollar investitsiya kiritishni rejalashtirmoqda.

Shu boroda masalaning yana bir jihatiga e'tiboringizni qaratmoqchiman. "Qishloq qurilish bank" tomonidan uning o'z mablag'lari va Osiyo taraqqiyot bankining zayom mablag'lari hisobidan namunaviy loyihalar asosida yakka tartibdagi uy-joylarni qurish uchun kreditlar qishloq aholisiga imtiyozli shartlarda, 15-yil muddatga yillik 7 foizli stavka bo'yicha berilmoqda. Bu esa tijorat banklarining ipoteka kreditlari stavkasidan qariyb ikki barobar past bo'lib, mohiyat e'tibori bilan qishloqda yashayotgan oilalarga katta imtiyoz va imkoniyat yaratib berishga qaratilgandir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari, “Qishloq qurilish invest” kompaniyasi, Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, “Qishloq qurilish bank” shu yil fevral oyining oxirigacha qishloq joylardagi yakka tartibdag‘i turar-joy massivlarida uy-joylar, tashqi muhandislik va transport kommunikatsiyalari, ijtimoiy va bozor infratuzilmasi ob’ektlarini moliyalashni va ularning qurilishi boshlanishini ta’minlasin.

Hech kimga sir emas, mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlari, avvalo, demografik jihatlariga ko‘ra, aholi bandligi masalalari o‘zining dolzarbligi va o‘tkirligini saqlab qolmoqda, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ma’qullangan 2012-yilda ish o‘rinlari yaratish va aholi bandligini ta’minlash dasturi barchamizning, avvalo, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining diqqat markazida turishi zarur. Ushbu dasturga binoan 967 mingdan ortiq ish o‘rni yaratish, ularning qariyb 600 mingini qishloq joylarda tashkil etish ko‘zda tutilmoqda. Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish hisobidan 480 mingdan ziyod kishini ishga joylashtirish, birinchi navbatda, korxonalar bilan hamkorlikda mehnat shartnomalari asosida kasanachilikning turli shakllarini, shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali 210 mingdan ortiq kishining bandligini ta’minlash rejalashtirilgan.

Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani, transport va kommunikatsiyalar qurilishini jadal rivojlantirish, aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarining ko‘lamini kengaytirish hisobidan 2012-yilda qariyb 75 mingta yangi ish o‘rni tashkil etish ko‘zda tutilmoqda.

Shu borada biz uchun o‘ta muhim, aytish mumkinki, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan yana bir masalaga to‘xtalib o‘tishni joiz deb bilaman. Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar bitiruvchilarini ishga joylashtirish masalasi barchamizning jiddiy va doimiy e’tiborimiz markazida turishi zarur.

Bu yil yurtimizda 516 ming nafardan ziyod yigit-qiz kollej va litseylarni tamomlaydi. Ularning qayerga ishga joylashishini hozirdanoq aniq belgilab olish, korxonalar bilan ishlab chiqarish amaliyotini o‘tash va undan so‘ng ishga qabul qilish bo‘yicha shartnomalarning o‘z vaqtida tuzilishini ta’minlash – bunday masalalarni alohida nazoratga olish lozim.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi, Iqtisodiyot vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari manfaatdor korxonalar va idoralar bilan birgalikda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylashtirish yuzasidan chora-tadbirlar majmuini bir oy muddatda ishlab chiqsin va uni shu yilning 1-iyuningacha amalgga oshirsin.

Fursatdan foydalanib, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlarini, ayniqsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashini, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarini bu boradagi ishlar qanday yo‘lga qo‘yilgani va qanday bajarilayotganiga qarab ularning faoliyatiga baho berilishi haqida alohida ogohlantirib qo‘ymoqchiman.

Hurmatli majlis qatnashchilar!

Biz 2012-yilni yurtimizda “Mustahkam oila yili” deb e’lon qildik.

Jamiyatimizning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlanтиrish, bugungi kunda yosh oilalarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalgga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, bu borada mahallaning roli va ahamiyatini kuchaytirish, xotin-qizlar, opa-singillarimiz uchun yanada keng imkoniyatlar yaratish, jismonan sog‘lom, ma’nан yetuk va barkamol avlodni tarbiyalash kabi o‘z oldimizga qo‘ygan boshqa muhim maqsadlar barchamizga yaxshi ma’lum.

Bu o‘rinda gap aynan shular hisobidan pirovard natijada oila farovonligini va shu asosda butun xalqimiz farovonligini yanada oshirish haqida bormoqda.

Shu kunlarda ushbu yo‘nalishda belgilangan vazifalarni amalgga oshirish va hayotga joriy etish bo‘yicha Davlat dasturini ishlab chiqish ishlari nihoyasiga yetkazilmoqda.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, mazkur dasturni amalgga oshirish uchun 2012-yilda moliyalashning barcha manbalari hisobidan qariyb 4 trillion 400 milliard so‘m va 370 million dollardan ortiq mablag‘ yo‘naltirilishi rejalashtirilmoqda.

Bu mablag‘ning 60 foizga yaqinini davlat mablag‘lari, 25 foizini tijorat banklari kreditlari, qariyb 15 foizini mas‘ul ijrochilarining o‘z mablag‘lari hamda 360 million dollardan ortig‘ini xalqaro institutlar va donor mamlakatlar mablag‘lari tashkil etadi.

Hech shubhasiz, bunday keng ko‘lamda ajratilayotgan mablag‘lar

avvalo shu saxovatli O‘zbekiston zaminida yashayotgan har qaysi oilaga ko‘rsatilayotgan katta e’tibor va g‘amxo‘rlik, ko‘mak va yordam belgisi va timsoli, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Aziz do‘sstar!

O‘tgan 2011-yilning asosiy yakunlari va mamlakatimizning 2012-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturining muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlari ana shulardan iborat.

Ushbu dasturda belgilangan ulkan vazifalarni amalga oshirish eng avvalo barchamizdan butun salohiyatimiz, bilim va tajribamizni, bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishni, har birimizdan zimmamizdagи mas’uliyatni chuqur his etgan holda, samarali mehnat qilishni talab etadi.

Oldimizda turgan ana shunday yuksak va ezgu maqsadlarga erishishda barchangizga chin qalbimdan sog‘lik-salomatlik, yangi omadlar tilayman.

RESPUBLIKA BAYNALMILAL MADANIYAT MARKAZI TASHKIL ETILGANINING 20 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI YIG'ILISH ISHTIROKCHILARIGA BAYRAM TABRIGI

Hurmatli Vatandoshlar!

Qadrli do'stlar!

Siz azizlarni va sizlarning siymongizda ko'pmillatli butun mamlakatimiz xalqini Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 20 yilligi bilan chin qalbimdan samimiyl muborakbod etish menga katta mammuniyat bag'ishlaydi.

Biz ushbu qutlug' sanani O'zbekiston mustaqilligining 20 yillik bayrami shukuhi qalblarimizda davom etayotgan shu yorug' kunlarda nishonlayotganimizning teran ramziy ma'nosi bor, albatta. Bu tarixiy sana timsolida biz eng avvalo mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki kunlaridan boshlab mamlakatimizda millatlararo ahillik va hamjihatlikni ta'minlashga qanday muhim ahamiyat berib kelinayotganining yaqqol dalolatini ko'ramiz.

Yurtimizda bu ayyomni keng nishonlar ekanmiz, hammamiz, O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillari Vatanimizning necha ming yillik qadimiy tarixi davomida mana shu saxovatli va hamisha mehmondo'st zaminda turli madaniyat va sivilizatsiyaga mansub bo'lgan insonlar o'zaro tinch-totuv yashab kelganini yuksak qadrlaymiz. Ayni shunday ma'naviy muhit o'zining bag'rikengligi, mehr-oqibatliligi, tinchliksevarligi va qalb saxovati bilan ajralib turadigan xalqimizning o'ziga xos mentaliteti shakllanishida muhim omil bo'ldi, desak, yanglishmagan bo'lamiz.

Ana shunday milliy rang-baranglik va shu bilan birga, yagona xalqqa xos birlik tuyg'usi – bu nafaqat noyob xususiyat, balki har birimiz uchun hayotbaxsh ta'sirini va barchamizni o'zaro boyitishdagi ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydigan ulkan qadriyatdir.

Shu ma'noda, bizning eng katta boyligimiz, eng asosiy yutug'imiz – bu avvalo Vatanimiz osmonining musaffoligi, jamiyatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolararo ahillik va hamjihatlik, do'stlik va birdamlik muhitidir, desam, ishonchim komilki, barchangiz bu fikrga qo'shilasiz.

Bugungi kunda mamlakatimizda etnik o‘ziga xosligi, tili, urf-odat va an‘analarini har tomonlama rivojlantirish va o‘zaro boyitish bo‘yicha teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lgan 130 dan ziyod millat va elat vakillari yagona oila bo‘lib, do‘stlik va inoqlikda hayot kechirmoqda. Yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, Vatanimizni yanada ravnaq toptirish, uning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini oshirish maqsadida barcha sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlarni amalga oshirish yo‘lida ular o‘zlarining fidokorona mehnati bilan munosib hissa qo‘shayotganini biz yuksak qadrlaymiz.

Ta’kidlash joizki, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni rivojlantirish uchun barcha huquqiy asoslar va zarur shart-sharoitlar yaratildi. Bag‘rikenglik madaniyatini tarbiyalash va yanada mustahkamlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda milliy madaniy rang-baranglik hayotimizning ajralmas qismi sifatida qaralib, barqarorlikni ta’minalash omili bo‘lib xizmat qilayotgani va jamiyatimizning demokratik islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lidan ilgarilab borishida muhim rol o‘ynayotgani, biz O‘zbekiston deb ataydigan umumiy uyimizda turli milliy madaniyatlarning betakror va boy uyg‘unligini shakllantirayotgani alohida e’tiborga sazovordir.

Bugungi qutlug‘ ayyomda barcha milliy madaniy markazlarning rahbarlari va faollariga muqaddas zaminimizda tinchlik va farovonlikni saqlash, farzandlarimiz va nabiralarimizning kelajagi, jamiyatimizda o‘zaro hamjihatlik, insonparvarlik va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash yo‘lidagi beg‘araz va olijanob mehnatlari uchun o‘zimning chuqur va samimiylarini hurmat-ehtiromimni bildiraman. O‘tgan 20 yil mobaynida chinakam do‘stlik maskaniga aylangan Respublika baynalmilal madaniyat markazining ko‘p qirrali faoliyati ana shunday yuksak maqsad va vazifalarning amaliy namoyoni bo‘lib kelayotgani hammamizni albatta xursand qiladi.

Qadrli do‘stlar, barchangizga chin qalbimdan mustahkam sog‘liq, baxtu saodat, xonodonlaringizga fayzu baraka tilayman, O‘zbekistonda yashayotgan millat va elat vakillarining bugungi hayoti va kelajagi yo‘lidagi olijanob va g‘oyat mas’uliyatli faoliyatingizda yangidan-yangi muvaffaqiyatlar yor bo‘lsin.

“O‘ZBEKISTON HAVO YO‘LLARI” MILLIY AVIAKOMPANIYASI TASHKIL ETILGANINING 20 YILLIGI MUNOSABATI BILAN AVIAKOMPANIYA JAMOASIGA BAYRAM TABRIGI

Hurmatli do‘stlar!

Barchangizni mamlakatimiz hayotidagi qutlug‘ sana – “O‘zbekiston havo yo‘llari” Milliy aviakompaniyasi tashkil etilganining 20 yilligi bilan chin qalbimdan samimiyl muborakbod etish menga katta mammuniyat bag‘ishlaydi.

O‘zbekiston fuqaro aviatsiyasi o‘zining yigirma yillik faoliyati davomida zamonaviy aviakompaniya sifatida tiklanish va shakllanishning ulkan, murakkab yo‘lini bosib o‘tdi va bugungi kunda yurtimizning ko‘plab xorijiy davlatlar bilan samarali hamkorligini yanada kengaytirish va aloqalarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynamoqda.

Mamlakatimiz fuqaro aviatsiyasini rivojlantirish bo‘yicha chuqur o‘ylangan, uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyaning amalga oshirilishi, jamoaning yuksak kasb mahorati Milliy aviakompaniyamizning xalqaro aviatashuvlar va texnik xizmat ko‘rsatish tizimidan munosib o‘rin egallashida muhim omil bo‘ldi. Aviatsiya xavfsizligi va parvozlarni sifatli amalga oshirishni ta’minalash, aviatsiya texnikasiga xizmat ko‘rsatishda eng ilg‘or texnologiyalarni keng qo‘llash, shuningdek, malakali kadrlar tayyorlash sohasida erishilgan yuksak natijalar nufuzli xalqaro aviatsiya tashkilotlari tomonidan bir necha bor taqdirlangani ayniqsa quvonchlidir.

Hozirgi kunda zamonaviy havo kemalari bilan ta’minlangan “O‘zbekiston havo yo‘llari” dunyoning 25 dan ortiq mamlakatiga parvozlarni amalga oshirmoqda, yiliga qariyb 75 ming tranzit yo‘nalishning havo harakatini boshqarmoqda, shuningdek, aviakompaniyamiz tarkibida faoliyat ko‘rsatayotgan, so‘nggi avlod aviatsiya texnikasiga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni ta’mirlash bo‘yicha Markaziy Osiyo mintaqasida yagona bo‘lgan markazning xizmatlaridan keng foydalanayotgan 320 ta xorijiy aviakompaniya samolyotlariga aeronavigatsiya xizmati ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizning barcha aeroportlari jahon andozalari darajasida modernizatsiya qilindi. Faqat 2011 yilning o‘zida 2 million 300 ming nafar yo‘lovchi va salkam 50 ming tonna yuk belgilangan manzillarga

yetkazilgani Milliy aviakompaniyamiz qo‘lga kiritayotgan yutuqlardan yaqqol dalolat beradi.

“Navoiy” xalqaro aeroporti negizida tashkil etilgan va zamonaviy aeronavigatsiya uskunalar bilan jihozlangan Xalqaro intermodal logistika markazi, ob-havo sharoiti qanday bo‘lishidan qat’i nazar, barcha turdagи avialaynerlarni qabul qilish imkoniga egadir.

Shuni alohida qayd etish kerakki, o‘tgan yillar davomida “O‘zbekiston havo yo‘llari” aviakompaniyasining ko‘pmillatli jamoasi shakllandи va kamolga yetdi. Bu jamoaning fidokorona mehnati, bilim va tajribasi yurtimizda haqli ravishda yuksak e’tirof va hurmatga sazovor bo‘lmoqda, mamlakatimiz fuqaro aviatsiyasining yanada ravnaq topishida ishonchli poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Aziz do‘sstar!

Barchangizni Milliy aviakompaniyamiz tashkil etilganining 20 yilligi bilan yana bir bor tabriklab, o‘zimning samimiy hurmat-ehtiromimni izhor etishga, sizlarga va oilalaringizga sihat-salomatlilik, baxtu saodat, oljanob va fidokorona mehnatingizda yangi-yangi muvaffaqiyatlar tilashga ijozat bergaysiz.

Musaffo osmon va baxtli parvozlar hamisha sizlarga yor bo‘lsin.

BARKAMOL AVLOD – MAMLAKATIMIZNING MUSTAHKAM TAYANCHI

Prezident Islom Karimov raisligida 10-fevral kuni Oqsaroyda O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi Homiylik kengashining navbatdagi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Mamlakatning qudratini belgilaydigan omillar ko‘p. Biroq ularning eng asosiyalaridan biri shu yurtda voyaga yetayotgan yuksak ma’naviyatli, jismonan sog‘lom, har tomonlama barkamol avloddir. Zero, el-yurtning kelajagi bugun kamolga yetayotgan yoshlar qo‘lida. “Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir”, deb ta’kidlaydi Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobida.

Ana shu ezgu maqsadlarni amalga oshirish mamlakatimiz mustaqil taraqqiyot yo‘lidagi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan etib belgilandi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida yosh avlodni yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilim va tafakkurga ega, ayni paytda sog‘lom turmush tarziga rioya qiladigan, jismonan sog‘lom, ruhan tetik insonlar etib voyaga yetkazishning samarali tizimi hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Bu jarayonda o‘g‘il-qizlarimizni jismonan sog‘lom, kuchli iroda va yuksak intellektual salohiyatga ega insonlar etib tarbiyalashning bosh omili, o‘zbek sportining kelajagi, xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yuksaltirishning asosi bo‘lgan bolalar sportini rivojlantirish umummilliylar harakatga aylandi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etilib, yoshlar o‘rtasida sportni ommalashtirish, bolalar sportini rivojlantirishning noyob tizimiga asos solindi. Davlatimiz rahbarining 2002-yil 24-oktabrdagi “O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida”gi va 2004-yil 29-avgustdagagi “O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari bolalar sportini rivojlantirishda muhim dasturilamal bo‘layotir.

Islom Karimov Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etilganidan buyon o‘tgan davrda bu sohada mamlakatimizda katta tajriba

to‘planganini alohida qayd etdi. Bugun yurtimizda sog‘lom va barkamol avlod voyaga yetayotgani, o‘z iste’dodi va mahorati bilan jahon arenalarida ulkan muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritayotgan ko‘plab yosh sportchilar yetishib chiqayotgani sportni, xususan bolalar sportini rivojlantirishga qaratilayotgan alohida e’tibor samarasidir.

– Biz mazkur jamg‘arma orqali avvalo sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, yosh naslimizni turli salbiy ta’sirlardan asrash, bolalar sportini ommaviy, umumxalq harakatiga aylantirishdek oljanob maqsadlarni ko‘zlaganmiz, – dedi davlatimiz rahbari. – Chunki bugun unib-o‘sib kelayotgan farzandlarining har tomonlama barkamol avlod bo‘lib hayotga kirib borishini o‘zi uchun eng ulug‘, eng muqaddas maqsad, deb bilgan mamlakatgina xalqaro hamjamiyatda munosib o‘rin egallay oladi.

Majlisda Homiylik kengashining 2011-yil 25-fevralda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida belgilab berilgan vazifalarning ijrosi atroficha tahlil etildi. Bolalar sporti inshootlari va suzish havzalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash, qizlarni sport bilan muntazam shug‘ullanishga keng jalb qilish, bolalar sporti ob’ektlari va sport zallarini zarur sport anjomlari va inventarlari bilan jihozlash bo‘yicha o‘tgan yil davomida amalga oshirilgan ishlarga alohida e’tibor qaratildi.

Shahar va qishloqlarimizda bolalar sportini yanada rivojlantirish maqsadida o‘nlab zamonaviy sport majmualari va stadionlar buniyod etildi. 2011-yilda manzilli qurilish dasturida bolalar sporti ob’ektlari, musiqa va san’at maktablari barpo etish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash bo‘yicha belgilangan topshiriqlar to‘la bajarildi. 214 ob’ekt, jumladan 130 sport inshooti, 19 suzish havzasasi va 65 bolalar musiqa va san’at maktablari qurilib, foydalanishga topshirildi.

– Mamlakatimizda har yili turli sohalarda yuzlab yangidan-yangi ob’ektlar buniyod etilmoqda, ammo farzandlarimiz kelajagiga, ularning barkamol ulg‘ayishiga xizmat qiladigan bolalar sporti ob’ektlarini qurish mazmun-mohiyatiga ko‘ra – alohida masala. Chunki bu yerda farzandining sport bilan shug‘ullanib, har tomonlama sog‘lom ulg‘ayayotgani, fikrlashi, aqliy salohiyati, jismoniy imkoniyati oshib borayotganini ko‘rgan ota-onaborki, o‘zini baxtli his etadi, hayotidan rozi bo‘lib yashaydi, – dedi davlatimiz rahbari.

Mazkur jamg‘arma tuzilgandan buyon 1400 dan ziyod zamonaviy bolalar sporti ob’ekti foydalanishga topshirildi. Bu ezgu ishga yurtimizdagি

qator kompaniya va tashkilotlar, korxonalar o‘zining munosib hissasini qo‘sib kelmoqda. Yig‘ilishda “O‘zbekneftgaz”, “O‘zbekiston temir yo‘llari”, “O‘zavtosanoat” kompaniyalari, Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlari, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, “Asakabank” kabi jamg‘armaga homiylik qilishda jonbozlik ko‘rsatayotgan tashkilotlar nomi alohida ta’kidlandi.

Aniq maqsadga yo‘naltirilgan bu ezgu sa'y-harakatlar natijasida mamlakatimizda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida sport bilan shug‘ullanuvchilar 2008-yildagi 29,2 foizdan 2011-yilda 34,9 foizgacha, jumladan qiz bolalar o‘rtasida 24,1 foizdan 31,4 foizgacha oshdi.

Bugun respublika va xalqaro musobaqalarda ishtirok etayotgan o‘g‘il va qizlarning safi tobora kengaymoqda, ular tomonidan qo‘lga kiritilgan sovrinlar miqdori ayniqsa so‘nggi yillarda sezilarli darajada ko‘paydi. Jahonning eng yirik va nufuzli sport musobaqalarida O‘zbekiston vakillari keng va faol ishtirok etmoqda. Bir paytlar yurtimiz sportchilari faqat orzu qilgan Olimpiada musobaqalari, jahon va qit‘a championatlarda bugun istiqlol farzandlari – yosh sportchilarimiz sovrinli o‘rnlarni qo‘lga kiritayotir.

Xalqaro musobaqalarda sportchilarimiz 2008-yilda 103 medalga (51 oltin) loyiq topilgan bo‘lsa, 2011-yilda 182 medal (60 oltin) jamg‘ardi. Suv sporti turlari bilan shug‘ullanadigan yoshlарimiz eng ko‘p medal olgani alohida e’tiborga sazovor. Masalan, qoraqalpog‘istonlik Abubakir Uzaqbayev Singapurda akademik eshkak eshish bo‘yicha o‘tkazilgan Osiyo kubogi musobaqasida oltin medalni qo‘lga kiritdi.

Meksikada bo‘lib o‘tgan o‘smirlar o‘rtasidagi jahon championatida yosh futbolchilarimiz ko‘rsatgan natija ham tahsinga loyiqidir. O‘smirlar terma jamoamiz dunyoning eng kuchli 24 terma jamoasi qatorida ishtirok etib, O‘zbekiston sharafini munosib himoya qildi. Shuningdek, 2011-yilda mohir sportchimiz Rishod Sobirov Parij shahrida o‘tkazilgan dzyudo bo‘yicha jahon championatida oltin medalga – ikkinchi bor jahon championligiga erishgani, Qarshining “Nasaf” jamoasi Osiyo futbol konfederatsiyasi kubogini qo‘lga kiritgani, dzyudo bo‘yicha mutlaq vazn toifasida o‘tkazilgan jahon championatida hamyurtimiz Abdulla Tangriyev jahon championi degan sharafli nomga sazovor bo‘lgani bugun o‘zbek sportining naqadar rivojlanib, yuksalib borayotganidan dalolatdir.

O‘zbekiston ko‘plab nufuzli xalqaro musobaqalarga mezbonlik

qilmoqda. O'tgan yili Toshkentda badiiy gimnastika bo'yicha Jahon kubogi bosqichi musobaqlari va "Happy Caravan" xalqaro turniri muvaffaqiyatli o'tkazildi. Toshkentda shaxmat bo'yicha ikki jahon championi – o'zbekistonlik Rustam Qosimjonov va hindistonlik Vishvanatan Anandning o'rtoqlik uchrashuvi yuksak saviyada tashkil etildi. Mazkur uchrashuv doirasida Vishvanatan Anand yosh shaxmatchilarimiz bilan seminar-trening o'tkazdi hamda ularning iste'dod va mahoratini e'tirof etdi.

Davlatimiz rahbari sport bugun yurtimiz ta'lim-tarbiya tizimining uzviy qismiga aylanganini alohida qayd etdi. Sportni ta'lim-tarbiya bilan mutanosib ravishda izchil rivojlantirish – bu biz tanlagan yo'lning ajralmas qismidir.

Yoshlarimiz orasida suzish, baydarka va kanoeda eshkak eshish, akademik eshkak eshish, dzyudo, badiiy gimnastika, futbol, mini-futbol, stol tennisi, kurash, yunon-rum kurashi, boks, yengil atletika singari sport turlariga qiziqish tobora ortmoqda.

Qizlarni sportga jalb etish, ularning ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bolalar sportini rivojlantirishning muhim yo'naliшlaridandir. Prezidentimiz tashabbusi bilan hayotga izchillik bilan tatbiq etilayotgan "Sog'lom ona – sog'lom bola" maqsadli dasturini amalga oshirishda qizlarni sportga jalb etish masalasi alohida o'rin tutadi. 2011-yili Toshkentda bo'lib o'tgan "O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: "Sog'lom ona – sog'lom bola" mavzuidagi xalqaro simpoziumda O'zbekistonda salomatlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadigan sportni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilayotgani Jahon sog'lioni saqlash tashkiloti, YUNISEF va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan yuksak baholandi.

Sportning nafis turi – badiiy gimnastika va sport gimnastikasi jadal rivojlanmoqda. Qizlarning sport bilan shug'ullanishi uchun, ayniqsa, qishloqlarda tegishli shart-sharoit yaratish maqsadida badiiy gimnastikaga mo'ljallangan o'nlab yangi sport majmualari bunyod etildi. Mamlakatimizning barcha hududlaridagi zamonaviy sport inshootlarida badiiy gimnastika seksiyalari hamda klublari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Qizlarni sportga jalb etishda Xorazm, Buxoro, Andijon viloyatlari, Qoraqalpog'ston Respublikasi va Toshkent shahridagi ko'rsatkichlar e'tiborga molikdir.

Davlatimiz rahbarining 2010-yil 1-aprelda qabul qilingan “Qishloq joylardagi bolalar sporti ob’ektlarida band bo’lgan ayol sport ustozlari mehnatini rag’batlantirish chora-tadbirlari to’g‘risida”gi qarori qizlarni, ayniqsa qishloq joylardagi qizlarni sport bilan shug‘ullanishga faol jalg etish, bolalar sporti ob’ektlari uchun yuqori malakali, professional ayol ustoz kadrlarni tayyorlash, ularning mehnatini moddiy rag’batlantirishda muhim omil bo’layotir.

Sport ob’ektlarini murabbiy kadrlar, ayniqsa murabbiyalari bilan to’ldirishga qaratilgan ushbu amaliy sa’y-harakatlar natijasida ayol sport ustozlari o’tgan yilning o’zida 1,6 barobardan ko’proq oshdi.

Qizlarining sport bilan shug‘ullanishi ularning nafaqat salomatligida, ayni paytda qaddi-qomati to’g‘ri shakllanishida, yurish-turishida naqadar muhim ahamiyat kasb etayotganini bugun ota-onalarning o’zлari quvонч bilan ta’kidlashmoqda. Qizlarimizning mana shunday sog‘lom bo‘lib ulg‘ayishi ertangi kunimizning, dunyoga keladigan barkamol avlodning muhim omillaridandir, dedi Islom Karimov.

Prezidentimizning tashabbusi bilan o’tkazib kelinayotgan uch bosqichli sport o‘yinlari – “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va Universiada O‘zbekiston bayrog‘ini baland ko’taradigan, yurt sha’ni, xalq g‘ururi uchun kurashadigan mahoratlari sportchilarni tarbiyalashda o‘ziga xos mакtab vazifasini o’tamoqda. Har yili mazkur musobaqalarda kashf etilayotgan yuzlab yosh sportchilar xalqaro maydonlarda Vatanimiz sharafini munosib himoya qilayotir.

Sport yoshlarimiz hayotiga tobora chuqur kirib borayotgani, minglab yigit-qizlar sport bilan shug‘ullanishni kundalik vazifasiga aylantirgani ularning jismoniy holatiga, salomatligiga ijobjiy ta’sir ko’rsatmoqda. Jumladan, 2005-2011-yillarda mutlaq sog‘lom bolalar mamlakat bo‘yicha 52,7 foizdan 62,9 foizgacha o‘sdi, surunkali kasalliklarga chalingan bolalar soni esa keskin kamaydi. O‘g‘il va qiz bolalarning o‘rtacha bo‘yi va vazni oshmoqda. Harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlar orasida xizmatga loyiq deb topilganlar sezilarli darajada ortgani ham bu boradagi ishlarning amaliy natijasidir.

2011-yilda “Bolalarni asraylik” xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan jahon reytingida O‘zbekiston bolalar salomatligini mustahkamlash borasida katta g‘amxo‘rlik ko’rsatayotgan eng ilg‘or yetakchi o’n mamlakat qatoriga kiritilgani yurtimizda barkamol avlodni tarbiyalash yo‘lidagi amaliy sa’y-harakatlarning yana bir xalqaro e’tirofi bo‘ldi.

– Bolalarni 3-5 yoshdan sportga jalgan etish katta ahamiyatga ega, – dedi Islom Karimov. – Chunki ayni shu davrda har bir bolaning xarakteri shakllana boshlaydi, hayotga teran ko‘z bilan qarashga o‘rganadi. Sportga mehr qo‘yan bola bir umr sportga oshno bo‘lib qoladi. Sport bolaning nafaqat salomatligini mustahkamlaydi, balki zararli illatlardan uni himoyalaydi, xarakterini toblaydi.

Yurtimizda o‘tgan yillarda sport majmualari bunyod etish borasida ulkan tajriba to‘plandi. Bugun eng chekka hududlarda qad rostlayotgan sport inshootlari ham xalqaro talablarga to‘la javob beradi. Sport majmularining deyarli barchasi yurtimizda ishlab chiqarilgan sport inventarlari bilan jihozlanmoqda.

Ayni paytda mamlakatimizda qariyb 30 zamonaviy korxonada sport tovarlari ishlab chiqarilmoqda. Mahalliylashtirish dasturlarini amalga oshirish natijasida bolalar sporti inshootlarini jihozlashda ishlatiladigan 120 turdag‘ sport uskuna va anjomlarining 113 tasini mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Prezidentimiz sport anjomlarini o‘zimizda ishlab chiqarishni o‘zlashtirish bilan birga, ularning sifatiga alohida e’tibor qaratish, ko‘rinishi bolalarni o‘ziga tortadigan, qulay va xorijnikidan qolishmaydigan sport inventarlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish zarurligini alohida ta’kidladi.

Yig‘ilishda bolalar sport inshootlarini qurish, ularni jihozlash borasida yo‘l qo‘yilayotgan ayrim kamchiliklar ham ko‘rsatilib, ularni bartaraf etish zarurligi ta’kidlandi.

Majlisda Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasining istiqboldagi faoliyati bilan bog‘liq masalalar ham ko‘rib chiqildi. Muhokama etilgan masalalar yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari R. Azimov, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari, Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi E. Bositxonova, Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi ijrochi direktori A. Ochilov, O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vaziri A. Ikromov, madaniyat va sport ishlari vazirining birinchi o‘rinbosari J. Akromov, qator vazirlik va idoralar rahbarlari, viloyat hokimlarining axborotlari tinglandi.

Yig‘ilishda ko‘rilgan masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

YUKSAK SALOHIYATLI AVLODNI TARBIYALASH – ENG MUQADDAS MAQSAD

“Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutq

Hurmatli konferensiya qatnashchilar, xonimlar va janoblar!

Siz, muhtaram konferensiya ishtirokchilarini, birinchi navbatda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki namoyandalari bo‘lgan aziz mehmonlarimizni, dunyoning turli qit’alaridagi 40 dan ziyod mamlakatdan tashrif buyurgan vakillarni qutlash va barchangizga o‘zimning chuqur hurmatimni va ushbu anjumanda qatnashayotganingiz uchun samimiy minnatdorligimni bildirish menqa katta mammuniyat bag‘ishlaydi.

Bizning mintaqamizda iqtisodiy vaziyatni barqarorlashtirish va izchil taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni qo‘llab-quvvatlashga ulkan hissa qo‘sib kelayotgani uchun mazkur konferensiyanı o’tkazish tashabbuskorlaridan biri bo‘lgan Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Xaruxiko Kuroda janoblariga alohida tashakkur izhor etmoqchiman.

O‘ylaymanki, konferensiya ishtirokchilar u什bu forumning bosh mavzusi, ya’ni ta’lim tizimini isloh etish masalalari – zamonaviy davlatning izchil va barqaror taraqqiyoti, avvalambor, uning iqtisodiy rivojlanishi yo‘lidagi muammolarni yechish bilan bevosita bog‘liq holda ko‘rilayotganiga e’tibor qaratgan bo‘lsalar kerak.

Sir emaski, bu mavzu biz boshimizdan kechirayotgan hozirgi kunlarda, dunyodagi deyarli mutlaq ko‘pchilik davlatlar 2008 yilda boshlangan, global miqyosdagi yangi retsessiya to‘lqinlarini keltirib chiqarish xavfini tug‘dirayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta’siri ostida qolib kelayotgan bir paytda alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda, umumiyl e’tirofga ko‘ra, XXI asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanib borayotganini isbotlab berishga hojat yo‘q, albatta.

Bunday sharoitda inson kapitaliga yo‘naltirilayotgan investitsiya va qo‘yilmalarning o‘sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo‘lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o‘zining asosiy ustuvor yo‘nalishlari qatoriga qo‘yadigan davlatgina o‘zini namoyon eta olishi mumkin.

Hurmatli anjuman qatnashchilar!

Butun dunyoda ko‘zga ko‘ringan olim va mutaxassislar, jahondagi mashhur o‘quv yurtlari, nufuzli xalqaro tuzilmalarning rahbarlari va vakillari ishtirokida O‘zbekistonda shakllangan ta’lim tizimini isloh etish modeli va uni amalga oshirish bo‘yicha to‘plangan tajribaning muhokama qilinishi biz uchun yuksak sharafdir.

Avvalo shuni ta’kidlash zarurki, bundan 15 yil oldin qabul qilingan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi deb nom olgan Ta’lim sohasini isloh qilish dasturi mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning bosqichma-bosqich va tadrijiy rivojlanish prinsipiiga asoslangan iqtisodiy va siyosiy islohotlarning biz tanlagan “o‘zbek modeli” – o‘z taraqqiyot yo‘limizning ajralmas tarkibiy qismidir.

Ushbu dastur jiddiy izlanish va tadqiqotlarning, jahondagi taraqqiy topgan ilg‘or mamlakatlar tajribasini umumlashtirishning natijasi sifatida o‘tmishda majburan singdirilgan kommunistik mafkuraning qolip va andozalaridan butunlay voz kechish, odamlarning, birinchi navbatda, unib-o‘sib kelayotgan avlodning ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, qisqacha aytganda, bu dastur o‘z fikriga, o‘zining qarashlari va qat’iy grajdaniq pozitsiyasiga ega bo‘lgan, har tomonlama yetuk va mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo‘yan.

Uzoq yillar davomida vujudga kelgan eski ta’lim tizimini tubdan qayta qurmasdan va isloh etmasdan turib bu maqsadga erishish aslo mumkin emas edi.

Agarki O‘zbekistonda aholining qariyb 35 foizini 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar, 60 foizdan ziyodini esa 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etishini hisobga oladigan bo‘lsak, bu islohotlarning roli va ahamiyati o‘z-o‘zidan tushunarli va ravshan bo‘ladi.

Qabul qilingan dasturga muvofiq, mamlakatimizda 9+3 sxemasi bo‘yicha 12 yillik umumiyy majburiy bepul ta’lim tizimi joriy etildi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan modelning prinsipial xususiyati avvalo shundaki, umumta’lim mактабидаги 9 ўйлік о‘qishдан со‘ng о‘quvchilar keyingi 3 ўй давомида ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda tahsil olib, ularning har biri umumta’lim fanlari bilan birga mehnat bozorida talab qilinadigan 2-3 ta mutaxassislik bo‘yicha kasb-hunarlarni ham egallaydi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda 12 ўйлік та’лим барча үчун majburiy va bepul ekani qonunlarimizda belgilab qо‘yilgan. Bu o‘sib kelayotgan yangi avlodimiz 12 ўйлік majburiy ta’lim olish bilan birga aniq mutaxassislik va kasb-hunarga ega bo‘lishini taqozo etadi. Bu, ayniqsa, qizlarimiz үчун muhimdir. Biz bunda har qaysi yangi tashkil bo‘layotgan yosh oilada avvalo qizlarning o‘zi tanlagan muayyan mutaxassislikka, kasb-hunarga, hayotda o‘zining mustaqil fikri va qat’iy pozitsiyasiga ega bo‘lishi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etishini nazarda tutamiz. Shuning үчун ham barcha zarur fanlar bo‘yicha umumiyy ta’lim beradigan maktablardagi 9 ўйлік tаhsildan keyin yoshlарimiz, ayniqsa qizlarimiz majburiy tarzda kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda o‘qishni davom ettirishi, ikki-uchta zamonaviy mutaxassislik bo‘yicha kasb-hunarlarga ega bo‘lishi o‘ta muhimdir.

Sizlar kecha va bugun Toshkentda bo‘lib turibsiz, ertaga Samarqandga borasiz, kimdir Buxoroni, kimdir Xivani – bizning ana shu qadimiyy shaharlarimizni ko‘rish istagini bildirishi mumkin. Sizlar bu shaharlardagi tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan tanishar ekansiz, imkon topib, olis tumanlarimizdagi kollejlar, litsey va maktablarni ham borib ko‘rishingizni istardim. Shunda siz bu ta’lim maskanlari mamlakatimiz poytaxti – Toshkent shahridagi o‘quv muassasalaridan aslo qolishmasligiga ishonch hosil qilasiz, deb o‘layman.

O‘n ikki yillik majburiy ta’limdan so‘ng yurtimizdagi yoshlarning har biri, o‘z xohishiga ko‘ra, bakalavr va magistr darajasini olish үчун olyi o‘quv yurtlarida o‘qishni davom ettirishi mumkin.

O‘tgan yillar mobaynida ta’lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish bo‘yicha miqyosi va ko‘lamiga ko‘ra ulkan ishlar amalga oshirildi. Qariyb 9,5 ming yoki mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan maktablarning deyarli barchasi yangitdan qurildi, kapital rekonstruksiya qilindi va zamonaviy o‘quv-laboratoriya asbob-uskunalarini bilan ta’minlandi. O‘quv jarayonini sifat va metodik jihatdan butunlay yangilash bo‘yicha ulkan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O‘zbekistonda maktab ta’limi 7 ta tilda: o‘zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, turkman va tojik tillarida olib borilmoqda.

Mamlakatimizda 1500 dan ortiq yangi kasb-hunar kolleji va akademik litsey barpo etildi. Siz, konferensiya qatnashchilarining ko‘pchiligi ushbu bilim maskanlari bilan tanishar ekansiz, ular o‘z me’moriy qiyofasi va texnik ta’minotiga ko‘ra eng yaxshi oliv o‘quv yurtlaridan aslo qolishmasligiga ishonch hosil qilishingiz mumkin. Kasb-hunar kollejlardagi zamonaviy o‘quv-laboratoriya, kompyuter va ishlab chiqarish asbob-uskunalar o‘quvchilar uchun umumiy fanlar bo‘yicha nafaqat to‘liq bilimlar hajmini egallash, ayni vaqtida ushbu o‘quv yurtlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirish imkonini ham beradi.

Sizlarning e’tiboringizni masalaning g‘oyat muhim bir jihatiga qaratmoqchiman. Biz ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat keng bilim va professional ko‘nikmalarini egallashi, ayni paytda chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilish, bugungi dunyoda ro‘y berayotgan barcha voqeа-hodisalar, yangilik va o‘zgarishlardan atroflicha xabardor bo‘lish, jahondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti hisoblangan xorijiy tillarni ham chuqur o‘rganishlari uchun katta ahamiyat bermoqdamiz.

Ta’lim jarayonini isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliv o‘quv yurtlari muhim o‘rin egallamoqda. O‘tgan davr mobaynida ularning soni ikki barobar ortdi va bugungi kunda mamlakatimizdagи 59 ta universitet va oliv o‘quv yurtida 230 mingdan ziyod talaba ta’lim olmoqda.

O‘zbekistonda Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Turin politexnika universiteti, Rossiya neft va gaz universiteti, Moskva davlat universiteti, Rossiya iqtisodiyot universiteti kabi yuksak xalqaro obro‘-e’tibor va chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan Yevropa va Osiyoning yetakchi oliv o‘quv yurtlarining filiallari tashkil etildi va muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu oliv o‘quv yurtlarida mashinasozlik, neft-gaz ishi, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va biznes boshqaruvi, moliyaviy menejment, tijorat huquqi kabi mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklar bo‘yicha bakalavr va magistrlar tayyorlanmoqda va biz uchun g‘oyat muhim jihat shundaki, ularning bitiruvchilari butun dunyoda tan olinadigan diplomlarga ega bo‘lmoqda.

Joriy yilda O‘zbekiston Milliy universiteti va Fanlar akademiyasi

tomonidan Buyuk Britaniyaning yetakchi oliy o‘quv yurti – Kembrij universiteti bilan hamkorlikda Yuksak texnologiyalar o‘quv-tajriba markazi tashkil etilmoqda. Markazning asosiy vazifasi – iqtidorli talabalar, aspirant va yosh olimlarni kimyo, fizika, biologiya, biokimyo, biofizika, geologiya va geodeziya sohalarida amaliy innovatsion ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda ilmiy ishlanmalarini amalga oshirishning zamonaviy metodlariga o‘rgatishdan iborat. Markazni eng zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta’minlash ko‘zda tutilmoqda, u yerda Kembrij universitetining olim va mutaxassislari konkret yo‘nalishdagi tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonida yosh olimlarni tayyorlab boradi.

Shuni qayd etish joizki, aynan shu yo‘nalish, ya’ni qator akademik ilmiy muassasalarini universitetlar ixtiyoriga berish va hamkorlikda foydalaniladigan oliy o‘quv yurtlararo zamonaviy ilmiy laboratoriya majmualarini tuzish hisobidan oliy o‘quv yurtlarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash va innovatsion faoliyatga asoslangan o‘quv jarayonini integratsiyalashtirish hozirgi bosqichda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda yoshlarni sport bilan shug‘ullanishga jalb etish muhim o‘rin egallaydi. Budget, homiylik va xayriya mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasining tashkil etilgani aynan shundan dalolat beradi. O‘tgan davr mobaynida ushbu fond mablag‘lari hisobidan qariyb 1500 ta eng zamonaviy, barcha yoshtar foydalanishi mumkin bo‘lgan bolalar sporti obyekti barpo etildi. Bugungi kunda mamlakatimizdagi deyarli har bir maktab, kollej va litsey ochiq sport maydonchalari qatorida zamonaviy sport anjomlari bilan jihozlangan yopiq sport zallari va suzish havzalariga egadir.

Yurtimizda uch bosqichdan iborat, har yili o‘tkaziladigan, maktab o‘quvchilari uchun alohida, kasb-hunar kolleji va akademik litsey o‘quvchilari uchun alohida bellashuvlarni, oliy o‘quv yurtlari talabalarini uchun Universiadani o‘z ichiga olgan yaxlit sport musobaqlarini tizimi shakllangan. Bunday tizim yuz minglab farzandlarimizni, yigit va qizlarni ommaviy ravishda jismoniy sog‘lomlashdirish va sport harakatiga jalb etish imkonini bermoqda.

Mutaxassislarni tayyorlash sifati va ularning real iqtisodiyotda talab etilishi masalalari bizning doimiy e’tiborimiz markazida bo‘lib kelmoqda.

Dastur doirasida kollejlar, litsey va oliy o‘quv yurtlari uchun o‘qituvchilar va domlalar tarkibini tayyorlash, ularning malakasini oshirish

tizimini qayta tashkil etish, avvalo, o‘quv-uslubiy bazani butunlay qayta ko‘rib chiqish va zamonaviy talablarga javob beradigan yangi standartlar, darslik va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni tasdiqlash bo‘yicha keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, o‘qituvchilar faoliyatini baholash va rag‘batlantirish mezonlari tubdan o‘zgartirilganini alohida ta’kidlamoqchiman.

Shu o‘rinda quyidagi misollarni keltirib o‘tmoqchiman. Keyingi o‘n yilda kasb-hunar kollejlari, litsey va oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari ish haqining o‘sish sur’atlari iqtisodiyotning real sohasidagi ish haqi miqdoridan o‘rtacha 1,5 barobar ko‘p o‘sdi. Bu raqam yana va yana bir bor shundan dalolat beradiki, biz o‘qituvchilar mehnatini munosib tarzda, aytish mumkinki, ustuvor darajada baholamasdan va ularga shu asosda haq to‘lamasdan turib, bugungi natijalarga, o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarga hech qachon erisholmagan bo‘lar edik. Yana bir bor takrorlayman: o‘qituvchilarning mehnat haqi keyingi o‘n yilda butun iqtisodiyotimizning boshqa sohalaridagiga qaraganda 1,5 barobar ko‘p oshdi.

Umuman, O‘zbekistonda ta’lim sohasini rivojlantirish va isloh etishga yo‘naltirilayotgan yillik xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etayotgani va bu tizimning Davlat budjeti xarajatlaridagi ulushi 35 foizdan ortiqni tashkil etishi o‘z-o‘zidan mazkur sohaga qaratilayotgan ulkan e‘tiborning yaqqol tasdig‘i hisoblanadi.

Menimcha, dunyoning boshqa davlatlarida yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha 10-12 foizini tashkil etadigan bunday ko‘rsatkichni kamdan-kam uchratish mumkin. Bu biz uchun ta’lim jarayonlarining naqadar ulkan ustuvor ahamiyatga ega ekanini, mamlakatni isloh qilish va O‘zbekistonda zamonaviy demokratik davlat barpo etish bo‘yicha boshlangan ishlarning davomchisi bo‘ladigan, yangi g‘oyalarni dadil ilgari suradigan yosh avlodni tarbiyalaydigan o‘qituvchilar mehnatiga hurmat bilan munosabatda bo‘layotganimizni yana bir bor tasdiqlaydi.

Mamlakatimizda 1996 yilda qabul qilingan qonunga ko‘ra, har yili 1 oktabr sanasi O‘qituvchilar va murabbiylar kuni – umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanib kelayotgani har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashda pedagoglar mehnatining roli va ahamiyati jamoatchiligimiz tomonidan yuksak e‘tirof etilayotganining yorqin ifodasi bo‘ldi.

Ishonchim komil, O‘zbekistonda dunyodagi eng oljanob ishga o‘zini bag‘ishlagan insonlar uchun qilinayotgan barcha ishlar o‘zini to‘la oqlamoqda. Agarki biz haqiqatan ham munosib avlodni tarbiyalamoqchi

bo‘lsak, yoshlarimizga ta’lim-tarbiya berayotgan insonlarga munosib tarzda munosabatda bo‘lishimiz lozimligini hammadan ko‘ra yaxshiroq tushunadigan siz, muhtaram anjuman ishtirokchilarining huzuringizda bu so‘zlarni aytish menga ayniqsa mammnuniyat bag‘ishlaydi.

Shu o‘rinda ta’limni rivojlantirishga yo‘naltirilgan xorijiy texnik yordam hajmining tobora ortib borayotganini alohida ta’kidlashni istardim. O‘tgan davrda bu boradagi yordam 500 million dollardan oshib ketdi. Bu haqda gapirganda, birinchi navbatda, Osiyo taraqqiyot bankining salkam 290 million dollar mablag‘i, Janubiy Koreya hukumatining 110 milliondan ortiq, Jahon bankining 33 million, OPEK fondi, Saudiya fondi, Islom taraqqiyot bankining 42 million, Germaniya hukumatining «KfV» banki orqali yo‘naltirilgan qariyb 20 million va boshqa donorlarning 100 million dollardan ortiq yordamini qayd etish lozim.

Mana shu yuksak minbardan turib, biz uchun o‘ta muhim bo‘lgan ushbu vazifani hal etishda O‘zbekistonni qo‘llab-quvvatlab, beqiyos yordam ko‘rsatib kelayotganlari uchun xalqaro moliya tashkilotlari va banklariga, barcha chet ellik sheriklarimiz, xorijiy mamlakatlар hukumatlariga samimiy minnatdorlik bildirish menga katta mammnuniyat yetkazadi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

O‘zbekistonda qabul qilingan Ta’lim sohasini isloh etish va malakali kadrlar tayyorlash dasturini amalga oshirish bo‘yicha o‘tgan davrda bajarilgan ishlarni bugun qandaydir o‘lchov va raqamlar bilan baholash juda qiyin, desam, o‘ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo‘shilasiz.

Shu bilan birga, bu haqda so‘z yuritar ekanmiz, yana bir jihatni nazarda tutishimiz lozim. Ya‘ni, bizning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Dastur – bu boshqa modellarni qandaydir takrorlash yoki ulardan nusxa ko‘chirish emas, aksincha, birinchi navbatda, rivojlangan demokratik davlatlarda to‘plangan tajribani o‘zida mujassam etgan va ayni paytda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan hozirgi zamon talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan dasturdir.

Bu borada yana shuni ham hisobga olish zarurki, qadimiy O‘zbekiston zamini ko‘p asrlar davomida fan va ma’rifat o‘chog‘i, jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri bo‘lib kelgan, ilmu ma’rifatga intilib yashash esa xalqimiz mentalitetining ajralmas qismiga aylanib ketgan. Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, G‘arbda Avitsenna nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek va boshqa ko‘plab buyuk

ajdodlarimiz butun dunyoda o‘zlarining matematika, astronomiya, geodeziya, mineralogiya, farmakologiya va tibbiyat sohalaridagi tengsiz kashfiyotlari bilan shuhrat qozonganlar.

O‘ylaymanki, ilm-fanda “algoritm”, “o‘nlik sanoq sistemasi” va “nol” tushunchalarining kashf etilishi aynan Xorazmiyning nomi bilan bog‘liq ekanli ko‘pchilikka yaxshi ma’lum. Abu Rayhon Beruniy esa Amerika qit’asi kashf etilishidan 500 yil oldin bu qit’aning mavjudligi haqida bashorat qilgan. Yana bir buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sino o‘sha olis XI asrda tibbiy jarrohlik operatsiyasini amalga oshirgani bilan dunyoga mashhur. Eng asosiysi – uning “Tib qonunlari” asari 500 yil davomida Yevropaning nufuzli oliy o‘quv yurtlarida barcha talabalar uchun darslik sifatida o‘rganib kelingan. Buyuk astronom Mirzo Ulug‘bek XV asrdayoq Samarqandda observatoriya barpo etib, yulduzlar xaritasini tuzgan. O‘ylaymanki, bu ulug‘ zotlarni haqli ravishda jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘sghan insonlar sifatida ta’riflash mumkin.

Biz necha asrlar davomida ilm-ma’rifat yog‘dusini taratgan buyuk ajdodlarimiz haqida gapirar ekanmiz, yosh avlodimizga, mening farzandlarimga qarata takror va takror aytaman: albatta, biz ulug‘ allomalarimiz dahosi bilan faxrlanishimiz kerak. Shu bilan birga, o‘zimizga savol berishimiz lozim: ularning munosib davomchilari bo‘lish uchun bugun biz nima qilmoqdamiz?

Biz rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan zamonaviy davlat qurish yo‘liga qadam qo‘yib, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari izchillik bilan o‘tishni ta’minlar ekanmiz, faqat milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligi zaruratini teran anglaydigan, zamonaviy bilimlarni, intellektual salohiyat va ilg‘or texnologiyalarni egallagan insonlargina o‘z oldimizga qo‘ygan strategik taraqqiyot maqsadlariga erishishi mumkin ekanini hamisha o‘zimizga yaxshi tasavvur etib kelmoqdamiz.

Ta’lim tizimini tubdan isloh etish odamlarimizning ongu tafakkuri va dunyoqarashini o‘zgartirish, ularning siyosiy va grajdaniq faolligini, o‘z kelajagiga bo‘lgan ishonchini oshirishning eng muhim omili va mustahkam asosiga aylandi, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi. Eng muhimi shundaki, bizning yangi avlodimiz, bilimli, o‘tmishning har qanday illatlaridan ozod bo‘lgan yoshlarimiz bugungi kunda mamlakatimizni demokratlashtirish va liberallashtirish, uni yangilash va ishonchli tarzda ravnaq toptirishning hal qiluvchi harakatlantiruvchi kuchiga aylanib

bormoqda.

Shu borada o‘tgan davr mobaynida kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni – shu raqamga e’tibor berishingizni so‘rayman – 2 million 300 mingdan ziyod o‘g‘il-qizlarimiz bitirib chiqqani, joriy yilda esa 500 mingdan ortiq o‘quvchi o‘rtta toifadagi mutaxassis diplomini olib, o‘qishni tamomlashini aytib o‘tish kifoya, deb o‘layman. Bu yoshlar nafaqat iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning, ayni vaqtda mamlakatimiz kadrlar tarkibini sifat jihatidan yangilashning qudratli omili hisoblanadi.

Nufuzli xalqaro moliyaviy tashkilotlarning baholariga ko‘ra, O‘zbekiston hali-beri davom etayotgan global moliyaviy-iqtisodiy inqirozga qaramasdan, o‘tgan besh yil davomida 8,5 foizdan kam bo‘limgan barqaror yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolmoqda. 2000 yil bilan solishtirganda, yalpi ichki mahsulotning ko‘payishi 2,1 barobarni tashkil etdi. Joriy hisob-kitoblarning profitsiti, tashqi qarzning pastligi va valuta zaxiralarining yetarli darajada bo‘lishi ta’milanganmoqda, o‘rtta muddatli istiqbolda iqtisodiyotning yuqori sur’atlarda o‘sishi bashorat qilinmoqda.

Shuni qayd etish muhimki, bunday sur’atlar, birinchi navbatda, tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiyotni diversifikasiya qilishni chuqurlashtirish, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarini jadal rivojlantirish, faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarini modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish hisobidan ta’milanganmoqda.

Agar o‘tgan o‘n yil davomida O‘zbekiston iqtisodiyotiga 80 milliard dollar hajmidagi kapital qo‘yilmalar yo‘naltirilgan bo‘lsa, ularning 23 milliard dollardan ziyodi yoki qariyb 30 foizini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi. Chet el investitsiyalarining 2012 yildagi o‘sishi 16 foizni tashkil etishi, ularning 70 foizi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardan iborat bo‘lishi kutilmoqda. Bu esa, o‘z-o‘zidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga xorijiy kapitalning qiziqishi va eng muhimi, O‘zbekistonning taraqqiyot istiqbollariga bo‘lgan ishonchning tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.

Yuqorida bayon qilingan fikrlarni yakunlagan holda, O‘zbekiston tarixiy mezonlarga ko‘ra qisqa muddat bo‘lgan 15-20 yil davomida bizning bosh maqsadimiz – dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga

kirish va mamlakatimiz aholisi uchun munosib hayot sharoiti va sifatini yaratish yo‘lida g‘oyat ulkan qadam qo‘ydi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Va bu bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz.

Qadrli do‘stlar!

Mazkur anjumanda muhokama qilish uchun taklif etilgan, iqtisodiyotni izchil va barqaror taraqqiy ettirishning eng muhim sharti bo‘lgan ta’lim tizimini isloh etish masalalari insoniyatning buyuk mutafakkirlarini doimo o‘ylantirib kelgan vazifa – har tomonlama uyg‘un rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishning ko‘p qirrali va keng qamrovli muammolarining barcha jihatlarini hech bir darajada to‘liq qamrab olishi mumkin emasligini biz albatta yaxshi tushunamiz.

Ikkinchidan, muayyan bir mamlakat doirasidagi ta’lim jarayonini isloh etishning har qaysi modeli universal darajaga ko‘tarilishga da’vo qilishi mumkin emas. Mamlakatimizda Ta’lim tizimini isloh qilish dasturini joriy etish bo‘yicha amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan barcha ishlar birinchi navbatda O‘zbekistonning uzoq muddatli manfaatlariga, uning hozirgi ancha murakkab rivojlanish bosqichining mavjud holati va xususiyatlariga javob beradi.

O‘ylaymanki, barchamiz vaqt ham, ta’lim tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish masalalari ham bir joyda to‘xtab turmasligini o‘zimizga yaxshi tasavvur etamiz. Bu borada mazkur sohada mehnat qilayotgan barcha insonlarning, nafaqat bo‘lajak kadrlarni tayyorlayotgan, ayni paytda ana shu kadrlar talab qilinadigan sohalar vakillarining xalqaro hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun ham konferensiya qatnashchilari tomonidan yalpi yig‘ilish va seksiya majlislarida, boshqa mamlakatlarda to‘plangan qimmatli tajribalarni hisobga olgan holda, bildiriladigan fikr-mulohaza va takliflar biz uchun g‘oyat muhimdir.

O‘zbekiston mamlakatimiz va xorijiy davlatlarning tegishli oliv o‘quv yurtlari o‘rtasidagi har tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlashdan manfaatdor ekanini alohida qayd etmoqchiman. Biz mazkur forumning asosiy ma’no-mazmunini ham aynan shunda ko‘ramiz.

Shu o‘rinda bir taklifni alohida ta’kidlamoqchiman. Qani endi, bunday uchrashuv va anjumanlar tez-tez o‘tkazib turilsa.

Sizlar bu taklifga nima deysiz? Albatta, O‘zbekiston xalqining mehmondo‘stligi haqida ko‘p gapiriladi, lekin biz sizlarning mamlakatimizga tez-tez kelib, el-yurtimizga xos ana shu noyob fazilatni o‘z

misolingizda ko‘proq his etishingizni istardik. Bizning muloqotimiz va hamkorligimiz faqat biz bugun muhokama qilish uchun yig‘ilgan mavzu nuqtai nazaridangina muhim emas. Bunday muloqotlarda nainki muhokama qilinayotgan mavzu doirasidagi, balki keng ko‘lamdagি boshqa masalalar bo‘yicha ham hamkorlikka asos solinadi. Eng muhimi, olimlar, rahbarlar, mutaxassislar, professor-o‘qituvchilarning hamkorligi orqali, dunyoning qaysi o‘lkasida yashashi, o‘qishi va mehnat qilishidan qat’i nazar, talabalar va yoshlarning hamkorligi vujudga keladi.

Shuning uchun ham biz barchangizni Toshkentda, nafaqat Toshkentda, balki qadimiy tarix va sivilizatsiya beshiklari bo‘lgan Samarqand, Buxoro, Xiva singari shaharlarimizda ko‘rishdan xursandmiz.

Shu imkoniyatdan foydalanib, siz muhtaram mehmonlarimizga, barcha konferensiya qatnashchilariga yana bir bor o‘zimning chuqur hurmat-ehtiromim va samimiy minnatdorligimni bildirishga ruxsat etgaysiz.

Barchangizga sihat-salomatlik, oljanob faoliyatizingizda yangi yutuq va omadlar, konferensiya ishiga muvaffaqiyat tilayman.

E’tiboringiz uchun tashakkur.

O'ZBEKISTON XOTIN-QIZLARIGA BAYRAM TABRIGI

Muhtarama onaxonlar!

Qadrli opa-singillar, dilbar qizlarim!

Go'zal diyorimizga barchamiz sog'inib kutgan bahor nafasi kirib kelayotgan mana shu nurafshon kunlarda siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda butun O'zbekiston xotin-qizlarini 8 mart bayrami bilan qizg'in tabriklab, sizlarga o'zimning samimiy tuyg'u va tilaklarimni izhor etishdan baxtiyorman.

Barchamizga ayonki, onalarni, ayol zotini e'zozlash el-yurtimiz uchun azal-azaldan ezgu qadriyat bo'lib kelgan. Buning tasdig'ini tariximizda, hayotimizda, mumtoz adabiyotimizda ko'plab misollarda yaqqol ko'rish, kuzatish mumkin.

Bu haqda so'z yuritar ekanmiz, buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning "Ayollar – farishtalarning opa-singillaridir" degan so'zлari zamirida naqadar chuqr hayotiy falsafa mujassam ekanini anglash qiyin emas, deb o'layman.

Biz mehr-muhabbat va odamiylikning ilk saboqlarini aziz onalarimizdan, ularning beshigimiz uzra parvona bo'lib aytgan alla ohanglaridan olamiz. Qalbimizda neki olijanob tuyg'ular bo'lsa, ularning barchasi avvalo onalarimizdandir. Dunyoda muqaddas degan so'zga eng munosib zot ham – Onadir. Shu bois toki hayot bor ekan, inson mo'tabar Ona siymosi oldida doimo bosh egib, ta'zim qiladi.

Shu fursatdan foydalanib, barchamizning ko'nglimizda, dilimizda bo'lgan bir fikrni ta'kidlash joiz, deb bilaman.

Biz sizlarni – mehribon va munis ayollarimizni hamisha fidoiylik, vafo va sadoqat, nafosat va latofat timsoli sifatida ulug'lab kelamiz va umrbod sizlardan minnatdor bo'lib yashaymiz, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Aziz opa-singillar!

Sizlarga yaxshi ma'lumki, men o'zimning chiqishlarimda, amaliy ishlarimda xotin-qizlarni ulug'lash, ularning hayotimizdagи o'rni va nufuzini yanada oshirish masalasiga juda katta e'tibor berib kelaman. Ona diyorimizda yashayotgan barcha ayollarни dunyodagi eng go'zal va mehribon ayollar deb, Yaratganning tengsiz mo'jizasi, deb, doimo chin qalbdan, yurakdan bildiradigan samimiy so'zlarimni yurtimiz

o‘g‘lonlarining fikri sifatida, ayol zotiga bo‘lgan hurmat-ehtirom va sevgi izhori sifatida qabul qilishingizni istardim.

Mustaqil taraqqiyot yo‘lida boshimizga og‘ir sinov va qiyinchiliklar tushgan mashaqqatli davrda aynan siz, ayollarning mehnatkashlik va shukronalik, chidam va sabr-bardosh kabi yuksak insoniy fazilatlarni namoyon etib, el-yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni, jamiyatimizda mehr-oqibat va ahillik muhitini saqlash va mustahkamlashda, bugungi mana shunday yorug‘ kunlarga, butun dunyo tan olayotgan marralarga yetib kelishda siz, azizlarning beqiyos hissangiz borligini men hech qachon unutmayman va bu haqda doimo minnatdorlik bilan takror va takror gapirishga tayyorman.

Mamlakatimizda ayollarga bo‘lgan yuksak hurmat-e’tibor va g‘amxo‘rlikning amaliy isboti sifatida keyingi yillarda xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi roli va ta’sirini kuchaytirish, ularning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan 80 dan ortiq milliy va xalqaro hujjatlar qabul qilinganini alohida qayd etish lozim.

Shular qatorida Oila, Ayollar, Sog‘lom avlod, Ona va bola, Obod mahalla, Sihat-salomatlik, Barkamol avlod yillari munosabati bilan qabul qilingan davlat dasturlari, ko‘plab farmon va qarorlar ayni shu maqsadlarga xizmat qilmoqda.

Ana shunday harakatlarimizning yaqqol ifodasini hozirgi vaqtida qishloq va shaharlarimiz qiyofasi tubdan o‘zgarib, yurtimiz, Vatanimiz tobora chiroy ohib, bozor va do‘konlarimiz, dasturxonlarimiz to‘kinsochin bo‘lib borayotganida, aytish kerakki, ayollarimiz o‘zlarining nozik yelkalarida ko‘tarib kelayotgan kundalik tashvishlarni yengil qilish borasidagi ishlarimizda, bir so‘z bilan aytganda, xalqimizning hayot farovonligi, turmush madaniyati yuksalayotganida ko‘rish mumkin va bularning barchasi shu zaminda yashayotgan har bir insonga mammuniyat bag‘ishlaydi.

Bugungi kunda xotin-qizlarning siyosiy-ijtimoiy faolligini oshirish, ularning hokimiyat va boshqaruv idoralari, vakillik organlari faoliyatida, tadbirdorlik va fermerlik sohasida munosib ishtirok etishini ta’minalash, o‘z qobiliyat va iste’dodini ro‘yobga chiqarishi uchun imkoniyat yaratish maqsadida olib borayotgan keng ko‘lamli ishlarimiz tobora kuchayib, o‘z hosili va samarasini berayotgani ayniqsa e’tiborlidir.

Yurtimizdagи har qaysi ota-onा, butun xalqimizning ezgu orzusi bo‘lmish har tomonlama sog‘lom naslni voyaga yetkazishda “Sog‘lom ona

– sog‘lom bola” dasturi doirasida barcha hududlarimizda perinatal va skrining markazlari, minglab qishloq vrachlik punktlari tashkil etilgani, ixtisoslashtirilgan shifoxonalar hamda shoshilinch tibbiy yordam xizmatidan iborat zamonaviy tizim yaratilgani aholimizning, birinchi navbatda ayollarimizning salomatligini asrash va mustahkamlash yo‘lida qo‘ylgan tarixiy qadam bo‘ldi.

Bu haqda gapirganda, mustaqillik yillarda onalar va bolalar o‘limi 3 marta kamaygani, ayollarning o‘rtacha yoshi 67 yoshdan 75 yoshta ko‘tarilgani, hech shubhasiz, aynan ana shunday amaliy harakatlarimizning samarasi, desak, xato bo‘lmaydi.

Keyingi paytda mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro anjumanlarda sog‘liqi saqlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ta’lim-tarbiya sohalarida biz qo‘lga kiritayotgan ulkan natijalar dunyodagi ko‘zga ko‘ringan olim va mutaxassislar, nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan yuksak baholanib, ibrat sifatida e’tirof etilgani sizlarga yaxshi ma’lum, albatta. Biz erishgan bunday yutuqlar negizida avvalambor siz, jonkuyar va fidoiy opa-singillarimizning bilim va tajribasi, mashaqqatli mehnati mujassam ekanini barchamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz.

Hurmatli vatandoshlar!

Har qanday jamiyatning farovonligi va ma’naviy sog‘lomligining asosiy mezoni avvalo oilaning ahilli, oilaning mustahkamligida namoyon bo‘ladi.

Shu ma’noda, 2012 yilning yurtimizda “Mustahkam oila yili” deb e’lon qilinishi “Oila sog‘lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqaror” degan insonparvar tamoyilni hayotimizda qaror toptirishda, hech shubhasiz, yangi, yuksak bir bosqich bo‘ladi.

Hammamizga ma’lumki, yaqinda biz bu borada keng miqyosdagи amaliy tadbirlarni o‘z ichiga olgan davlat dasturini tasdiqladik. Ushbu dastur ijrosini ta’minlash uchun 1 trillion 500 milliard so‘mga yaqin va 114 million dollar miqdoridagi keng ko‘lamli mablag‘ yo‘naltirish ko‘zda tutilmoqda.

Bu ishlarni amalga oshirishda davlat va nodavlat tashkilotlari, jamoatchiligidan, butun xalqimizning faol ishtiropi talab etilishini barchamiz yaxshi tushunamiz. Ayni vaqtida shuni alohida ta’kidlash kerakki, oilani haqiqatan ham mustahkam oila qilish, uni tom ma’noda

jamiyatimizning hal qiluvchi bo‘g‘iniga aylantirishda xonadonlarimizning chirog‘i, ko‘rki va fayzi bo‘lgan siz, hurmatli ayollarning o‘rni va ta’sirini hech narsa bilan o‘lchab, baholab bo‘lmaydi va bu vazifalarni ado etishda men sizlarga, sizlarning ulkan salohiyatingizga ishonaman.

Muhtaram yurtdoshlar!

Biz mustaqil taraqqiyot yillarida – tarixan qisqa bir davrda beqiyos yutuq va marralarga erishdik. Biz qo‘lga kiritgan yuksak natijalarni dunyo tan oldi. Eng muhimi – yurtimizda tinchlik-osoyishtalik hukm surmoqda, iqtisodiyotimiz barqaror o‘sish sur’atlari bilan rivojlanib bormoqda.

Biz o‘z oldimizga qo‘ygan uzoq muddatli ulkan maqsadlar, ya’ni zamnaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimizning hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash, jahon hamjamiatida munosib o‘rin egallash vazifasi barchamizdan birdamlikni, bir yoqadan bosh chiqarib, o‘zimizni ayamasdan, astoydil mehnat qilishni talab etadi va bu borada men oljanob, bag‘rikeng xalqimizni, siz, muhtarama ayollarimizni bundan buyon ham o‘zimning eng yaqin maslakdoshim, tayanchim va suyanchim, deb bilaman.

Qadrli opa-singillar!

Sizlarni bahor elchisi bo‘lgan, o‘zingizdek go‘zal va dilbar bayramingiz bilan yana bir bor tabriklar ekanman, barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonadonlaringizga fayzu baraka tilayman.

Farzandlaringiz va yaqinlaringiz, elu yurtimiz baxtiga hamisha omon bo‘ling, azizlarim, mehribonlarim!

XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT SHAHAR KENGASHINING NAVBATDAN TASHQARI SESSIYASI

Shu yil 16 mart kuni Xalq deputatlari Toshkent shahar kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Sessiyada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov nutq so‘zladı.

Sizlarga yaxshi ma’lumki, keyingi vaqtida Toshkent shahar hokimiyatida rahbariyat yangilandi, yangi rahbar ish boshladi, hokimning birinchi muovini, bir qator tumanlarning hokimlari o‘zgardi, shahar kengashi deputatlari tarkibida ham o‘zgarishlar bo‘ldi, dedi Prezidentimiz Islom Karimov.

Albatta, bunday o‘zgarishlarni shiddat bilan rivojlanayotgan zamonning o‘zi, ayni vaqtida xalqimizning oshib borayotgan talablarini, kerak bo‘lsa, ehtiyojlarini ta’minalash zarurati taqozo etmoqda.

Ana shunday o‘zgarishlar ta’sirini kim qayerda bo‘lmasin, qanday lavozim yoki vazifada ishlamasin – ishchi yoki xizmatchi bo‘ladimi, quruvchi yoki muhandis, tadbirkor yoki o‘qituvchi bo‘ladimi – har bir yurtdoshimiz bugun o‘z misolida sezishi, anglashi tabiiy. Chindan ham, vaqt, zamon o‘zgarishi bilan hayot yangi-yangi talablarni ilgari surmoqda. Ana shu talablarga mos holda, har qaysi odamning ongu tafakkuri, ishga, hayotga munosabati ham o‘zgarib borishi zarur. Aks holda, uning o‘zi ham, u mansub bo‘lgan jamoa, oxir-oqibatda esa xalq va mamlakat ham qoloqlikka yuz tutishi, jahon taraqqiyotidan chetda qolishi muqarrar.

Ayniqsa, zamonning yurishi, o‘zgarishi bilan avvalo rahbarlar, yetakchilar o‘zgarishi kerak. Biz XXI asr – intellektual taraqqiyot asri, deb ko‘p gapiramiz. Modomiki, shunday ekan, bugungi kunda rahbar nafaqat aniq bir kasb-hunarning egasi, avvalo o‘zining faoliyati va insoniyligi bilan xalqning ishonchiga munosib bo‘lishi, yuksak intellektual tafakkur sohibi, uzoqni ko‘ra oladigan, doimo yangilikka intilib, zamon bilan hamqadam bo‘lib yashaydigan, qat’iyatli shaxs bo‘lishi lozim.

Shu ma’noda, buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomizning “Azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir odam ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishidan afzaldir” degan so‘zları menga xuddiki aynan bugungi kunimiz uchun aytigandek tuyuladi, deb ta’kidladi Yurtboshimiz.

Toshkent shahri – mustaqil davlatimizning poytaxti, ta’bir joiz bo‘lsa, O‘zbekistonimizning yuragi, O‘zbekistonimizning yuzidir. Barchamiz

Toshkentning boshqalar uchun doimo namuna bo‘lishini istaymiz va bunday yuksak maqsadni o‘z oldimizga vazifa qilib qo‘yanmiz, deb o‘z fikrini davom ettirdi davlatimiz rahbari.

Ayni shuning uchun Toshkent shahrini boshqaradigan, uning o‘ta murakkab, hech qaysi hudud bilan qiyoslab bo‘lmaydigan xo‘jaligini tebratadigan, bu yerda yashaydigan million-million odamlarning, katta bo‘ladimi, kichik bo‘ladimi, ehtiyojlarini qondirishga mas’ul bo‘lgan shaxsga nisbatan talab ham albatta boshqacha bo‘lishi o‘z-o‘zidan ravshan.

Aytish joizki, Toshkent mustaqillik yillarda mislsiz darajada o‘zgarib, yangilanib, oldin tasavvur qilish ham qiyin bo‘lgan marralarni egallab bormoqda. Eng zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan korxonalar, go‘zal bino va inshootlar, turar-joylar, yangi-yangi oliy o‘quv yurtlari, ta’lim va shifo maskanlari, magistral ko‘cha va prospektlar, muhtasham ko‘priklar, bog‘ va xiyobonlar barpo etilmoqda. Toshkentning salohiyati tobora ortib, uning chehrasi, qiyofasi tubdan o‘zgarib bormoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, azim poytaxtimizning nafaqat O‘zbekiston, balki butun Sharq mintaqasidagi obod va go‘zal shaharga aylanib, o‘zgalarning havasini, xalqimizning g‘urur-iftixori va sevgisini uyg‘otib, jadal rivojlanib borayotgani barchamizni quvontiradi.

Bugungi kunda Toshkentimiz, aytish mumkinki, o‘zining ilmu fan, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san’at sohasidagi ulkan imkoniyatlari, qolaversa, chiroyi va betakrorligi bilan jahon jamoatchiligi e’tiborini o‘ziga tortib kelayotganiga, turli xalqaro uchrashuv va sammitlar, forum va anjumanlar o‘tkaziladigan yirik markazga aylanib borayotganiga hammamiz guvoh bo‘lmoqdamiz. Xususan, 2010 yili poytaxtimizda bo‘lib o‘tgan Osiyo taraqqiyot banki boshqaruvchilar kengashining majlisi, 2011 yilda tibbiyot sohasining dolzarb masalalari bo‘yicha Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ishtirokida o‘tkazilgan simpozium hamda 2012 yil fevral oyida ta’lim va taraqqiyot mavzusiga bag‘ishlangan nufuzli xalqaro konferensiya bu fikrning yaqqol dalilidir.

Poytaxtimiz ahlining fidokorona mehnati bilan hayotning turli soha va tarmoqlarida qo‘lga kiritilayotgan yutuq va marralar mamlakatimizning umumiyligi rivojlanish sur’atlarini oshirishda munosib hissa bo‘lib qo‘shilayotganini hammamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz. Bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 14 foizdan ortig‘i, sanoat mahsuloti hamda o‘zlashtirilgan jami investitsiyalarning 20 foizi aynan Toshkent shahrining ulushiga to‘g‘ri kelayotgani uning katta

iqtisodiy imkoniyatlarga ega ekanidan dalolat beradi, dedi Islom Karimov.

So‘nggi uch yilda yalpi hududiy mahsulot hajmi 1,4 barobar, sanoat mahsulotlari hajmi 1,4 barobardan ziyod, o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1,5 barobar o‘sGANI shahar iqtisodiyoti barqaror sur’atlar bilan rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi.

Toshkent shahri doimo o‘zining ulkan ishlab chiqarish salohiyati, yuksak malakali muhandis-texnik xodimlari, olim va mutaxassislari, ichki va tashqi bozorimizda xaridorgir mahsulotlari bilan nainki mamlakatimiz, balki butun mintaqqa iqtisodiyotida yetakchi o‘rin tutib keladi. Keyingi yillarda iqtisodiyotimizni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar tufayli Toshkentning bu boradagi imkoniyatlari tobora ortib bormoqda. Hozirgi kunda bu yerdagi korxonalarda uch mingdan ziyod turdag'i mahsulot ishlab chiqarilayotgani bu fikrni tasdiqlaydi.

Birgina mahalliy lashtirish dasturi doirasida shahardagi korxonalar tomonidan 100 ga yaqin yangi mahsulot turlari o‘zlashtirildi va 4 trillion 300 milliard so‘mdan ortiq mahsulot ishlab chiqarildi. 2011 yilda ishlab chiqarish hajmi va mahalliy lashtirilgan mahsulotlar eksporti 2009 yilga nisbatan 1,4 barobar o‘sGANINI qayd etish joiz.

O‘tgan uch yil davomida Toshkent shahrida 1 milliard 500 million dollardan ortiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirildi, 35 ta investitsiya loyihasi bo‘yicha ishlar yakuniga yetkazildi.

Toshkent kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ham yirik markaziga aylanib bormoqda. Bu sohaning yalpi hududiy mahsulotdag'i ulushi 2010 yildagi 49,9 foizdan 2011 yilda 53,1 foizga yetgani alohida diqqatga sazovor. Eng muhim, ayni shu soha rivoji hisobidan qariyb 60 mingta yangi ish o‘rni yaratildi. Bu esa jami yangi ish o‘rinlarining 72,8 foizini tashkil etadi.

Toshkent shahar iqtisodiyotida muhim rol o‘ynaydigan xizmat ko‘rsatish sohasini oladigan bo‘lsak, oxirgi uch yilda pullik xizmatlar hajmi 1,6 barobar o‘sGANINI qayd etish o‘rinlidir.

Mamlakatimizning eng yirik banklari, ularning shahar va tuman filiallari faoliyat yuritayotgan poytaxtimizda ishni zamonaviy asosda tashkil etishga katta e’tibor qaratilayotgani tufayli bu sohadagi xizmat sifati va samaradorligi oshib bormoqda.

Shular qatorida texnik va texnologik jihatdan yaxshi jihozlangan, birja

operatsiyalarini real vaqt rejimida amalga oshiradigan O‘rta Osiyodagi eng yirik tovar-xomashyo birjasi, qimmatli qog‘ozlar hamda valuta birjalari, sug‘urta, lizing, auditorlik kompaniyalari Toshkentning yirik moliyaviy markaz sifatidagi nufuzi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Transport infratuzilmasini yaxshilash, aholi va transport vositalarining harakatlanishi uchun yanada qulay imkoniyatlar yaratish maqsadida Kichik halqa yo‘lida ko‘prik va yo‘l o‘tkazgichlar, 6 va 8 polosali magistral yo‘llar qurildi va foydalanishga topshirildi. Faqat 2011 yilning o‘zida Amir Temur, Alisher Navoiy, Beruniy, Shahrisabz va boshqa o‘nlab ko‘chalarda keng ko‘lamli ta’mirlash va rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi.

Biz uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, aholi sog‘lig‘ini saqlash, fan, ta’lim, madaniyat, san’at, sport va boshqa sohalar bo‘yicha ham Toshkent shahri yetakchi o‘rin egallab kelayotgani haqida ortiqcha gapirishga hojat yo‘q, deb o‘ylayman, dedi Prezidentimiz.

Ta’lim-tarbiya sohasini oladigan bo‘lsak, poytaxtimizda eng yuksak jahon talablariga javob beradigan, jumladan, dunyodagi ko‘zga ko‘ringan universitetlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan, mustahkam moddiy-texnik bazaga ega bo‘lgan oliy o‘quv yurtlari – Vestminster universiteti, Turin politexnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Moskva davlat universiteti, Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti, Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz universitetining filiallari faoliyat ko‘rsatayotgani, shuningdek, Buyuk Britaniyaning mashhur Kembrij universiteti bilan tuzilgan shartnoma asosida Yuksak texnologiyalar o‘quv-tajriba markazi barpo etilganini alohida ta’kidlash lozim.

Shu bilan birga, bu boradagi boshqa ishlarimiz – ya’ni, yaratilgan sharoitiga ko‘ra oliy o‘quv yurtlaridan kam bo‘lmagan litsey va kollejlar, maktablar barpo etish bo‘ladimi, ularni zamonaviy jihozlar va o‘quv vositalari bilan ta’minalash, yangi ta’lim standartlari va uslublarini joriy etish bo‘ladimi, bu bilim maskanlarining korxonalarimizni malakali kadrlar bilan ta’minalash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qo‘shayotgan hissasi bo‘ladimi – bularning barchasi odamning g‘ururi va havasini tortadigan barkamol avlodni voyaga yetkazishga xizmat qilayotganini ko‘rish, kuzatish qiyin emas.

Butun dunyoga mashhur “Jeneral Motors” kompaniyasi bilan birgalikda tashkil etilgan, nafaqat O‘zbekistonda, balki butun Markaziy

Osiyoda yagona bo‘lgan, avtomobil dvigatellari ishlab chiqaradigan qo‘shma korxonada yaqinda ana shunday bilimli va malakali yoshlari bilan uchrashganimda men bunga yana va yana bir bor iqror bo‘ldim. Ilm-fanning so‘nggi yutuqlari negizida yaratilgan, kompyuter dasturlari asosida boshqariladigan, eng nozik detallarni ishlab chiqaradigan murakkab texnologiyalarni puxta o‘zlashtirib olgan farzandlarimizni ko‘rib, ular bilan suhbatlashib, ularning yonib turgan ko‘zlariga boqib, xuddiki o‘zimning bolalarimning yutug‘ini ko‘rgandek quvonganim hech qachon xayolimdan chiqmaydi. Bunday yoshlari bilan tanishib, ularning ish samarasini ko‘rgan har qanday odam O‘zbekiston bugun haqiqatan ham taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarilayotganini beixtiyor his qiladi, dedi Yurtboshimiz va quyidagi fikrlarni alohida ta’kidladi.

Ma’lumki, jahonda o‘zining neft, gaz kabi yer osti zaxiralari hisobidan boylik orttirayotgan davlatlar ham oz emas. Albatta, sarmoya bo‘lsa, ko‘p narsani, jumladan, zamонавиј texnologiyalarni ham sotib olish mumkin, lekin ularni ishlatish, samarali foydalanish uchun eng avvalo yuksak malakali yetuk kadrlar kerak.

Men ham o‘z vaqtida ko‘p zavodlarda ishlaganman. Toshkent qishloq xo‘jalik mashinalari, Toshkent aviatsiya birlashmasi va boshqa yirik korxonalarda texnologiyalarni o‘zlashtirish mакtabini o‘taganman. Lekin “Jeneral Motors” bilan hamkorlikda tashkil etgan korxonamiz – bu butunlay yangi bir olam. Bu ishlab chiqarish majmuasini albatta borib ko‘rish kerak. Bu yerda yoshlarni yuksak texnologiyalarni qanday bilimdonlik va mahorat bilan boshqarayotgani hammani qoyil qoldirmoqda.

Biz 20 yil davomida qancha-qancha sinov va qiyinchiliklarni, bizga nisbatan bo‘lgan mensimaslik qarashlarini ham boshimizdan kechirdik. 90-yillarning boshida O‘zbekistonda ilgari qurilgan korxonalar to‘xtaydi, muhandislar, texnik xodimlar, olimlar va ziylolar bu mamlakatni tark etadi, bu yerda taraqqiyot orqaga ketadi, degan gaplarni yoshlarni eshitmagan bo‘lishi mumkin, lekin hurmatli oqsoqollarimiz buni yaxshi biladi. Biz ana shunday murakkab davrda barcha mashaqqatlarga chidab, bor kuch va salohiyatimizni ishga solib, o‘z irodamizni, o‘zbek xalqi hech kimdan kam emasligini dunyoga namoyon etdik.

Yaqinda Toshkent shahrida ta’lim masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan xalqaro konferensiya jahondagi eng nufuzli tashkilotlar vakillari, shu sohaning ko‘zga ko‘ringan namoyandalari tomonidan biz erishgan ulkan

yutuqlar yana bir bor tan olinib, boshqalarga ibrat sifatida e'tirof etilgani barchamizni quvontiradi.

Eng muhimmi, bugungi kunda yurtimizda hayot sifati o'zgarib, aholimiz, ayniqsa, yoshlarimizning nafaqat ongu tafakkuri, balki turmush madaniyati, aytish mumkinki, hatto kiyinish madaniyati ham yuksalib bormoqda.

Agarki mendan shu davrda amalga oshirgan eng katta ishlarimiz haqida hisob berishni so'rasha, men, hech shubhasiz, yurtimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'lida jamoatchiligimiz, butun xalqimiz bilan birga olib borayotgan ulkan ishlarimizni faxru g'urur bilan aytgan bo'lardim. Haqiqatan ham, o'zining mohiyati va ko'lamiga ko'ra beqiyos bo'lgan bu ishlar hozirgi vaqtida shunday mustahkam bir izga qo'yildiki, endi bizning bu yo'lдagi harakatlarimizni to'xtatish aslo mumkin emas, dedi Prezidentimiz.

Mamlakatimizda aholi salomatligini mustahkamlash, jumladan, onalik va bolalikni muhofaza etish bo'yicha erishayotgan katta yutuqlarimizda Toshkent shahrining alohida o'rni va hissasi bor.

Bugungi kunda bu yerda Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi, perinatal va skrining hamda diagnostika markazlari, bir qator ixtisoslashtirilgan tibbiy ilmiy-amaliy markazlar va boshqa ko'plab sog'liqni saqlash muassasalari faoliyat olib bormoqda. Ayni paytda zamonaviy texnologiya va uskunalar bilan jihozlangan kardioxirurgiya markazi foydalanishga topshirilish arafasida turibdi va kelgusida bu boradagi ishlar izchil davom ettiriladi.

Majlisda Toshkent shahrida keyingi yillarda erishilgan yutuq va natijalar haqida so'z borar ekan, qurilish va bunyodkorlik sohasidagi ulkan ishlar alohida ta'kidlandi. Ayniqsa, milliy me'morlik an'analari va zamonaviy shaharsozlikning eng yuksak talablari asosida barpo etilgan Mustaqillik maydoni, "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyi, Simpoziumlar saroyi va Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonani o'z ichiga olgan Ma'rifat markazi, Hazrati Imom majmuasi, Amir Temur xiyoboni, boshqa o'nlab muhtasham bino va inshootlar shu boradagi ishlarimizning yorqin namoyoni ekani qayd etildi.

Toshkentning so'nggi yillarda yaqqol e'tirof etilayotgan yana bir ustuvor xususiyati borki, u ham bo'lsa, uning dunyodagi poytaxt shaharlar o'rtaasida ekologik jihatdan toza va ko'r kam qiyofa kasb etib borayotganida o'z ifodasini topmoqda.

Har yili yangi-yangi obod uy-joylar, bog‘ va xiyobonlar, ijtimoiy infratuzilma obyektlari barpo etilayotgani, eng muhimi, bunyodkor Toshkent ahlining o‘z uyi, o‘z mahallasi, o‘z shahriga bo‘lgan mehri va e’tibori ana shunday e’tirofga erishishda hal qiluvchi omil bo‘lmoqda.

Ilgarigi vaqtida shaharning aksariyat mavze va maydonlari quruq beton va asfaltdan iborat bo‘lib, yoz oylarida odamning nafasi qaytib ketadigan bir ahvolda edi. Keyingi yillarda ko‘plab maydon va xiyobonlarda ko‘kalamzor hududlarni kengaytirish uchun juda katta ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, archa, kashtan, qayin, qarag‘ay, eman kabi kislorodga boy daraxtlar, yashil butalar, maysazor maydonlar shahar qiyofasini tubdan o‘zgartirib yubordi.

Bu haqda uzoq gapirish mumkin, lekin shu borada birligina raqamni olib kelsak, o‘ylaymanki, ko‘p narsa o‘z-o‘zidan ayon bo‘ladi, dedi Islom Karimov. Agarki 1990 yilda Toshkent shahri umumiy maydonining 9 foizini bog‘ va xiyobonlar, yashil hududlar tashkil etgan bo‘lsa, o‘tgan davr mobaynida bu ko‘rsatkich ikki yarim barobardan ziyodga ortib, hozirgi vaqtida 23 foizga yetgani, hech shubhasiz, mana shunday ulkan ishlarimizning amaliy natijasidir.

Eski shaharning ilgarigi holatini ko‘pchilik yaxshi eslaydi, albatta. Jazirama yoz paytida bu yerda osmonni tumanga o‘xshash qora qurum qoplab yotardi. Yoshlarimiz buni bilmasligi mumkin, lekin ko‘pchilik odamlarimiz shunday og‘ir sharoitda yashagani haqiqat, deb qayd etdi Islom Karimov.

Davlatimiz rahbari joriy 2012 yilda Toshkentni yanada obod qilish yo‘lida boshlangan ishlarni davom ettirib, yana ko‘plab yangi obyektlarni ishga tushirish ko‘zda utilayotgani haqida atroflicha to‘xtalib o‘tdi.

Avvalo, Alisher Navoiy ko‘chasidagi ijtimoiy-madaniy va maishiy obyektlarni o‘z ichiga olgan, 320 xonadonga mo‘ljallangan 8 ta yangi uy-joyning qurilishi yakuniga yetkaziladi. Men sizlarga shu uylarni borib ko‘rishni tavsiya qilgan bo‘lardim. Bu yangi uy-joylar eng zamonaviy loyihalar asosida barpo etilmoqda. Bizning maqsadimiz, talabimiz shundayki, agar uy-joy quradigan bo‘lsak, eski zamondagidek paxsadan emas, balki yetti pushtimizga yetadigan qilib, har tomonlama puxta o‘ylab, 80-100 yilga mo‘ljallab qurishimiz kerak.

Aynan ana shunday talablar asosida hozirgi vaqtida qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo‘yicha ko‘plab uy-joylar qurilayotganidan xabaringiz bor, albatta. Shahrimizning qoq markazida, Alisher Navoiy

ko‘chasida bunyod etilayotgan uylar Yevropaning taraqqiy topgan davlatlarida qurilgan uylardan aslo kam bo‘lmasligi kerak. Ularning oldida odamlar oilasi, farzandlari bilan dam olib o‘tiradigan maskanlar, zarur infratuzilma obyektlari barpo qilish, kelgusida bunday uylarni yana ko‘plab qurishga alohida e’tibor berishimiz lozim.

2012 yilda, shuningdek, Ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlash va jihozlash bo‘yicha budgetdan tashqari jamg‘arma mablag‘lari hisobidan bu yilning o‘zida 14 ta maktab, 3 ta akademik litsey, 6 ta kasb-hunar kollejini rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash, 8 ta davolash muassasasini rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshiriladi.

Ma’lumki, joriy yildan boshlab mamlakatimizda oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash dasturini amalga oshirishga kirishildi. Shu borada O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent tibbiyot akademiyasi va Pediatriya tibbiyot institutida boshlangan ishlar bu yil izchil davom ettiriladi. Shular qatorida “Yoshlik” talabalar shaharchasini obodonlashtirish ishlarini nihoyasiga yetkazish ko‘zda tutilmoqda.

Joriy yilda Chilonzor tumanida “Bunyodkor” stadioni, yopiq suzish havzasiga ega bo‘lgan futbol maktabi ham qurib foydalanishga topshiriladi. Bunday ishlar ro‘yxatini yana davom ettirish mumkin.

Poytaxtimizda yaqin kelgusida amalga oshiriladigan yirik qurilish va obodonlashtirish ishlari haqida gapirganda, dedi Yurtboshimiz o‘z nutqini davom ettirib, Toshkent shahrining eng muhim qismi bo‘lgan Eski shahar hududini tubdan rekonstruksiya qilish va obodonlashtirish ishlarini yangi bosqichga ko‘tarishga alohida e’tibor qaratishimiz darkor.

Shu munosabat bilan yaqinda Toshkentning Eski shahar qismini 2020 yilgacha bo‘lgan davrda rivojlantirish va obodonlashtirish bo‘yicha alohida hujjat – Prezident qarori qabul qilindi. Bu muhim hujjatda Eski shaharni tubdan rekonstruksiya qilish, yanada rivojlantirish va obodonlashtirish, aholining hayot sifatini oshirish, zamonaviy talablar, shaharsozlik prinsiplari va normalariga muvofiq tarzda ijtimoiy, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini shakllantirish, milliy me’morlik an’analarini asrab-avaylashga qaratilgan bir qator choratadbirlar ko‘zda tutilgan. Jumladan, ikkita g‘oyat muhim masalani yechishga alohida e’tibor berilmoqda.

Birinchi masala – Eski shahar hududidagi mavjud ahvol, avvalambor,

yo‘l-transport kommunikatsiyalarining holati, turar-joy massivlarining ichimlik suvi, kanalizatsiya, issiqlik va elektr energiyasi bilan ta’minlanish darajasi zamonaviy talablarga, shaharsozlik va sanitariya normalariga qanchalik javob berishini hisobga olishdan iborat.

Ikkinchi masala – rekonstruksiya ishlarini amalga oshirishda Toshkent shahri, ayniqsa, uning Eski shahar qismidagi milliy me’morchiligidizning o‘ziga xos xususiyat va an’analarini, xalqimiz madaniy merosining timsoli bo‘lgan, islom madaniyati va jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgan tarixiy-me’moriy yodgorliklarni asrab-avaylashdan iborat.

Ana shu muhim yo‘nalishlar Toshkentni istiqbolda zamonaviy shaharsozlik asosida rivojlantirish va obodonlashtirish dasturi loyihasini shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qilishi darkor. Ta’kidlash kerakki, bu dastur 2020 yilga qadar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Uning har bir yo‘nalishi bo‘yicha, mutaxassislar, arxitektor va loyihamchilar, tarixchi olimlarni jalb etgan holda, ishchi guruhlar tashkil etish ko‘zda tutilmoqda.

Albatta, ana shu ishchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallar asosida ishlab chiqiladigan dastur loyihasi keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilinadi. Chunki bu o‘rinda so‘z butun xalqimiz, mamlakatimiz tarixiga, uning milliy qadriyat va an’analariga, ming-minglab yurtdoshlarimizning bugungi va ertangi hayotiga bevosita daxldor bo‘lgan masalalar haqida bormoqda.

Eng muhimi, Toshkentning qanday qadimiy va boy o‘tmishi borligini, dunyoda 2200 yillik tarixga ega bo‘lgan shaharlar barmoq bilan sanarli ekanini hech qachon unutmasligimiz kerak. Yillar, asrlar o‘tsa ham, eski o‘rnii buzilib ketgan bo‘lsa ham, bunday qadimiy shaharlarda odamlar tarixiy xotira tuyg‘usini yo‘qotmasdan, ko‘hna manzil va maskanlarni doimo eslab yuradi. Toshkentning o‘n ikki qadimiy darvozasini, ularning Labzak, Qashqar, Qo‘qon, Qaytmas, Beshyog‘och, Kamolon, Samarqand, Ko‘kcha, Chig‘atoj, Sag‘bon, Qorasuv va Taxtapul degan nomlarini xalqimiz hozirga qadar yodidan chiqarmasdan kelayotgani ham bu fikrni tasdiqlab turibdi.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, sobiq sovet davrida, ayniqsa, 1966 yilgi Toshkent zilzilasidan keyin uzoqni o‘ylamasdan, palapartish qilingan ishlar tufayli poytaxtimiz rivoji bilan bog‘liq ko‘pgina muammolar to‘planib qolgan edi.

Kaltabinlarcha olib borilgan ishlar tufayli Toshkentning betakror

tabiatiga katta zarar yetkazildi, qancha-qancha bog'lar buzilib, ariq va buloqlar ko'milib, ularning o'mnida iqlim sharoitimidagi mutlaqo to'g'ri kelmaydigan, bir-biriga o'xshaydigan ko'pqavatli temir-beton uylar, ishlab chiqarish korxonalari o'ylamay-netmay qurib tashlandi. Yaqin o'tmishdag'i ana shunday achchiq tajribalar shundan dalolat beradiki, shaharsozlikda yetti marta emas, yetmish marta o'lchab, bir kesish kerak.

Ayniqsa, bugungi kunda o'ta dolzarb bo'lib borayotgan yo'l qurilishida bunday yondashuvning ahamiyati katta. Bu haqda gapirganda, bir fikrni alohida ta'kidlash lozim: 4-5 polosali yo'llar qurish, ko'chalarni kengaytirish mumkin, lekin yo'l yoqasidagi uylarni nima qilish kerak?

Hozirgi vaqtida Toshkentga kelayotgan odamlar yo'llarimizning kengligini ko'rib, hayron qolmoqda. Ammo bu yo'llarning qanday qiyinchiliklar bilan kengaytirilayotganini ko'pchilik bilmaydi.

Aytish kerakki, shaharda mavjud bo'lgan tramvay va trolleybus liniyalari bugungi kun talablariga, transport harakatining tezligiga javob bermay qo'ygani sir emas.

Biz avvalgi eski tramvay va trolleybus yo'naliishlaridan voz kechish hisobiga yo'llarni kengaytirishga erishmoqdamiz. Toshkent shahrida mavzelar o'rtasida tezyurar tramvaylarning harakatini yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda. Ayniqsa, yo'llardagi qatnov yo'naliishlarini ajratib turadigan beton to'siqlar o'rnatilayotgani yaxshi natija bermoqda.

Sizlarga yaxshi ma'lumki, sovet davrida Toshkentda kommunistik mafkura ruhidagi nomlar ko'p bo'lgan. Keyingi paytda ularning qadimiy nomlarini tiklash bo'yicha ko'pgina ishlar qilindi va qilinmoqda. Qator maydon va ko'chalar, istirohat bog'lari, jumladan, Uchtepa va Olmazor tumanlari misolida ana shunday tarixiy nomlar tiklanganini ko'rish mumkin.

Ayni vaqtida shuni ham aytish kerakki, 90-yillarning boshlarida joylarga nom berish masalasida palapartish va biryoqlama ish tutish holatlari yuz bergenidan ko'z yumib bo'lmaydi. Deylik, kimningdir bolasini amaldor bo'lib qolsa, otasi yoki biron-bir qarindoshining nomini ko'cha yoki maktabga berishga harakat qilgan.

Men mustaqillik bayrami arafasida Toshkent shahrida barpo etilgan yangi aeroport binosi bilan tanishar ekanman, yon-atrofdagi ba'zi ko'chalarga nomlari qo'yilgan shaxslar haqida so'raganimda, ishonasizmi, hech kim aniq bir ma'lumot berolmadidi.

Mana endi, bu masalaga ham butunlay yangicha yondashib, mas'uliyat

bilan, har tomonlama puxta o'ylab ish ko'rish vaqtি keldi. Yaqinda joy nomlari bo'yicha maxsus qonun qabul qildik. Bu boradagi asosiy talab shuki, joylarga shaxslarning nomini imkon qadar kamroq qo'yish kerak. Shunda o'zimiz uchun kamroq muammo tug'dirgan bo'lamiz.

Ta'kidlash kerakki, bu shunchaki toponomik masala emas, avvalo, ma'naviy tarbiya masalasıdır. Joy nomlari yurtdoshlarimiz, yoshlarimiz qalbida o'z yurtiga muhabbat, tariximiz va milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat-ehtirom tuyg'ularini kamol toptirishga, ularning dunyoqarashi va ma'naviy olamini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Bu borada soxta va qalbaki ishlar bilan farzandlarimizning ongi, tarbiyasi, adolat va kelajakka ishonchiga putur yetkazishga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Toshkent haqida, Toshkent shahrida amalga oshirilgan va amalga oshirish mo'ljallanayotgan o'zgarishlar haqida yana ko'p gapirish, bu mavzuni uzoq davom ettirish mumkin, dedi davlatimiz rahbari.

Haqiqatan ham, poytaxtimiz hayotida biz shunday katta yutuqlarga erishdikki, bu to'g'rida tortinmasdan, faxr bilan har qancha gapirsak, arziydi, albatta.

Hech ikkilanmasdan aytish mumkin, bunday yuksak marralarning zamirida men uchun aziz bo'lgan toshkentliklarning faolligi, poytaxt aholisiga xos bo'lgan ahillik, mehr-oqibat, ishbilarmonlik kabi fazilatlar, mehnat, mehnat va yana bir bor mehnat mujassam, desak, aslo xato bo'lmaydi. Va buning uchun sizlarga, ko'pmillatli butun Toshkent ahliga o'z nomimdan, xalqimiz nomidan samimiy minnatdorlik bildiraman, dedi Yurtboshimiz.

Hammamiz yaxshi bilamiz, keyingi yillarda Toshkent shahrida erishilgan yutuqlar bilan birga, ishda yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlar, odamlarning noroziligiga sabab bo'layotgan, hali-beri yechilmasdan kelayotgan turli muammolar ham, afsuski, yo'q emas.

Bu haqda gapirganda, birinchi navbatda shahar va tuman rahbarları, barcha faollarımız qo'lini xolisona ko'ksiga qo'yib, o'ziga o'zi hisob berishi, bu kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida bosh qotirishi ham qarz, ham farzdir. Bunday nuqsonlarni shu zalda o'tirganlarning ko'pchiligi yaxshi biladi, ming-minglab hamshaharlarımız o'z kundalik hayotida bu muammolarga doimo duch keladi, dedi Islom Karimov.

Avvalo odamlarni rozi qilish, aholining tashvishlaridan uzoq bo'imaslik, uning dardi bilan yashash har qaysi rahbardan o'z ishiga

tanqidiy qarab, men shu talablarga javob beryapmanmi yoki yo‘qmi, degan savolni o‘ziga berishni, o‘z mas’uliyatini oshirish, zimmasiga yuklatilgan vazifani o‘z vaqtida bajarish va qonunga so‘zsiz itoat qilishni taqozo etadi.

Shu ma’noda, rahbar kadrlarning mas’uliyati haqida fikr yuritganda, bu borada Toshkent shahrida bir qancha nuqsonlarga yo‘l qo‘yilayotganidan, afsuski, ko‘z yumib bo‘lmaydi. O‘z faoliyatida turli qonun buzilishlariga, vazifani suiiste’mol qilishga yo‘l qo‘ygani uchun keyingi vaqtida Bektemir tumani hokimi A.Hoshimjonov, Mirobod tumani hokimining o‘ribbosari A.Abdurahmonov, Toshkent shahar hokimligi yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi boshlig‘i A.Hasanxo‘jayev, binolardan foydalanish departamenti boshlig‘i M.Mirsagatov, “Toshshahargaz” boshqarmasi boshlig‘i A.Saidvaliyevning jinoiy javobgarlikka tortilgani shundan dalolat beradi. Shuningdek, shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmasi boshlig‘i B.Kamolov, Olmazor tumani hokimining birinchi o‘ribbosari B.Tursunov xizmat vazifasini talab darajasida bajara olmagani sababli o‘z vazifasidan ozod etildi.

Toshkent shahrida fuqarolarning davlat idoralariga murojaatlari, shikoyat va arizalariga munosabat masalasida ham kamchiliklar yo‘q emas. Albatta, bunday murojaatlar belgilangan tartibda ko‘rib chiqilmoqda, ularga javob ham berilmoqda. Lekin tahlillar ba’zan shahar va tuman hokimliklari mutasaddilari tomonidan bu masalada sansalorlik va rasmiyatçilik, kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etmasdan, aybdor mansabdor shaxslarga nisbatan tegishli choralar ko‘rmaslik holatlari yo‘l qo‘ylganini ko‘rsatmoqda. 2011 yilda Toshkent shahar fuqarolarining Prezident devoniga shikoyat va arizalari soni 2010 yilga nisbatan o‘rtacha 11 foizga ortgani ham bu boradagi ahvolning qoniqarli emasligidan darak beradi.

Bu haqda gapirganda, mana shunday majlis va uchrashuvlarda ko‘p bor aytildigan, ko‘p qarorlarda qayd etilgan bir fikrni ta’kidlash lozim. Ya’ni, har qaysi murojaatning ortida tirik jon turibdi, ularda kimningdir arz-dodi, kerak bo‘lsa, dardi, ayrim amaldorlar tomonidan yo‘l qo‘ylgan adolatsizlik turganini hech qachon unutmaslik lozim. Bu masalalar bo‘yicha biz qancha loqayd va betaraf bo‘lib yursak, odamlarning noroziligi shuncha ko‘payadi. Takror aytaman, yuzaga kelgan biron-bir muammo o‘z-o‘zidan hal bo‘ladi, degan kayfiyat bilan yurish juda katta xato bo‘ladi. Agarki har qaysi rahbar, yetakchi o‘zi duch kelgan

muammoni bugun yechmasa, ertaga kech bo‘ladi. Rahbarning asosiy burchi va vazifasi ham aynan ana shundan iborat.

Yana bir masala shuki, bunday murojaatlarni ko‘rib chiqayotganda, arizalarni joylarga borib tekshirayotganda, birinchi navbatda, kimga suyanish kerak? Avvalambor, jamoatchilikka, mahalla faollariga. Shuning uchun ham bunday murojaatlarni joylarda qancha ko‘p ochiq, oshkora muhokama qiladigan bo‘lsak, ularning yechimi bo‘yicha amaliy choralar ko‘radigan bo‘lsak, ariza va shikoyatlarning soni shuncha kamayadi. Qaysi bir shikoyatda haqiqat, qaysi birida esa shaxsiy adovat borligi aynan shunday muhokamalar paytida ayon bo‘ladi.

Aholini ish bilan band qilish masalasida ham Toshkent shahrida muammolar kam emas. Odamning hayotga, davlatga, hokimiyatga juda ko‘p talablari bor, lekin ular orasida bir haqqoniylab borki, uni hech kim inkor etolmaydi. Bu – har qaysi odamning mehnat qilish huquqini ta’minlash, unga o‘z qobiliyat va iste’dodiga munosib ish topib berish masalasidir. Bu – birinchi navbatda mahalliy hokimiyat, tegishli davlat idoralarining eng asosiy vazifasidir.

Toshkent shahrida o‘tgan yili 82 mingdan ziyod ish o‘rni tashkil etilgani, jumladan, kasb-hunar kollejlarini bitirgan 33 ming nafardan ortiq o‘g‘il-qizlarimiz ishga joylashtirilgani albatta e’tiborga loyiq. Lekin, Bektemir tumanida kichik korxona va mikrofirmalarni tashkil qilish, Yakkasaroy va Uchtepa tumanlarida esa kasanachilik hisobidan ish o‘rinlari yaratish rejasiga to‘liq bajarilmagani, Mirobod, Sirg‘ali, Chilonzor, Hamza tumanlarida bu boradagi ishlar talab darajasida emasligini qanday baholash mumkin?

Hozirgi kunda Toshkent shahridagi bandlik xizmatlari tomonidan 5 ming 100 kishi ishsiz sifatida rasman ro‘yxatga olingan. Ammo, o‘ylaymanki, ularning haqiqiy soni ancha ko‘p. Nega deganda, ming afsuski, ishsiz yurganlarning ko‘pchiligi o‘z vaqtida bandlik idoralariga borib, ro‘yxatga turmaydi, o‘z dardini o‘zicha hal qilmoqchi bo‘ladi. Bunday holatni ham o‘zgartirish vaqtি keldi. Masalan, Toshkent shahrida 5 ming 100 kishi ishsiz ekaniga kim ishonadi? Shuning uchun bandlik xizmati idoralari o‘z ishini tubdan qayta ko‘rib chiqishi zarur.

Ma’lumki, bugungi kunda ishsizlik masalasi butun dunyoda eng katta muammoga aylanmoqda. Hatto eng rivojlangan davlatlar ham shunday muammoni boshidan kechirmoqda. Yevropadagi yetakchi mamlakatlarda 8-9 foiz, ba’zilarida esa hatto 20 foizgacha odam ishsiz ekanı

kuzatilmogda.

Shundan xulosa qilgan holda, biz bu borada muntazam ravishda ish olib borishimiz, uning yechimi haqida bosh qotirishimiz kerak. Odamlar uchun barqaror daromad manbai, munosib ish o‘rinlarini yaratib berish zarur. O‘zingiz o‘ylang, agar mana shu zalda o‘tirgan rahbarlar va faollarning har biri 5-10 tadan yangi ish joylari tashkil etib bersa, bu qanday katta savob ish bo‘lar edi, deb qayd etdi Yurtboshimiz.

Aholini ish bilan ta’minalashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik qanday katta rol o‘ynashini kimgadir isbotlab, tushuntirib o‘tirishning hojati yo‘q. Lekin ana shu muhim sohani rivojlantirishda Toshkent shahrida ayrim kamchiliklar mavjudligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi.

Avvalo, o‘z ishini tashkil etayotgan tadbirkorlar bino va inshootlar qurish uchun ruxsatnama olishda, communal xo‘jalik va muhandislik tarmoqlariga ulanishda hali-beri byurokratik to‘sinqlarga duch kelayotganini, nazorat organlari tomonidan xo‘jalik subyektlari faoliyatiga asossiz aralashuvlarga yo‘l qo‘yilayotganini ochiq tan olish lozim.

Takror va takror aytishga to‘g‘ri keladi – bugungi kunda ayni shu masala, ya’ni aholini, avvalambor yoshlarimizni ish bilan ta’minalash muammosini yechish, hech shubhasiz, xalqimizning hayot darajasini oshirishda, yurtimizda barqarorlikni mustahkamlashda, odamlarni rozi qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini aslo unutmasligimiz kerak.

Hammamizga ma’lum, biz bu yil juda og‘ir qish mavsumini boshimizdan o‘tkazdik. Ayni mana shunday qiyin mavsumda shahar xo‘jaligida, ayniqsa, communal sohada o‘z vaqtida e’tibor berilmagan muammolar lop etib o‘rtaga qalqib chiqadi. Toshkentda qahraton qish pallasida issiqlik ta’minotida, elektr energiyasi, tabiiy gaz bilan ta’minalashda ayrim muammolar yuz bergani ham sir emas.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, shahardagi 8 ming 244 ta ko‘pqavatli uy-joyning 1 ming 252 tasi qishga yaxshi tayyorlanmagan. Jumladan, qozonxonalarini qish mavsumiga tayyorlashda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar tufayli dekabr va yanvar oyalarida 2 ta yirik korxona tomonidan aholiga issiqlik energiyasi yetkazib berishda uzilishlar vujudga kelgan.

Shuning uchun shahar hokimligi yaqin kunlar ichida kuzgi-qishki mavsum yakunlari bo‘yicha alohida majlis o‘tkazib, bu boradagi ishlarning ahvoliga tanqidiy va prinsipial baho berishi kerak.

Kim mana shu og‘ir paytda o‘zini ayamasdan, jonkuyarlik ko‘rsatib

ishlagan bo'lsa, u oddiy ishchi yoki mutaxassis bo'ladimi, bunday zahmatkash insonlarning barchasiga rahmat aytish, rag'batlantirish, kerak bo'lsa, Prezident nomidan mukofot berish, davlat mukofotlariga tavsiya etish lozim. Lekin bu masalaga sovuqqonlik bilan qarab, ishda nuqsonlarga yo'l qo'ygan, lavozimda o'tirgan rahbarlarning mas'uliyatini oshirish uchun tegishli choralar ko'rish zarur, deb ta'kidladi Islom Karimov.

Ayni vaqtida shahardagi mavjud turar-joy fondini saqlash borasidagi ishlarning ahvoli ham talab darajasida emasligini qayd etish darkor. Aksariyat uy-joy mulkdorlari shirkatlari o'z vazifasini to'liq bajarmayotgani tufayli 1991 yilgacha qurilgan 300 dan ortiq ko'pqavatli uyda kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirilmagan, o'tgan yili uylarning tashqi tomonini ta'mirlash ishlari faqat 89 foizga bajarilgan, xolos. Yetarli mablag' ajratilganiga qaramasdan, ko'pqavatli uylardagi 36 ta lift o'z vaqtida o'rnatilmagan.

Yuqorida keltirilgan xato va kamchiliklarni chuqur tahlil qilib, ularning kelgusida takrorlanmasligi uchun xulosa va saboq chiqarish, bu borada aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish eng asosiy vazifa sifatida qaralishi zarurligi sessiyada alohida qayd etildi.

Mana, qishdan eson-omon chiqib oldik, nasib etsa, hademay, Navro'z bayramini ham birgalikda o'tkazamiz. Mana shunday vaqtida, sodda qilib aytganda, "ilik uzildi" paytda odam organizmi to'yimli, vitaminga boy mahsulotga ehtiyoj sezishi tabiiy hol. Lekin ayni shunday vaziyatdan, ya'ni, o'tgan yili yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari kamayib, yangisi hali chiqmaganidan foydalaniib, ba'zi bir noinsof kimsalar bozorda oziq-ovqat, ayniqsa, qishloq xo'jalik mahsulotlarining narxini oshirib yuborishi – yashirishning hojati yo'q – bu ham bor gap.

Biz bunday noxush holatlarning oldini olish maqsadida keyingi yillarda o'z vaqtida tegishli choralar ko'rib, qishloq xo'jalik mahsulotlarining tegishli zaxirasini yaratish bo'yicha qilayotgan ishlarimiz, o'ylaymanki, sizlarga yaxshi ma'lum, dedi Prezidentimiz. Jumladan, o'tgan yili kuz mavsumida Toshkent bo'yicha 71 ming tonnaga yaqin kartoshka, piyoz, sabzi, karam va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari zaxira uchun jamg'arib qo'yilgani qish mavsumida bozorlarimizdagi serobchilikni ta'minlab, narx-navoning keskin oshib ketmasligiga olib keldi. Bugungi kungacha ana shu zaxiraning 61 foizi bozor narxlariga nisbatan 25-30 foizgacha arzonlashtirib sotilgani aholimiz uchun sezilarli madad bo'ldi.

Shu bilan birga, chorva va parranda go'shti, sut, tuxum, baliq mahsulotlari ham fermer xo'jaliklari bilan tuzilgan shartnomalar asosida poytaxt bozorlariga muntazam yetkazib berilayotganini qayd etish zarur.

Bu haqda gapirganda, Toshkent shahriga viloyatlarimizdan qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib berayotgan mirishkor dehqon va fermerlarimizga, bu ishlarni tashkil qilayotgan insonlarga sizlarning nomingizdan, azim Toshkent ahli nomidan rahmat aytishni o'rinali, deb bilaman, dedi davlatimiz rahbari.

Sessiyada yana bir muhim masala, ya'ni, Toshkent shahrida qonun ustuvorligini ta'minlash borasidagi ishlar haqida ham so'z yuritildi. 2011 yilda huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan amalga oshirilgan tadbirlar natijasida jinoyatlar soni 2010 yilga nisbatan 1,6 foiz kamayishiga erishilgani ta'kidlandi. Jumladan, qotillik, firibgarlik, bezorilik, o'lim bilan bog'liq yo'l-transport hodisalari, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar kamaygan. Lekin ayni vaqtda qasddan og'ir tan jarohati yetkazish, o'g'rilik va talonchilik jinoyatlari o'sgani tashvish uyg'otmasdan qolmaydi.

Afsuslanarli jihat shundaki, ba'zan qonun posbonlari bo'lgan huquqtartibot idoralari xodimlari tomonidan jinoyat sodir etish holatlari ko'zga tashlanmoqda. Buni o'tgan yilning o'zida ichki ishlar idoralari xodimlaridan 12 nafari, soliq idorasi xodimlaridan 3, bojxona idorasi xodimlaridan 4 nafari, shuningdek, 1 nafar sudya jinoiy javobgarlikka tortilgani ham tasdiqlab turibdi.

Shu o'rinda men ilgari ham aytgan bir fikrni yana takrorlashni zarur, deb bilaman. Ma'lumki, biz huquqiy-demokratik davlat qurmoqdamiz. Huquqiy davlatning quroli ham, himoyasi ham, ko'zi ham, so'zi ham qonundir, dedi Islom Karimov.

Albatta, tegishli qonunlarni qabul qilish mumkin, lekin bu qonunlar bajarilmasa, odamlar, avvalo rahbarlar, qonun himoyachilar bo'lgan huquq-tartibot idoralarining xodimlari qonunga itoat qilmasa, bunday sharoitda adolatga, hokimiyatga ishonch qoladimi o'zi? Adolatga, hokimiyatga ishonch yo'qolgan joyda ahvol qanday tus olishini, o'laymanki, tasavvur qilish qiyin emas va bunga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Hayotiy tajriba shuni ko'rsatadiki, odamlar kimgadir, nimagadir ishonchini yo'qotsa, keyin uni tiklash albatta qiyin bo'ladi. Huquq-tartibot organlarida ishlaydigan odamlarning o'zini tutishi, xizmat va muomala

madaniyati haqida men bu o'rinda bejiz so'z yuritayotganim yo'q. Nega deganda, forma kiyib, gerdaiib yurishdek sovet davridan qolgan salbiy holatlar hali ham, afsuski, yo'q emas. Ichki ishlar, prokuratura va xavfsizlik idoralari xizmatchilari o'z vazifasini bajaryapti, buni albatta e'tirof etish kerak. Ayni vaqtida shuni ham esdan chiqarmasligimiz lozimki, bugungi kunda huquq-tartibot idoralari xodimlariga nisbatan boshqalarga qaraganda bir necha barobar qattiq talab qo'yilmoqda. Chunki ular avvalo davlat, hokimiyat nomidan ish olib boradi va bu mas'uliyatni esdan chiqarishga hech kimning haqqi yo'q, deb ta'kidladi Yurtboshimiz.

Bu masalada jamoatchilik nazorati, mahallaning roli va ta'siri juda kuchli ekanini hammamiz yaxshi bilamiz. Shu borada men ilgari ham to'xtalib, mahalla – xalq vijdoni, degan fikrni bildirgan edim, dedi Prezidentimiz. Haqiqatan ham, eng vijdonli, mehr-oqibatli, odamning qadriga yetadigan insonlar aynan mahallada yashaydi. Shuning uchun ham mahallani tom ma'noda o'zini o'zi boshqarish idorasiga aylantirish, uning huquq va vakolatlarini yanada kuchaytirish masalasi bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'lishi darkorligiga majlisda alohida urg'u berildi.

Bizning bugungi va ertangi taraqqiyotimiz bilan bog'liq eng muhim masalalar – bu qurilish yoki obodonlashtirish bo'ladimi, kommunal xizmat, ma'naviy hayotimizni yuksaltirish, oila, yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq masalalar bo'ladimi – bularning barchasida men avvalo ko'pni ko'rgan mahalla oqsoqollari va faollarini o'zimning eng yaqin ko'makchim, tayanchim va suyanchim, deb bilaman va mana shunday ko'p qirrali faoliyati uchun, shu fursatdan foydalanib, ularga chin qalbdan tashakkur bildiraman.

Albatta, Vazirlar Mahkamasi yuqorida zikr etilgan barcha masalalarni nafaqat Toshkent shahrida, balki butun mamlakat miqyosida ko'rib chiqishi va tegishli choralar belgilashi zarur, dedi Islom Karimov.

Sessiyada tashkiliy masala ko'rildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tavsiyasiga binoan, Toshkent shahar hokimi vazifasini bajarib kelayotgan Rahmonbek Jahongirovich Usmonov Toshkent shahar hokimi etib saylandi.

Barchamiz yaxshi tushunamiz, yaxshi anglaymiz: Toshkent shahriga rahbar, yetakchi bo'lish, avvalo ko'pmillatli poytaxt ahlini birlashtirish, ishni oqilona tashkil etish, shahar va tuman rahbarlari, mahalla oqsoqollarining boshini qovushtirish, ularga suyanish va tayanish, deputat va faollarni umumiy maqsad yo'lida safarbar qilish, eng muhimi, shu azim

shaharda istiqomat qilayotgan xalqning hayot sifatini yuksaltirish, uni rozi qilish – so‘zsiz o‘ta og‘ir va murakkab vazifadir, dedi Yurtboshimiz.

Bunday rahbar keng miqyosda fikrlashi va uzoqni ko‘rib ish tutishi lozim. Bugungi shiddatli hayot ertaga yo‘limizda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammo va tahdidlarga tayyor bo‘lib, ularning yechimini doimo o‘ylab yashashni talab qiladi.

Rahbar talabchan va qattiqqo‘l bo‘lish bilan bir qatorda albatta insofli va adolatli bo‘lishi, qo‘lga kiritgan yutuqlardan, atrofdagi lagambardorlarning xushomadgo‘yligidan buzilmasligi, oyog‘i yerdan uzilmasligi, nafs balosi va manmanlikka berilmasligi darkor.

Albatta, bunday ko‘nikmalarni odamga maxsus o‘rgatib bo‘lmaydi. Ko‘p narsa uning imoni butunligi, irodasi mustahkamligiga bog‘liq, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Bugun sizlar bilan uchrashib, yutuqlar bilan birga hali yechilmagan muammolar haqida fikr almashib, Toshkentning yanada go‘zal va obod bo‘lishi uchun, unga bo‘lgan farzandlik mehrimizni amaliy ishlarda namoyon etish uchun ko‘zda tutilgan rejalarimiz haqida gapirganda, o‘laymanki, shu zalda o‘tirgan har qaysi inson albatta to‘lqinlanib ketadi, bamisol unda qanot paydo bo‘ladi, desam, adashmagan bo‘laman. Sizlar bilan ana shunday rejalarini amalga oshirishda Ollohdan madad so‘rab, barchangizni kirib kelayotgan Navro‘z bayrami bilan samimiylab, yaxshi kunlarda uchrashishni tilab qolaman, dedi davlatimiz rahbari pirovardida.

Sessiyada so‘zga chiqqan Olmazor tumanidagi “Guruchariq” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Xayrulla Hikmatov, Respublika aholi reproduktiv salomatlik markazi mutaxassisi Feruza Rahmatullayeva va boshqalar Prezidentimiz nutqida Toshkent shahrining bugungi taraqqiyoti, kelgusi istiqbollari har tomonlama chuqr tahlil etilganini ta’kidlab, ko‘rsatib o‘tilgan kamchilik-nuqsonlarni bartaraf etish, shahar oldida turgan muhim va dolzarb vazifalarni bajarish, islohotlarimiz samarasini oshirish uchun butun poytaxt ahli astoydil mehnat qiladi va ko‘zlangan marralarga albatta erishadi, deb ta’kidladilar.

NAVRO‘Z BAYRAMIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI SO‘Z

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Tabiat uyg‘onib, bahor nafasi tobora kuchayib, ona zaminimiz yashil libosga burkanib borayotgan shu yorug‘ va munavvar kunlarda siz azizlarni, sizlarning timsolingizda butun O‘zbekiston xalqini yurtimizga kirib kelayotgan Navro‘zi olam – yangilanish va yasharish bayrami bilan chin qalbimdan muborakbody etishdan baxtiyorman.

Navro‘z ayyomi barchamiz uchun sharqona yangi yil debochasi, serhosillik va qut-baraka g‘oyasini o‘zida mujassam etadigan, bizning milliy tabiatimiz va qadriyatlarimizdan ajratib bo‘lmaydigan, har qanday siyosatdan xoli, eng qadimi, eng sevimli bayramimizdir.

Bundan ming yillar avval, ko‘hna “Avesto” yaratilgan zamonlarda ham bizning ajdodlarimiz bu dilbar fasl kunlari Sirdaryo va Amudaryo bo‘ylarida, cheksiz Turonning qishloq va kentlarida, dashtu dalalarda tabiat bilan tillashib, Navro‘z nashidasini surganlar, qo‘s sh haydab, dalaga don sochib, tinchlik-omonlik tilab, yangi orzu-niyatlar bilan yashaganlar.

Navro‘zi olam tom ma’noda o‘zining ruhi va g‘oyalari bilan insonning doimo ona yer va tabiat bilan hamnafas bo‘lib yashashi, har qaysi odamning qalbida, uning dini va millatidan qat‘i nazar, yashamoq va yaratmoq intilishlarini uyg‘otish, ahillik va birdamlik tuyg‘ularini mustahkamlash uchun xizmat qilib kelmoqda.

Buning yaqqol isboti shu kunlarda yurtdoshlarimizning bag‘rini keng ochib, tabiatdan bahra olib, sumalak va halim, go‘ja va ko‘ksomsa kabi bahoriy ne’matlar tortilgan dasturxonlar atrofida, yashil maydon va ko‘kalamzorlarda sayil-tomoshalar qilib, Navro‘z ayyomini shodu xurramlik bilan kutib olayotganida, nishonlayotganida namoyon bo‘lmoqda.

Odamlar o‘rtasida mehr-oqibat, shafqat va muruvvat, keksalarning duosini olish, ko‘ngli yarim, yetim-yesirlarning boshini silash, nogiron va muhtoj oilalarga beminnat yordam berish kabi xalqimizga mansub ajoyib fazilat va savobli ishlar har qaysi mahalla va go‘shada o‘zining aksini topmoqda.

Navro‘z faslida turli nizo va adovatlar unutiladi, har qaysi inson o‘z

oila a'zolarini, qadrdonlarini bag'riga bosib, tanish-bilishlarini qutlab, ularga sog'lik-omonlik, tinchlik-osoyishtalik tilaydi, osmonimiz hamisha musaffo bo'lishini istaydi.

Shu munavvar damlarda xalqimizning barcha orzu-umidlari, qalbi va vujudi Navro'z ruhi va g'oyalariga hamohang, uyg'un va mushtarak bo'lib rivoj topayotganiga ona yurtimizda yashayotgan har qaysi inson yana va yana bir bor iqror bo'ladi.

Aynan shuning uchun bu betakror va go'zal ayyomni el-yurtimiz orziqib kutadi, o'z sog'inchlarini va orzu-istiklarini, yorug' chehrasini namoyon etishga intiladi.

Aynan shuning uchun Navro'zimizni o'tmish va yaqin tariximizda ne-ne mustabid tizimlar har qancha urinmasin, bizdan – o'zbek xalqidan tortib ololmadi.

Hech shubhasiz, aytish mumkin: avvalo xalqimizni o'z otabobolarining o'lmas qadriyatlariga, urf-odatlariga bo'lган sadoqati, iroda va qat'iyati tufayli Navro'zi olam, mana, ming yillar davomida yurtimizda bezavol, abadiy yashab kelmoqda.

Bunday oriyatli, o'zligini, o'z qadr-qimmatini yuksak baholaydigan ulug' xalqning farzandlari, davomchilari ekanimizni his etib, barchamizning qalblarimiz beixtiyor g'urur va iftixorga to'ladi, desam, shu muhtasham maydonda to'plangan siz, azizlarning fikri-zikringizni aytgan bo'laman.

Muhtaram vatandoshlar!

Uzoq davom etgan qish qahratonidan so'ng oftobning charog'on chehrasini ko'rib, beg'ubor ko'klam havosidan nafas olar ekan, har bir odam xuddiki qaytadan tug'ilib, o'zini, dunyoni yangitdan kashf etayotgandek his qilishi tabiiydir.

Shu ma'noda, bu yilgi bahor faslini hammamiz har qachongidan ham sog'inib, intazorlik va quvonch bilan kutib olayotganimiz – bularning barchasi mamlakatimizda "Mustahkam oila yili" deb nom olgan 2012 yilda ham ko'zlangan marralarimizni albatta qo'lga kiritamiz, degan ishonch tug'diradi.

Joriy yilda ham boshlagan ezgu ishlarimizni, demokratik va erkinlashtirish islohotlarini davom ettirish, aholimizning daromadi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarini ko'paytirish hisobidan xalqimizning hayot darajasi va sifatini yangi bosqichga ko'tarishga erishamiz, inshoollo.

Bu yilning yurtimizga sernam kelishi, kuzda ekkan ekinlarimiz tobora

kuchga to‘lib, bo‘y cho‘zayotgani, yangi mavsumga chuqur tayyorgarlik ko‘rganimiz, nasib etsa, fidoiy va zahmatkash bobodehqonlarimizning orzu-umidlari albatta ushaladi, hosilimiz mo‘l bo‘ladi, deb ishonch bildirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqimiz azal-azaldan yoshlikni umr bahori, deb ta’riflaydi, farzandlariga atab nihol ekib, bog‘ yaratadi. Bugun Alisher Navoiy bobomizning muborak siymosi qad rostlagan shu azim bog‘da to‘planib o‘tirgan, bilagi kuchga to‘lib, ko‘zları g‘ayratdan yonib turgan, hech kimdan kam bo‘lmasdan voyaga yetayotgan yoshlarimizga qarata qalbimdan, yuragimdan chiqadigan samimiy tuyg‘ularimni izhor etmoqchiman:

Shu aziz va muqaddas Vatanimiz sizlarga, sizlarning har biringizga ishonadi.

Ana shunday yuksak ishonch barchangizga madadkor bo‘lsin, kuchquvvat bersin. Shu ishonchga hamisha munosib bo‘ling, aziz farzandlarim!

Fursatdan foydalanib, mana shu nurafshon va shukuhli ayyomda bizga hamroh va xayrixoh bo‘lgan, do‘stlik qo‘lini uzatgan barcha mamlakatlar va xalqlarga, uzoq-yaqin qo‘shnilarimizga bag‘rimizni keng ochib, samimiy salom va tabriklarimizni yo‘llaymiz.

Bugungi shodiyonamizda ishtirok etayotgan chet davlatlarning muhtaram elchilari va xalqaro tashkilotlarning vakillariga, barcha hamkor va sheriklarimiz, xorijiy do‘stlarimizga minnatdorlik bildirib, ularni Navro‘zi olam bilan chin dildan tabriklashga ijozat bergaysiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlarim!

Bugun mana shu go‘zal va betakror maydonda to‘plangan siz, qadrdonlarimga, sizlar orqali butun xalqimizga yana bir bor chuqur hurmat-ehtiromimni va samimiy tilaklarimni bildirmoqchiman.

Yurtimiz tinch, xalqimiz omon bo‘lsin!

Har bir xonadonning dasturxonni to‘kin-sochin, har bir oila mustahkam bo‘lsin!

Har bir insonning baxtu saodati ziyoda bo‘lsin!

El-yurtimizni xavfu xatarlardan, balo-qazolardan Yaratganning o‘zi asrasin!

Navro‘zi olam barchamizga muborak bo‘lsin!

TARIXIY XOTIRA VA INSON OMILI — BUYUK KELAJAGIMIZNING GAROVIDIR

*Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan ommaviy axborot vositalari
uchun berilgan intervyyu*

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 9-may — Xotira va qadrlash kuni mamlakatimizda umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanmoqda.

Xotira — ajdodlarga yuksak hurmat va ehtirom ifodasi. Inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulug‘. Prezidentimiz tomonidan istiqlolning ilk yillardan el-yurtimiz taqdiriga daxldor tarixiy adolatni tiklash, ajdodlarimizning ezgu ishlari, jasoratini ulug‘lash va abadiylashtirish, mamlakatimizda inson manfaatlarini ta’minlashga qaratilayotgan e’tibor xalqimizning ana shunday o‘lmas qadriyatları, bebaaho ma’naviy fazilatlarini namoyon etib kelmoqda.

Ikkinci jahon urushida jasorat ko‘rsatgan, olovli maydonlarda o‘z yurtining tinchligi va ozodligi, oilasi, farzandlarining xotirjamligi uchun kurashgan insonlar mudom xalqimiz ardog‘ida. Beayov janglarda jon fido qilgan bobolarimiz xotirasi qalblarimizda abadiy yashaydi. Bugun oramizda yashayotgan 6 ming 600 nafardan ziyod Ikkinci jahon urushi qatnashchilariga davlatimiz tomonidan har tomonlama e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatilmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2012-yil 18-aprelda qabul qilingan “Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi farmoni mamlakatimizda Ikkinci jahon urushi qatnashchilariga ko‘rsatilayotgan ehtiromning yana bir yorqin ifodasıdır. Mazkur farmonga muvofiq barcha shahar va tumanlarda, qishloq va mahallalarda urush qatnashchilari va nogironlariga pul mukofotlari topshirildi.

9-may. Poytaxtimizdagi tabarruk maskanlardan biri — Xotira maydoni har qachongidan gavjum. Bu yerga urush va mehnat faxriylari, hukumat a’zolari, senatorlar, deputatlar va harbiylar, keng jamoatchilik vakillari tashrif buyurdi.

Maydon uzra mahzun musiqa taraladi.

Soat 9.00. Maydonga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov kirib keldi.

Davlatimiz rahbari harbiy orkestr sadolari ostida Motamsaro ona haykali poyiga gulchambar qo‘ydi.

Prezidentimiz Ikkinci jahon urushida jon fido qilgan vatandoshlarimiz xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

– Bugun mamlakatimizda buyuk tarixiy sana, ya’ni Ikkinci jahon urushida fashizm ustidan g’alaba qozonilgan kunning 67-yilligi nishonlanmoqda, – dedi Islom Karimov. – Poytaxtimiz Toshkentda, shahar va qishloqlarimizda xalqimiz Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan marosimlarni bajo keltirmoqda. Avvalo ana shu ayovsiz urushda qatnashganlar, jang maydonlaridan qaytmagan barcha yurtdoshlarimiz xotirasi oldida bosh egib, ta’zim qilmoqda.

Bugun safimizda eson-omon, bardam bo‘lib, barchamizga ma’naviy madad berib, ibrat bo‘layotgan urush qatnashchilarini chin qalbimdan tabriklash, ularga uzoq umr tilab, o‘zimning samimiylarini hurmatimni bildirish menga katta mammuniyat bag‘ishlaydi, dedi davlatimiz rahbari.

Agar ana shu dahshatli urushda 1,5 million yurtdoshlarimiz qatnashganini, shulardan taxminan 500 ming vatandoshimiz halok bo‘lganini inobatga oladigan bo‘lsak, O‘zbekistonda o‘scha paytdagi xonardonlarning birontasini bu fojia chetlab o‘tmagani ayon bo‘ladi.

Oradan yillar o‘tadi, zamonlar o‘tadi, lekin xalqimizning ko‘ksidagi, qalbidagi mudhish urush azob-uqubatlari, ayriliq yarasi hech qachon unutilmaydi.

Barchamizning ishonchimiz komil: fashizmga qarshi kurashda o‘z ona yurtining tinch, osoyishta hayotini, beg‘ubor osmonini asrash uchun mardlik, jasorat va qahramonlik ko‘rsatgan, jon fido etgan yurtdoshlarimizning xotirasi abadiy yashaydi, xalqimiz o‘z o‘g‘lonlarining aziz nomlarini minnatdorlik bilan eslaydi, ularning oxirati obod bo‘lishini Yaratgandan so‘raydi, deb ta’kidladi Prezidentimiz.

O‘tganlar xotirasini o‘z yodida saqlab, e’zozlab yashash xalqimiz uchun eng muqaddas fazilat bo‘lib kelgan. Bunday odat milliy qadriyatimizga aylanib, qon-qonimiz, suyak-suyagimizga singib ketgan. Ushbu qadriyat xalqimizning o‘ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan noyob fazilatidir. Shuning uchun ham 9-may – Xotira va qadrlash kunini biz katta bayram sifatida nishonlaymiz.

Haqiqatan ham, jahon tarixida dahshatli iz qoldirgan, sobiq Sovet Ittifoqida yashagan 27 million odamning umriga zomin bo‘lgan, xalqimizga qancha azob-uqubatlar, yo‘qotishlar olib kelgan, qancha

ayollarning beva-bechora, qancha bolalarning yetim qolishiga sabab bo‘lgan bu yovuz ofatning hayotimizda qoldirgan izi, asorati har qancha vaqt o‘tsa-da, hech qachon eskirmaydi, unutilmaydi.

Prezidentimiz bunday mudhish va ayovsiz urushning yana takrorlanmasligi uchun uning oldini olish, ildizi bilan yo‘q qilish hozirgi vaqtida eng dolzarb, eng muhim muammo bo‘lib qolayotganini ta’kidladi.

Dunyoning ko‘plab mintaqalarida bugun davom etayotgan qaramaqarshiliklar, qurolli to‘qnashuvlar, qonli fojialar, yon-atrofimizdagi notinchahvol har birimizdan doimo sezgir va ogoh bo‘lib yashashimizni talab qiladi. Qo‘shti Afg‘onistonda bundan 30-yil muqaddam boshlangan notinchlikning hali-beri oxiri ko‘rinmayapti. Bu nafaqat O‘zbekiston uchun, xalqimiz uchun, umuman mintaqamizda yashayotgan barcha odamlar uchun katta xavf-xatardir. O‘z yurti, oilasi, farzandlarining kelajagini o‘ylaydigan har bir insonni bu tashvishga solishi tabiiy. Xalqimizda “Qo‘sning tinch – sen tinch” degan maqol bejizga aytilmagan, dedi Islom Karimov.

Bugun fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga 67-yil bo‘lishiga qaramasdan, ming afsuski, jahonning turli mamlakatlarda, turli hududlarida fashizm degan ofat yana bosh ko‘tarayotgani, millatchilik kabi juda xavfli balo tobora tarqalib borayotganini sezmaslik, ko‘rmaslik, bunday xavf-xatarlarga beparvo bo‘lib yashash kutilmagan og‘ir oqibatlarga olib kelishi muqarrar.

Takror aytishga to‘g‘ri keladi: bunday tahdidlarni o‘z vaqtida sezish, ularning yovuz basharasini ochib berish bugungi zamonning talabi.

Shular haqida gapirar ekan, Prezidentimiz bunday ofatlarning oldini olish, bartaraf qilish yo‘lida yana bir muhim masalaga jamoatchilik e’tiborini jalb qilish zarurligini qayd etdi.

Bugungi kunda O‘zbekistonimiz erishayotgan, dunyo tan olayotgan marralar haqida so‘z yuritganda, ularga zamin bo‘lgan ko‘pgina sabablarni keltirish mumkin. Lekin xalqimiz qo‘lga kiritgan bu natijalarning negizida turgan asosiy omil – buni bugun hech kimga tushuntirib berishning hojati yo‘q, deb o‘ylayman – mustaqillik davrida odamlarimizning dunyoqarashi, hayotga, mehnatga, o‘z kasbiga bo‘lgan munosabati keskin o‘zgarib borayotganida yaqqol namoyon bo‘lmoqda, deb ta’kidladi Islom Karimov.

Bir so‘z bilan aytganda, xalqimizning mustaqil fikrlashi, ma’naviy olami, ijtimoiy faolligi o‘sib borayotgani barcha-barcha yutuqlarimizning poydevoriga, kuch-quvvatimiz manbaiga aylanayotganini sezish, ko‘rish

qiyn emas.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bonyodkorlik ishlari, erishilayotgan yutuqlarning negizida avvalo inson omili mujassam. Istiqlolimizning 21-yilligini nishonlash arafasida turibmiz. Tarixan shu qisqa davrda mustaqil Vatanimizda xalqimizning bonyodkorlik salohiyati, inson omili tufayli qo'lga kiritayotgan yutuqlarimizni bugun dunyo tan olmoqda, ko'plab mamlakatlar bizga havas bilan qaramoqda. Yaqinda poytaxtimizda eng muhim sohalar – sog'lijni saqlash va ta'lim sohalariga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro anjumanlarda ham bu o'zining yaqqol tasdig'ini topdi.

2012-yilni Mustahkam oila yili deb e'lon qilganimizning zamirida ham mamlakatimizda inson manfaatlari ustuvorligi, har bir insonning o'z xalqi, oilasi, Vatani taqdiriga daxldor bo'lib yashashi kabi ezgu maqsadlar mujassam, dedi davlatimiz rahbari.

Ana shunday omillar tufayli yurtimizda tinchlik va barqarorlik mustahkamlanib, ko'pmillatli mamlakatimizda o'zaro hurmat va hamjihatlik tobora keng qaror topayotgani hayotimizda asosiy hal qiluvchi kuchga aylanib borayotganini ta'kidlash o'rnlidir.

Prezidentimiz bugungi tinch-osoyishta kunlarning qadriga yetish, mustaqilligimizni mustahkamlash masalalari haqida to'xtalar ekan, o'sib kelayotgan yosh avlod istiqlolimiz tarixini chuqur o'rganishi, bunday kunlarga osonlik bilan erishilmaganini tushunib, anglab yetishi zarurligini alohida ta'kidladi. Chunki ertangi kun yoshlar qo'lida. Hal qiluvchi kuch sifatida kirib kelayotgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga ishonch bildirish lozim.

Mustaqilligimiz tarixini o'rganishda davlatimiz rahbarining "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobi barchamiz uchun ishonchli manba va muhim amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu ma'noda, bugun nishonlanayotgan Xotira va qadrlash marosimining ma'no-mazmuni, ya'ni o'tganlarni eslash, hayot bo'lganlarni qadrlash, Vatanni himoya qilish, uni daxlsiz saqlash kabi oljanob fazilatlarni yosh avlodimizning ongu tafakkuriga singdirish, farzandlarimiz, bolalarimizning biz kimmiz, kimning avlodimiz deb, otabobolarimizning jasoratidan ibrat olib, mana shu musaffo osmonni, ona yurtimizni biz asramasak, kim asraydi, degan e'tiqod bilan yashashi, hech shubhasiz, bugungi va ertangi hayotimiz uchun juda katta ahamiyatga ega, dedi Islom Karimov.

Bularning barchasi bizning kuchimizga kuch, qudratimizga qudrat qo'shishi, ertangi kunga bo'lgan ishonchimizni yanada mustahkamlashi tabiiydir.

Pirovardida Prezidentimiz bugungi kundagi eng dolzarb vazifalarimiz haqida alohida to'xtaldi.

Avvalo dunyoda, uzoq-yaqin mintaqalarda yuz berayotgan voqeahodisalarga beparvo, loqayd bo'lmasdan, boshqalarning dardini o'zimizga yaqin olib, doimo ogoh, sergak va hushyor bo'lib, xalq va Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashimiz zarur.

Ayni vaqtida milliy armiyamizni, xalqimizning tinch-osuda hayoti himoyasida posbon bo'lib turgan Qurolli Kuchlarimizning salohiyati va qudratini yanada oshirish, muxtasar aytganda, milliy armiyamiz tom ma'noda xalqimizning g'urur-iftixoriga aylanishi uchun hissa qo'shish – barchamizning muqaddas burchimiz bo'lishi kerak.

Biz doimo o'z imkoniyatlarimiz, kuch-qudratimizga tayanib-suyanib yashaganmiz va kelajakda ham shunday bo'lajak, albatta.

Biz o'z oldimizga ota-bobolarimiz orzu qilgan, kerak bo'lsa, jonini ham ayamagan ulug' maqsadni, ya'ni O'zbekistonimizning hech kimdan kam bo'lмаган hayot darajasiga erishishi va buyuk davlat qurish vazifasini qo'yganmiz.

Ana shu yo'lda Yaratgandan xalqimizni, Vatanimizni yomon ko'zlardan saqlashda o'zi madadkor bo'lishini so'raymiz. Biz o'zimizning ezgu maqsadlarimizga albatta erishamiz, dedi Islom Karimov.

Motamsaro ona haykali poyi shu kuni anvoyi gullarga burkandi. Muazzam maydon oqshomga qadar yurt tinchligi va ozodligi, avlodlarning porloq istiqboli uchun jon fido qilgan vatandoshlarimiz xotirasiga hurmat bajo etish uchun kelgan ziyyoratchilar bilan gavjum bo'ldi.

“UMID NIHOLLARI” SPORT O‘YINLARI QATNASHCHILARIGA

Aziz bolalarim, farzandlarim!

Hurmatli ota-onalar, ustoz-murabbiylar va sport muxlislari!

Avvalo, sizlarning barchangizni mana shu fusunkor bahor ayyomida chehrasi va bag‘rini olib, yanada go‘zal qiyofa kasb etgan Navoiy shahrida “Umid nihollari” sport o‘yinlarining tantanali ochilishi bilan chin qalbimdan samimiyl muborakbody etaman.

Biz mustaqillikka erishgan birinchi kunlardan boshlab yurtimizda inson, uning hayoti va manfaatlarini oliv qadriyat darajasiga ko‘tarish, xalqimiz uchun munosib turmush sharoiti yaratishdek yuksak maqsadni o‘z oldimizga asosiy vazifa qilib qo‘ydik.

Ana shunday ezgu maqsadga erishish yo‘lida bugun Vatanimiz qo‘lga kiritayotgan ulkan yutuq va marralar dunyoning uzoq va yaqin mamlakatlarda keng e’tirof etilayotgani xalqimizga, barchamizning ishonchimiz va tayanchimiz bo‘lgan yoshlarimizga katta g‘urur va iftixor yetkazmoqda.

Yosh avlodimizning aql-zakovati, qobiliyati va talantini ro‘yobga chiqarish, ularni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalashga qaratilgan amaliy sa‘y-harakatlarimizning yana bir yorqin namoyishi sifatida bugun Navoiy shahrida beshinchi bor o‘tkazilayotgan “Umid nihollari” musobaqalarida qat’iyat bilan bel bog‘lab maydonga tushayotgan siz, aziz farzandlarimizning yonib turgan ko‘zlariningiz, g‘ayrat va shijoatingiz barchamizga cheksiz quvonch bag‘ishlab, ertangi kunga bo‘lgan ishonchimizni yanada mustahkamlaydi.

Yurtimizda shakllangan, “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va Universiada o‘yinlarini o‘z ichiga olgan uch bosqichli tizim, ayni mana shunday tadbir va musobaqalar, muxtasar aytganda, mamlakatimizda bolalar sportini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirayotgan ulkan ishlarimiz bugungi kunda dunyo jamoatchiligidagi katta qiziqish va hayrat uyg‘otmoqda, eng muhimi, yoshlarimizning xalqaro maydonlarda yuksak shohsupalarga ko‘tarilishi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bu haqda gapirganda, keyingi yillarda Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan yurtimizda qariyb 1500 ta zamonaviy

sport ob'ekti bunyod etilganini ta'kidlash o'rinnlidir. E'tiborlisi shundaki, bu ishlarning ko'lami va miqyosi kengayib, barcha hudud va mintaqalarimizni, shahar va qishloqlarimizni tobora kengroq qamrab olmoqda.

O'yaymanki, sizlar bo'lg'usi musobaqalar davomida bu fikrga yana bir bor ishonch hosil qilasizlar. Ushbu bellashuvlarni yuksak saviyada o'tkazish uchun Navoiy viloyatida qariyb 56 milliard so'm mablag' sarflanib barpo etilgan, bugun sizlarga o'z eshiklarini ochayotgan muhtasham sport saroylari va majmualari, stadionlar va suzish havzalari, infratuzilma ob'ektlari sizlarning ist'e'dod va mahoratingizni namoyon etishga, kelajakda esa minglab yosh sportchilarni tarbiyalab voyaga yetkazishga xizmat qilishi tabiiydir.

Mamlakatimizda yaratilayotgan ana shunday keng imkoniyatlar tufayli bolalar sporti tom ma'noda umummilliy harakatga aylanib, o'zining dastlabki amaliy natijalarini bermoqda. Buni keyingi to'rt yil mobaynida yurtimizda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar o'rtasida sport bilan muntazam shug'ullanadiganlar soni 29 foizdan qariyb 35 foizga, qizlarimiz o'rtasida esa 24 foizdan 31,5 foizga o'sgani misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Bularning barchasi o'z navbatida bizning ezgu maqsadimiz bo'lmish sog'lom avlod tarbiyasiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Agarki, 2005-yilda yurtimizdagi mutlaq sog'lom bolalar ko'rsatkichi 52 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011-yilda bu raqam qariyb 63 foizga yetgani va bu borada biz rivojlangan davlatlar darajasiga tobora yaqinlashib borayotganimiz albatta barchamizni xursand qiladi.

Qadrli o'g'il-qizlarim!

Bugun boshlanayotgan "Umid nihollari" o'yinlari mamlakatimizdagi millionlab yoshlarni sport bilan tanishtirish, ularni sportga oshno etish, jamiyatimizda sog'lom tur mush tamoyillarini keng qaror toptirishdek oljanob maqsadga qaratilgani bilan ayniqsa e'tiborlidir. Bu musobaqalarning tuman va viloyat bosqichlarida 1 million 600 ming nafarga yaqin mabitab o'quvchisi ishtirok etgani yoshlarimiz o'rtasida sportni yanada ommalashtirishda bu o'yinlarning o'mni va ta'siri ortib borayotganidan dalolat beradi.

Yaqin kunlarda XXX yozgi Olimpiada bellashuvlarida ishtirok etish uchun Buyuk Britaniyaning London shahriga yo'l oladigan aka va opalaringiz katta sport olamiga ilk qadamlarni sizlar qatnashayotgan aynan

mana shunday musobaqalardan boshlagani, o‘ylaymanki, barchangizning kuchingizga kuch, ishonchingizga ishonch qo‘sadi.

Bugun Vatanimiz sharafini himoya qilishga otlanayotgan mohir sportchilarimizga barchamiz omad tilar ekanmiz, sizlar ham ularning izidan borib, jahon maydonlarida O‘zbekistonimiz bayrog‘ini baland ko‘tarasiz, deb ishonamiz.

Aziz farzandlarim!

Sizlarning ishtirokingizdagи keskin bellashuvlarni ming-minglab tengdoshlaringiz, yoru do‘stlaringiz, barcha sport muxlislari qizg‘in olqishlar, ezgu tilaklar bilan kutib oladi.

Bilib qo‘yingki, davlatimiz, jamiyatimiz siz, yoshlarning kamolotingiz, baxtu saodatingiz uchun hech narsani – mablag‘ va imkoniyatni ham, kuch va harakatni ham, eng muhimi, o‘zining qalb saxovati va mehrini aslo ayamaydi.

Barchamizning istagimiz bitta: ana shunday yuksak e’tibor va g‘amxo‘rlikka doimo munosib bo‘lib, mamlakatimiz qo‘lga kiritayotgan yutuqlarga o‘z hissangizni qo‘sish, Vatanimizning jahon miqyosida obro‘-e’tiborini yuksaltirish uchun intilib yashang.

Fursatdan foydalanib, sizlar uchun yangi-yangi sport ob’ektlari barpo etgan, katta hajmdagi bunyodkorlik va obodonchilik ishlarini amalga oshirgan mohir quruvchilar, me’mor va muhandislarga, pudratchi tashkilotlar va mutasaddilarga, butun Navoiy viloyati ahliga, bu oljanob ishga hissa qo‘shegan barcha-barcha insonlarga o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan chuqr minnatdorlik bildiraman.

Ishonaman, bu musobaqalar do‘stlik, o‘zaro hurmat vaadolat ruhida o‘tadi va barchangizning hayotingizda unutilmas sahifa bo‘lib qoladi.

Sizlarni bugungi yoshlik va sport bayrami bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga baxt va omad, kelgusi hayotingizda yangi-yangi yutuqlar tilayman.

XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING NAVBATDAN TASHQARI SESSIYASI

Shu yil 15 iyun kuni Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Sessiyada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov nutq so‘zladи.

Davlatimiz rahbari avvalo mustaqillik yillarda butun yurtimiz qatori Surxon zaminida ham ulkan tarixiy ishlar amalga oshirilgani haqida to‘xtaldi. O‘tgan davr mobaynida O‘zbekistonda, jumladan, Surxondaryo viloyatida ham katta-katta o‘zgarishlar yuz berdi. Taraqqiyotimizning o‘sish sur’atlari tobora oshib boryapti. Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimizda yashayotgan har qaysi oila hayotida ro‘y berayotgan ijobjiy o‘zgarishlar barchamizni quvontirib, oldimizda turgan maqsadlar sari yangi-yangi qadamlar qo‘ymoqdamiz, dedi Yurtboshimiz.

Bir vaqtlar Surxondaryo haqida so‘z yuritganda, o‘zimizga olis va chekka bir hududni tasavvur qilar edik. Bu voha haqida gapirganda, avvalo uning murakkab va keskin iqlimi, afg‘on shamoli, turli qiyinchiliklar haqida so‘z ketar edi.

Haqiqatan ham, eski tuzum davrida Surxon zaminiga bирyoqlama qarash shakllanib, bu mintaqaning taraqqiyoti, uning ulkan yer osti va yer usti boyliklarini o‘zlashtirish masalasi yillar davomida hal etilmasdan kelgani yaxshi ma‘lum.

Bu o‘lkaning betakror, dunyoda kamdan-kam uchraydigan o‘simlik olami va tabiatи borligi, mard va oriyatli, bag‘rikeng insonlar yurti ekani haqida, qadimiy madaniyat va dehqonchilik o‘chog‘i, umumbashariy taraqqiyotga beqiyos hissa qo‘shgan makon ekani haqida juda oz eshitar edik.

Hozirgi kunda viloyat ahli iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, ilmu fan, madaniyat, ta’lim-tarbiya, sport sohalarida erishayotgan yutuqlar haqida g‘ururlanib ko‘p gapirish mumkin. Agarki sport sohasini oladigan bo‘lsak, Surxon zaminida tarbiya topgan, Alpomishning munosib avlodlari bo‘lgan Tos temir Muhammadiyev, Abdulla Tangriyev kabi kuragi yerga tegmagan, dunyoga mashhur polvonlarni kim tan olmaydi?

Sobiq sovet davrida Surxondaryoning markazi Termiz asosan harbiylar va ularning ehtiyoji uchun moslashgan shaharga aylanib, zamon talabidan orqada qolgan edi. O‘tgan yigirma yil mobaynida amalga oshirilgan ishlar

tufayli nafaqat Termiz, balki barcha tuman markazlari va qishloqlarning qiyofasi o‘zgarib, obod bo‘lib borayotgani hammamizga, avvalambor, shu zaminda unib-o‘sib kelayotgan yoshlarga zavq va ertangi kunga ishonch bag‘ishlaydi.

Men 30-40-yildan buyon Surxondaryo hayoti bilan yaqindan tanishman va bugungi o‘zgarishlarni ko‘rganda, ular menga xuddiki qanot bergandek, bir vaqtlar orzu qilgan niyatlarim amalga oshgandek o‘zimni his qilaman, dedi davlatimiz rahbari.

Bu haqda so‘z yuritganda, musulmon olamida yuksak hurmat-e’tiborga sazovor bo‘lgan Hakim Termiziy bobomizning yodgorlik majmuasi har tomonlama obod qilingani, hech shubhasiz, ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash va e’zozlash yo‘lida yana bir ulkan amaliy qadam bo‘lganini ta’kidlash lozim. Shular qatorida keyingi yillarda Termiz shahrida barpo etilgan, 10 ming tomoshabinga mo‘ljallangan stadion, zamonaviy “Baxt uyi” majmuasi, Mehribonlik uyi, “Delfin” suzish havzasasi, Termiz davlat universitetining muhtasham binosi, yangi-yangi maktab, litsey va kollejlar, tibbiyot va madaniyat maskanlari viloyat qiyofasini butunlay o‘zgartirib yubordi.

Ana shunday ko‘plab misollar asosida kechagi kunni bugungi kun bilan solishtiradigan bo‘lsak, kim edigu kim bo‘ldik, degan savolga xolisona javob topishimiz qiyin emas, albatta.

O‘tgan besh yil davomida Surxondaryo viloyatida iqtisodiy o‘sish sur’atlari o‘rtacha 8,7 foizni tashkil etdi. Sanoat sohasida esa oxirgi besh yilda ushbu tarmoqda o‘sish ko‘rsatkichi 124,5 foiz bo‘lganini ta’kidlash lozim.

Qishloq xo‘jaligining ayni shu davrdagi rivojlanish sur’atlarini tahlil qilganda, bu boradagi o‘sish 123 foizni tashkil etganini qayd etish zarur. Qurilish, transport va aloqa tarmoqlari viloyatda keyingi besh yil mobaynida mos ravishda 2,9 va 2 barobar o‘sgani alohida diqqatga molikdir.

Ayniqsa, iqtisodiyotimizning muhim tarmog‘i bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirdorlikning yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi besh yil davomida 63,9 foizdan 73,8 foizga yetgani, bu O‘zbekiston bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich ekaniga majlisda Prezidentimiz tomonidan alohida urg‘u berildi.

Keyingi yillarda bunyod etilgan yirik sanoat korxonalari, ishlab chiqarish va kommunikatsiya inshootlari viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy

taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, 525 milliard so'mlik mablag' sarflanib, "Toshguzar – Boysun – Qumqo'rg'on" temir yo'lining barpo etilgani nafaqat Surxondaryo, balki butun mamlakatimiz, Markaziy Osiyo miqyosida tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan ulkan voqeа ekanini alohida ta'kidlasak, arziydi, albatta.

Viloyat iqtisodiyotiga jalb etilayotgan investitsiyalar haqida gapirganda, oxirgi besh yilda umumiy qiymati 70 milliard 600 million so'mlik 18 ta yirik loyiha amalga oshirilgani e'tiborga sazovordir. Jumladan, katta istiqbolga ega bo'lgan Xonjiza polimetall rudalar konining ishga tushirilishi, paxta xomashyosini qayta ishlashga mo'ljallangan, loyiha qiymati 12 million dollarga teng "Shindong Spinning" korxonasi, viloyatda tayyorlanadigan pilla xomashyosini to'liq qayta ishlash bo'yicha qiymati 1 million 500 ming dollar bo'lgan "Surxon-Termiz-Silk" korxonasi qurilgani va boshqa ko'plab loyihalarning amalga oshirilgani hududning sanoat salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

Sessiyada viloyatdagi yutuqlar bilan birga o'z yechimini kutib turgan, hanuzgacha hal qilinmasdan kelayotgan muammolar haqida ham atroflicha fikr yuritildi.

Hayotning qaysi soha yoki tarmog'i bo'lmasin – bu sanoat yoki qishloq xo'jaligi bo'ladimi, ijtimoiy masalalar bo'ladimi, odamlarni bezovta qilayotgan ayrim noxush holatlar bo'ladimi – ularning barchasini bartaraf etish – bu ham o'zimizga bog'liq. Shu sababli bugungi uchrashuvimizda ko'proq mavjud muammolar haqida birgalashib bosh qotirishimiz, ularni yechish yo'llarini izlashimiz maqsadga muvofiqdir, dedi Islom Karimov.

Bu haqda gapirganda, viloyatda avvalo yengil sanoat tarmog'i rivojlanish o'rniga qoloqlikka yuz tutib, sanoat tarkibida 50,7 foizdan 43,8 foizga tushib qolganini afsus bilan aytishga to'g'ri keladi. Viloyatda ishlab chiqarilayotgan paxta tolasining atigi 6,9 foizi shu yerning o'zida qayta ishlanayotgani albatta talabga javob bermaydi.

Yalpi hududiy mahsulot hajmini aholi jon boshiga hisoblaganda, viloyatning bu boradagi ko'rsatkichlari mamlakat miqyosidagi o'rtacha ko'rsatkichlardan past darajada saqlanib qolayotgani barchamizni, avvalo, viloyat rahbarlari, deputatlar va faollarni o'ylantirishi kerak. Nega deganda, Surxondaryoning boshqa hududlarimizdan ustun jihatni bo'lsa borki, aslo kam joyi yo'q.

Qishloq joylarga sanoatni olib kirish, mahalliylashtirish dasturi asosida

qayta ishslash korxonalari barpo etish, ichki va tashqi bozor uchun raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish borasidagi ishlar ham qoniqarli emas. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy hissasi Termiz shahri, Denov, Sho‘rchi, Sherobod va Jarqo‘rg‘on tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda. Angor, Termiz, Boysun va Oltinsoy tumanlarining umumiy sanoat hajmidagi ulushi esa pastligicha qolmoqda.

Viloyatda hududiy eksport tarkibi asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan iborat bo‘lib, ular yalpi eksportning 92,8 foizini tashkil etadi. Bu o‘z navbatida sanoat korxonalarini rivojlantirish, eksportbop mahsulotlar tayyorlash, tarkibiy o‘zgarishlarni yanada jadallashtirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish masalalari bugungi kunda o‘tkir vazifa bo‘lib qolayotganini yana bir bor tasdiqlab bermoqda.

Joriy yil boshiga qadar viloyatda 27 mingtadan ortiq kichik biznes sub’ekti ro‘yxatga olingan. Lekin ularning 90 foizi amalda faoliyat ko‘rsatmoqda. Qolganlari esa, qog‘ozda bor-u, amalda yo‘q.

Qishloq xo‘jaligi sohasida ham qator kamchiliklar borligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Bizni boqadigan yerning unumdorligini, samaradorligini oshirish har doim qishloq xo‘jaligidan oladigan daromadning asosiy garovi bo‘lib kelganini hammamiz yaxshi tushunamiz, chuqur anglaymiz. Bu haqda ortiqcha gapirishning hojati yo‘q, deb qayd etdi davlatimiz rahbari.

Xalqimizning “Sen yerni boqsang, yer seni boqadi” degan maqolida chuqur ma’no borligi hammamiz uchun yaxshi ayon. Yurtimizda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida 2007-yilda maxsus davlat dasturi qabul qilingan edi. Ta’kidlash joizki, ana shu dastur asosida Surxondaryo viloyatida ham katta ishlar amalga oshirilmoqda. Buni o‘tgan besh yil davomida qariyb 60 milliard so‘mlik mablag‘ hisobidan 63 ta ekskavator va buldozer sotib olinib, 430 kilometrdan ortiq irrigatsiya tarmoqlari qurilgani va rekonstruksiya qilingani, 4 ming kilometrdan ziyod suv tarmoqlari tozalangani ham tasdiqlab turibdi. Shular qatorida Osiyo taraqqiyot banki tomonidan ajratilgan 73 million dollarlik kredit hisobidan “Amu-Zang” kanali irrigatsiya tizimidagi asosiy inshootlar, jumladan, 3 ta nasos stansiyasi rekonstruksiya qilindi. Bunday keng ko‘lamli ishlar natijasida vohada 80 ming hektar maydonning meliorativ holati yaxshilandi va unumdorligi oshirildi.

2011-yil yakunlariga ko‘ra, viloyat bo‘yicha paxtachilikda o‘rtacha hosildorlik 29,2 sentnerni, g‘allachilikda 48,9 sentnerni tashkil etdi. Keyingi uch yilda viloyatda paxta hosildorligi 2-3 sentnerga, g‘alla hosildorligi esa

4-5 sentnerga oshgani albatta ijobiy natija, buni hech kim inkor etolmaydi. Lekin, bu sohada ajratilgan katta-katta mablag‘larni o‘zlashtirish, zamonaviy texnikalarni samarali ishlatish, magistral kollektorlar va ichki zovurlarni tozalash masalasida hali qilinadigan ishlar juda ko‘p ekaniga sessiyada alohida e’tibor qaratildi.

Ayniqsa, suv resurslaridan tejab-tergab, oqilona foydalanish masalasi doimo diqqat markazida bo‘lishi darkorligi ta’kidlandi. Bugungi kunda bir metr kub suvni fermerning dalasiga yetkazib berish mamlakatimiz miqyosida davlatga o‘rtga hisobda 23 so‘mga, Surxondaryo viloyatida esa 30 so‘mga tushmoqda. Agar viloyatga yiliga 3,8 milliard metr kub hajmida suv yetkazib berilayotganini hisobga olsak, buning uchun davlat byudjetidan 115 milliard so‘m mablag‘ sarflanayotgani ayon bo‘ladi. Shunday ekan, suvni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish vaqt keldi, dedi Islom Karimov.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, Surxondaryo viloyatida mexanizatsiyalashtirish masalasi ham dolzarbligicha qolmoqda. Viloyatda keyingi ikki yilda jami 60 milliard so‘mlik yuqori unum bilan ishlaydigan zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari sotib olingan. Joriy yilda yana 30 milliard so‘mlik texnika vositalarini xarid qilish ko‘zda tutilmoxda. Shu bilan birga, viloyatda 15 yildan ortiq vaqt mobaynida ishlatib kelinayotgan eskirgan texnikalar ham mavjud.

Hozirgi kunda bir haydov traktoriga o‘rtacha 260 gektar maydon to‘g‘ri kelmoqda. Natijada yerni shudgorlash ishlarida texnika yetishmasligi sezilmoqda va bu o‘ta muhim agrotexnik tadbirni amalga oshirish muddati cho‘zilib ketmoqda.

Bunday kamchiliklarga barham berish, mavjud texnika parki tarkibini yangilash maqsadida qabul qilingan hukumat qaroriga asosan, qishloq xo‘jaligida resurs tejaydigan texnikalar, yuqori quvvatli traktorlar ishlab chiqarish va ular bilan fermerlarni ta’minlash uchun 2 trillion so‘mdan ortiq mablag‘ ajratildi.

Ana shu qaror talablaridan kelib chiqqan holda, viloyat hokimligi tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda o‘zining hududiy dasturini ishlab chiqishi va unda har bir tuman, fermer xo‘jaliklari uchun texnikalar yetkazib berish yo‘llarini, moliyaviy manbalarni aniq belgilab olishi zarurligi sessiya majlisida muhim vazifa qilib qo‘yildi.

Bugungi kunda Surxondaryo viloyatida 43 ming gektardan ziyod shaxsiy tomorqa maydonlari mavjud bo‘lib, o‘tgan yili ularda 9 ming

tonnadan ortiq kartoshka, 13 ming tonnadan ko‘proq sabzavot va boshqa mahsulotlar yetishtirilgani, ayrim omilkor dehqonlar o‘z tomorqalaridan 30-40 million so‘mga yetkazib daromad olayotgani e’tiborga sazovordir.

Ayni vaqtida viloyatdagি ba’zi tumanlarda bu masalaga yetarlicha ahamiyat berilmayotgani haqida tanqidiy fikrlar bildirildi.

Mamlakatimiz oldida turgan ulkan vazifalarni ado etish, qishloq xo‘jaligi sohasini zamon talablari asosida rivojlantirish borasidagi eng muhim masalalardan biri – bu fermer xo‘jaliklarining samaradorligini oshirish bilan bevosa bog‘liqdir. Bu haqda gapirganda, shuni aytish joizki, bugungi kunda Surxondaryo viloyatida 4 ming 800 tadan ziyyod fermer xo‘jaligi mavjud bo‘lib, ularning 2 ming 490 tasi paxta va g‘allachilikka ixtisoslashgan.

Hozirgi kunda fermerlik harakati qishloqda yashayotgan odamlarni, O‘zbekiston sharoitida 50 foizga yaqin aholini ish bilan ta’minalash, yuqori daromad olish, eng muhimi, sanoatimizni xomashyo bilan, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minalashda yetakchi o‘rin egallab kelmoqda.

Fermerlik harakati nafaqat qishloq xo‘jaligi sohasi rivojiga, balki butun iqtisodiyotimizning jadal taraqqiy topishiga, mamlakatimizning qo‘lga kiritgan yutuqlariga, xalqimizning hayot darajasini oshirishga beqiyos hissa qo‘shgani haqida biz ko‘p gapiramiz. Hayotning o‘zi oxirgi o‘n-o‘n besh yil davomida buning uchun yetarli dalil va asoslar bermoqda.

Shuni ta’kidlab aytmoqchiman – O‘zbekistonda bu harakatni yanada rivojlantirish, uni yangi bosqichga ko‘tarish, qudratli bir ijtimoiy kuchga aylantirish yo‘lida davlatimiz va shaxsan o‘zim Prezident sifatida fermerlik harakatini bundan buyon ham qo‘llab-quvvatlashga tayyorman. Kimki fermerlik harakatiga qarshi chiqadigan bo‘lsa, bu Prezident siyosatiga qarshi chiqish bilan barobar, degan so‘zlarimni bugun takroran aytmoqchiman, dedi Islom Karimov. Lekin, fermerlik harakatiga bunday munosabat fermer xo‘jaligini yuritish, uning samaradorligini oshirishga doir barcha sir-asrorlarni chuqur o‘zlashtirdik, deb aytishga asos bermasligi kerak.

Hozirgi vaqtida shu masala ustida ko‘p ishlab, Germaniya, Gollandiya, Polsha kabi davlatlarga mutaxassis va fermerlarni jo‘natib, ularning tajribasini o‘rganish orqali fermerlik harakatining samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha bugun zamonning o‘zi talab qilayotgan dastur tayyorlamoqdamiz.

Fermerlik sohasida biz hozirgacha faqat 10-15 yillik tajribaga egamiz. Vaholanki, fermerlik harakati butun dunyoda necha yuz yillik tarixga ega. Biz ularning tajribasini, yutuqlarini o'rganib, o'zimizda joriy etishimiz kerak. Lekin bu borada o'z oldimizga shunday maqsad qo'yishimiz kerakki, ertaga o'quvchi emas, o'qituvchi bo'lib ish olib borishimiz zarur.

Sessiyada viloyatda aholining talab va ehtiyojlarini qondirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar atroflicha tahlil etildi.

Surxon vohasida bugungi kunda 2 million 220 mingga yaqin kishi istiqomat qilmoqda. Aholi jon boshiga o'rtacha daromad ko'rsatkichi viloyatda respublikaning o'rtacha ko'rsatkichidan ancha orqada qolayotganini tan olish kerak va bunday holatni o'zgartirish haqida hammamiz bosh qotirishimiz lozim, dedi davlatimiz rahbari ijtimoiy sohadagi islohotlar haqida to'xtalar ekan.

Viloyatda yangi ish o'rnlari tashkil etish borasida qabul qilingan dasturga muvofiq, 2011-yilda 65 mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratilgan. Ularning 73 foizdan ortig'i kichik biznes sohasiga to'g'ri keladi. Ayni vaqtida, 2011-yil yakuni bo'yicha, viloyatda doimiy ish bilan band bo'lмаган аҳоли сони 46 ming nafarni tashkil etmoqda. Ba'zi tumanlarda ishsizlik darajasi nisbatan yuqori bo'lib qolayotgani haqida tanqidiy fikrlar bildirildi. Bu masalani yechish yo'llaridan biri sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada kuchaytirish, fermer xo'jaliklari paxtachilik, g'allachilik yoki bog'dorchilik bilan cheklanib qolmasdan, o'zi yetishtirgan mahsulotni sanoat asosida qayta ishslash, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish, qurilish va ta'mirlash ishlarini amalga oshiradigan brigadalarni tashkil qilish, ta'minot masalalarini yo'lga qo'yish kabi faoliyat turlari bilan ham shug'ullanishi zarurligiga e'tibor qaratildi.

Ma'lumki, bundan uch yil oldin mamlakatimizda qishloq aholisining tur mush madaniyatini oshirish, uning yashash sharoitini shahar sharoitiga yaqinlashtirish maqsadida muhim davlat dasturi qabul qilingan edi. Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida zamonaviy yangi uy-joylar qurishga qaratilgan bu dastur xalqimiz tomonidan keng qo'llab-quvvatlandi.

Bu uylarning loyihalari ustida juda ko'p ishlab, turli variantlarni quruvchi va mutaxassislar, jamoatchilik vakillari ishtirokida keng muhokama qildik. Bildirilgan tanqidiy fikr-mulohazalar asosida eng ma'qul loyihalar qabul qilindi, dedi davlatimiz rahbari.

Qishloq ahlining talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, bunday uy-

joylar uchun ajratilayotgan yer uchastkalarining hajmi 4 sotixdan 6 sotixga kengaytirilgani, xalqimizning turmush tarzi va an'analarini hisobga olib, qo'shimcha qulayliklar yaratilgani ham ko'pchilik uchun ayni muddao bo'ldi.

Bu borada Surxondaryo viloyatida ham katta ishlar amalga oshirilmoqda. 2009-2011-yillarda qariyb 95,5 milliard so'm mablag' hisobidan yangi uy-joylar barpo etilib, 1 ming 400 ga yaqin oila yangi uylargaga ko'chib kirgani buning tasdig'i idir.

Ta'kidlash kerakki, bunday zamonaviy uy-joy massivlari qishloqlarimizning me'moriy qiyo fasini tubdan o'zgartirish, odamlarning turmush madaniyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, kommunal korxonalar va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan 60 kilometrlik gaz, 72 kilometrlik elektr, qariyb 68 kilometrlik suv tarmoqlari barpo etilgani, 20 kilometrdan ortiq yo'l qurilishi amalga oshirilganini qayd etish lozim.

Hozirgi vaqtida ushbu dastur talablari qanday bajarilayotgani ayrim viloyatlarda tegishli nazorat tashkilotlari tomonidan jiddiy o'rganilmoqda. Surxondaryo viloyati rahbarlari va mutasaddilarini ham ogohlantirib aytmoqchiman, bilib qo'yinglar, bu borada so'rov qattiq bo'ladi, deb uqtirib o'tdi Prezidentimiz.

Sessiya majlisida biz uchun o'ta muhim, aytish mumkinki, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lган yana bir masala – umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini akademik litsey va kasb-hunar kollejlariiga qamrab olish borasidagi ishlarning ahvoli haqida ham so'z yuritildi.

Bu yil Surxondaryo viloyati bo'yicha 47 ming 446 nafar bola maktabni bitirmoqda. Ularning 1770 nafari akademik litseylarda, 45 ming 676 nafari esa kasb-hunar kollejlarda o'qishni davom ettirishi ko'zda tutilmoqda.

Bu haqda gapirganda, ayrim ota-onalar o'rtasida o'z farzandlari, ayniqsa, qiz bolalarga nisbatan maktabni bitirgandan keyin o'qish shart emas, turmush qurishni o'ylash kerak, degan eskicha qarashlar hali-beri uchrab turishini afsus bilan aytib o'tishga to'g'ri keladi. Vaholanki, kollejda o'qib, aniq kasb-hunar egasi bo'lish birinchi navbatda qiz bola uchun zarur. Qo'lida hunari bor qiz bola ertaga birovga qaram bo'lib qolmaydi, o'z mehnati, bilim va iste'dodi bilan oilasini tebratishga, farzandlarini barkamol inson etib tarbiyalashga hissa qo'shadi. Bu o'z navbatida yosh oilani moddiy va ma'naviy jihatdan mustahkamlashda qanday muhim ahamiyatga ega ekanini kimgadir isbotlab berishning hojati

yo‘q.

Bu haqiqatni biz – ota-onalar churqur tushunib, anglab, farzandlarimizning bilim olishi, zamonaviy kasb-hunar egallashi uchun hamma sharoitni yaratib berishimiz kerak. Bu bizning bolalarimiz oldidagi muqaddas burchimizdir. Aks holda, ularning kelajagiga xiyonat qilgan bo‘lamiz, dedi Islom Karimov.

Bu masalalar haqida gapirganda, hammamiz yaxshi tushunib olishimizni istardim – bu yilga yurtimizda “Mustahkam oila yili” deb nom berganimiz, albatta, bejiz emas. Mustahkam oila deganda, biz avvalo baxtli oilani, o‘z murod-maqsadiga yetadigan oilani tushunamiz, deb o‘z so‘zini davom ettirdi davlatimiz rahbari.

Ayni paytda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta’minlashdek muhim masalada yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar atroflicha tahsil qilindi.

Yodingizda bo‘lsa, o‘tgan yil yakunlariga bag‘ishlangan majlisda men bu mavzuga alohida to‘xtalib, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlarini, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarini bu boradagi ishlar qanday yo‘lga qo‘yilganiga qarab ularning faoliyatiga baho berilishi haqida ogohlantirgan edim, binobarin, bu masala bo‘yicha barcha mas’ul mutasaddilar tegishli xulosa qilishlari zarur, dedi Islom Karimov.

Biz o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak va ezgu maqsadga yetish, ya’ni rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin egallashimiz uchun avvalo juda tez o‘zgarib borayotgan zamon bilan hamnafas bo‘lib yashashimiz lozim. Bugun har qachongidan ham murakkab va keskin bo‘lib borayotgan hayotning o‘zi oldimizga ulkan va o‘ta mas’uliyatlari vazifalarni qo‘ymoqda. Nafaqat bugungi hayot bilan hamqadam bo‘lib yashash, balki ertaga yo‘limizda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan turli muammo va tahdidlarni bartaraf etish haqida hozirdan o‘ylab yashashimizni davrning o‘zi talab qilmoqda.

Mana shunday sharoitda el-yurtmi birlashtirib, kerak bo‘lganda mehr ko‘rsatib, kerak bo‘lganda qattiqqa‘l bo‘lib, avvalo davlat va jamiyat manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yib ishslashga qodir bo‘lgan rahbarga ko‘pnarsa bog‘liq ekanini tushunish, anglash qiyin emas.

Ko‘pni ko‘rgan, dono xalqimiz o‘z mehnati, oqilona rahbarligi, insoniy fazilatlari bilan hayotda iz qoldirgan yetakchilarni doimo hurmat bilan eslaydi. Shu bilan birga, o‘z lavozimiga loyiq bo‘lmagan, o‘ziga bildirilgan yuksak ishonchni oqlamagan odamlarni ham esidan chiqarmaydi.

Xalqimizning “Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘ qoladi” degan chuqur ma’noli maqoli bejiz aytilmagan. Men bu so‘zlarni el-yurtimiz oldida, avvalo, yoshlarimiz oldida takror va takror aytishni o‘rinli deb bilaman.

Aytish kerakki, kechagi zamonda rahbarlarga nisbatan talab boshqacha edi, bugun esa butunlay boshqacha. Bugun rahbarlik vazifasida o‘tirgan har qaysi odam o‘z mas’uliyatini o‘n karra, yuz karra ko‘proq sezishi darkor.

Rahbar boshqalarga talab qo‘yadigan bo‘lsa, savol tug‘iladi: xo‘p, og‘ayni, bu masalani boshqa tomondan ko‘raylik, ya’ni, siz o‘zingiz shu talablarga loyiqmisiz? Har bir rahbar bu savolni avvalo o‘ziga berib, unga javob topishi kerak.

Boshqalardan halollik, poklikni, adolatli bo‘lish, oshnaroq‘aynigarchilik, mahalliychilikka berilmaslikni talab qilish haqida ko‘p gapirish mumkin. Lekin odamlar hamma narsani, ya’ni, kim bu talablarga vijdon amri bilan, amaliy ishlar bilan javob berayotganini, kim esa xo‘jako‘rsin ishlar bilan, “kun o‘tsa – bas” deb yurganini juda yaxshi biladi, yaxshi sezadi.

Har qaysi rahbar bu masalani chuqur tushunib yetishi, avvalo nafs balosiga berilib ketmasligi, odamlarni mensimasdan, oyog‘i yerdan uzilmasligi lozim. Shundagina u el-yurt ishonchini qozonishi, xalqni yuksak maqsadlar sari safarbar eta olishi mumkin.

Sessiyada tashkiliy masala ko‘rildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tavsiyasiga ko‘ra, 2011-yil dekabr oyidan buyon Surxondaryo viloyati hokimi vazifasini bajarib kelayotgan Normo‘min Omonovich Choriyev viloyat hokimi etib saylandi.

Oldimizda turgan yuksak marralarga erishish uchun hammamiz hamjihat bo‘lib, belni mahkam bog‘lab mehnat qilishimiz, yurtimizda o‘zaro hurmat, mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash uchun bir tanu bir jon bo‘lib yashashimiz lozim. Bugun o‘zbek xalqining zamoni keldi, O‘zbekistonning zamoni keldi, marrani baland qo‘yib yashaylik, shundagina ertangi kun, kelajak bizniki bo‘ladi, dedi Prezident Islom Karimov.

Sessiyada “Nuroniy” jamg‘armasi Angor tumani bo‘limi raisi Xushboq Tangriyev, Sariosiyo tumanidagi “Nurali-Karim” fermer xo‘jaligi rahbari Abdurakim Karimov, Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi Nasiba Begamova, Muzrabot tumanidagi “Muzrabottekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyatni rahbari Elmurod Jumayev, Termiz davlat universiteti

talabasi Nigora Normurodova, “Nuroniy” jamg‘armasi viloyat bo‘limi raisi Orziqul Soatoval va boshqalar so‘zga chiqib, Prezidentimiz nutqida Surxondaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlari har tomonlama chuqur tahlil etilib, kelgusidagi dolzarb vazifalar aniq belgilab berilganini, voha ahli bildirilgan tanqidiy gaplar va amaliy fikrlardan to‘g‘ri xulosa chiqarib, islohotlar samarasini yuksaltirish, barcha soha va tarmoqlar bo‘yicha qabul qilingan dasturlarni izchil amalga oshirish uchun astoydil mehnat qiladi, deb ta’kidladilar.

Prezidentimiz Islom Karimov shu kuni Termiz tumanidagi “Surxon sarvari” fermer xo‘jaligi dalalariga tashrif buyurib, fermerlar bilan muloqotda bo‘ldi. G‘alla o‘rim-yig‘imining borishi bilan qiziqdi.

Abduzoyir Abduqodirov rahbarlik qilayotgan mazkur fermer xo‘jaligi 147 hektar yer maydoniga ega. Xo‘jalik a‘zolari bu yil 76 hektar maydonda g‘o‘za parvarishlamoqda. 71 hektar maydondagi g‘allazorda mo‘l hosil yetishtirildi. Davlatga paxta va g‘alla sotish shartnoma majburiyatlarini muntazam bajarib kelayotgan xo‘jalikda hosildorlik yildan-yilga oshib bormoqda.

– G‘allachilikda iyun oyi muhim palla, mirishkorlarimiz uchun sinov oyi hisoblanadi, – dedi mamlakatimiz rahbari. – Bu yil g‘allachilik uchun qulay yil bo‘ldi. G‘allakorlarimiz mo‘ljaldagi hosilni to‘pladi. Galdagi muhim vazifa yetishtirilgan hosilni nest-nobud qilmasdan, o‘z vaqtida yig‘ishtirib olishdan iborat.

Buning uchun viloyatda barcha imkoniyatlар yetarli. Hosil yig‘ib olingan maydonlar somoni maxsus texnika yordamida presslanib, yer peshma-pesh shudgor qilinmoqda.

Davlatimiz rahbari mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda fermerlik harakatining ahamiyati katta ekanini alohida ta’kidladi.

– Faqat dehqonchilikning o‘zi bilangina xalqni boqib, farovonlikka erishib bo‘lmaydi, – dedi Prezidentimiz. – Fermer nafaqat dehqon, balki iqtisodchi, menejer, agronom, sanoatchi bo‘lishi kerak. Fermer o‘zi yetishtirgan mahsulotni o‘zi qayta ishlashi, shu orqali qishloqqa sanoatni jadal olib kirishi lozim. Ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishi, xizmat ko‘rsatish va servis sohasini yo‘lga qo‘yishi, aholi farovonligini oshirishga, yoshlarni ish bilan ta’minlashga faol hissa qo‘shishi lozim.

Davlatimiz rahbari yerlarning meliorativ holatini yaxshilash,

g‘o‘zaning serhosil navlarini tanlash, hosildorlikni oshirish haqida to‘xtalar ekan, bugun dehqonchilikni rentabellik darajasi bilan o‘lhash eng to‘g‘ri yo‘l ekanini ta’kidladi. Paxtaning rentabelligi baland bo‘lmasa, dehqonning shashti qaytadi, ishga qiziqishi so‘nadi.

Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tubdan isloh qilinib, zamonaviy qurol-yarog‘ va texnikaga ega, professional harbiy mutaxassislar bilan ta’minlangan milliy armiyamiz shakllandi. Harbiy xizmatga har tomonlama barkamol, chuqur bilimga ega, yuksak salohiyatl yoshlar saralab olimmoqda. Mamlakatimiz xavfsizligi va sarhadlarimiz daxlsizligini ta’minalashga yoshamizda qiziqish hissi, mas’ullik tuyg‘usi baland. Serjantlar milliy armiyamizning eng ishonchli tayanchi va suyanchiga aylandi. Harbiylarni mustahkam ijtimoiy himoya qilish tizimi yaratilib, barcha qulayliklarga ega zamonaviy va shinam uyyoy bilan ta’minalash yo‘lga qo‘yildi. Bularning barchasi mamlakatimiz mustaqilligi, xavfsizligi va hududiy yaxlitligi, chegaralarimiz daxlsizligini ta’minalash, tinchlik va osoyishtaligimiz kafolati – milliy armiyamizni takomillashtirishga xizmat qilayotir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Milliy xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlariga qarashli harbiy qismga tashrif buyurib, ofitser va askarlar bilan muloqotda bo‘ldi. Xizmat jarayoni, harbiylarning yashash va oilaviy sharoiti bilan qiziqlidi.

– Qurolli Kuchlarimiz safida xizmat qilayotgan harbiylar O‘zbekistonning faxri, ishonchi va suyanchidir, – dedi Prezidentimiz. – Ular har doim Vatanimiz himoyasiga shay. Ularning doimo hushyor va sezgirligi tufayli sarhadlarimiz daxlsiz, yurtimiz tinch, xalqimiz osoyishta hayot kechirmoqda. Harbiylarning ham o‘z hayoti, oilasi, quvonchu tashvishlari bor. Ular uchun munosib shart-sharoit yaratib berish doimiy e’tiborimizda bo‘lishi lozim.

Xalqimiz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan yangilanishlar, barcha sohalarda qo‘lga kiritayotgan betimsol yutuqlarimiz, erishayotgan marralarimiz, bunyodkorlik ishlarimiz, turmushimiz farovonligi istiqlol tufayli ekanini teran anglaydi. Surxondaryo viloyatida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, odamlar ongu shuuridagi, tafakkuridagi o‘zgarishlar ham bu haqiqatni yaqqol tasdiqlab turibdi.

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIGA

Qadrli do'stlar!

Siz, hurmatli jurnalistlarni, nashriyot va matbaa, radio va televide niye vakillarini, muhtaram faxriyalarimizni 27 iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan chin qalbimdan tabriklab, barchangizga ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Bugun biz yashayotgan, globallashuv va Internet asri deb nom olgan davrda taraqqiyotni, hayotimizni zamonaviy axborot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, televide niye va ommaviy axborot vositalaridan, siz aziz jurnalistlar faoliyatidan ayri holda tasavvur etib bo'lmasligini hammamiz yaxshi anglaymiz va sizlarning o'ta mashaqqatli, shu bilan birga, sharaflı mehnatingizni yuksak qadrlaymiz.

Haqiqatan ham, shiddat bilan o'zgarib borayotgan hozirgi zamonda ommaviy axborot vositalarining faoliyat ko'lami, inson va jamiyat hayotiga ta'siri misli ko'rilmagan darajada kuchayib bormoqda. Bugungi kunda axborot nafaqat ma'lumot yetkazish, odamlarni yangilik va o'zgarishlar bilan tanishtirish vositasi bo'lib xizmat qilmoqda, ayni vaqtida axborot va kommunikatsiya tarmog'i amalda ishlab chiqarishning yetakchi yo'nalishlaridan biriga, moddiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarning rivoji va o'sishiga hal qiluvchi asos va turtki beradigan, tez rivojlanayotgan eng zamonaviy sohaga aylanib borayotganiga barchamiz guvoh bo'lmoqdamiz.

Bu haqda fikr yuritganda, yurtimizda yangi jamiyat, yangi hayot qurish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish sur'atlarini kuchaytirish, iqtisodiyotimiz samaradorligini oshirish yo'lida to'siq bo'lib turgan muammolarni yechish, ichki va tashqi siyosatni olib borish bo'yicha to'g'ri yo'lni tanlashda matbuot sohasining qo'shayotgan hissasini tan olib, uning roli, ahamiyati va mohiyati haqida ko'p gapirish mumkin.

Lekin shular qatorida yana bir masala borki, bu haqda alohida to'xtalib o'tishni istardim. U ham bo'lsa, erkin va obod hayot barpo etish yo'lida asosiy kuch bo'lmish xalqimiz, eng avvalo, yoshlarimizning ma'naviy olamini shakllantirishda, odamlarimizning hayotga, mehnatga munosabatini o'zgartirishda, ularni mustaqil fikrplash, ongli yashash ruhida tarbiyalashda, bizning rivojlanishimizga xalaqit berayotgan eski qolip va

qarashlardan xalos bo‘lishda, bir so‘z bilan aytganda, doimo sezgir va ogoh bo‘lib yashash, bugungi va ertangi kun talablari bilan hamqadam borish, o‘z ona yurtiga bo‘lgan mehri va sadoqatini mustahkamlashda – o‘zini haqiqiy inson degan har qanday kishiga mansub ayni shunday oljanob fazilatlarni kamol toptirishda ommaviy axborot vositalari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan mehnatchilarining ulkan xizmati borligini katta minnatdorlik bilan ta‘kidlab aytishni o‘zimning burchim deb bilaman.

Biz mustaqillikka erishgan birinchi kunlardan boshlab, mamlakatimizda matbuot va ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirayotgan keng ko‘lamli ishlarimiz bugungi kunda o‘zining hosili va samarasini berayotgani barchamizga mammuniyat bag‘ishlaydi.

Yurtimizda faoliyat ko‘rsatayotgan ommaviy axborot vositalarining miqdor va sifat darajasi tubdan o‘zgarib, ularning umumiy soni 1 ming 250 dan oshib ketgani, raqamli va mobil televideniye, internet-televideniye, internet-radio kabi zamonaviy axborot tarmoqlarining ulushi va ta’siri tobora ortib borayotgani ayniqsa e’tiborlidir.

Xususan, eng tezkor va ta’sirchan axborot vositasi bo‘lmish Internet jurnalistikasiga, uni har jihatdan chuqur egallashga bo‘lgan intilishning tobora kuchayib borayotgani milliy matbuotimizning xalqaro media maydonda o‘z munosib o‘rnini topishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘tgan davr mobaynida O‘zbekistonda nodavlat ommaviy axborot vositalarining keng tarmog‘i shakllanib, samarali faoliyat olib borayotgani jamiyatimizda fikr va qarashlar rang-barangligini, o‘zaro ijodiy musobaqa muhitini ta‘minlashga katta hissa qo‘shmoqda. Buni mavjud tele va radiokanalarning 66 foizini, bosma nashrlarning esa 50 foizdan ziyodini ayanan nodavlat ommaviy axborot vositalari tashkil etishi ham tasdiqlaydi.

Bizning eng yuksak maqsadimiz bo‘lmish taraqqiy topgan zamonaviy demokratik davlatlar qatoridan joy olish yo‘lida ommaviy axborot vositalari faoliyatining samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish, matbuotning tom ma’noda mustaqilligiga erishish, buning uchun avvalambor ularning moliyaviy mustaqilligini ta‘minlash va barqaror rivojlanishi uchun zarur manbalarga ega bo‘lishi bilan bog‘liq masalalarni yechish hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida

bayon qilingan fikr va g'oyalar asosida izchil amalga oshirilayotgan ishlardan, o'ylaymanki, sizlar yaxshi xabardorsiz.

Bu haqda so'z yuritganda, mazkur konsepsiya negizida "Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida", "Teleradioeshittirishlar to'g'risida", "Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari to'g'risida", "Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kafolatlari to'g'risida" va boshqa bir qator qonun loyihalarini siz, matbuot vakillarining faol ishtirokida tayyorlash va qabul qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni alohida ta'kidlash lozim.

Shular qatorida matbuot va ommaviy axborot vositalari, nashriyot, matbaa korxonalari va matbuot tarqatuvchi tashkilotlar uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari va afzalliklar berish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha qabul qilingan Prezident qarori ommaviy axborot vositalarining faoliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qilishi tabiiydir.

Ayni vaqtida barchamizga yaxshi ayonki, bugungi kunda tez o'zgarib, murakkablashib borayotgan zamonning o'zi, tobora kuchayib borayotgan turli tahdid va xatarlar ommaviy axborot vositalari oldiga o'tkir va mas'uliyatli talablarni qo'ymoqda.

Albatta, har qanday yangilanish, o'zgarish, shu jumladan, axborot sohasida ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Hayotimizni, iqtisodiyotimizni boshqarish tizimi, mamlakatimizning taraqqiyoti, uning o'sish sur'atlari va samarasini oshirish, barqarorligini ta'minlash kundalik og'ir va mashaqqatli mehnat evaziga qo'lga kiritilishini hammamiz yaxshi tushunamiz.

Shu nuqtai nazardan ommaviy axborot vositalari va bu sohada xizmat qilayotgan xodimlar oldida turgan eng muhim vazifalarni baholar ekanmiz:

birinchidan, doimo izlanish, qo'lga kiritilgan yutuqlarga berilmasdan, ularga mahliyo bo'lmasdan, maqtanmasdan, kimnidir ulug'lash yo'lliga o'tmasdan, avvalambor, marrani baland qo'yib, hayot voqeligini haqqoniy va xolis aks ettirish talab qilinadi;

ikkinchidan, hammamizga ayonki, o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan marralarga erishish uchun journalist o'zini ayamasdan, professional bilim va saviyasini, mahorat va tajribasini oshirish uchun o'z ustida tinimsiz ishlashi, mehnat qilishi, turli sinovlardan munosib o'tishi zarur;

uchinchidan, bunday yuksak darajaga ko'tarilish uchun bu kasbni tanlagan har qaysi insonga mardlik, fidoiylik va jasorat kerak, desam, ayni

haqiqatni aytgan bo‘laman;

to‘rtinchidan, o‘z kasbiga sadoqatli bo‘lish, uni sevish, avvalambor, eskicha qarash va alomatlardan voz kechish uchun jurnalist boshqalarga nisbatan oldingi safda bo‘lishi, o‘z hayotiy prinsiplaridan qaytmasdan, vijdon amri bilan yashashi lozim.

Bu haqda gapirganda, bir taklifni sizlar bilan o‘rtoqlashishni joiz, deb bilaman. Matbuot so‘zining ta’sirchanligini oshirish, eng muhim chiqishlarga jamoatchilik e’tiborini qaratish uchun birinchi navbatda samarali faoliyat ko‘rsatadigan aniq tizim tashkil qilish kerak, deb o‘yayman. Bu borada O‘zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi har chorak yakuni bo‘yicha ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan eng dolzarb, eng o‘tkir materiallarni alohida qayd etib, baholab, bu haqda matbuotda xabar berib borsa, mening nazarimda, ayni muddao bo‘lar edi.

Bunda ayniqsa tahliliy va tanqidiy chiqishlarga alohida ahamiyat berish o‘rinlidir. Bunday munosabat, o‘yaymanki, jurnalistlarning og‘ir mehnatini e’tirof etish va qadrlashda katta rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, ayni shu materiallarda o‘rtaga qo‘yilgan muammolarni yechish uchun jamoatchilik e’tiborini jalb qilishga ham muhim hissa qo‘sadi.

Aytish kerakki, odatda gazeta-jurnallarimizda, teleradiokanallarimizda ko‘pchilikni o‘ylantirayotgan dolzarb mavzular ko‘tariladi, lekin ularga nisbatan davlat va hokimiyat vazifalarida o‘tirganlar, jamoatchilik vakillari tomonidan yetarlicha ahamiyat berilmasligi tufayli ular ko‘pincha e’tibordan chetda qolib ketadi. Bunday holat, masalaga panja orasidan qarash, avvalo, shu maqola va ko‘rsatuvni yuragidan o‘tkazib, katta mehnat bilan tayyorlagan jurnalist va mualliflarning ijodiy izlanishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatib, qo‘lini ishdan sovutib qo‘yadi. Eng yomoni, bu chiqishlarda ko‘tarilgan masala va muammolar bunday beparvolik natijasida eski holida o‘zgarmasdan qolishi iqtisodiyotimiz va hayotimizga katta zarar yetkazishi muqarrar.

Ta’kidlash lozimki, ommaviy axborot vositalarining samaradorligini kuchaytirishni ko‘zda tutadigan bunday tajribani joriy etishni, shu asosda matbuot orqali tanqidga uchragan tashkilot va korxonalar, mansabдор shaxslarning o‘z ishiga xolisona ko‘z bilan qarab, mavjud ahvolni tuzatishga harakat qilishini bugun hayotning o‘zi kun tartibiga qat’iy qilib qo‘ymoqda.

Bu o‘z navbatida matbuot va ommaviy axborot vositalarining, jurnalist ahlining ijtimoiy hayotimizda, jamoatchilik o‘rtasida hurmat-e’tibori, ayni

paytda mas'uliyati ham ortishiga xizmat qilishi shubhasizdir.

Bugungi kunda butun dunyo O'zbekiston erishgan ulkan yutuq va natijalarni tan olayotgan, e'tirof etayotgan bir paytda biz ommaviy axborot vositalari sohasida ham boshqalardan kam bo'lmasdan, ana shunday yuksak marralarni egallashga albatta qodirmiz, desam, o'ylaymanki, siz, azizlarning fikringizni ifoda etgan bo'laman.

Shu yo'lida doimo intilib, izlanib yashaydigan jurnalistlarni men hamisha qo'llab-quvvatlashga, kerak paytda yordam va ko'mak berishga tayyor ekanimni, ularni o'zimning eng yaqin hamfikr va maslakdoshlarim, deb bilishimni izhor etmoqchiman.

Bugungi xursandchilik kunda sizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor samimiy qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, ijodiy kamolot tilayman.

O'ZBEKISTON G'ALLAKORLARIGA

Qadrli do'stlar!

Avvalo, siz, aziz dehqon va fermerlarimizni, barcha dala mehnatkashlarini mamlakatimiz qishloq xo'jaligi tarixida yangi sahifa bo'l mish 7 million 170 ming tonnalik ulkan g'alla xirmoni bunyod etib, yuksak mehnat g'alabasini qo'lga kiritganingiz bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Dunyoda non degan shunday tengsiz va buyuk bir boylik, ulug' va tabarruk bir ne'mat borki, uning bahosi, qadr-qimmatini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi.

Azal-azaldan to'qchilik, avvalo ko'zning, ko'ngilning to'qligi, dasturxon to'kinligi, ro'zg'orning qut-barakasi bug'doyning, nonning serobligi bilan belgilab kelinadi, desak, hayotiy haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Er yuzidagi barcha xalqlar va mamlakatlar o'zining farovonligi, osoyishta va bexatar hayotini, ezgu orzu-niyatlarini birinchi navbatda shu aziz ne'mat timsolida tasavvur qilishi bejiz emas, albatta.

Muhtaram yurtdoshlar!

Olijanob, zahmatkash dehqonlarimiz tom ma'noda ulkan zafarni qo'lga kiritgan mana shunday xursandchilik kunda, tabiiyki, o'z donimiz, o'z beminnat nonimizga ega bo'lish maqsadida bosib o'tgan mashaqqatli va sharafli yo'limizni yana bir bor beixtiyor xayolimizdan o'tkazamiz.

Hech kimga sir emas, yaqin o'tmishda o'lkamiz o'z ehtiyojini qondirish uchun kimlargadir yalinib, katta-katta mablag'lar evaziga donni chetdan keltirishga majbur edi.

Biz mustaqillikka erishganimizdan keyin bunday nomaqbul holatga butunlay barham berish, yurtimizda paxta yakkahokimligiga chek qo'yib, g'allachilik tarmog'ini zamонавиј asosda rivojlantirishni o'z oldimizga ustuvor, hal qiluvchi vazifa qilib qo'yidik.

O'tgan qisqa davr mobaynida Vatanimiz g'alla mustaqilligini qo'lga kiritib, nafaqat o'ttiz millionli xalqimiz ehtiyojini to'la ta'minlash, ayni paytda chetga don eksport qiladigan davlatlar qatoridan joy olishga erishgani uchun, shunday yorug' kunlarga yetkazgani uchun barchamiz Yaratganimizga shukronalar aytishimiz tabiiydir.

Mustaqillik yillarda aynan g'allachilik sohasida erishgan yutuqlarimizni ba'zi bir raqamlar misolida o'zimizga tasavvur qiladigan

bo‘lsak, haqiqatan ham, biz erishgan natijalar dunyodagi manaman degan davlatlarning ham havasini tortishi shubhasiz, deb o‘layman. Agarki 1991-yilda respublikamizda jami 940 ming tonna g‘alla yetishtirilib, o‘rtacha hosildorlik 17 sentnerni tashkil etgan bo‘lsa, joriy yilda jamg‘arilgan g‘alla xirmoni 7 barobardan ziyod, hosildorlik esa 3 karra oshganining o‘zi bizning qiyoslash ham qiyin bo‘lgan qanday yuksak marralarga erishganimizni yaqqol tasdiqlaydi.

Bugun ko‘pchilikning e’tirofiga sazovor bo‘layotgan ana shunday yuksak marralarga qanday omil va mezonlar hisobidan erishayotganimizni tahlil qilar ekanmiz, yurtimizda yashaydigan, non degan beba ho ne’matdan har kuni bahramand bo‘ladigan har qaysi inson bu haqda xabardor bo‘lishini istardim.

Afsuski, biz ko‘pincha kundalik yumushlar bilan band bo‘lib, qo‘lga kiritgan natijalarimizni xuddiki o‘z-o‘zidan bo‘lgan tabiiy bir hol, deb qarashga o‘rganib qolganmiz.

Aslida esa bunday yutuqlarimiz zamirida avvalo dehqon va fermerlarimiz, mexanizatorlarimizning mashaqqatli mehnati va fidoiyligi, seleksioner va olimlarimizning bilim va tajribasi, barcha qishloq xo‘jaligi mutaxassislarining necha yillar davomida yagona bir maqsad yo‘lida qat‘iyat va safarbarlik namunasini ko‘rsatib qilgan xizmatlari, tashabbuskorlik va izlanuvchanlik fazilatlari mujassam bo‘lib, buning uchun ularga har qancha tasannolar aystsak, arziydi albatta.

Birgina seleksiya sohasini oladigan bo‘lsak, yangi g‘alla navlarini yetishtirish, ularni yurtimizning tuproq, iqlim va suv sharoitiga moslashtirish, turli kasalliklarga chidamlilik xususiyatlarini oshirish uchun qancha sabr-toqat, qancha bilim va mahorat, o‘z ishining natijasiga qanday katta ishonch bo‘lishi kerak.

Ayni vaqtida g‘allachilikda uchraydigan turli kasalliklar – bu zang, qorakuya yoki xasva bo‘ladimi, chigirtka balosi yoki boshqa zararkunanda hasharotlar bo‘ladimi – barchasidan kechayu kunduz ogoh bo‘lib, ularga qarshi o‘z vaqtida chora ko‘rish, har tup ko‘chat atrofida parvona bo‘lib, mehr bilan parvarish qilish hisobidan mo‘l hosil yetishtirish qancha-qancha mehnat, kuch-g‘ayrat talab qilishini, o‘laymanki, tushunish, anglash qiyin emas.

Shu borada g‘allachilik sohasida mamlakatimizda zamonaviy ilm-fan yutuqlari va xalqimizning qadimiy dehqonchilik madaniyati asosida o‘ziga xos agrotexnika maktabi shakllanib, bugungi kunda o‘zining yuksak

samarasini berayotganini alohida ta'kidlash lozim.

Barchamizga ma'lumki, bu yilgi bahorning seryog'in kelishi oqibatida namlik darajasining me'yoridan ortiq bo'lishi g'alla ko'chatlarining chirib ketish xavfini tug'dirdi. Bu xavfning oldini olish maqsadida, otabobolarimizning tajribasidan kelib chiqqan holda, g'alla ko'chatlarini mahalliy o'g'it bilan oziqlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Buning uchun jami 10 million 200 ming tonna mahalliy o'g'it to'planib, har hektar maydonga o'rtacha 9 tonnadan o'g'it berildi. Natijada nisbatan qisqa muddat – uch oy mobaynida g'allaning rivojini besh oylik darajaga yetkazib olish imkonи tug'ildi.

Ana shunday va boshqa agrotexnik tadbirlarni sifatli amalga oshirish tufayli barcha viloyatlarimiz, jumladan, namlik darajasi ayniqsa yuqori bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati g'allakorlari ham shartnomma majburiyatlarini sharaf bilan ado etishga erishdilar.

Bu borada keyingi yillarda qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, fermer xo'jaliklariga berilayotgan imtiyozli kreditlar, ularga mineral o'g'it, sifatli urug'lik, yoqilg'i-moylash materiallarini o'z vaqtida yetkazib berish bo'yicha yaratilgan kompleks tizimning samarali ishlayotgani bugungi g'alabaga puxta zamin bo'lganini ta'kidlash lozim.

Bu haqda gapirganda, hayot sinovlarida toblangan, tuproq bilan tillashib yashaydigan dehqonlarimizning azmu shijoati, ishni to'g'ri tashkil etishi hisobidan o'rtacha hosildorlik Andijon viloyatida 62,2 sentnerga, Buxoro va Farg'ona viloyatlarida 58 sentnerga, Samarqand viloyatida 55,4 sentnerga, Qashqadaryo viloyatida 55 sentnerga, Toshkent viloyatida 54 sentnerga yetganini mammuniyat bilan qayd etamiz.

Bu ko'rsatkich Oltinko'l, Paxtaobod, Izboskan, Vobkent, Peshku, G'ijduvon, Koson, Nishon, Kasbi, Uchqo'rg'on, Ishtixon, Pastdarg'om, Oltiariq, Quva, Denov, Piskent, Oqqo'rg'on, Do'stlik, Xatirchi, Boyovut tumanlarida 60-68 sentnerdan yuqori bo'lgani ayniqsa tahsinga munosibdir.

Paxtachi tumanidagi "Xushanov dalasi" va Oltiariq tumanidagi "Sojida Jo'rayeva" fermer xo'jaliklarida o'rtacha hosildorlik 97 sentnerga, Vobkent tumanidagi "Yangikent jilosi" va Ishtixon tumanidagi "Jaf" fermer xo'jaliklarida 87 sentnerga, Oltinko'l tumanidagi "Latifjon yeri" va Denov tumanidagi "Mavluda Ismoilova" fermer xo'jaliklarida 85 sentnerga, Buxoro tumanidagi "Abror G'aybulla" fermer xo'jaligida 81

sentnerga, Quyi Chirchiq tumanidagi “Akbarxon Bahodirxon” fermer xo‘jaligida 80 sentnerga yetgani dehqonchiligidan tarixida ilgari mutlaqo uchramagan yuksak ko‘rsatkich sifatida odamni hayratga solishi tabiiydir.

Eng asosiysi, yurtimizda yetishtirilgan jami hosilning 60 foizdan ko‘prog‘i, ya’ni 4 million 347 ming tonnasi fermer xo‘jaliklari va aholining ixtiyorida qoldirilgani dehqonlarning omborlari donga, ro‘zg‘orlari qut-barakaga to‘lib borayotgani, ular o‘z mehnatidan katta manfaat ko‘rayotganining yorqin dalilidir.

Tabiiyki, bularning barchasi dalada ishlaydigan odamlarning, qishloq ahlining hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilashga qaratilgan, uzoqni ko‘zlab amalga oshirayotgan ishlarimizning izchil davomi sifatida barchamizga mammuniyat bag‘ishlaydi.

Bugungi kunda fermer nafaqat dehqon, ayni paytda ham agronom, ham iqtisodchi, ham mexanizator, ham tashkilotchi sifatida o‘zligini namoyon etayotgani, fermerlik harakati qishloq hayotining og‘ir yukini o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan hal qiluvchi ijtimoiy kuch bo‘lib maydonga chiqayotgani bizning bu sohada o‘z oldimizga qo‘yan pirovard maqsad yo‘lida qat’iyat bilan borayotganimizdan dalolat beradi.

Fursatdan foydalanib, biz uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan fermerlik harakati rivojini bugun zamon talab qilayotgan yangi bosqichga ko‘tarish, uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalasi bundan buyon ham davlatimiz, jamiyatimizning doimiy e’tibor markazida bo‘lishini yana bir bor ta’kidlab aytmoqchiman.

Aziz do‘sstar!

Bugungi shodiyona kunda siz, zahmatkash g‘allakorlarni, bu ulkan yutuqqa munosib hissa qo‘shgan mexanizator va kombaynchilarni, mutaxassislarni, barcha qishloq mehnatkashlarini bag‘rimga bosib, chin qalbimdan tabriklayman. Dala ishlarini mana shunday g‘ayrat-shijoat bilan davom ettirib, paxtachilik, sabzavotchilik, chorvachilik, bog‘dorchilik va boshqa sohalar bo‘yicha ham yuksak natijalarga erishib, yilni yorug‘ yuz bilan yakunlaysiz, deb ishonaman.

Fidokorona va oljanob mehnatingiz uchun, mardlik va matonatingiz uchun o‘z nomimdan, butun xalqimiz nomidan ta’zim qilaman.

Halol mehnatingizning rohatini ko‘ring, hech qachon kam bo‘lmang, qadrdonlarim!

Xonardonlarimizdan fayzu baraka, el-yurtimizdan tinchlik-osoyishtalik arimasin!

Aziz va muqaddas Vatanimizni, zahmatkash va fidoyi xalqimizni
Yaratganimiz doimo o‘z panohida asrasin!

MUNDARIJA

«SHARQ TARONALARI» SAKKIZINCHI XALQARO MUSIQA FESTIVALINING OCHILISHIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI TABRIK SO'ZI. *2011-yil 26-avgust*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING 20 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI TABRIK SO'ZI. *2011-yil 31-avgust*

O'ZBEKISTON O'QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA. *2011-yil, 30-sentabr*

ONA VA BOLA SALOMATLIGI — OLIY SAODAT. “O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: “Sog'lom ona – sog'lom bola” mavzuidagi xalqaro simpozium ochilishidagi nutq. *2011-yil, 26-noyabr*

XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYATI KENGASHINING NAVBATDAN TASHQARI SESSIYASI. *2011-yil 30-noyabr*

BIZNING YO'LIMIZ – DEMOKRATIK ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH VA MODERNIZATSİYA JARAYONLARINI IZCHIL DAVOM ETTIRISH YO'LIDIR. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagisi ma'ruzasi. *2011-yil 7-dekabr*

O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI. *2011-yil 31-dekabr*

O'ZBEKISTON QUROLLI KUCHLARINING 20 YILLIGI MUNOSABATI BILAN VATAN HIMOYACHILARIGA BAYRAM TABRIGI. *2012-yil 14-yanvar*

2012-YIL VATANIMIZ TARAQQIYOTINI YANGI BOSQICHGA KO'TARADIGAN YIL BO'LADI. 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalişlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. *2012-yil, 19-yanvar*

RESPUBLIKA BAYNALMILAL MADANIYAT MARKAZI TASHKIL ETILGANINING 20 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI YIG'ILISH ISHTIROKCHILARIGA BAYRAM TABRIGI. *2012-yil 21-yanvar*

“O'ZBEKISTON HAVO YO'LLARI” MILLIY

AVIAKOMPANIYASI TASHKIL ETILGANINING 20 YILLIGI
MUNOSABATI BILAN AVIAKOMPANIYA JAMOASIGA BAYRAM
TABRIGI. *2012-yil 28-yanvar*

BARKAMOL AVLOD – MAMLAKATIMIZNING MUSTAHKAM
TAYANCHI. O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi
Homiylilik kengashining majlisidagi nutq. *2012-yil 10-fevral*

YUKSAK SALOHIYATLI AVLODNI TARBIYALASH – ENG
MUQADDAS MAQSAD. “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan
avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va
modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro
konferensiyaning ochilish marosimidagi nutq. *2012-yil 17-fevral*

O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARIGA BAYRAM TABRIGI. *2012-yil 7-mart*

XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT SHAHAR KENGASHINING
NAVBATDAN TASHQARI SESSIYASI. *2012-yil 16-mart*

NAVRO‘Z BAYRAMIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI
MAROSIMDAGI SO‘Z. *2012-yil 22-mart*

TARIXIY XOTIRA VA INSON OMILI — BUYUK
KELAJAGIMIZNING GAROVIDIR. Xotira va qadrlash kuni munosabati
bilan ommaviy axborot vositalari uchun berilgan intervyu. *2012-yil 9-may*

“UMID NIHOLLARI” SPORT O‘YINLARI
QATNASHCHILARIGA. *2012-yil 23-may*

XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI
KENGASHINING NAVBATDAN TASHQARI SESSIYASI. *2012-yil 15-iyun*

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI
XODIMLARIGA. *2012-yil 26-iyun*

O‘ZBEKISTON G‘ALLAKORLARIGA. *2012-yil, 13-iyul*